

# XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

---

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

---

**Muassis:**

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

## PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL  
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE  
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**2017**

**6-son**

(noyabr-dekabr)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan  
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT



TAHRIRIYAT

- 4 Tahlil va tanqid: taraqqiyot omili, kamolot mezon va tafakkur charxidir



TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

- U. Inoyatov 7 Milliy va ma'naviy qadriyatlar ilmiy-pedagogik tadqiqotlarning ahamiyatini belgilovchi omildir
- O. Jamoldinova 13 Uzluksiz ta'lim tizimiga zamonaviy yondashuvlar
- K. Muqimov 19 Nanota'lim – intellektual taraqqiyotning eng muhim shartlaridan biri sifatida
- B. Abdullayeva 24 Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishning ustuvor yo'nalishlari
- A. Meliboyev 29 Ta'lim samaradorligi jamiyat taraqqiyotining hal qiluvchi omilidir



TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

- A. Bo'stonov, M.To'xtasinov 35 Tarix fanini o'qitishda o'quvchilarda tarixiy manba va adabiyotlar bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish
- O. Berdiyeva 40 Matematika darslarida matematik tushuncha va ta'riflarni o'rgatish usullari
- S. Shomaqsudova 46 Matn turlari va so'z tuzilishi – adabiy ta'lim sifatini ta'minlashning ustuvor omilidir
- M. Hazratqulov 51 Adabiy mavzudagi insholar ustida ishlash metodikasi
- M. To'ychiyeva 57 Adabiyot darslarida pedagogik vazifalar: mazmun, mohiyat
- N. Kayumova 64 Informatika va axborot texnologiyalari fanidan to'garak tashkil etishni loyihalashtirish



TA'LIM SIFATI: MAZMUN VA MOHIYAT

- J. Kazimov 69 Korporativ yondashuv – ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlashning asosi



TA'LIMDA MONITORING

- O. Tolipov 73 Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari kasbiy pedagogik faoliyati natijalarini baholash asoslari va parametrlari



KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH

- N. Xolyigitova 81 O'quvchi-yoshlarning kasbiy motivatsiyasini shakllantirishning o'ziga xos jihatlari



MAKTABGACHA TA'LIM

- N. Abdullayeva 85 Maktabgacha ta'limning variativ tizimi sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalashning muhim shartidir
- Sh. Xudayqulova 91 Maktabgacha ta'limda bolalar so'z boyligini oshirish shakllari



## TA'LIMDA INNOVATSIYALAR

- O. Mirzag'aniyev 97 Ta'lim tizimida innovatsion modellashtirishning asosiy tasniflari
- M. Abdullayeva 102 O'quv jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati



## TA'LIMDA AXBOROT RESURSLARI

- Sh. Ergashev, A. Kolantarov 106 Axborot-kommunikatsion muhiti dasturiy tizimidan foydalanish va uni rivojlantirish istiqbollari
- S. Dottoyev 115 Ta'lim jarayonlarining zamonaviy axborot-metodik ta'minoti mazmuni va tarkibi



## PSIXOLOGIYA

- I. Rejаметова, B. Pardayev, 120 Giperfaol bolalar bilan ishlashning o'ziga xos jihatlari



## TA'LIM TARIXI

- N. Mamatxanova 124 O'zbek xalq maqollari orqali o'g'il bolalarda mardlik, vatanparvarlik fazilatlarini singdirish



## MEDIATA'LIM

- S. Babadjanov 128 Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining media-kompetentligini rivojlantirish muammosini yechish yo'llari



## ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

- Д. Шарипова, Д. Холикова 134 Основные направления работы по технологии здоровьесбережения в начальной школе
- У. Жабборов 138 Некоторые аспекты формирования иноязычной профессиональной компетенции будущих учителей английского языка

## **TAHLIL VA TANQID: TARAQQIYOT OMILI, KAMOLOT MEZONI VA TAFAKKUR CHARXIDIR**

**H**ozirda mamlakatimizning yorug' kelajagini belgilaydigan, uning kuch-qudratini ta'minlaydigan sohalar juda ko'p. Ta'lim-tarbiya sohasi, shubhasiz, ular orasida alohida ahamiyatga ega. Chunki millatimizning, xalqimizning ertangi kuni bugun voyaga yetayotgan yosh avlod taqdiri bilan uzviy bog'liqdir.

Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillaridanoq ta'lim tizimini isloh qilish masalasiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaralilib, o'g'il-qizlarimizning jahon andozalariga mos sharoitlarda bilim olishini, jismoniy va ma'naviy jihatdan yetuk insonlar bo'lib kamolga yetishini ta'minlash, qobiliyat hamda iqtidorini yuzaga chiqarish, qalbida yurtga sadoqat va fidoyilik tuyg'ularini shakllantirish borasida amalga oshirilayotgan beqiyos sa'y-harakatlar zahirida ham ana shu ezgu maqsad mujassamdir.

“Xalq ta'limi” ilmiy-metodik jurnali ham ana shunday ezgu maqsadlarni ro'yobga chiqarishda mamlakatimizda yetakchi pedagogik nashr hisoblanadi. Jurnal zamona-viy pedagogikaning dolzarb masalalarini chuqur tahlil asosida, sohaning istiqboldagi rivoji nuqtayi nazaridan yoritib kelinayotgani bilan ajralib turadi. Ayniqsa, so'nggi yillarda ilmiy tadqiqot ishlariga qo'yilayotgan talablar, ilmiy izlanishlarning amaliy ahamiyatiga jiddiy e'tibor qaratilayotgan bir davrda jurnalda e'lon qilinayotgan materiallarning mavzu jihatidan xilma-xilligini, hayotiyiligini, bir so'z bilan aytganda, “ilm – ilm uchun” emas, “ilm – amaliyot uchun” degan prinsipga tayangan holda berilayotganini kuzatish mumkin.

Sir emaski, jurnalda ilg'or o'qituvchilarning ish tajribalari berib borilishi ham diqqatga sazovordir. Shuningdek, malaka oshirish muammolari, yechimlari, pedagogika va psixologiya sohalaridagi nazariy g'oyalar, metodik yondashuvlar, ilmiy xulosalar muntazam tarzda berib borilmoqda. Bu omil mazkur tadqiqotlarni pedagogik jamoatchilik hukmiga havola etish, tavsiya etilayotgan samarali metodlarni ta'lim amaliyotiga joriy qilishda o'ziga xos ko'priq vazifasini o'taydi, ya'ni pedagogik tadqiqotlar bilan ta'lim amaliyotining mushtarakligini ta'minlashga xizmat qilib kelmoqda.

Mustaqillik yillarida globallashtirish jarayonlari, xorijiy mamlakatlarda pedagogika fani hamda ta'lim tizimining rivojlanishi bilan bog'liq konseptual-metodologik muammolar bilan bir qatorda umumiy pedagogika, uning nazariyasi va tarixi, xususiy metodika, etnopedagogika va etnopsixologiya masalalari, milliy pedagogika, milliy g'oya, mafkuraviy immunitet masalalariga oid tadqiqot natijalari respublikamiz pedagogika

---

fani mavzularining salmoqli qismini tashkil etadi. “Xalq ta’limi” ilmiy-metodik jurnali sahifalarida berib borilgan materiallar shundan darak beradi.

So‘nggi yillarda jurnal faoliyati qayta takomillashdi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. 2013-yil jurnal Xalq ta’limi vazirligi muassisligidagi davlat unitar korxonasi sifatida qayta tashkil etilib, ham shakli, ham badiiy-grafik dizaynerlik yechimlari va ayniqsa, uning saviyasi va mazmuni tobora salmoqli bo‘lib bormoqda.

Jurnalda berilayotgan materiallarni tahlil etganimizda, hali yechimini kutayotgan muammolar mavjudligi ko‘zga ko‘rinadi.

Dars va darsdan tashqari o‘quv jarayonini modernizatsiyalash, motivlashtirish, ta’lim tizimi marketingi va uning monitoringi, ta’limda sotsiologik va statistik ma’lumotlar, O‘zbekistondagi mustaqillik yillari davridagi pedagogik tadqiqotlarni o‘rganish, tahlil qilish va ularni takomillashtirish borasidagi materiallar yetarlicha talqin qilinmayotgani tahririyatning ushbu yo‘nalishlarda mualliflar bilan hamkorlikni yanada kuchaytirishini talab etadi.

Jurnalning “Ta’lim va tarbiya nazariyasi”, “Zamonaviy ta’lim texnologiyalari”, “Kasb-hunarga yo‘naltirish”, “Huquq va huquqiy tarbiya”, “Masofaviy ta’lim”, “Korreksion pedagogika” kabi qator ruknlari orqali ta’lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan pedagogik konsepsiyalar, ijtimoiy-psixologik, ilmiy-pedagogik va metodik yo‘nalishlar haqiqiy mutaxassislar nazari bilan tahlil etib kelinmoqda. Shu sababli mazkur materiallar turli fan o‘qituvchilari uchun metodik yordam, malaka oshirish vositasi, kasbiy mahoratni oshirish quroliga aylanib qoldi.

Shuningdek, jurnalning ma’no-mazmunini yanada boyitib borish, uning faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida har yili jurnalning 1-sonida mualliflar o‘rtasida eng yaxshi maqolalar tanlovi e’lon qilinib, oxirgi sonda g‘olib mualliflar qimmatbaho sovg‘a va faxriy yorliqlar bilan mukofotlanmoqda. Bu kabi tanlovlar esa, jurnalning saviyasi oshishiga hamda muallif va jurnalxon o‘rtasidagi bir ko‘prik vazifasini bajarishga xizmat qilmoqda.

Umri yosh avlodga ta’lim berishga bag‘ishlagan jonkuyar o‘qituvchi borki, albatta, pedagogika sohasida to‘plagan tajribasini, bilimlarini hamkasblari bilan o‘rtoqlashishga intiladi. Bu jarayonda eng qulay yo‘l – ilmiy-metodik nashrlarda ilmiy-tahliliy maqolalar e’lon qilib, sohadagi ilg‘or ish uslublarini ommalashtirishdir.

Hech kimga sir emas, har bir sohada o‘z-o‘zini tanqid qilish, kamchilik va nuqsonlarga murosasiz bo‘lish faoliyat takomiliga xizmat qiladi. Shu maqsadda tahririyatga kelib tushayotgan maqolalarning hammasi ham qo‘yilgan talablarga javob bera olmayapti.

Shu o‘rinda ilmiy maqolaning g‘oyasi, dolzarbligi va tuzilishi tizimga oid muammolarning yechimi qanday bo‘lishi zarurligi haqida to‘xtalib o‘tish foydadan holi emas.

Pedagoglar ish faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan maqolalarning tuzilishi, g‘oyaviy mazmuni va qanday maqsadlarga xizmat qilishi muhim o‘rin tutadi. Har bir ilmiy-tahliliy maqolada pedagogikaga oid dolzarb muammolarning qo‘yilishi va atroflicha tahlil qilinishi talab etiladi. Shu bois ilmiy maqola aniq tuzilishga ega va quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo‘lishi kerak:

Maqolaning nomi (sarlavha qo‘yishini); annotatsiya (o‘zbek, rus va ingliz tillarida); kalit so‘zlar (o‘zbek, rus va ingliz tillarida); kirish; mavzuga oid adabiyotlar tahlili;

asosiy qism (metodologiya, natijalar); xulosalar va tadqiqotning kelajakdagi vazifasi, qimmatini, foydasi; foydalanilgan va tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati.

Maqolalarning tahlili va tahriri shuni ko'rsatadiki, aksariyat hollarda maqolaning kirish qismiga urg'u berilib, asosiy maqsadini yoritishga e'tibor qaratilmaydi. Yoki kirish qismi bayon etilmasdan to'g'ridan-to'g'ri maqolaning maqsadi yoritiladi. Natijada maqola chop etish talablariga javob bermaydi.

Shuning uchun maqolaning kirish qismida asosiy e'tiborni bugungi kunda ta'lim tizimiga oid dolzarb masalalarga qaratish hamda mavzuga oid manbalardan iqtiboslar keltirish maqsadga muvofiqdir. Har bir maqolada mavzudan kelib chiqib, ta'lim tizimiga oid yangilik yoki o'qitishning zamonaviy metodologik uslublari bayon qilinishi kerak. Bu ilmiy ishning yanada sermazmun bo'lishini ta'minlaydi.

Maqolada ko'tarilgan muammo va masalalarga qiziqqan o'quvchi mavzuga oid adabiyotlarni topish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Agar o'quvchi zarur adabiyotlarni topa olmasa, ilmiy maqolaga nisbatan ishonchi yo'qolishi mumkin.

Albatta, mavjud tajribalarning barchasi uzluksiz takomillashib, taraqqiy etib bormas ekan, o'z qadr-qimmatini yo'qotadi. Bu bevosita jurnal nashrlariga ham taalluqli.

Pedagogik jurnallar ilmiy-metodik mazmuni, bezatilishi, yangiliklarga “labbay” deb javob bera olishi bilan jurnalxonlarni o'ziga jalb etishi, ular uchun yaqin ko'makchi, kundalik ehtiyojga aylanishi, o'qituvchi o'z ishini rejalashtirishda, kundalik darslarga tayyorlanayotganida jurnal sahifalaridan o'zi uchun zarur metodik yordam va yo'l-yo'riqlar ola bilishi lozim. Nazarimizda, “Xalq ta'limi” ilmiy-metodik jurnalining tobora yangi tusga ega bo'lib borayotgani, sahifasi va hajmining muayyan darajada oshgani uning muhim yutuqlaridan biri bo'lsa kerak, deb o'ylaymiz.

Qayd etish lozimki, jurnal qaysi yillarda qanday nomlar bilan nashr etilgan bo'lmasin, uning bosh vazifasi – xalq ta'limini boshqarishni takomillashtirish, ta'lim-tarbiya nazariyasi va amaliyotini targ'ib qilish, ilg'or pedagogik tajriba va uslublarni omalashtirish, o'qituvchi-murabbiylarga ilmiy-amaliy jihatdan ko'maklashishdan iborat bo'ldi. Shuning uchun ham u jurnalxonlar tomonidan “otaxon jurnal” va “sevimli jurnal” deb ardoqlanib tilga olinmoqda.

Hurmatli jurnalxonlar, xalq ta'limi tizimida faoliyat yuritayotgan, ilmiy izlanishlar olib borayotgan hamkasblar! Sizlardan jurnalimizning kelgusi sonlari uchun dolzarb ilmiy-metodik maqolalarni kutib qolamiz.

**Ulug'bek INOYATOV,**

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri,  
pedagogika fanlari doktori, professor

## MILLIY VA MA'NAVIY QADRIYATLAR ILMIY-PEDAGOGIK TADQIQOTLARNING AHAMIYATINI BELGILOVCHI OMILDIR

### Annotatsiya

Maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitiladigan ijtimoiy-gumanitar fanlarning ta'lim jarayonida tutgan o'rni va ahamiyati yoritilgan. Muallif fanlarning talab darajasida o'qitilishi barcha til va adabiyotni o'qitishning sifat va samaradorligini ta'minlash, o'quvchilarning chet tillarini o'rganishga bo'lgan qiziqishini orttirishga xizmat qilishini ta'kidlab o'tgan. Xususan, maqolada ona tili va adabiyoti, rus tili hamda xorijiy tillarni, adabiyotini o'qitishni zamon talabiga hamohang tashkil etilishi, mavjud muammolarni bartaraf etish ertangi istiqboldagi yutuqlarimiz kafolati ekanligi ochib berilgan.

**Kalit so'zlar.** Davlat ta'lim standarti, ijtimoiy-gumanitar fanlar, ta'lim sifati, mezon, fanning fundamental asoslari, innovatsiya, kompetensiya, kommunikatsiya, savodxonlik, xorijiy tillar, kitob mutolaasi, kitob mahsuloti, hamkorlik, kitobxonlik madaniyati.

В статье раскрывается роль и значение в образовательных процессах предметов филологии, изучаемых в средних общеобразовательных учреждениях. Обучение филологии на должном уровне служит обеспечению качества и эффективности изучения всех языков и литературы, повышению заинтересованности учеников в изучении иностранных языков.

Автор отмечает, что, организация обучению родному языку и литературе, русскому и иностранному языкам, на уровне современных требований, устранение существующих проблем является гарантией наших будущих достижений.

**Ключевые слова.** Государственный образовательный стандарт, общественно-гуманитарные дисциплины, качество образования, критерия, основы фундаментальных наук, инновация, компетенция, коммуникация, грамотность, иностранные языки, книжная продукция, сотрудничество, культура чтения.

Article highlights the place and importance in educational processes of subjects of Philology taught in secondary general educational institutions. Teaching of philology at the proper level serves to ensure the quality and effectiveness of teaching all languages and literature to increase students' interest in learning foreign languages. The author points that the organization of teaching the native language and literature, Russian and foreign languages, at the level of modern requirements, the elimination of existing problems is a guarantee of our future successes.

**Key words.** State educational standards, social and humanitarian disciplines, quality of education, criteria, the fundamentals of basic sciences, innovation, competence, communication, literacy, foreign languages, book production, cooperation, reading culture.

**T**a'lim va tarbiya masalasi barcha davrlarda eng dolzarb, ertangi taqdirimizni hal qiluvchi vazifalardan biri bo'lib kelgan. Chunki mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga hissa qo'shadigan yuqori malakali, yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlash bevosita ta'lim tizimining va unda muhim o'rin tutgan milliy va ma'naviy qadriyatlarning rivojiga bog'liq. Shu bois Vatanga, xalqiga sadoqatli, mustaqil fikrlaydigan, ijodkor shaxsni voyaga yetkazish bugungi kunda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib turibdi.

Har bir xalqning taraqqiyotida, o'zga xalqlar bilan yaqin munosabat o'rnatishida xorijiy tillarni mukammal bilish muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, umumiy o'rta ta'lim tizimida yetakchi o'quv fanlaridan hisoblangan ona tilining maqsadi, mazmuni va usuli hamisha jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq bo'lib kelgan.

Ona tili – milliy ma'naviyat va qadriyatlarning ulkan xazinasi, millat tafakkurini yuksaltiruvchi eng asosiy vosita ekanligi shu soha mutaxassislari va mutasaddilari zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklaydi. Zero, Davlat ta'lim standartida qayd etilganidek, “ona tili fanini o'qitishning asosiy maqsadi – o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o'zgarlar fikrini anglaydigan — muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iborat”.<sup>1</sup> Shunday ekan, ona tili darslarida o'quvchilarni matn yaratishga o'rgatish orqali ularda og'zaki va yozma nutq madaniyatini shakllantirish, savodxonligini oshirish ushbu fanning bosh maqsadi hisoblanadi.

Taraqqiyot bor joyda yangi bilim va yangicha yondashuvlarga ehtiyoj sezilishi tabiiy. Shu bois ona tili va adabiyot, rus tili hamda xorijiy tillarni, adabiyotini o'qitishni ham zamon talabiga hamohang tashkil etish, mavjud muammolarni bartaraf etish ertangi istiqboldagi yutuqlarimiz kafolatidir.

Yosh avlodni komil va yetuk shaxs sifatida tarbiyalashda barcha turdagi ta'lim muassasalarida ona tili mazmuni Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda takomillashtirildi. Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan sinflarda esa davlat tili sifatida o'zbek tilini uzluksiz o'rgatish yo'lga qo'yildi. Umumta'lim maktablarining 5–9-sinflari uchun “Ona tili” va “Adabiyot”, ta'lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning 2–9-sinflari uchun “O'zbek tili” darsliklarining yangi avlodi yaratilib, ulardan Vatanimiz tarixi, buguni va kelajagini yorituvchi o'quv materiallari o'rin oldi. Adabiyot darsliklarining mazmun-mohiyati tubdan o'zgardi, hozirgi Adabiyot darsliklari o'zbek xalq og'zaki ijodi, o'zbek mumtoz adabiyoti, hozirgi zamon adabiyoti va jahon adabiyoti mashhur namoyandalarning o'quvchilar ma'naviyatining yuksalishiga, shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladigan sara asarlari bilan boyitildi.

Mamlakatimizda bag'rikenglik tamoyillariga qat'iy amal qilinadi. Yurtimizda istiqomat qilayotgan barcha millat va elatlarning ta'lim olish imkoniyatlari huquqiy jihatdan ta'minlangan. Hozirda respublikamizda ta'lim jarayoni o'zbek, qoraqalpoq, rus, tojik, qozoq, turkman va qirg'iz tillarida olib borilmoqda: 9680 ta umumiy o'rta ta'lim maktablaridan 836 tasida ta'lim rus tilida, 363 tasida qoraqalpoq tilida, 380 tasida qozoq tilida, 247 tasida tojik tilida, 56 tasida qirg'iz tilida va 44 tasida turkman tilida

1. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son qaroriga 3-ilova. Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining umumta'lim fanlari bo'yicha malaka talablari. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 14-son, 230-modda.



---

olib boriladi. Ta'lim qardosh tillarda olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya samaradorligini ko'tarish, o'qitish mazmunini takomillashtirish va yangilash borasida muayyan ishlar amalga oshirilgan.

Ta'lim qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning barcha sinflari uchun "Ona tili" va "Adabiyot" darsliklari mahalliy mualliflar bilan hamkorlikda yaratildi. Darsliklarga O'zbekistonda yashab, qardosh tillarda ijod qilgan yozuvchi-shoirlarning asarlaridan namunalari kiritildi. Shuningdek, o'zbek adabiyoti, qardosh xalqlar adabiyoti hamda jahon adabiyoti namunalari misolida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlikda singdirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Ta'kidlash joizki, ta'lim qardosh tillarda olib boriladigan maktablar uchun til va adabiyot o'quv fanlari darsliklari bilan bir qatorda boshqa barcha fanlardan yaratilgan yangi mazmundagi darsliklar ham ta'lim tillari bo'yicha tarjima qilinib, qardosh tillardagi maktablar to'liq ta'minlanib kelinmoqda. Tarjima jarayonida o'sha millatning tarixi, madaniyati, milliy qadriyatlari haqidagi ma'lumotlar ma'lum darajada singdirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida umumta'lim maktablarining 1-sinfidan boshlab chet, xususan, ingliz, nemis va fransuz tillarini o'qitish yo'lga qo'yildi.

Shu asosda Vazirlar Mahkamasi tomonidan uzluksiz ta'lim tizimining Davlat ta'lim standarti tasdiqlanib, unga muvofiq chet (ingliz, nemis va fransuz) tili fanlaridan o'quv dasturlari ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi.

Davlat ta'lim standarti, o'quv dasturlari asosidagi darsliklarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish bo'yicha xalqaro ekspertlar ishtirokida muntazam ravishda ilmiy-amaliy seminar, trening mashg'ulotlari o'tkazib kelinmoqda. Mualliflar uchun har o'quv yilida darslik majmualarni yaratish bo'yicha seminar-trening tashkil etiladi. Bunda mualliflar tomonidan yaratilib, tajriba-sinovga taqdim etilgan darsliklar chuqur tahlil qilinadi. Ularning ilmiy va metodik jihatlari o'rganiladi. Shu asosda darsliklar xalqaro standart darajasiga javob beradigan holga keltiriladi.

Hozirda respublikamizning har bir hududida iqtidorli va tajribali xorijiy til o'qituvchilar guruhi shakllantirilib, ularni trenerlikka tayyorlash loyihalari muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishda aniq yo'nalishni belgilab beradigan darsliklarni yaratishda ko'p yillik pedagogik tajribaga ega, maktab hayoti, o'quvchi dunyoqarashi hamda qiziqishlari bilan yaqindan tanish, metodik va ilmiylik jihatdan yetarlicha bilimli bo'lgan mutaxassislardan iborat mahalliy mualliflar guruhlarini shakllantirildi. Mualliflar shu kunga qadar ingliz, nemis va fransuz tili fanlaridan 1-sinfidan to 5-singfgacha hamda 10-sinflar uchun darsliklarni yaratishdi. Mazkur darsliklar respublikaning barcha hududlarida belgilangan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tajriba-sinovdan o'tkazilib, olim, metodist, psixolog, o'qituvchi va o'quvchilardan olingan xulosalar asosida takomillashtirilib, ta'lim jarayoniga tatbiq etilmoqda. Ushbu darsliklar mashq daftari, o'qituvchi metodik qo'llanmasi va multimedia ilovasini o'z ichiga olgan. Ularning har biridan samarali foydalanish o'qituvchilarimiz uchun eng katta yordam hisoblanadi.

Ma'lumki, fan va texnika jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ko'plab ilmiy bilimlar, tushuncha va tasavvurlar hajmi keskin ortib bormoqda. Bu, bir

tomondan, fan-texnikaning yangi soha va bo'limlarining taraqqiy etishi tufayli uning differensiallashuvini ta'minlayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, fanlar orasida integratsiya jarayonini vujudga keltirmoqda.

Bunday sharoitda, yuqori malakali pedagoglarga bo'lgan talablar ortib borib, barkamol avlodni asrlar davomida shakllanib kelgan umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash layoqatiga ega, fanning fundamental asoslarini, pedagogika va psixologiya metodlarini mukammal egallagan, kasbiy tayyorgarligi yuksak darajada bo'lgan hamda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini amaliyotda qo'llash ko'nikma va malakasiga ega ijodkor pedagoglarni tayyorlash talab etiladi.

Hozirgi vaqtda ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik innovatsiyalarni keng ko'lamda qo'llash jahon taraqqiyotining global tendensiyasi hisoblanadi. Pedagogik innovatsiyalar ko'lamining ortib borishi, mamlakatda modernizatsiya jarayoni tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan ayni davrda ta'lim sohasiga yangiliklarni tizimli ravishda kiritishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ammo ko'plab pedagogik innovatsiyalarning yaratilayotganiga qaramay, ta'lim jarayonlariga o'qitishning yangi mazmun, shakl, metod va vositalarini tatbiq etish bo'yicha pedagogik tadqiqotlarni joriy etish darajasini hozircha yetarli deb bo'lmaydi.

Darhaqiqat, yangilangan ta'lim tizimini joriy etishda har bir o'qituvchining o'z faniga va barkamol avlod ta'lim-tarbiyasiga oid yangiliklarni muntazam o'rgana borib, ularni o'z mehnat faoliyatida izchil qo'llay bilish mahoratiga ega bo'lishi bugungi kunning muhim talabidir.

Bugun fan va texnika sohasidagi yangiliklarni o'quv dasturlari mazmuniga tez kiritish talab etiladi va bu orqali zamonaviy bilimlarni shakllantirishga zamin hozirlanadi. Bundan tashqari zamonaviy o'qitish texnologiyalari, ular bilan bog'liq metodik yondashuvlar bo'lajak o'qituvchilarda zaruriy bilimlar, muhim qonuniyatlar, ko'plab fundamental tushunchalarni nisbatan yengil, chuqur va mustahkam shakllantirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Til va ta'limning sifat va samaradorligini ta'minlashda filologiya fanlardan dars berayotgan o'qituvchilarning bilim va kasbiy mahoratlarini bugungi zamon talablariga javob beradigan darajada ta'minlamasdan turib amalga oshirib bo'lmaydi. Avvalo, ularni mavjud o'quv-laboratoriya va texnika jihozlaridan dars jarayonida oqilona foydalanishi, tashkil etilayotgan amaliy laboratoriya mashg'ulotlarining samaradorligini ta'minlay olishiga erishishimiz talab etiladi.

Har bir mavzuni o'quvchiga yuqori darajada o'zlashtirish uchun yordam beradigan ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda o'tilishini ta'minlash lozim.

Filologiya fanlarini o'qitishda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limni amaliyotga joriy etish, o'quvchilarda egallagan bilimlarini hayotda qo'llay olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanagan holda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalari rivojlantirish ko'zlangan asosiy ustuvor yo'nalishlardan biridir.

Zero, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda tayanch kompetensiyalar, jumladan, kommunikativ, axborotlar bilan ishlash, o'zini o'zi rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, milliy va umummadaniy, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyalarini tarkib toptirishi muhim ahamiyatga egadir.

---

O'quvchi-yoshlar o'rtasida kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish ustuvor vazifaga aylangan. Chunki til va adabiyot o'qituvchisining eng asosiy va dolzarb vazifalaridan biri ham shu. Bugungi kunda umumta'lim muassasalari kutubxonalari badiiy adabiyotlar bilan to'liq ta'minlanayotgan bo'lsa-da, o'quvchilarning kitob o'qishga qiziqishini talab darajasida emasligiga guvoh bo'lish mumkin. Bolaga kitob o'qitish uchun o'qituvchining o'zi o'rnak bo'lishi kerak.

Mamlakatimiz Prezidentining 2017-yil 12-yanvardagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi Farmoyishi asosida o'quvchilar o'rtasida kitob o'qish madaniyatini yanada yuksaltirish borasida rejali tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, umumta'lim maktablarida "Kitobxonlar bayrami" turkum tadbirlari, "Adabiyot kunlari" tadbirlari yuqori saviyada o'tkazildi. "Navoiyxonlik" oyligi va "Boburxonlik" haftaligi tashkil etildi. "Mushoira kechalari", "G'azalxonlik bellashuvi" va "Men sevgan badiiy qahramon" mavzularida davra suhbatlari, "Bir farzandga – uch kitob" aksiyalari o'tkazildi. O'quvchilar o'rtasida o'zaro raqobat muhitini yaratish va ularni kitob mutolaasiga rag'batlantirish maqsadida "Eng yaxshi kitobxon o'quvchi" va "Kitobxon maktab" tanlovlari joriy qilindi.

Ta'lim sohasida yuqorida aytib o'tilgan keng ko'lamli ijobiy ishlar bilan bir qatorda yechimini kutayotgan muammolar ham ko'zga tashlanadi. Bular:

birinchidan, ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan maktablardagi o'quvchilar rus va xorijiy tillarda o'zaro muloqotga kirisha olmaydi;

ikkinchidan, ona tili va adabiyoti, rus tili, chet tillari va qardosh tillardan dars berayotgan o'qituvchilarning barchasi ham o'z fanidan yetarli darajadagi bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarga ega emas. Ularning malakasini oshirishda alternativ usullarni qo'llash, o'z ustlarida tinimsiz izlanishlarini yo'lga qo'yish zarur;

uchinchidan, respublika miqyosida turli mavzularda insholar ko'rik-tanlovi, "Fan oyliklari", fan olimpiadalari, "Bilimlar bellashuvi" va boshqa ko'plab tadbirlar o'tkazilishiga, ta'lim muassasalaridagi ilg'or tajribalarni ommalashtirish maqsadida tashkil qilingan videodarlar, multimedia vositalarining yaratilishiga qaramay, o'z fikrini yozma ravishda belgilangan talablar darajasida bayon eta olmaydigan, o'zbek tilining imlo qoidalarini yaxshi bilmaydigan o'quvchilar uchrab turibdi;

to'rtinchidan, umumta'lim maktablari kutubxonalari badiiy adabiyotlar bilan ta'minlanayotgani holda o'quvchilarning kitob o'qishga qiziqishi talab darajasida emas. Bolaga kitob o'qitish uchun, eng avvalo, o'qituvchining o'zi o'rnak bo'lishi kerak;

beshinchidan, chet tili fanlaridan yaratilayotgan darsliklar (darslik, o'qituvchi metodik qo'llanmasi, mashq daftari va multimedia ilovasi) va ajratilayotgan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan maqsadli foydalanishda loqaydlikka yo'l qo'yish holatlari uchrab turibdi;

oltinchidan, Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sonli qarori bilan tasdiqlangan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlarining mazmun-mohiyati mutasaddilar va ta'lim muassasalari rahbar kadrlari hamda fan o'qituvchilari tomonidan to'liq tushunib yetilmaganligi bois, ta'lim jarayonida kom-

petensiyaviy yondashuvga asoslangan yangi bosqichga o'tishda bo'shliqlar yuzaga kelmoqda;

ettinchidan, 2007-yilgacha ta'lim qardosh tillarda olib boriladigan maktablarda “Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi” Respublika ko'rik-tanlovi o'tkazib kelingan. Keyingi yillarda ushbu ko'rik-tanlov o'tkazilmayapti. Ko'rik-tanlovni qaytadan tashkil etish orqali qardosh tillar o'qituvchilari orasidan iste'dodli va iqtidorlilari aniqlanadi hamda ularni qo'llab-quvvatlash orqali qardosh tillar o'qitilishining sifat va samaradorligi oshiriladi;

sakkizinchidan, ta'lim qozoq, qirg'iz, tojik va turkman tillarda olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun yaratiladigan original va tarjima darsliklariga qo'shimcha metodik qo'llanma chop etilmaydi. Qardosh tillar uchun original darsliklarning metodik qo'llanmalarini yaratish, tarjima darsliklariga yaratilgan metodik qo'llanmalarni qardosh tillarga tarjima qilish lozim. Qirg'iz va turkman tili o'qituvchilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslari faoliyatini tashkil etish zarur;

to'qqizinchidan, o'quvchilarning yozma va og'zaki savodxonligini ta'minlash, lug'at zaxirasini boyitish maqsadida mavjud lug'atlarni takomillashtirish, bir tillik izohli, ikki va bir necha tillik tarjima, rasmi, audio lug'atlar yaratish va chop etishni tashkil etish;

o'ninchidan, ta'lim o'zbek tilida va qardosh tillarda olib borilayotgan maktablarda rus tilining o'qitilishi sifati pasayib ketayotganligi sababli, ushbu fan o'qituvchilarining malakasini oshirish va fanning sifat va samaradorligiga erishishga qaratilgan qator chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Bu kabi vazifalarni bajarish o'quvchilarda ona tili va xorijiy tillarni chuqur o'zlashtirishga, milliy va ma'naviy qadriyatlarini egallashga, adabiyotga mehrlilik, kitobxonlik madaniyati shakllangan, fikrlash qobiliyati teran, og'zaki va yozma nutqi ravon, har qanday yangi bilimni tez, puxta va chuqur o'zlashtirib olish, tahlil etish salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. *“Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz”*. 1-jild. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 592 b.

2. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentyabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi” to'g'risidagi PQ-3271-son qarori*. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 38-son, 1029-modda.

3. *Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son qaroriga 3-ilova*. Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining umumta'lim fanlari bo'yicha malaka talablari. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 14-son, 230-modda.

---

**Odinaxon JAMOLDINOVA,**  
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi  
Qonunchilik palatasi deputati,  
pedagogika fanlari doktori

## UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

### Annotatsiya

Maqola mamlakatimizni barqaror rivojlantirish va modernizatsiyalash sharoitlarida ta'lim tizimining isloh qilinishi masalalariga bag'ishlangan. Shuningdek, muallif ta'lim tizimini sifat va samaradorligini oshirishda islohotlarning ahamiyatini ko'rsatib o'tgan.

**Kalit so'zlar.** Ta'lim tizimi, uzluksiz ta'lim, modernizatsiya, kasbiy faoliyat, raqobatbardosh, sifat, samaradorlik, intellektual salohiyat, barkamol avlod.

Статья посвящена вопросам реформирования системы образования в условиях устойчивого развития и модернизации нашей страны. Автор указывает на значение реформ для повышения качества и эффективности системы образования.

**Ключевые слова.** Система образования, непрерывное образование, модернизация, профессиональная деятельность, конкурентоспособность, качество, эффективность, интеллектуальный потенциал, гармоничное поколение.

Article is devoted to the issues of reforming the education system in conditions of sustainable development and modernization of our country. Also, the author points to the importance of reforms to improve the quality and effectiveness of the education system.

**Key words.** Education systems, continuous education, modernization, professional activity, competitiveness, quality, efficiency, intellectual potential, a harmonious generation.

**H**ar bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma'naviy hayot darajasining yuksalishi ta'lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni asosida ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish, intellektual salohiyatli, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, aniq fanlarni chuqurlashtirib o'qitish va iqtisodiyotning turli sohalari uchun malakali kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalar sifatida qayd etildi.

“Ana shu islohotlarning muvaffaqiyati, mamlakatimizning dunyodagi rivojlangan, zamonaviy davlatlar qatoridan munosib o‘rin egallashi, avvalo, ilm-fan va ta'lim-tarbiya sohasining rivoji bilan, bu borada bizning dunyo miqyosida raqobatdosh bo‘la olishimiz bilan uzviy bog‘liq”, – deb ta'kidladi davlatimiz rahbari O‘zbekiston o‘qituvchi va murabbiylariga yo‘llagan tabrigida. Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining bevosita ta'lim-tarbiya sohasiga

daxldor bo'lgan 70 dan ortiq farmoni, qaror va farmoyishining qabul qilinganligi islohotlarning asosi huquqiy-me'yoriy jihatdan mustahkamlanayotganligini ko'rsatadi.

Qabul qilgan qaror va farmonlarda fan-ta'limga investitsiyalarni kiritish, ularning mazmuni, boshqaruv tizimi va tuzilmasini qayta ko'rib chiqish, iqtisodiyotning turli sohalari uchun raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, umuman olganda, bugungi davr talabiga javob bera oladigan tizimni yaratish ko'zda tutildi. Natijada umumiy o'rta ta'lim sohasida 11 yillik tizimga o'tilishi, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning optimallashtirilishi, 5 ta yangi oliy ta'lim muassasasi va fillialarning tashkil etilishi, 16 ta universitet va institutda 12 ta yo'nalish bo'yicha kechki va sirtqi bo'limlarning ochilishi, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ining kengaytirilishi, nodavlat ta'lim xizmatini ko'rsatish, pedagog kadrlar va xalq ta'limi xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish tizimining takomillashtirilishi ta'lim tizimida jiddiy o'zgarishlarga olib keldi. Jumladan:

- maktabgacha ta'lim tizimi yanada takomillashtirildi;
- nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimi isloh qilindi;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimi qayta ko'rib chiqildi;
- oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish choralari kuchaytirildi;
- oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning ikki pog'onali tizimi joriy etildi.

Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanib, u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin tahlillar shuni ko'rsatdiki, oxirgi yillarda turli omillar ta'sirida maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash borasida rivojlanish o'rniga, orqaga ketish holatlari, yil davomida maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olish ko'rsatkichlari o'sishi tendensiyasi kuzatilmadi. Aksincha, so'nggi 20 yil davomida davlat tasarrufidagi maktabgacha ta'lim muassasalari soni 45 foizdan ziyodroq kamayib, bugungi kunda respublika bo'yicha bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi 30 foizni tashkil etdi. Bunga mavjud maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi zamonaviy talablarga javob bermasligi, bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha muqobil shakllarning ishlab chiqilmaganligi, rivojlangan mamlakatlarning tajribasi yetarli darajada o'rganilmaganligi, faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning aksariyati oliy ma'lumotli emasligi, ta'lim sifati monitoringi yuritilmaganligi kabi omillar sabab bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat mustaqilligining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida: “Maqsadimiz kelgusi 3-4 yilda mamlakatimizdagi bog'cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga to'liq qamrab olishdan iborat va biz bunga albatta erishamiz”, – deya fikr bildirib, maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirishga qaratilgan dastur tayyorlanayotganligini alohida ta'kidlagan edi. Oradan ko'p o'tmay, 2016-yilning 29-dekabrida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2707-sonli qarorining qabul qilinishi hamda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha 2017-2021-yillarga mo'ljallangan dasturning tasdiqlanishi tom ma'noda maktabgacha ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'tarilishiga zamin yaratdi.

Ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish; maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan

---

zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish; maktabgacha ta'lim muassasalarida 5-6 yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash bo'yicha 6100 ta qisqa muddatli guruhni tashkil etish; zamonaviy pedagogik texnologiyalar va uslublarni inobatga olgan holda maktabgacha ta'lim muassasalariga pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishning o'quv reja va dasturlarini takomillashtirish; 2200 ta maktabgacha ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, shu jumladan, qishloq joylarda maktabgacha ta'lim muassasalarini yangidan qurish, ularni zamonaviy talablarga javob beradigan o'quv jihozlari, o'quv-metodik qo'llanmalar va multimedialiy vositalar bilan ta'minlash dasturning maqsadli vazifalari va yo'nalishlari etib belgilandi.

“Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”-gi PQ-3261-sonli qarorda esa (09.09.2017) respublikada maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha “Yo'l xaritasi” tasdiqlandi. “Yo'l xaritasi”da qisqa davr mobaynida maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish va maktabgacha ta'lim muassasalarini malakali kadrlar bilan to'ldirish hamda davlat maktabgacha ta'lim muassasalarining infratuzilmasi va moddiy-texnik ta'minotini yaxshilash yo'nalishlari belgilanganligi alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni hamda “O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi (30.09.2017) qarorining qabul qilinishi bilan “Yo'l xaritasi”da dastlabki qadamlaridan biri sifatida belgilangan maktabgacha ta'lim muassasalarini nazorat qilish va boshqarish bo'yicha mustaqil organ yaratish orqali maktabgacha ta'lim sohasida davlat siyosati va boshqaruv tizimini takomillashtirish vazifasi hal etildi va bu sohada yangi tizim barpo etildi. Quyidagilar vazirlikning asosiy vazifalari etib belgilandi:

- maktabgacha ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

- respublikada davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari orasida sog'lom raqobat muhitini yaratish hisobiga barcha bolalarning maktabgacha ta'lim muassasalariga bosqichma-bosqich qamrab olinishini ta'minlash, ularga soliq imtiyozlari va preferensiyalar berish, byudjetdan subsidiyalar ajratish, shuningdek, bolalarning maktabgacha ta'limi va tarbiyasining muqobil shakllarini amaliyotga tatbiq etish;

- zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni, ta'lim va tarbiyaning samarali shakllari hamda usullarini ta'lim-tarbiya jarayoniga, shu jumladan, nodavlat sektorida joriy etish;

- milliy madaniy-tarixiy qadriyatlarini aks ettiruvchi va bolalikdan kitob o'qishga qiziqishni uyg'otuvchi o'quv-metodik, didaktik materiallar, o'yin va o'yinchoqlar, badiiy adabiyotlar bilan maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'minlash;

- zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlarni hisobga olgan holda bolalarni tarbiyalash va har tomonlama rivojlantirish masalalarini yuqori darajada hal etishga qodir bo'lgan maktabgacha ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

- maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlarini moddiy rag'batlantirish tizimini yaratish va tajribali, yuqori malakali va kasbiy jihatdan puxta tayyorlangan pedagog kadrlar hamda tarbiyachilarni ta'lim-tarbiya jarayoniga jalb qilish;

– maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining ratsional va belgilangan me'yorlar asosida sog'lom va to'g'ri ovqatlanishini ta'minlash uchun munosib sharoitlar yaratish, ko'ngilochar va bilim beruvchi mashg'ulotlar elementlari bo'lgan, hajmlari va intensivligi asosiy tibbiy taqdimnomalar bilan belgilanuvchi serharakat o'yinlar va mashqlar uyushtirish.

Mazkur vazifalarni bajarishda ta'lim sohasida raqobat muhitini shakllantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarning sifatli ta'lim olishini ta'minlash talab etiladi.

“Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3276-sonli (15.09.2017) qarori nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish, ta'limning yuqori sifatini ta'minlashda davlat va nodavlat ta'lim muassasalari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini yaratish, nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish sohasidagi yuridik shaxslar uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga xizmat qiladi.

Afsuski, bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan tarbiyachi-pedagoglarning katta qismi talabga javob bermaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta'lim muassasalarida pedagogika yo'nalishida maxsus sirtqi bo'limlarni tashkil etish to'g'risida”gi PQ-3183-son qarori (9.08.2017) bilan bu kabi dolzarb muammo o'z yechimini topdi.

2017-2018-o'quv yilidan boshlab pedagogik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalarida maxsus sirtqi bo'limlarning tashkil etilganligi, 2018–2023-yillarda mazkur yo'nalish uchun kvotalar ajratish masalasiga davlat tomonidan alohida e'tibor qaratilishi maktabgacha ta'lim tizimini oliy ma'lumotli kadrlar bilan ta'minlash, tizimda yuqori sifat va samaradorlikka erishish imkonini beradi.

O'quvchilarning ijtimoiy-gumanitar, aniq va tabiiy fanlar asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlari, ularni chuqur o'zlashtirishlari, asosiy o'quv-ilmiiy va umummadaniy bilimlarni, ma'naviy-axloqiy fazilatlarini egallashlari, atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lish va kelajakdagi kasbini tanlashida umumiy o'rta ta'lim tizimi muhim bosqich sanaladi.

Ota-onalar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma tahlillari natijalari asosida umumiy o'rta ta'lim tizimida 11 yillik ta'limning joriy etilishi nafaqat pedagogik-psixologik, balki ijtimoiy, iqtisodiy nuqtayi nazardan ham eng to'g'ri qaror bo'lganligini ta'kidlash lozim. Zero, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning ta'lim olish bilan bir qatorda ular uchun kasbiy ta'limning ham joriy etilishi ularni mustaqil hayotga tayyorlashda poydevor vazifasini o'taydi.

Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning fanlardan chuqur va puxta bilimlarni o'zlashtirishini ta'minlash maqsadida:

- umumta'lim maktablarini malakali kadrlar bilan ta'minlash;
- pedagog va mutaxassislarning malakasini oshirish, malaka darajasini yuksaltirish, ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirish;
- ta'limga innovatsion texnologiyalarni joriy etish;
- ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash;
- zamonaviy o'quv va laboratoriya asboblari, kutubxonalar, kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalari bilan jihozlash;
- darsliklarning yangi avlodini yaratish bo'yicha tizimli ishlarni davom ettirish talab etiladi.

Ayniqsa, o'quvchilarning qiziqishi, iqtidorini qo'llab-ko'vvatlash va ro'yobga chiqarishda ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarining tashkil etilishi, ularning tayanch o'quv



---

rejarini ishlab chiqilishi, innovatsion laboratoriyalarning tashkil etilishi alohida ahamiyatga ega.

Shu o'ringa ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishiga oid fanlarni chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktabni tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3274-sonli (14.09.2017) hamda "Mirzo Ulug'bek nomidagi ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktab-internatini va "Astronomiya va aeronavtika" bog'ini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3275-sonli qarorlari kelgusida tabiiy va aniq fanlarning rivojlanishi, iqtidorli yoshlar orasidan ushbu sohaning malakali kadrlari yetishib chiqishi, iqtidorli yoshlarning milliy va umumjahon ilm-fanining yangi yutuqlarini o'rganish va o'zlashtirishga bo'lgan intilishini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish imkonini beradi.

Ta'lim muassasalari o'rtasidagi integratsiyaning ta'minlanganligi o'quvchilarning fanlardan olgan bilimlarini muntazam rivojlantirib borishiga zamin yaratadi. Ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lim maktablarida tahsil olayotgan o'quvchilar oliy ta'lim muassasalari huzuridagi akademik litseylarda o'qishni davom ettirishi natijasida zarur va yetarli bo'lgan, chuqurlashtirilgan nazariy va kasbiy tayyorgarlikka erishadi.

"Oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni maqsadli tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3290-sonli qarorida ko'zda tutilgan yuqori ilmiy va pedagogik salohiyatga, yetarli moddiy-texnika bazasiga ega bo'lgan 68 ta akademik litseyning oliy ta'lim muassasalari tasarrufiga berilishi eng bilimli, qobiliyatli va iqtidorli o'quvchilarni tanlab olish, oliy ta'lim muassasalariga kirishga maqsadli tayyorlashning zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqilishiga asos bo'lishi tabiiy. Qarorga ko'ra akademik litsey o'quvchilarining belgilangan tartibda yotoqxon, imtiyozli oziq-ovqat bilan ta'minlanishi o'quvchilarning sifatli ta'lim olish bilan birga sog'lom o'sishi hamda xavfsizligini ta'minlash ustuvor vazifa ekanligidan dalolat beradi.

Mamlakatimizni barqaror rivojlantirish va modernizatsiyalash sharoitlarida ta'lim tizimining isloh qilinishi samaradorligini ta'minlashda:

- Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirishda sohaga oid qonunlarni inventarizatsiya qilib borish, qonunchilikni tizimdagi islohotlarga hamohang ravishda takomillashtirish;

- ta'lim tizimining tom ma'noda raqobatbardoshlik darajasini oshirish;

- maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishini tadqiq qilish maqsadida ilmiy laboratoriya tashkil etish, ilmiy tadqiqot ishlarining natijalarini amaliyotga joriy etishga erishish;

- maktabgacha ta'lim muassasalari uchun shifokor ajratish va tibbiyot hamshiralarning malakasini oshirish, tez tibbiy yordam ko'rsatish uchun dori-darmon, sanitariya-gigiyena vositalari bilan to'liq ta'minlash, bolalarning ovqatlanishini belgilangan me'yorlar darajasida tashkil etish;

- maktabdan tashqari ta'lim tizimida monitoring olib borish va uni yanada takomillashtirish choralari ko'rish;

- ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida pedagog va mutaxassislarining malaka darajasini yuksaltirish, kadrlar bilan ishlash, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishning holatini doimiy tahlil qilib borish;

- maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilarining malaka toifalarini

belgilash bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va mavjudlarini takomillashtirish;

– hududlarni rivojlantirish dasturlarini tasdiqlash jarayonida maktabgacha ta'lim, maktab, kollej va akademik litseylarni ta'mirlash, rekonstruksiya qilish talablariga o'zgartishlar kiritish hamda mahalliy byudjetdan ta'mirlashga ajratiladigan mablag'larning samarali yo'naltirilishiga erishish;

– umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilarini hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilarini darsliklar bilan ta'minlash;

– umumiy o'rta ta'lim maktablarida, maktabgacha ta'lim muassasalarida o'quvchi va tarbiyalanuvchilarning xavfsiz oziq-ovqat bilan ta'minlash hamda oshxona-bufet tizimini tashkil etish.

Xulosa shuki, uchbu chora-tadbirlar – olib borilayotgan islohotlarning natijadorligini hamda uzluksiz ta'limning sifat va samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-sonli farmoni. 2017-yil 7-fevral. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017–2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2707-sonli qarori. 2016-yil 29-dekabr. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 1-son, 11-modda.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3276-sonli qarori. 2017-yil 15-sentabr. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 38-son, 1033-modda.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishiga oid fanlarni chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktabni tashkil etish to'g'risida”gi PQ-3274-sonli qarori. 2017-yil 14-sentabr. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 38-son, 1031-modda.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mirzo Ulug'bek nomidagi ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktab-internatini va “Astronomiya va aeronavtika” bog'ini tashkil etish to'g'risida”gi PQ-3275-sonli qarori. 2017-yil 14-sentabr. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 38-son, 1032-modda.

---

**Komil MUQIMOV,**

O'zbekiston Fanlar Akademiyasi akademigi,

O'zbekiston Milliy universiteti fotonika kafedrası professori

## **NANOTA'LIM – INTELLEKTUAL TARAQQIYOTNING ENG MUHIM SHARTLARIDAN BIRI SIFATIDA**

### **Annotatsiya**

Maqolada oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash tizimini yangi ustuvor yo'nalishlarda, mehnat bozoringa talablariga muvofiq takomillashtirish masalalari o'z ifodasini topgan. Hozirgi kunda nanotexnologiya dunyodagi eng muhim ilmiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, muallif kadrlarni tayyorlash konsepsiyasini ishlab chiqish va bu borada mamlakatimizda maxsus dasturni qabul qilishni taklif qiladi.

**Kalit so'zlar.** Nanofan, nanofizika, nanokimyo, nanoelektronika nanotexnologiyalar, nanota'lim, ta'lim tizimi, kadrlar tayyorlash.

В статье отражаются вопросы усовершенствования новых приоритетных направлений подготовки кадров в системе высшего образования в соответствии с запросами рынка труда. В настоящее время нанотехнология является одним из значимых научных направлений в мире. Также автор предлагает разработку концепции по подготовке кадров и принятие специальной государственной программы в этом направлении.

**Ключевые слова.** Нанонаука, нанофизика, нанохимия, наноэлектроника, нанотехнология, нанообразование, система образования, подготовка кадров.

Article reflects the issues of improvement of new priority areas of training in the system of higher education in accordance with the demand of the labor market. Today, the nanotechnology is one of the most important scientific fields in the world. The author also offers a development concept of training and the adoption of a special state in this direction.

**Key words.** Nanoscience, Nanophysics, nanochemistry, nanoelectronics, nanotechnology, education system, personnel training.

**M**amlakat iqtisodiyoti raqobatbardoshligi, ilmiy va texnologik ishlanmalar samaradorligi hamda yuqori turmush darajasiga erishish imkoniyatlari ko'p jihatdan mavjud ta'lim tizimiga bog'liq. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan mustaqilligimizning dastlabki yillaridan boshlab mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh qilish dolzabr masalalar qatoriga kiritildi.

Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yildan yilga jadallashib bormoqda. Iqtisodiyotda intensivatsiya va modernizatsiya jarayonlari jadallik bilan amalga oshmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Hara-

kat strategiyasida qayd etilgan vazifalardan biri – prinsipial jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o'zlashtirish, shu asosda ichki va tashqi bozorda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta'minlashdan iborat.

Bu vazifani muvaffaqiyatli bajarish uchun, birinchi navbatda, mehnat bozori ehtiyojlarini e'tiborga olib, yangi istiqbolli yo'nalishlar bo'yicha kadrlar tayyorlashni va qayta tayyorlashni tezkorlik bilan yo'lga qo'yish vazifasi qo'yilgan. Bu borada nanotexnologiyalar eng muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Keyingi o'n yillikda jahon jamoatchiligi lug'at boyligiga “nano” so'zi kirib keldi. Xo'sh, “nano” nima? Qisqa qilib aytganda, nano milliarddan bir qismdir. Nanotexnologiya tushunchasi uchun tugal va aniq ifoda yo'q, ammo mavjud mikrotexnologiya asosida bu o'lchamlarni nanometrdagi texnologiya deb yuritish mumkin.

Yapon olimi Nario Taniguchi tomonidan 1974-yili fanga kiritilgan “nanotexnologiya” tushunchasi bugun aksariyat rivojlangan va rivojlanish yo'lida bo'lgan davlatlarni birday qiziqtirib qo'ydi. Chunki fan-texnika taraqqiyoti daqiqqa sayin olg'a siljimoqdaki, bundan ko'zlangan asosiy maqsad ko'pchilikka ayon: odamlarning og'irini yengil qilish.

Asli yunon tilidan olingan (“nanos” – “mitti”) nanotexnologiya tushunchasining mohiyatiga kelsak, uni anglash va anglatish – nisbatan murakkab. Negaki, uni tushuntirish uchun moziyga qaytishga to'g'ri keladi. Aytaylik, paleolit davrida odam tosh qurolni harakatga keltirish maqsadida juda ko'p kuch sarflagan. Agar unda trillion x yuz milliard miqdorida atom bor deya hisoblasak, mikroelektronika davri bo'lgan XX asrga kelib tranzistorlar, integral mikrosemalar kashf qilindi va endi odam bor-yo'g'i bir necha milliard atomdan iborat texnikalarni boshqara boshladi. Bu jarayon texnologik jihozlarning atom nuqtayi nazaridan kichrayishiga olib keldi. Insoniyat hayotiga XXI asrda asta-sekinlik bilan bo'lsa-da kirib kelayotgan nanotexnologiya samarasi shunda ko'rinadiki, endi kashf qilinayotgan texnikada milliard miqdordagi atom emas, balki o'nta, yuzta yoki mingta atom mavjud bo'ladi.

Rivojlangan mamlakatlar sanoatida nanotexnologiyalar yordamida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning ulushi yildan yilga oshib borayapti. Ayniqsa, elektron, mashinasozlik va kimyo sanoatlari, tibbiyot, farmasevtika va boshqa bir qancha sohalar ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan nanomateriallarning salmog'i jadallik bilan ko'paygan. Shuning uchun ham ko'p xorijiy mamlakatlarda bu yo'nalishlar bo'yicha yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga juda katta e'tibor qaratilmoqda.

Nanotexnologiyalar sohasida mutaxassislar tayyorlashda yuqori samaraga erishish uchun mamlakatimizda muayyan nanotexnologik muhitni shakllantirish zarur. Bunday muhitni yaratishda va nanotexnologiyalar sohasida kadrlar tayyorlashni tashkil qilishda rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasiga tayanish maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun ham xorijiy mamlakatlarda nanotexnologiyalar sohasida kadrlar tayyorlash masalasiga qisqacha to'xtalaylik.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimida islohotlar yuz bermoqda. Ko'p ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ilmiy kadrlarni kasbiy tayyorlashga yondashish tubdan o'zgarayapti. Bu mamlakatlar ta'lim tizimidagi o'zgarishlar birinchi navbatda magistr va doktorantlarni tayyorlashga tegishlidir. Shu bois maxsus o'quv markazlarida nanotexnologiyalar sohasida o'quv kurslarini tashkil qilish va ularda olimlar va ilmiy xodimlarni o'qitishga katta e'tibor qaratilgan.

Nanotexnologiyalar sohasidagi mutaxassislar ehtiyojning oshishi munosabati bilan bu yo'nalishda fundamental ilmiy tekshirish ishlari bilan shug'ullanuvchi olimlar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanib, o'quv kurslari, seminar va konferensiyalar o'tka-

---

zishayapti. Qator mamlakatlarda nanotexnologiyalarga tegishli asosiy bilimlar ta'limning barcha bosqichlaridagi o'quv dasturlariga kiritilmoqda.

Nanotexnologiyalar yo'nalishida kadrlar tayyorlaydigan universitetlar soni yildan yilga oshib borayapti. Bu sohada juda ko'p maxsus kurslar, o'quv qo'llanma va darsliklar, jumladan, elektron o'quv darsliklari paydo bo'lmoqda. AQSH, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Daniya kabi mamlakatlar nanotexnologiya bo'yicha kadrlar tayyorlashda jahon ta'lim bozorida peshqadamlik qilishayapti.

AQSH Milliy ilmiy fondi (NSF) mamlakatning 50 ta shtatini qamrab olgan 12 ta o'quv nanomarkazlarini tashkil qilgan. Bu markazlar yagona tarmoq orqali axborot almashish imkoniyatiga ega. AQShning zamonaviy boy eksperimental bazaga ega bunday yirik ilmiy-tekshirish markazlari nanotexnologiyalar sohasida malakali kadrlarni tayyorlashda katta rol bajaradi.

Bu nanotizim 500 dan ortiq universitet, shaxsiy institutlar, hukumat laboratoriyalarini qamrab olgan. Markazlarda o'rta maktablarning tabiiy fanlar (fizika, kimyo, biologiya) o'qituvchilari nanotexnologiyalar sohasida o'z malakalarini oshirish imkoniga ega bo'lishdi.

AQShda nanotexnologik muhitni barpo qilish maqsadida nanotexnologiyalarni o'qitish, uni tashviqot va targ'ibot qilish jamiyatning barcha qatlamlarini qamrab olgan. Bu yerda 2007-yili Nanotexnologiyalar bo'yicha Milliy tashabbus (NMT)ning yangi strategik rejasi qabul qilindi. Bu hujjatning "Ijtimoiy aspekt" bo'limi doirasida NMTning asosiy vazifasi nanotexnologiyalar sohasida maktablar va oliy o'quv yurtlari talabalarini uchun o'quv materiallari ishlab chiqishdan iborat. Bundan tashqari ushbu rejaga asosan, nanotexnologiyalar sohasida texnik kadrlar tayyorlash va ijtimoiy yo'naltirilgan dasturlar qabul qilingan. Bu bo'limda o'qitishning ko'p funksiyali tizimi va yuqori malakali kadrlarni tayyorlash dasturlarini yaratishga qaratilgan investitsion siyosatni qo'llash haqida so'z boradi.<sup>1</sup>

Yaponiyada 2004-yili "Nanotech VOT Program" dasturi qabul qilindi. Bu dastur ta'limning barcha bosqichlarida maktab o'quvchilaridan doktorantlar (PhD)gacha nanotexnologiyalarni o'rgatishga yo'naltirilgan. Xitoyda mamlakatning har xil hududlarida joylashgan 60 ta universitetda nanofan va nanotexnologiyalar sohasida kadrlar tayyorlanmoqda.

Shunday qilib, xorijiy mamlakatlarda nanofan va nanotexnologiyalar sohasida mutaxassislar tayyorlash maktablar, maxsus kurslar, kollejlari, universitetlar, shaxsiy institutlar, ilmiy-tekshirish markazlari, hukumat laboratoriyalarida amalga oshirilayapti. Internet uchun maxsus o'quv dasturlari va loyihalari ishlab chiqilmoqda. Nanota'lim muammolari bo'yicha tajriba almashish maqsadida AQSH, Yevropo Ittifoqi, Yaponiya, Koreya, Hindiston, Shveytsariya, Germaniya, Lotin Amerika mamlakatlari, Osiyo-Tinch okeani mamlakatlari ishtirokida muntazam ravishda xalqaro uchrashuvlar o'tkazilayapti.

Germaniya ta'lim va ilmiy tadqiqotlar federal vazirligi tomonidan maktab va maktabgacha yoshdagi o'quvchilar uchun "Nanotreyler" (treylar-yashash uchun moslashtirilgan avtomobil yoki avtobus) loyihasi amalga oshirildi. Bu treylar mamlakatning istalgan yerida yosh o'quvchilarga nanotexnologiya to'g'risida oddiy tushunchalarni singdiradi.

Dunyodagi ko'pchilik kollej va universitetlarda bakalavriat tizimida nanotexnologiyalar sohasining dolzarb yo'nalishlari bo'yicha mutaxassislar tayyorlanmoqda. Masalan, AQSH hukumati yirik o'quv markazlaridan biri Dakota texnik kolleji va Minnesota

---

<sup>1</sup> <http://www.nano.gov>

universiteti bilan hamkorlikda nanotexnologik materiallar va nanoelektronika yo'nalishida mutaxassislar tayyorlayapti.

Shtatdagi 50 dan ortiq kompaniyalarda bunday mutaxassislarga ehtiyoj mavjud. Luizanadagi texnik universitet 2005-yildan buyon nanotizimlar sohasida muxandislar yetishtirib chiqarmoqda. AQSH Olbani universitetida fizika, kimyo, informatika, biologiya, matematika va texnika fanlarini o'qitish bilan bir qatorda nanofanlar, nanomuxandislik, nanotexnologiyalar va nanoiqtisodiyot kabi fanlarni chuqur o'rganish tashkil qilingan.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ta'limning ikki bosqichli tizimiga o'tilganligi munosabati bilan bakalavriat dasturi (3-4 yil) asosida fizika, kimyo, elektronika yo'nalishlari amalga oshirilsa, magistraturada esa nanofizika, nanokimyo, nanoelektronika sohalarida mutaxassislar tayyorlanadi.

Dunyodagi ko'p universitetlarda nanotexnologiyalar yo'nalishida magistrlik dasturlari ishlab chiqilgan va mutaxassislar tayyorlanmoqda. Masalan, bu yo'nalishda magistrlar tayyorlash Buyuk Britaniya, Shveysariya, Germaniya, Shvetsiya, Ispaniya, Irlandiya, Fransiya, Italiya, Belgiya, Niderlandiya, Rossiya va boshqa qator mamlakatlarda yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Yuqorida qayd etilganidek, yaqin kelajakda mamlakatimizda rivojlanayotgan sanoat va ta'lim tizimi uchun nanotexnologiyalar sohasida yuqori malakali kadrlarga katta ehtiyoj tug'iladi. Shuni e'tiborga olgan holda mamlakatimizda *nanotexnologiyalar bo'yicha kadrlar tayyorlash konsepsiyasini ishlab chiqish va shu asosda maxsus dastur tayyorlash* maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Konsepsiyada bu yo'nalish bo'yicha kadrlar tayyorlash uchun birinchi navbatda mamlakatimizda nanotexnologiyalar sohasida innovatsion muhitni yaratish ko'zda tutilishi lozim. Buning uchun ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida ta'lim oluvchilar ongida nanotexnologiya haqidagi bilimlarni shakllantirish zarur bo'ladi. Albatta, bu g'oyani amalga oshirishda har xil alternativ yo'llarni tanlash mumkin. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasiga tayangan holda quyidagi takliflarni kiritishni lozim topdik.

Oliy ta'lim tizimida nanotexnologiyalar sohasida kadrlar tayyorlash maqsadida yoshlarni kasbga yo'naltirish maktabdan, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari-da amalga oshishi lozim bo'ladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari talabalarida nanotexnologiyalar haqida ma'lum darajada bilimlarni shakllantirish vaqti keldi. Albatta, hozirgi kunda ta'limning bu bosqichlarida nanotexnologiyalarni alohida fan sifatida o'qitish ancha murakkab masaladir. Chunki bu predmetni o'zlashtirish uchun ta'lim oluvchilar fizika, kimyo va biologiya fanlaridan yetarli darajada bilimga ega bo'lishlari hamda bu sohada yuqori malakali o'qituvchilarni tayyorlashga to'g'ri keladi.

Shuning uchun ham eng to'g'ri yo'l "Nanotexnologiyalar" kursini alohida fan sifatida o'qitmasdan, uning tegishli qismlarini fizika, kimyo va biologiya fanlarining tarkibiga modul sifatida kiritish ma'quldir. Bunday modul materiallari asosiy darslikning mazmuniga zid bo'lmasligi va bayon qilinish tarzi bir xil bo'lishiga alohida e'tibor berilishi zarur bo'ladi.

Modulning asosiy vazifasi nanoobyektlarning xususiyatlarini o'rganish orqali o'quvchi va talabalarning olamning fizik manzarasi haqidagi tasavvurini boyitish, nanotexnologiyalar misolida fizika, kimyo, biologiya va boshqa fanlarning o'zaro bog'liqligiga ishonch hosil qilish hamda nanomateriallarning o'ziga xos xususiyatlari, ularni qo'llash sohalari va bu yo'nalishning rivojlanish istiqbollari haqida ma'lum tushunchaga ega bo'lishdan iboratdir.

---

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda yoshlarning xohishiga qarab nanotexnologiyalar bo'yicha to'garaklar tashkil qilinishi juda foydali bo'lar edi. Tabiiy fanlarni chuqur o'rganishga ixtisoslashgan akademik litseylarda bulardan tashqari alohida "Nanotexnologiyalarga kirish" kursini o'qitish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Oliy o'quv yurtlarida nanotexnologiya sohasida ilmiy va pedagogik kadrlarga bo'lgan ehtiyojni hisobga olgan holda bakalavriat va magistratura orqali mutaxassislarni tayyorlashni yo'lga qo'yish muhim vazifadir.

Yuqorida ko'rsatilgan vazifalarni amalga oshirish birinchi navbatda nanotexnologiyalar sohasida pedagog kadrlarni, fizika, kimyo va biologiya o'qituvchilarini qayta tayyorlash lozim bo'ladi. Bu muammoni mavjud malaka oshirish va qayta tayyorlash markazlari yordamida qisman hal qilish mumkin. Bunda, albatta, o'quv maskanlari yetarli darajada zarur o'quv-uslubiy adabiyotlar bilan ta'minlanishi va muayyan moddiy bazaga ega bo'lishi lozim bo'ladi.

Bakalavriat va magistratura orqali nanotexnologiyalar sohasida kadrlar tayyorlash jiddiy eksperimental baza hamda yuqori malakali professor-o'qituvchilarni talab qiladi.

Shuning uchun ham, xulosa sifatida aytish mumkinki, O'zbekiston milliy universiteti va Toshkent texnika universitetida zamonaviy nanofan (nanofizika, nanokimyo va nanobiologiya)lar hamda nanotexnologiyalar bo'yicha o'quv-ilmiy markazlar tashkil qilinsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bu markazda mamlakatimizning barcha oliy o'quv yurtlari va korxonalari uchun bakalavriat, magistratura va doktorantura orqali mutaxassislar tayyorlash bilan bir qatorda muhim fundamental ilmiy-tekshirish ishlarini yuqori darajada bajarishga imkon tug'iladi. Bu markazda barcha o'quv mussasalari o'qituvchilari nanotexnologiyalar sohasida o'z malakalarini oshirishlari va ilmiy-tekshirish ishlarini olib borishlari mumkin bo'lar edi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.* – T.: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997, 9-son.
2. *O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi.* – T.: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997, 9-son.
3. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli farmoni.* 2017-yil 7-fevral. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.
4. <http://www.nano.gov>

---

**Tahririyat:** Bugungi kunda ta'limda nanotexnologiyalardan foydalanish axborot-kommunikatsion muhit hukm surgan asrimizda yanada zarur. Muallifning takliflari amaliyotda o'z ifodasini topsa, ta'limda nanotexnologiyalarni mukammal egallagan kadrlar yetishib chiqishiga hamda bu mavzuda ilmiy-tadqiqot ishlarining ortishiga erishiladi. Chunki hozirda nanota'lim bo'yicha ilmiy ishlar deyarli yo'q.

**Barno ABDULLAYEVA,**

Nizomiy nomidagi TDPU ilmiy ishlar bo'yicha prorektori,  
pedagogika fanlari doktori, professor

## OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

### Annotatsiya

Maqolada oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati samaradorligini ta'minlash masalalari bayon etilgan. Muallif ta'lim sifatini tashkil etish uchun o'qituvchilar tarkibini to'g'ri shakllantirish, shuningdek, bu jarayonda qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimini takomillashtirish masalalariga e'tibor qaratgan.

**Kalit so'zlar.** Ta'lim sifati, Harakatlar strategiyasi, oliy ta'lim, samaradorlik, o'qituvchi tayyorlash sifati, tinglovchi, davlat nazorati, qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimi.

В статье освещены вопросы обеспечения качества и эффективности обучения в высших образовательных учреждениях. Автор отмечает, что для обеспечения качества образования имеет значение правильное формирование состава преподавателей, а также совершенствование системы переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров.

**Ключевые слова.** Качество образования, Стратегия действий, высшее образование, эффективность, качество подготовки учителя, слушатель, государственный контроль, система переподготовки и повышения квалификации.

Article highlights the issues of ensuring the quality and effectiveness of teaching higher educational institutions. The author notes that to ensure the quality of education, the proper formation of the composition of teachers, as well as the improvement of the system of retraining and advanced training of pedagogical personnel, is important.

**Key words.** Quality of education, the strategy of action, higher education, the effectiveness of quality of teacher training, the student, state control, the system of retraining and advanced training.

**J**adal rivojlanish va taraqqiyotni tanlagan har bir davlat, eng avvalo, yosh avlodni komil va har jihatdan yetuk insonlar qilib tarbiyalashga urg'u beradi. Bu maqsadga erishishda ta'lim tizimining alohida o'rni borligini ta'kidlash maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ilgari surgan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining ijtimoiy soha rivojiga doir tegishli yo'nalishida ta'lim tizimini rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Harakatlar strategiyasida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifatiga alohida urg'u berilgan. Ularning samaradorligini oshirish uchun ta'lim va o'qitish sifati baho-lashning xalqaro standartlari joriy etilishi ko'zda tutilmoqda. Bunda faqat talabalarning



---

bilimini emas, balki ta'lim va o'qitish sifatini baholash ham muhim ahamiyatga ega. Ta-biiyki, bu vazifa ta'lim muassasasining moddiy-texnika bazasi, kadrlar bilimi va salohiyati, zamonaviy axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishi bilan bog'liq. Shuning bilan birga, pedagogik faoliyat bilan shug'ullanuvchilar yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lishlari lozim. Ana shundagina talabalar bilimi va ta'lim sifati haqida fikr yuritish mumkin bo'ladi.

Ta'lim sifati – jamiyatda ta'lim jarayonining holati va natijasini hamda shaxsning kasbiy, maishiy va fuqarolik kompetentligini shakllanishi va rivojlanishini jamiyat talabi va ehtiyojiga mos kelishini aniqlaydi. Ta'lim sifati ta'lim muassasasi o'quv-tarbiyaviy faoliyatining turli qirralarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar orqali baholanadi. Ushbu ko'rsatkichlarga ta'lim oluvchilar kompetentligining rivojlanishini ta'minlovchi ta'lim mazmuni, o'qitish shakli va uslublari, moddiy-texnik baza, xodimlar tarkibi kabilar kiradi. Shuningdek, ta'lim sifati shaxs hayot-faoliyati sifatini oshirish va aniq maqsadga erishishda foydalanish uchun zarur bo'ladigan, aniq sharoitlarda talab etilib olingan bilimlar majmuidir.

Oliy ta'limda ta'lim sifati ta'lim modeli ko'rsatkichlari, maqsad va vazifalari hamda ta'lim tizimining aniq standartlari, ta'lim muassasalari, o'quv dasturlari va fanlari bilan bog'liq bo'lgan ko'p qirrali, ko'p darajali tushunchadir.

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish quyidagi maqsadlarga erishishni nazarda tutadi:

- mutaxassislar tayyorlash darajasini oshirish;
- innovatsion axborot mahsulotlarini ishlab chiqish;
- yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashning zamonaviy usullarini joriy etish asosida innovatsion g'oyalarni joriy etish;
- ta'lim uzluksizligini ta'minlash;
- pedagogik kadrlarni kasbiy darajasi va malakasini doimiy ravishda oshirib borish;
- yangi texnologiyalarda foydalanish asosida o'quv jarayonini uzluksiz takomillash-tirib borish;
- kasbiy masalalarni yechishga talabalarni ijodiy yondashadigan va mas'uliyatli qilib tarbiyalash.

Ta'lim jarayonida asosiy e'tiborni o'qituvchi egallaydi. Shu sababli ta'lim sifatini tashkil etish o'qituvchilar tarkibini to'g'ri shakllantirishdan boshlanadi. Savol tug'iladi: o'qituvchi sifatini qanday aniqlash mumkin? O'qituvchi nafaqat talabalarga bilim bera-di, u bo'lajak kadrlar shaxsini, dunyoqarashini va ma'naviyatini shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Shu sababli o'qituvchi sifati majmual tushuncha bo'lib, u asosan quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

- aniq fan va amaliyot sohasi bo'yicha yuqori bilim va tajribaga ega bo'lishi;
- o'qituvchilik faoliyati bilan shug'ullanishga qobiliyat va ishtiyoqning mavjudligi;
- kuzatuvchanlik – o'quvchilardagi qobiliyatlarni va alohida xususiyatlarni tez ilg'ab olish;
- tashqi va ichki muhit bilan aloqa o'rnatish qobiliyati;
- o'z sohasi bo'yicha tanilganligi, mavqeyi;
- ilmiy-tadqiqot sohasidagi faolligi;
- ilmiy maktabining mavjudligi va h.k.

Ta'lim oluvchilar sifati yakuniy natijaga ta'sir etuvchi eng asosiy va muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Chunki ta'lim jarayoni markazida bilim iste'molchilari – ta'lim oluv-

chilar turadi. Aynan ular uchun mashg'ulotlar o'tiladi, o'quv adabiyotlari yoziladi, yangi ta'lim texnologiyalari ishlab chiqiladi. Shu sababli ta'lim sifatini belgilashda ta'lim oluvchilar sifatiga ham e'tibor qaratish zarur va shartdir. Chunki ta'lim jarayoni natijasida ular oxirgi sifatli intellektual mahsulot (kadr)ni berishi lozim. Ta'lim oluvchilar sifatini quyidagi ko'rsatkichlar bilan baholash mumkin:

- o'qiyotgan yo'nalishi bo'yicha kasbiy bilim darajasi;
- axborot (kompyuter) texnologiyalarini bilish darajasi;
- chet tili bo'yicha bilimi;
- muayyan yo'nalish (mutaxassislik) bo'yicha o'qishga ishtiyoqi, qiziqishi;
- intellekti (aql, idrok va zakovati);
- ma'naviyati;
- iqtidori;
- xotira qobiliyati;
- tartib-intizomi;
- talabchanligi;
- ish qobiliyati;
- kuzatuvchanligi;
- o'z mavqeini rejalashtirishi.

Bugungi kunda nafaqat ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini yanada takomillashtirish, balki uning ustidan samarali davlat nazoratini o'rnatish ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu vazifani Prezidentimizning “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori bilan Vazirlar Mahkamasi huzurida Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'yicha tashkil etilgan davlat inspeksiyasi olib boradi.

Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'yicha davlat inspeksiyasining asosiy vazifasi – ta'lim-tarbiya jarayoni, professor-o'qituvchilar tarkibi, ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirishdan iborat bo'lib, inspeksiya sifati hamda mulkchilik shakli va idoraviy bo'ysunishidan qat'i nazar ta'lim muassasalarini attestatsiya va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish, ta'lim-tarbiya sifatini nazorat qilish ishlarini bajaradi.

Inspeksiya o'quvchilar, talabalar va tinglovchilar bilimlarining davlat ta'lim standartlari, davlat talablari va malaka talablariga muvofiqligini tahlil qilish, ta'lim muassasalari reytingini aniqlash sohasida quyidagi ishlarni bajaradi:

- o'quvchilar, talabalar va tinglovchilar bilimlarini aniqlash maqsadida nazorat materiallarini ishlab chiqadi;
- nazorat ishlarini o'tkazadi, natijalarni tahlil qiladi, ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatgan omillarni, xususan, ta'lim muassasalarida umumta'lim fanlari va kasbiy fanlar bo'yicha tanlab olish asosida bitiruvchilarning ta'lim tayyorgarligi darajasi va o'qitish sifati monitoringini o'tkazish orqali ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlaydi;
- o'quvchilar, talabalar va tinglovchilar o'rtasida ta'lim sifatini oshirish, davlat ta'lim standartlari, davlat talablari va malaka talablarini bajarish darajasini o'rganishga qaratilgan intellektual ko'rik-tanlovlar, musobaqalarni tashkil etadi;
- ta'lim va kadrlar tayyorlash sifati monitoringini olib borish va nazorat qilish bo'yicha tashkiliy-huquqiy va metodik ko'rsatmalarni ishlab chiqishni tashkil etadi;
- zamonaviy axborot-telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda ta'lim va kadrlar tayyorlash sifati monitoringini olib boradi;
- ta'lim muassasalarida o'qitish va kadrlar tayyorlash sifatini o'rganish maqsadida ijtimoiy so'rovlar o'tkazadi;
- ta'lim sifatini baholash natijalari bo'yicha tahliliy ma'lumotlar tayyorlaydi;

---

– ta'lim sifatini baholash natijalari asosida ta'lim va kadrlar tayyorlash sifatining umumiy holati bo'yicha ta'lim muassasalari reytingini aniqlaydi.

Kadrlar tayyorlash sifati va bandligini ta'minlashda tarmoqlararo amaliy integratsiya faoliyati mazmuni ishlab chiqish va joriy etishda mavjud muammolarni quyidagi asosiy yo'nalishlarda ko'rsatib o'tish mumkin:

– mutaxassislar kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda kadrlar buyurtmachilari-ning ehtiyojlari va talablari yetarli darajada o'z aksini topmaganligi;

– amaldagi o'quv dasturlarni iqtisodiyot sohalarining zamonaviy taraqqiyot bosqichi talablari asosida qayta ishlash va to'ldirish zarurligi;

– integrativ yondashuv asosida o'qitish jarayonining samarali shakl va metodlarini aniqlash mezon va ko'rsatkichlarining mukammal emasligi hamda ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishning zamonaviy talablar darajasida emasligi;

– tayyorlanayotgan mutaxassislarning o'zini kasbiy-ijodiy rivojlantirishi bilan bog'liq shaxsiy sifatlarini, mustaqil o'quv-metodik faoliyatini kuchaytirish zarurati.

Shuningdek, respublika iqtisodiyoti sohalarining malakali kadrlarga bo'lgan real ehtiyojidan kelib chiqqan holda ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ish bilan ta'minlash jarayonlarini optimallashtirish, bitiruvchilar ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, kadrlar tayyorlovchilar va ish beruvchilar o'rtasidagi hamkorlikni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida yuqori sifat darajasiga ko'tarish, ular o'zaro muloqotining yangi, istiqbolli shakllarini joriy etishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlashda qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimining ham munosib o'rni bor. Ushbu tizimda faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlarning ilmiy salohiyati, dars berish sifatini takomillashtirish, ularning ilmiy izlanishlar bilan shug'ullanishlari uchun imkoniyat yaratish, pedagog-o'qituvchilarning faoliyatini tashqi baholashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish jarayonida xalq ta'limi va oliy ta'lim tizimlari o'rtasida uzluksizlik va uzviylikni ta'minlash, pedagog xodimlarni fanlarni o'qitish metodikasi, ta'lim va tarbiya nazariyasi yangiliklaridan, oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlardan, ilg'or xorijiy tajribalardan xabardor qilish kerak. Bu borada Prezidentimizning "Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorini e'tirof etish joiz.

Qarorga binoan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutlari tegishli hududdagi oliy ta'lim muassasalari tasarrufiga berildi. Tabiiyki, bu jarayonda ularning faoliyatiga, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga bo'lgan talablar yanada kuchayadi. Binobarin:

– o'qituvchi-pedagoglarning metodik ehtiyojlarini qondirish uchun ta'lim jarayoniga pedagogikaning ilg'or shakl va usullarini joriy etish;

– ta'lim dasturlarini takomillashtirish bo'yicha pedagog kadrlarning o'quv-metodik ishlarni bajara olish ko'nikmalarini rivojlantirish;

– masofadan o'qitish usullarini yanada takomillashtirish;

– tinglovchilarning kasbiy mahoratini oshirish uchun tegishli o'quv-metodik resurslarni modernizatsiya qilish;

– tinglovchilarning qayta tayyorlash va malaka oshirishdan keyingi faoliyatini takomillashtirishda uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash;

- pedagog kadrlarga bo'lgan talabni to'liq qondirish;
- tegishli yo'nalishlar bo'yicha fanlarning umumkasbiy va maxsus bloklari bo'yicha zamonaviy metodik, axborot-ma'lumotnoma bazasini yaratish;
- ta'lim dasturlarini uzluksiz takomillashtirib borish;
- o'quv-tarbiya jarayonini hamkorlik asosida oliy ta'lim muassasalarida tashkil etish;
- mashg'ulotlarni zamonaviy texnika va texnologiyalar asosida tashkil etish va h.k. chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti hududiy markazlar uchun tayanch oliy ta'lim muassasasi sanaladi. Universitet zimmasida ham quyidagi vazifalar bor. Unga ko'ra:

- pedagog-o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish ishlariga ilmiy-metodik jihatdan rahbarlik qiladi;
- ijodiy tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirilgan o'qitish jarayonini tashkil qiladi;
- qayta tayyorlash va malakani oshirish bo'yicha namunaviy o'quv reja, dastur, o'quv-metodik va boshqa hujjatlarni ishlab chiqadi;
- qayta tayyorlash va malaka oshirishning samarali shakllarini joriy etishning ilmiy-metodik va tashkiliy-metodik asoslarini ishlab chiqadi;
- rahbar, pedagog va boshqa mutaxassis kadrlarning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish choralari ko'radi;
- pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish sohasidagi xorijiy tajribalarni, shuningdek, eng yaxshi ta'lim muassasalarining yutuqlarini ommalashtirish asosida ilmiy asoslangan innovatsiyalarni joriy etadi.

Shunday qilib xulosa sifatida aytish mumkinki, davlat ta'lim standartlari, tarmoq ta'lim standartlari, o'quv reja va dasturlar mazmunini mehnat bozori talablari asosida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalaridagi texnika va texnologiyaning rivojlantirishiga monand ravishda takomillashtirib borish; o'quv rejalaridagi turdosh fanlarni integratsiyalash orqali o'quv yuklamalari ko'lamini va hajmini optimallashtirish; ta'lim muassasalarida virtual o'quv-laboratoriya, zamonaviy axborot kommunikatsiya, elektron-texnik va masofadan o'qitish imkoniyatlarini kengaytirish, elektron darslik va qo'llanmalar yaratish, ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida samarali foydalanish; malakaviy amaliyotlarni huquqiy ko'rinishidan qat'i nazar barcha korxonalarda o'tilishiga sharoitlar yaratuvchi me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va ularni tegishli darajada tasdiqlash kabi vazifalar ta'lim sifatini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori. 2017-yil 20-aprel. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 18-son, 313-modda.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori. 2017-yil 26-sentabr. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi ([www.lex.uz](http://www.lex.uz)), 2017-yil 27-sentabr

4. Boshlang'ich ta'lim va jismoniy madaniyat yo'nalishida sifat va samaradorlikni oshirish: muammo va yechimlar. Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. B.S.Abdullayeva va umumiy tahriri ostida. – T., 2017-yil 25-may.

---

**Ahmadjon MELIBOYEV,**

O'zbekiston Milliy universiteti jurnalistika fakulteti dotsenti,

O'zbekiston yozuvchilar va jurnalistlar uyushmalari a'zosi

## TA'LIM SAMARADORLIGI JAMIYAT TARAQQIYOTINING HAL QILUVCHI OMILIDIR

### Annotatsiya

Maqolada ta'lim tizimida bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlar, o'zgarishlar hamda yangi avlod tarbiyasiga davlat va jamiyat oldida turgan muhim va mas'uliyatli vazifalar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar.** Islohot, taraqqiyot, tarbiya, mas'uliyat, chora-tadbir, dolzarb vazifalar, strategiya, boshqaruv tizimi.

В статье анализируются последовательно осуществляемые реформы, изменения в системе образования, а также важные и ответственные задачи, стоящие перед государством и обществом по воспитанию подрастающего поколения.

**Ключевые слова.** Реформа, развитие, воспитание, ответственность, мероприятие, актуальные задачи, стратегия, система управления.

Article analyzes the ongoing reforms, changes in the education system, as well as the important and responsible tasks facing the state and society in the upbringing of the younger generation.

**Key words.** Reform, development, education, responsibility, the event, the actual task, strategy, control system.

**D**unyo mamlakatlari tarixidan ma'lumki, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy kuch-qudrati, jahon hamjamiyatidagi o'rni oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimining mukammalligi va samaradorligi bilan bevosita bog'liq. Farzandlarimiz olis o'tmishda bir necha tillarni chuqur egallab, bir necha sohalarda jahonshumul ilmiy kashfiyotlar qilganlari va umuminsoniy tamaddun rivojiga munosib hissa qo'shganlari fikrimizga dalil bo'la oladi. Ta'lim-tarbiya borasida sustkashlikka yo'l qo'yilsa, bu tizim o'z holiga tashlab qo'yilsa, milliy taraqqiyot, shubhasiz, tanazzulga yuz tutadi.

Ta'lim ishida hamisha izchillik, puxta o'ylangan reja va qat'iy talab zarur. Bunday bo'lmasa, hosil bo'lgan bo'shliqni boshqa "ta'lim"lar egallab, yoshlarni to'g'ri yo'ldan ozdiradi. Shu boisdan ham mamlakatimizda yangi avlod tarbiyasiga davlat va jamiyat oldida turgan muhim va mas'uliyatli vazifa sifatida qaralmoqda. Zotan, mustaqil davlatimizning buguni va kelajagi, eng avvalo, bilim dargohlarida yaratiladi, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim olishiga, ta'lim va tarbiyaning o'zaro uyg'unligiga bog'liq.

Hozirgi davrdagi jadal taraqqiyot tendensiyalari mamlakatimizni industrial rivojlantirishda shaxs salohiyati, ma'naviy-intellektual omil rivojiga ustuvor ahamiyat qaratishni dolzarb masalaga aylantirdi. Vatanimizning barqaror taraqqiyoti uchun mavjud intellektual salohiyatini samarali ishga solish, mutaxassislarning o'z faoliyatiga ongli yondashuvini shakllantirish, ularning shaxsiy mas'uliyat va tashabbuskorlik fazilatlarini kuchaytirish katta ahamiyatga egadir. Insonning shaxsiy mas'uliyat, tashabbuskorlik hamda fidoyilik fazilatlarini esa vatanni chin dildan sevishdan, vatanparvarlikdan kuch oladi. Shu boisdan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Har qanday davlat siyosatining asosini vatanparvarlik tarbiyasi tashkil etadi”, deb alohida ta'kidlaydi. Vatanparvarlikning harakatlantiruvchi kuchi esa odamlarning o'z ma'naviy bisotlari, intellektual mulklarini nechog'lik boyitishlari, kitob mutolasiga nechog'lik kirishishlari bilan o'lchanadi. Shu sababli Prezidentimiz kitob mutolaasini rivojlantirish masalasini davlatimizning ustuvor siyosati darajasiga olib chiqdilar.

Bugun dunyoda yoshlar ongi va qalbini egallash, ularni befarq va mas'uliyatsiz qilib tarbiyalash uchun mislsiz kurash ketayotgan ekan, farzandlarimizni maqsadi g'arazdan iborat yot kuchlarning qo'lga topshirib qo'ymasligimiz kerak. Ayrim yoshlarda o'z iste'dodini namoyon qila olmaslik natijasida kelajakdan, ertangi kundan umidsizlik, ijtimoiy adolatga bo'lgan ishonchsizlik kayfiyati yuzaga kelishi ehtimoldan xoli emas, chunki hayotda omad deganlari hammaga ham kelavermaydi. Bunday holat ularning turli oqimlarga qo'shilib ketishiga yo'l ochadi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning shu yil 20-apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori ta'lim sohasidagi islohotlar samaradorligini yanada oshirish, uni jahon standartlari darajasida yetkazish, nazariya va amaliyot uyg'unligiga erishish borasidagi yangi dolzarb vazifalarni aniq-ravshan belgilab berdiki, bu vazifa ta'lim-tarbiya ishiga daxldor bo'lgan barcha mutasaddilar uchun dasturilamal bo'lishi kerak.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganida Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov bu ulug' ne'matni saqlab qolish, ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini mustahkamlash uchun, avvalo, uning ma'no-mohiyatini chuqur anglagan, qalban his etgan, mustaqil fikrlaydigan, ulug' ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan madaniy-ma'rifiy merosimizdan bahramand bo'lish bilan birga, dunyo ilmiy fan yutuqlaridan yaxshi xabardor, ularni amaliyotga tadbiq etishga qodir yoshlarni tarbiyalash davlat ahamiyatiga molik vazifa ekanini alohida ta'kidladi. Ta'lim-tarbiya jarayonini yangi talablarga moslashtirish maqsadida “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun qabul qilindi, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi yuzaga keldi. Dasturdan ko'zlangan maqsad ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni sobiq tuzum mafkurasi ta'siridan, eski qarash va qoliplardan xalos etish, yangi dunyoqarashga ega bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratish, mamlakatda ta'lim tizimini yagona o'quv-ilmiy ishlab chiqarish majmuasi sifatida aniq maqsadga yo'naltirish, jamiyatda bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlar bilan uyg'unlashtirish, tizim muassasalarini yuqori malakali kadrlar, zamonaviy texnik vositalar bilan ta'minlash, pedagogik faoliyatning nufuzi va ijtimoiy maqomini ko'tarish kabi muammolarni hal etishdan iborat edi. Buning uchun, eng avvalo, ta'lim, fan va ishlab chiqarishning o'zaro hamkorligini ta'minlash, uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimiga byujetdan tashqari mablag'lar, shu jumladan, chet el investitsiyalarini jalb etishning real mexanizmlarini ishlab chiqish zarur edi.

Istiqlol yillarida voyaga yetayotgan yoshlarning mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega, ongli yashaydigan komil insonlar bo'lib voyaga yetishishlari ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi deya e'tirof etildi. Bu esa, birinchi navbatda, ta'lim va tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi.

---

Aytish zarurki, bu vazifalar mamlakatimizda bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Jumladan, birinchi bosqichda ta'lim oluvchilarning tayyorgarlik darajasi, malakasi, ma'naviy-axloqiy saviyasiga qo'yiladigan yangi talablarni belgilab beruvchi davlat ta'lim standartlari yaratildi va amaliyotga joriy etildi. O'qitilayotgan har bir fan bo'yicha o'quv-uslubiy majmualarni tayyorlashga kirishildi. O'quvchi va talabalarning bilimini baholashning hamda ta'lim muassasalari faoliyatiga baho berishning reyting tizimi ishlab chiqildi. Ikkinchi bosqichda majburiy umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga, shuningdek, o'quvchilarning qobiliyat hamda imkoniyatlariga qarab tabaqalashtirilgan ta'limga o'tish amalga oshirildi. Ta'lim muassasalarining moddiy-texnik hamda axborot bazasi yangilandi, o'quv-tarbiya jarayoni yangi zamonaviy darsliklar hamda ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan mustahkamlandi. Ayni chog'da, uzluksiz ta'lim tizimi axborotlashtirildi.

Keyingi bosqichda ta'lim sohasini isloh qilish borasida to'plangan dastlabki tajribalarni umumlashtirish asosida kadrlar tayyorlash tizimini mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariga muvofiq ravishda takomillashtirish, umumta'lim maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga alohida e'tibor berildi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining mantiqiy davomi sifatida maktab ta'limini rivojlantirish umum-milliy davlat dasturi qabul qilindi. Ushbu dasturda mamlakatimizdagi o'n mingga yaqin umumta'lim maktablarining moddiy-texnik hamda pedagogik bazasini yanada mustahkamlash, o'qituvchilarning mehnatini moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantirish muhim vazifa sifatida kun tartibiga qo'yildi.

Mustaqillik yillarida jamiyat hayotini yangilash, yangi boshqaruv tizimini joriy etish, xalqimizning azaliy qadriyatlari, tili va dini, g'urur-iftixorini joy-joyiga qo'yish, o'tmish tariximizga oid soxta talqin va ayblovlardan qutulish, buyuk alloma ajdodlarimizning ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy merosidan yoshlarni bahramand etish orqali yangi dunyoqarash va tafakkur egalarini tarbiyalash borasida ko'p ishlar qilindi. Bu vazifa bugun ham dolzarb ahamiyat kasb etib turibdi.

Yoshlar bugun mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida, boshqaruvda, ilm-fan, sanoat, iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi, madaniyat, san'at va sport sohalarida yetakchi mavqega ega bo'lib turishibdi. Bir necha yillardan beri muttasil o'tkazib kelinayotgan uch bosqichli "Umid nihollari", "Barkamol avlod" va "Universiada" sport o'yinlari talabalar orasidan mustaqil O'zbekiston nomini dunyoga tanitadigan mahoratli, e'tiqodi mustahkam sport ustalarining yetishib chiqishida hamda mustaqil hayotga kirib kelayotgan farzandlarimizning har jihatdan sog'lom bo'lishlarida katta ahamiyat kasb etmoqda. Siyosiy partiyalar, xotin-qizlar tashkilotlarining yoshlar qanoti mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida faol harakat qilmoqda. Yangi avlod xalqaro siyosiy, huquqiy va iqtisodiy munosabatlarni, bank va moliya tizimini, biznes va servis sohasini chuqur o'rganib, bu borada yuksak natijalarga erishmoqda.

O'tgan asrning saksoninchi yillari so'nggida yosh avlod ta'limi va tarbiyasida bo'shliq yuzaga keldi, uni egallash uchun kurash avjiga chiqdi, niyati xolislikdan yiroq kuchlar pinhona buzg'unchi targ'ibotni kuchaytirdi. Hayotiy tajribasi yetarli bo'lmagan, voqea-hodisalarni mustaqil tahlil qilib, tegishli xulosalar chiqarishga va shu asosda fikr yuritishga o'rgatilmagan yoshlarning turli g'arazli oqimlar ta'siriga tushib, ularning xomxayol cho'pchaklariga ishonib, to'g'ri yo'ldan chalg'ish ehtimoli paydo bo'ldi. Umri tugab borayotgan tuzum va uning soxta mafkurasi esa bu to'g'rida o'ylashdan ko'ra, ko'proq o'zi to'g'risida qayg'urar, yotib qolguncha otib qol, deganlaridek, poydevori nurab borayotgan imorat devorlariga shunchaki rang berish bilan mashg'ul edi. Bunday

paytda Respublika rahbariyati yosh avlod tarbiyasiga e'tiborni har jihatdan kuchaytirdi. Chunki yosh avlodning dunyoqarashi qanday shakllanishi mustaqillikka erishgan har qanday jamiyat uchun beqiyos ahamiyatga ega. Milliy farovonlik va iqtisodiy barqarorlik katta hayot ostonasiga qadam qo'yayotgan yoshlarning zamonaviy bilimlarni chuqur egallagani, dunyoqarashining to'g'ri shakllangani, keksa avlod erishgan yutuqlardan, o'tmish ajdodlar merosidan bahramandligi va ular tajribasiga tayanib, mamlakatning ilmiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy salohiyatini ko'tarish yo'lidagi azm-u qarori, ishtiyoqi va shijoatiga bevosita bog'liq.

Shunday ekan, mamlakatimizda yangi davrning yangi avlodi dunyoqarashini milliy istiqloq mafkurasining asosiy g'oya va tamoyillari asosida shakllantirishga kirishildi. Ta'lim tizimini yagona o'quv-ilmiy ishlab chiqarish majmuyi sifatida shakllantirish va bosqichma-bosqich rivojlantirish, yangi talablarga javob bera oldigan pedagog-murabbiylar tayyorlash hamda ular malakasini oshirishga alohida e'tibor qaratildi. Soha mutasaddilari oldiga tizimni jamiyatda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar yo'nalishiga moslash, ta'lim-tarbiya ishining ilg'or dunyoviy usullarini amaliyotga joriy etish vazifasi qo'yildi. Sobiq tuzum paytida amalda bo'lgan son jihati-dan quvish, kadrlarni yuqoridan tushirilgan qat'iy reja asosida tayyorlashdek nomaqbul prinsipdan butunlay voz kechildi. Qaysi yo'nalishda qancha mutaxassis tayyorlash real hayotiy zaruratga, aniq talab va shartnomaga asoslanadigan bo'ldi.

Yangi ta'lim tizimida yoshlar bo'lajak kasblarini o'zlari erkin tanlashlari, mamlakat, jamiyat, millat oldida turgan muhim vazifalarni amalga oshirishda zimmalariga tushadigan ulkan mas'uliyatni chuqur his etishlari muhim ahamiyatga ega. Ikkinchidan, jamiyat hayotida muhim o'zgarishlar yuz berayotgan, milliy taraqqiyot yangi bosqichlarga ko'tarilayotgan, jumladan, jamiyatda yangi mulkdorlar tabaqasining shakllanishi ijtimoiy munosabatlarga o'z ta'sirini ko'rsatayotgan ekan, ta'lim tizimini yanada takomillash-tirish, uni zamon va amaliyot bilan hamnafasligini ta'minlash lozim bo'ladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorida har bir oliy ta'lim muassasasi tomonidan xorijdagi nufuzli ilmiy-ta'lim muassasalari bilan ikki tomonlama manfaatli hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayoniga yuqori malakali xorijiy olimlarini jalb etish kabi vazifalar aniq ko'rsatib o'tilgan.

Shu bilan birga, ushbu hujjatda pedagog kadrlarning kasb malakasi va mahoratini oshirib borish, ilmiy xodimlarning doimiy ravishda stajirovkadan o'tishini yo'lga qo'yish, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini PhD dasturi va xorijiy magistratura dasturlari asosida o'qitish ham nazarda tutilgan. Bu vazifalarning bajarilishi oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyatini yanada oshirish, tizimda ilmiy tadqiqot ishlarini samaradorligini ta'minlash, iqtidorli talaba-yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ularni har jihatdan qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Prezidentimizning joriy yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvi-ni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni hamda “O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi qaroriga muvofiq, yangi vazirlik oldiga maktabgacha ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, maktabgacha ta'lim muassasalari davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar, tegishli mutaxassislar bilan to'la ta'minlash, bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olishni keskin oshirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamo-



---

naviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish asosida tarbiyalanuvchilarni intellektual, ma'naviy-estetik hamda jismoniy jihatdan rivojlantirish vazifasi qo'yildi.

Ta'lim tizimida yangi vazirlik tashkil etishdan ko'zlangan maqsad aniq: bog'chada tarbiyalangan bolaning xarakteri to'g'ri shakllanadi, mohir pedagog-murabbiylar ular-dagi qiziqish yo'nalishlariga e'tibor beradilar, bu esa kasbga yo'naltirishning dastlabki va eng zarur saboqlari bo'ladi.

Bugun mamlakatimizda "2017–2021-yillarda mamlakatni rivojlantirishning besh-ta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" asosida barcha sohalarda keng ko'lamli o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ana shu islohotlarning muvaffaqiyati, mam-lakatimizning dunyodagi rivojlangan, zamonaviy davlatlar qatoridan munosib o'rin egallashi, avvalo, ilm-fan va ta'lim-tarbiya sohasining rivoji bilan, bu borada bizning dunyo miqyosida raqobatdosh bo'la olishimiz bilan uzviy bog'liq. Ayni shu maqsadda o'tgan bir yil davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi-niing bevosita ta'lim-tarbiya sohasiga daxldor yetmishdan ortiq farmon, qaror va farmo-yishlari qabul qilindi. Ushbu hujjatlar asosida hamda zamon talabi va xalqimizning xo-hish-irodasidan kelib chiqqan holda, ta'lim tizimida mohiyatan yangi islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, umumiy o'rta ta'lim sohasida 11 yillik tizimga o'tish, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarini optimallashtirish, 5 ta yangi oliy ta'lim muassasasi va filiallar tashkil etish, 16 ta universitet va institutda 12 ta yo'nalish bo'yicha kechki va sirtqi bo'limlar ochish, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, no-davlat ta'lim xizmati ko'rsatish, pedagog kadrlar va xalq ta'limi xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish bo'yicha amaliyotga tatbiq etilayotgan islohotlardan ko'zlangan maqsad aniq: mamlakatning bundan buyongi taraqqiyoti, xalqimiz hayotining yanada farovonlashuvi ta'lim-tar-biyaning samaradorligi va natijaviyligiga bog'liq. Shu maqsadda O'zbekistonda Mu-hammad al-Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishiga oid fanlarni chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan yangi maxsus maktab, Mirzo Ulug'bek nomidagi ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktab-internati, "Astronomi-ya va aeronavtika" bog'i, shubhasiz, mamlakatimizda ta'lim sifatini jahon standartlari darajasiga ko'tarishga xizmat qiladi. Ta'lim-tarbiya muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, muallimlar, professor-o'qituvchilar malakasini maxsus tizim asosida muttasil oshirib borish, buning uchun xorijdagi yetakchi ta'lim markazlari bilan ilmiy-pedagogik hamkorlikni kuchaytirish, o'quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim va axborot texnologiyalarini, yangi o'quv metodikalarini joriy etish bo'yicha ham e'tiborga molik ishlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'lim sohasini isloh qilish, kasb-hunar ta'limi tizimini yanada rivojlantirish va oliy ta'limning bakalavr yo'nalishiga qabul bo'yicha test sinovlarini takomillashtirish masalalari yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishda 2017–2021-yil-larda oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish dasturini ishlab chiqish, o'quv das-turlarini yanada takomillashtirish, pullik xizmatlar ko'rsatish va moliyalashtirishning qo'shimcha manbalarini izlashda oliy o'quv yurtlarining vakolatlarini kengaytirish yo'li bilan ularning mustaqilligi bosqichma-bosqich rivojlantirib borilishi haqida mu-tasaddi tashkilotlar rahbarlariga tegishli topshiriqlar berdi. Prezident sohada amalga oshirilayotgan ishlarni yanada takomillashtirish bo'yicha ota-onalar va o'quvchilarning fikrlarini inobatga olish, ular bilan "ochiq eshiklar" kunlari kabi tadbirlar tashkil qilib, uchrashuvlar o'tkazish kerakligini alohida ta'kidladi. Endilikda umumta'lim maktablari bitiruvchilarini ellikka yaqin kasbga o'rgatish yo'lga qo'yiladi. Buning uchun kasb-hunar

kollejlari va umumta'lim maktablari negizida zamonaviy jihozlangan o'quv ishlab chiqarish markazlari tashkil etilishi rejalashtirilgan. Shuningdek, ba'zi kasb-hunar kollejlari tegishli vazirlik va idoralarga korxonalar va tashkilotlarga birlashtiriladi. Davlat rahbari oliy ta'lim muassasalarining bakalavr yo'nalishiga bo'ladigan test sinovlarini takomillashtirish yuzasidan takliflarni ishlab chiqish, bunda rivojlangan xorijiy davlatlarda sinovdan o'tgan eng ilg'or tajribalarni tatbiq etish, test sinovlarining shaffofligini ta'minlash yuzasidan ham ko'rsatmalar berdi, yoshlarda oliy o'quv yurtlariga kirib o'qishga bo'lgan talabning oshib borayotgani, bunda muhim bo'lgan test sinovlari tizimining eskirganini qayd etdi.

Bugungi kunda shiddat bilan o'zgarib borayotgan hayot ta'lim tizimida bir-biridan murakkab va muhim masalalarni oqilona hal qilishni kun tartibiga qo'yimoqda. Ularning yechimi, birinchi navbatda, ta'lim va tarbiyaning o'zaro uyg'unligi, yoshlarning dunyoqarashini zamonaviy bilim, yuksak ma'naviyat va ma'rifat asosida shakllantirish bilan bog'liq ekan shubhasiz.

Shunisi quvonarliki, bir necha yillardan beri ta'lim bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar grant asosida moliyalashtirilmoqda. Fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar uchun ajratilayotgan mablag'lar miqdori yildan yilga oshib borayotgani, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tasarrufidagi ilmiy-tadqiqot muassasalarida ko'plab fundamental tadqiqot loyihalari amalga oshirilgani, yosh tadqiqotchilar xalqaro tanlovlarda g'olib chiqib, Vatanimiz sha'nini ulug'layotgani fikrimizga dalil bo'la oladi. Bugun biz yoshlarimizning ilmiy salohiyati, xulq-odobi, mehnatsevarligi va tirishqoqligi bilan haqli ravishda faxrlana olamiz. Mustaqil O'zbekistonimizning kelajagi, xalqimizning yanada farovon, hech bir xalqnikidan kam bo'lmagan turmushi, orzu-umidlarining to'la ushinishi bugungi yoshlarga bog'liq ekan, ular bu sharafli vazifani uddalashlariga shubha yo'q.

Axborot olamining globallashuvi sharoitida yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish, ular qalbida ona-Vatanga muhabbat, istiqloq g'oyalariga sadoqat ruhini shakllantirish, ong-shuurlarini zararli ta'sirlardan asrab-avaylash har bir murabbiydan bu ishga alohida mas'uliyat bilan yondoshishni, fidoyilik va tashabbuskorlik namunalari ko'rsatishni taqozo etadi. Yoshlar, talabalar o'z ustozlariga ergashishlari, ulardan namuna olishlari uchun ustozning o'zi bunday ibratga har jihatdan munosib bo'lishi kerak. Davrning shiddat bilan o'zgarib borishi, ilm-fan yutuqlari, yangi texnologiyalarning hayotimizga kirib kelishi, shu bilan birga, turli axborot xurujlarining avj olishi ustoz murabbiylar zimmasidagi mas'uliyatni yanada oshiradi. Bugungi pedagog o'z bilimi doirasini muntazam ravishda kengaytirib borishi, tajribalarini takomillashtirishi, yangi texnik vositalarni amaliyotda qo'llay bilishi, o'quvchilarning qiziqish va layoqatlarini to'la hisobga olishi, har bir saboqqa jiddiy hozirlik ko'rishi zarur. Bu ish murabbiy uchun chinakam faxrga, vijdon ishiga aylanmog'i kerak.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. 28-bet.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishiga oid fanlarni chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktabni tashkil etish to'g'risida”gi PQ-3274-sonli qarori. 2017-yil 14-sentabr. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 38-son, 1031-modda.

**Abduqahhor BO'STONOV,**  
**Muhammadjon TO'XTASINOV,**  
Namangan viloyati XTXQTMOI ijtimoiy-iqtisodiy fanlar  
ta'limi kafedrası o'qituvchilari

## TARIX FANINI O'QITISHDA O'QUVCHILARDA TARIXIY MANBA VA ADABIYOTLAR BILAN ISHLASH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

### Annotatsiya

Maqolada fan va ta'lim integratsiyasining dolzarbligiga e'tibor qaratiladi. Mustaqillik sharoitida yangi davr kishisini va yangicha dunyoqarashni shakllantirishda tarix fanining o'rni haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, maqolada tarixiy manbalarni o'rganish ko'nikmalari va o'ziga xosligi tushuntirilgan, tarix fanini o'qitishda o'quvchilarda manbalar bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirish bo'yicha ayrim tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar.** Fan, davlat ta'lim standarti, ta'lim tizimi, sivilizatsiya, tarix, manba, kompetensiya, darslik, tarix fani.

В статье рассматриваются актуальные вопросы интеграции науки и образования, изложены мысли о роли исторической науки в формировании нового человека и нового мировоззрения в условиях независимости. Также авторы статьи объясняют принципы и особенности изучения исторических источников, дают некоторые рекомендации по формированию у учащихся компетенций работы с источниками.

**Ключевые слова.** Наука, государственный образовательный стандарт, система образования, цивилизация, история, источник, компетенция, учебник, историческая наука.

Article focuses on the relevance of the integration of science and education, expounded the role of historical science in the formation of a new person and a new worldview in conditions of independence. Also, the authors explain the principles and features of studying historical sources, give some recommendations on the formation of students' competence to work with sources.

**Key words.** Science, state educational standard, education system, civilization, history, source, competence, textbook, historical science.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichi ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalanib borishini taqozo etadi. Ta'lim mazmunining fan va ishlab chiqarish talablariga mos kelishi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-madaniy hayoti barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standartlarining asosiy maqsadi – umumiy o'rta ta'lim tizimini mamlakatda amalga oshirayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarga, ilm-fan va zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish ayni shu zaruriyatdan kelib chiqib

qo'yilgan<sup>1</sup>. Zotan, islohotlarning muvaffaqiyati, mamlakatning dunyodagi rivojlangan, zamonaviy davlatlar qatoridan munosib o'rin egallashi, avvalo, ilm-fan va ta'lim-tarbiya sohasining rivojlanishi bilan, bu borada bizning dunyo miqyosida raqobatdosh bo'la olishimiz bilan uzviy bog'liq<sup>2</sup>.

Shuning uchun ham mamlakatimizda ta'limga oid davlat siyosatida fanning yangi yutuqlarini, ilmiy tadqiqotlar natijalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy qilishga, ta'lim jarayonini real hayot bilan uzviyligini ta'minlashga va shu asosda ta'limni insonparvarlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bu yo'nalishda bir qator hukumat qarorlari qabul qilindi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi, 2017-yil 26-sentabrdagi “Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida”gi qarorlari shular jumlasidandir.

Ta'limning barcha bosqichlarida fanni o'qitish o'z oldiga ma'lum bir maqsad va vazifalar qo'yadi. O'qituvchi o'zi o'qitayotgan fanning ta'lim tizimidagi o'rni va rolini, maqsadi va vazifalarini chuqur anglab, tushunib olishi, “nimani o'qitish kerak, nima uchun o'qitish kerak va qanday o'qitish kerak”, degan savolga konseptual jihatdan javob bera olishi zarur. Aks holda u mazkur fanning shaxsni shakllantirishdagi ta'limiy-tarbiyaviy imkoniyatlaridan to'liq va maqsadga muvofiq foydalana olmaydi. Bu prinsipial savol va uning javobi davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarining, qolaversa, darsliklarning ham mazmun-mohiyatini belgilab beradi.

Shaxs jamiyatda o'z o'rni va vazifalarini tushunib olishida, hayotiy mo'ljallarini o'zining maqsadi va ehtiyojlariga, imkoniyatlariga mos tarzda to'g'ri belgilashida ijtimoiy fanlar, xususan, tarix fani muhim o'rin tutadi. Xalqimizning insoniyat sivilizatsiyasiga qo'shgan munosib hissasiga, jahon xalqlari orasida tutgan o'rniga baho berishda, uning boy hayotiy va tarixiy tajribalaridan foydalanishda, oliyanob fazilatlar va an'analarini o'rganish hamda boyitishda O'zbekiston tarixi fani beqiyos katta ahamiyatga ega<sup>3</sup>.

Tarixga faqat fan sifatidagina qarash uni bor bo'yicha, chuqur anglash imkonini bermaydi. Tarix bu – dunyoqarash degani, tarix bu – ma'naviyat, tarix – xalq xotirasini, tarix millatning, xalqning tarjimai holi, tarix – insoniyat bosib o'tgan uzoq va mashaqqatli yo'ldir. Tarix o'zlikni anglashning, ma'naviyatni yuksaltirishning eng samarali ta'sirchan vositasidir.

Shuning uchun ham mamlakatimiz mustaqil taraqqiyot yo'liga qadam qo'ygach, yangi davr kishisini kamol toptirishda, unda yangicha dunyoqarashni shakllantirishda tarixga jiddiy e'tibor qaratildi. Zero, tarix qadriyatlarni qayta tiklash va rivojlantirishda, milliy o'zlikni anglash va yangi jamiyat qurishda ma'rifat quroli, ma'naviy-mafkuraviy mayoq sifatida xizmat qiladi.

Shunday ekan, bundan buyon ham tariximizni, tarixiy-ma'naviy merosimizni o'rganishning ahamiyati ortib boradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida”gi 187-sonli qaroriga 1-ilova. 2-bob. 4-band. 2017-yil 6-aprel. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 14-son, 230-modda.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston o'qituvchi va murabbiylariga bayram tabrigi. “Ma'rifat” gazetasi, 2017-yil 30-sentabr, 78-son.

<sup>3</sup> O'zbekiston tarixini o'qitish va o'rganishning yagona konsepsiyasi. – T., 1996. 6-b.

---

24-maydagi “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida “Boy tarixiy, ilmiy, ma’naviy-intellektual merosimizni saqlash, ilmiy tahlil qilish, uning mazmun-mohiyati va ahamiyati haqida soha mutaxassislariga, tegishli ta’lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan o‘quvchi va talabalarga batafsil ma’lumotlar berib borish, buyuk alloma va mutafakkirlarimiz asarlarini dunyo hamjamiyati o‘rtasida keng targ‘ib etish, zamonaviy ilm-fan, ma’naviyat va amaliyot rivojida undan samarali foydalanish va kelgusi avlodlarga yetkazish” vazifalari qo‘yilgan<sup>4</sup>.

O‘quv-tarbiya jarayoniga kompyuter va axborot texnologiyalarining keng joriy qilinishi va umuman jamiyatning keng axborotlashuvi tarixiy voqea-hodisalarni tushuntirishda turli yondashuv va talqinlarni ko‘paytirib yubordi. Yuqoridagi holatlar tarix fani ta’limida manbalar bilan ishlashning ahamiyatini oshirdi. Shu bois tarix fanidan umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartida fanni o‘qitish jarayonida o‘quvchilarda shakllantirilishi lozim bo‘lgan kompetensiyalardan biri sifatida tarixiy manba va adabiyotlar bilan ishlash kompetensiyasining berilishi bejiz emas. Masalaning ahamiyatligi shundaki, o‘tmishni tarixiy manbalarsiz o‘rganib bo‘lmaydi. Qolaversa, o‘quvchi mavzuga oid bilimlarni to‘ldirish va mustahkamlash uchun tarixiy manbalar va qo‘shimcha adabiyotlardan albatta foydalanishi zarur.

Davlat ta’lim standartlariga ko‘ra, tarixiy manba va adabiyotlar bilan ishlash ko‘nikmasi o‘quvchilarda tarix ta’limining dastlabki yillaridanoq shakllantirilib borilishi zarur. Xususan, 6-9-sinf o‘quvchilarida qo‘shimcha adabiyot va manbalardan foydalana olish, tarixiy-badiiy asarlar, ommaviy axborot vositalarida berilayotgan ma’lumotlarga tarix fanidan olgan bilimlari asosida munosabat bildira olish kompetensiyalari shakllantirilishi muhim ahamiyatga ega<sup>5</sup>.

Demak, o‘quvchilar mavzu matni, undagi voqea-hodisalarni darslikdan tashqari boshqa adabiyotlarga, tarixiy manbalarga asoslanib misollar bilan sharhlay olish ko‘nikmasiga, manbalar va tarixiy hujjatlar bilan mustaqil ishlay olish, ularni mustaqil o‘rganish asosida xulosalar chiqara olish malakasiga ega bo‘lishlari lozim.

Ma’lumki, tarixiy asarlarning katta qismini yozma manbalar tashkil qiladi. Tarixiy yozma manbalarni o‘rganishda xolislik, ilmiylik, qiyosiy tahlil, birlamchi manbaning ustuvorligi, kompleks yondashuv kabi prinsiplarga amal qilish talab etiladi.

Avvalo, manbalardan foydalanganda ularni birlamchi (asl) va ikkilamchi (yordamchi)ga ajratib olish kerak. Ya’ni manbalarning ishonchligi va xolisligiga ko‘ra birinchi darajalisini ikkinchi darajalisidan, asl birlamchi manbani ikkilamchi manbadan, asosiy-sini yordamchisidan farqlash zarur. Shuningdek, manba kim tomonidan bitilgani, qaysi manfaat pozitsiyasidan turib bayon qilingani muhim ahamiyatga ega.

Masalan, Amir Temur haqida birlamchi va asosiy manbalar sifatida “Temur tuzuklari”, Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”si, Ibn Arabshohning “Amir Temur tarixi”ni keltirish mumkin. Ikkilamchi manbalarga esa Salohiddin Toshkandiyning “Temurnoma” asari, rus zobiti M. Ivaninning “Ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur” asarlarini misol qilish mumkin. Lekin birlamchi manbalar ham voqea-hodisalarga yoki tarixiy

---

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. “Ma’rifat” gazetasi, 2017-yil 27-may, 42-son.

<sup>5</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-sonli qaroriga 3-ilova. 1-bob. 5-§. 2017-yil 6-aprel. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 14-son, 230-modda.

shaxslarga xolis baho bera olmaydi. Masalan, Muqanna qo'zg'oloni bo'yicha birlamchi manbalardan bo'lgan Narshahiyning “Tarixi Buxoro” asarida oq kiyimlilar va Hoshim ibn Hakimga salbiy pozitsiyadan turib baho berilgan. Yoki tarixchi Muhammad Solihning “Shayboniyнома” dostonida Muhammad Shayboniyxon “Imom az-zamon” deb ulug'lanib, Zahiriddin Muhammad Bobur qoralanadi. Tarixda bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Tarixiy manba bilan ishlashning muhim talab va tamoyillaridan biri – bu tarixiy manbalarni kompleks tarzda o'rganishdir. Hech qachon bir manba asosida jiddiy xulosa chiqarib bo'lmaydi. Shunday ekan, o'qituvchi yoki o'quvchi biror-bir mavzuni o'rganayotganda mazkur mavzuga doir turli tarixiy manbalarni to'plashi, ularni tanqidiy ruhdagi qiyosiy tahlil qilishi va shu asosda ulardan foydalanishi kerak.

Manbalarni ta'limga joriy qilish, o'quvchi va talabalarga tavsiya etish bilan bog'liq yana bir muammo mavjud. Ya'ni tarix, adabiyot, shaxs va jamiyat, san'at, ma'naviyat asoslari kabi ijtimoiy fanlar darsliklarida ayni bir voqea-hodisani turlicha talqin qilinishi holatlari uchraydi. Chunki darslik muallifi, mutaxassislar mavzuni o'zi o'rgangan manbalar asosida tushuntiradi. Natijada o'quvchi ma'lumotlarning qaysi biri to'g'ri ekanligini bilmay qiynaladi. Fikrimizcha, ta'limning barcha bo'g'inlarida bilimlarga Davlat ta'lim standartlari mavjudligi faktidan kelib chiqib, muayyan bir voqea-hodisani turli darsliklarda bir-biriga mos kelmaydigan tarzda berilishi holatlariga barham berish, ya'ni tarixiy bilimlarni bir-biriga muvofiqlashtirish lozim.

Tarixiy manbalarni fanning o'ziga xos “o'q ildizi”, ya'ni o'zagi deyish mumkin. O'quvchilarni tarix bilan tarbiyalashda, ularda tarixiy xotira va tarixiy tafakkurni shakllantirishda manbalarning ahamiyati va roli beqiyos. Shunday ekan, tarix fani o'qituvchilari, avvalo, o'zlari tarixiy manbalar va hujjatlar bilan ishlash malakasi va tajribasiga ega bo'lishlari zarur. Tarix o'qituvchisi qaysi manbadan qanday holatlarda foydalanish maqsadga muvofiqligini bilishi kerak. Chunki manbalar, tarixiy hujjatlar va qo'shimcha adabiyotlardan dars mazmuniga, uning maqsadlariga mos tarzda, o'quvchilarning yoshi, ehtiyoj va qiziqishlarini hisobga olgan holda foydalanilgandagina u kutilgan natijani beradi. Aks holda, dars jarayonini va o'quvchilarni dasturiy yo'nalishdan, fanning asosiy maqsadi va vazifalaridan chalg'itishi mumkin. Demak, tarixiy manbalar tarix fanining negizini tashkil etadi. Ularsiz tarix fan sifatida rivojlanishi, o'zining ijtimoiy funksiyasini bajarishi mumkin emas.

Yuqoridagi fikrlardan quyidagi tavsiyaviy xulosalar kelib chiqadi:

– tarix fani o'qituvchisi ta'lim jarayonida tarixiy manbalar, hujjatlarning o'rni va ahamiyatini tushunib, anglab olishi shart;

– tarixiy manbalar va hujjatlardan, qo'shimcha adabiyotlardan tarix ta'limida – bevosita darslarda yoki darsdan tashqari mashg'ulotlarda, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda foydalanish yo'llari va usullarini bilishi, ulardan foydalanish ko'nikmasi va malakasiga ega bo'lishi lozim;

– umumiy o'rta ta'limning tarix fani bo'yicha DTS talablaridan kelib chiqib, o'quvchilarni tarixiy manba va hujjatlar bilan mustaqil ishlashga o'rgatish, ularda tadqiqotchilik ko'nikma va malakalarini shakllantirish lozim;

– maktab o'quvchilari uchun chop etilayotgan tarix darsliklarida manbalar, hujjatlar va qo'shimcha tarixiy adabiyotlardan ilovalar berib, qisman xrestomatiyalashtirish kerak;

– o'qituvchi har bir dars yakunida o'quvchilar mustaqil o'rganishi uchun uyga vazifa berganda tarixiy manbalar, mavzuga oid qo'shimcha adabiyotlar tavsiya etishi zarur;

---

– “Yosh tarixchi”, Yosh o’lkashunos” to’garak mashg’ulotlari rejasida tarixiy manbalar bilan ishlash bo’yicha mavzular va topshiriqlar berilishi lozim;

– mutaxassislar tomonidan manbalarning fanni o’rganishdagi o’rni va ahamiyatini tushuntiruvchi, shuningdek, o’quvchilarda manbalar, tarixiy hujjatlar va qo’shimcha adabiyotlar bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirish bo’yicha qo’llanma va tavsiyalar, elektron axborot ta’lim resurslari tayyorlanib, maktablarga yetkazilsa, maqsadga muvofiq bo’ladi.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, “...bugungi kunda shiddat bilan o’zgarib borayotgan hayot oldimizga qo’yayotgan bir-biridan murakkab va muhim masalalarni hal qilish haqida o’ylar ekanmiz, ularning yechimi aynan ta’lim-tarbiya bilan, yoshlarning dunyoqarashini zamonaviy bilim, yuksak ma’naviyat va ma’rifat asosida shakllantirish bilan bog’liq ekaniga yana bir bor ishonch hosil qilamiz”<sup>6</sup>.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q.* – T.: O’zbekiston, 1998.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ’ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori. “Ma’rifat” gazetasi, 2017-yil 27-may, 42-son.
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O’zbekiston o’qituvchi va murabbiylariga bayram tabrigi. “Ma’rifat” gazetasi, 2017-yil 30-sentabr, 78-son.
4. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o’rta va o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to’g’risida”gi 187-sonli qarori. 2017-yil 6-aprel. O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2017-y., 14-son, 230-modda.
5. O’zbekiston tarixini o’qitish va o’rganishning yagona konsepsiyasi. – T., 1996.

---

**Tahririyat:** Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan yangi Davlat ta’lim standartlari qabul qilingach, dars jarayonini butunlay takomillashgan tarzda o’qitish zarurati yuzaga keldi. Ayniqsa, bunda o’quvchilarda tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish muhim o’rin tutadi. Shu jihatdan muallifning maqolada keltirgan tavsiyalari va fikrlari umumiy o’rta ta’lim muassasalaridagi tarix fani o’qituvchilari va o’quvchilar uchun foydali sanaladi.

---

<sup>6</sup> O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O’zbekiston o’qituvchi va murabbiylariga bayram tabrigi. “Ma’rifat” gazetasi, 2017-yil 30-sentabr, 78-son.

**Oygu BERDIYEVA,**

Surxondaryo viloyati XTXQTMOI tabiiy va aniq fanlar kafedrası mudiri,  
pedagogika fanlari nomzodi

## MATEMATIKA DARSLARIDA MATEMATIK TUSHUNCHA VA TA'RIFLARNI O'RGATISH USULLARI

### Annotatsiya

Maqolada o'quvchilarga geometriya fanini o'qitishda ta'riflanadigan va ta'rifsiz qabul qilinadigan tushunchalarni o'rganish, ta'riflarni bilish va to'g'ri yod olish nihoyatda muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida so'z yuritilgan. Muallif fikricha, matematik ta'riflar o'quvchining fikrini tartibga soladigan, mulohazalarni aniq bayon etishga o'rgatadigan vositalardan biridir.

**Kalit so'zlar.** Matematik atama, tushuncha, ta'rif, nuqta, kesma, uchburchak, mediana, bissektrisa.

Статья посвящена изучению определяемых и неопределяемых понятий при обучении геометрии в школе, знанию определений и заучиванию наиболее значимых из них.

**Ключевые слова.** Математическое определение, понятие, характеристика, точка, отрезок, треугольник, медиана, биссектриса.

Article is devoted to the study of definable and undetectable concepts in the teaching of geometry in the school, knowledge of definitions and the memorization of the most significant of them.

**Key words.** Mathematical definition, concept, point, segment, triangle, median, bisector.

**Y**oshlar tarbiyasi barcha zamonlarda ham eng muhim, insoniyat kelajagini belgilovchi masala bo'lgan va shunday bo'lib qoladi. Shu bois mamlakatimizda yoshlar kamoloti masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bugun har bir o'quvchi-yoshlarda faol hayotiy nuqtayi nazar, aniq bir maqsadga intiluvchanlik, ijtimoiy harakatchanlik shakllanib borayapti. Bu jarayonda o'quvchilarning matematik tushunchalarni to'g'ri tushunishi ularda qat'iy pozitsiyaga ega bo'lishga asos bo'ladi. Zero, haqiqiy dunyodagi biror narsa yoki hodisa haqidagi tushunchaning ta'rifi "narsa yoki hodisaning asl o'zi nima?" degan savolga javob beradi. Fanda odatda "ta'rif deganda, qaralayotgan tushunchalarni boshqalardan farqlashga, fanga kiritilgan yangi atama mazmunini oydinlashtirishga imkon beruvchi mantiqiy usul tushiniladi". Shuning uchun "ta'rif" orqali ikkita har xil mantiqiy amalni belgilash nazarda tutiladi: birinchidan, yangi tushunchaning mazmunini ochib berish; ikkinchidan, shu tushuncha tafsilotining o'rnini bosuvchi yangi atama kiritish.

Tushunchalarning muhim belgilarini o'zlashtirishda ularning ta'riflari asosiy rol o'ynaydi.



---

Maktab o'quvchilari ta'rif atamasi bilan asosan, geometriya darsida tanishadilar. Ma'lumki, ta'rif – yangi tushunchaning (atamaning) avvaldan ma'lum bo'lgan tushunchalar ifodasidir.

Geometriya, umuman, matematika fanidan boshqa fanlarda ham yangi tushunchalar kiritiladi, ammo ular ta'rif deb atalmaydi. Balki boshqa fanlardagi yangi tushunchalar ta'rif deb atalsa, bu so'zga e'tibor yanada ortgan bo'lar edi. Chunki ta'rifga e'tibor berish, uni yod olish, o'quvchida o'z fikriga e'tiborli bo'lishni va ishlatayotgan so'zlaridagi har bir jumlaning ahamiyati qanchalar katta ekanini anglashni o'rgatadi.

Biz quyida geometriya fani tushunchalari misolida ta'riflarning ahamiyati va uning fikr bayonidagi o'rni haqida so'z yuritamiz. Geometriyada ta'rifsiz qabul qilinadigan tushunchalar mavjud. Bular asosiy tushunchalar deb ataladi va ular to'g'ridan to'g'ri qabul qilinadi, ya'ni o'quvchi uchun bu narsa ma'lum deb hisoblanadi. Masalan, darsliklarda ta'rifsiz qabul qilingan asosiy tushunchalar deb – nuqta, to'g'ri chiziq olingan. Shunday darsliklar borki, ularda asosiy tushuncha deb – nuqta va kesma tushunchasi olingan. Asosiy tushunchalar keyingi kiritilayotgan atamalar va tushunchalarni ta'riflash uchun xizmat qiladi. Demak, yangi tushunchalar kiritilayotganda o'quvchi bu asosiy tushunchalarni biladi, deb hisoblanadi. Nuqta va to'g'ri chiziq asosiy tushuncha qilib olinganda, kesma tushunchasiga ta'rif beriladi.

Masalan, ta'rif: *kesma deb, to'g'ri chiziqning ikki nuqtalar orasidagi qismiga aytiladi.*<sup>1</sup>

Demak, kesmaning ta'rifida “ikki nuqta orasida” degan ibora ishlatiladi. Bunda bu ibora o'quvchi uchun ma'lum deb hisoblanadi. Aslida esa bu iborani o'ziga ham ta'rif berilishi zarur. Chunki bu tushuncha oddiy ko'ringani bilan ilmiy nuqtayi nazardan bahslarga sabab bo'lishi mumkin.

Agar nuqta va kesma tushunchasi asosiy tushuncha qilib olinsa, to'g'ri chiziqni ta'riflash imkoniy paydo bo'ladi. Bunday yondashishning afzallik tarafi shundaki, kesmani o'quvchiga misollar yordamida ko'rsatish, tushuntirish mumkin. Kesmaning ikki uchi borligi va u uchlari orasidagi nuqtalardan tashkil etganligini o'quvchi aniq misollar yordamida ko'rishi mumkin. Ammo to'g'ri chiziqqa ta'rif berish uchun kesmani davom ettirish tushunchasi kiritiladi.

Bu tushuncha ham aniq amaliy misollar bilan yoritib berilishi mumkin. Masalan, ikkita qalamni olib, “qaysi biri uzun” deb so'ralganda o'quvchi ularning bittadan uchini ustma-ust qo'yib, ikkinchi uchlarning qanday joylashishiga ahamiyat beradi. Bunda faqat ikki hol bo'lishi mumkin. Ikkinchi uchlar ustma-ust tushadi yoki biri ikkinchisining davomida yotadi. Demak, o'quvchi kesmani davom ettirishni amalda aniq misol yordamida ko'rishi va idrok etishi mumkin.

Kesmaning bir uchini istalgancha davom ettirishdan hosil bo'lgan shakl – nur deb ataladi. Shuningdek, kesmaning ikkala uchini davom ettirishdan hosil bo'lgan shaklga esa to'g'ri chiziq deb ta'rif beriladi. E'tibor qaratish lozimki, bunda “istalgancha davom ettirish” degan ibora ishlatiladi. Maktab o'quvchilari ko'pincha “cheksiz davom ettirish” iborasini ishlatadi. Ammo “cheksiz” – bu tushunchaning o'zi ham ancha ilmiy munozaraga sababchi bo'ladigan atamadir. O'quvchining tasavvurida “cheksiz” – tushunchasini tarbiyalashdan ko'ra “istalgancha” – tushunchasini rivojlantirish ancha oson

---

<sup>1</sup> Alixonov S. Maktabda matematika o'qitish: Ped. oliyog'larining matematika fak. talabalari va maktab o'qituvchilari uchun qo'llanma. – T.: O'qituvchi, 1992. 200-b.

bo'lsa kerak. Haqiqatdan ham, amalda biz asosan tekislik va to'g'ri chiziqning chekli qismidan foydalanamiz. Ammo uni istalgancha davom ettira olamiz deb hisoblaymiz.

Biz yuqorida keltirilgan ikki xil asosiy tushuncha kiritishning qaysi biri yaxshi, qaysi biri yomon deb aytish fikrida emasmiz. Bizningcha, har bir o'qituvchi bu yo'ldan birini aniq tanlashi va natijada hosil bo'ladigan fikrlar ketma-ketligiga e'tiborli bo'lishi zarur. Asosiy tushunchalarning qanday tanlanishi kiritilayotgan ta'riflarning mazmun-mohiyatiga ta'sir qiladi.

Geometriyada tushunchalarning ikki turi qaraladi:

1) geometrik obrazlarni xarakterlovchi tushunchalar, masalan, "nuqta", "to'g'ri chiziq", "burchak", "trapetsiya" va h.k.;

2) Geometrik obyektlar o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlarni aks ettiruvchi tushunchalar, masalan, o'xshashlik (figuralar uchun), "...da yotadi", "...orqali o'tadi" (nuqta va to'g'ri chiziq uchun), "kesishadi" (to'g'ri chiziq uchun) va h.k.<sup>2</sup>

Geometrik tushunchalarni bunday ikki turga bo'lish undagi mashqlarni ham ikki turga bo'lishni taqozo etadi:

1) geometrik tushunchalarning mohiyatini ochib beruvchi mashqlar;

2) geometrik munosabatlarning mohiyatini ochib beruvchi mashqlar.

Matematik masalalar esa:

– o'quvchilarni yangi tushunchani o'zlashtirishga tayyorlaydi;

– o'quvchilarga o'rganilayotgan tushunchaning hajmi va mazmunini ochish imkonini beradi;

– o'quvchilarning tushunchalarning mantiqiy tuzilishini tushunishlariga ko'maklashadi.

Tekislikdagi geometriyaning asosiy qismi uchburchak va uning elementlari xossasiga bag'ishlangan. Uchburchak medianasi, bissektrisasi, balandligi kabi tushunchalar va ularning xossalari bag'ishlangan ko'plab mavzular va masalalar berilgan. Uchburchakka bog'liq yangi bir kesma va ta'rif berish yo'li bilan bu uchta muhim tushunchani bir atamaga keltirish mumkin.

Ta'rif: *Uchburchak uchi bilan qarshi tomonda yotuvchi nuqtalarni tutashtiruvchi kesma cheviya deb ataladi. Bunda mediana, bissektrisa va balandlik cheviyaning xususiy hollari bo'lib qoladi.*

J.Chevi XVII asrda yashagan fransuz matematigi. Cheviya va uning xossalari bilan tanishish iqtidorli o'quvchilar uchun qiziqarli mashg'ulotlardan biri bo'lishi mumkin.

Darsda o'qituvchi quyidagilarni e'tiborga olishi lozim:

– matematika fani o'qituvchisi ta'rifga katta e'tiborli bo'lishi;

– o'quvchilar ta'riflarni yod olishiga erishish.

Matematika fanidan boshqa fanlarda ham asosiy tushunchalar yordamida yangi tushunchalarga aniq ta'rif berilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki ta'rif o'quvchining fikrini tartibga soladigan, mulohazalarni aniq bayon etishga o'rgatadigan vositalardan biridir.


Matematik ta'riflar buzilsa:

1. Hamma tomonlari teng bo'lgan to'g'ri to'rtburchak kvadrat deyiladi. Agar yuqoridagi ta'rifda "to'g'ri" so'zi tushurib qoldirilsa, rombning ta'rifi hosil bo'ladi, ya'ni: Hamma tomonlari teng bo'lgan to'rtburchak romb deyiladi.

<sup>2</sup>Ikromov J. Maktab matematika tili – T.: O'qituvchi, 1977. 196-bet.

Endi savol tug'iladi: bu ikkinchi ta'rif to'g'rimi?


Ta'rif to'g'ri ekanligini isbotlash uchun ta'rifda berilgan to'rtburchakning parallelogramm ekanligini ko'rsatish kerak.



ABCD ta'rifda tasvirlangan hamma tomonlari teng bo'lgan to'rtburchak bo'lsin. Uchburchaklar tengligining uchinchi alomatiga ko'ra:

$\triangle ABD = \triangle CDB$ . Bunda  $\angle BAD = \angle DCB$  tenglik kelib chiqadi.  $\angle CBA = \angle ADC$  tenglikni ham yuqoridagi kabi isbotlash mumkin.  $\angle BAD = \angle DCB = \alpha$ ,  $\angle CBA = \angle AOC = \beta$  bo'lsin:  $\alpha + \beta + \alpha + \beta = 360^0$

$$\alpha + \beta = 180^0$$




ABCD to'rtburchakning qarama-qarshi burchaklari teng, qo'shni burchaklari yig'indisi esa  $180^0$  ga teng. Demak, ABCD to'rtburchak – parallelogramm va 2-ta'rif to'g'ri.

2. Qarama-qarshi tomonlari parallel to'g'ri chiziqlarda yotadigan to'rtburchak parallelogramm deyiladi.

Endi ta'rifdagi parallel so'zidan keyin perpendikulyar so'zini kiritamiz.

2.1. Qarama-qarshi tomonlari parallel va perpendikulyar to'g'ri chiziqlarda yotadigan to'rtburchak trapetsiya bo'ladi.

2-ta'rif oxirida "deyiladi" so'zining o'rniga "bo'ladi" so'zi ishlatildi, chunki 2-ta'rifni trapetsiyaning aniq ta'ri deb qabul qila olmaymiz. Trapetsiya qarama-qarshi tomonlarining bitta jufti parallel to'g'ri chiziqlarda yotadi, lekin qarama-qarshi tomonlarining 2-jufti perpendikulyar to'g'ri chiziqlarda yotmagan holatda ham hosil bo'lgan to'rtburchak trapetsiya bo'ladi.




$a$  va  $b$  perpendikulyar to'g'ri chiziqlar.  $c$  va  $d$  o'zaro parallel to'g'ri chiziqlar. ABCD to'rtburchakning AB va CD tomonlari  $a$  va  $b$  to'g'ri chiziqlarda, BC va AD tomonlar  $c$  va  $d$  to'g'ri chiziqlarda yotadi. ABCD to'rtburchak trapetsiyadir.

3. O'quvchilar tomonidan uchburchakning balandligiga ko'p hollarda quyidagi noto'g'ri ta'rif beriladi.


Uchburchakning uchidan qarshisidagi tomoniga tushirilgan perpendikulyar uchburchakning berilgan uchidan tushirilgan balandligi deyiladi.

Savol tug'iladi: yuqoridagi ta'rifdagi xatolik nimadan iborat? Odatdagi ta'rif-ku, mana ABC uchburchak, A uchidan BC tomoniga AD perpendikulyarni tushiramiz, yuqoridagi ta'rifga ko'ra AD perpendikulyar A uchidan tushirilgan balandlik ta'rifiga hech qanday kamchilik yo'q-ku?



1-rasm

Lekin hammasi B yoki C burchaklardan biri o'tmas burchak bo'lgandan boshlanadi. (2-rasm)



2-rasm

Rasmdan ko'rinib turibdiki, A uchidan BC tomonga perpendikulyar tushirib bo'lmaydi. Ilmiy jihatdan buning iloji yo'q, lekin bundan A uchdan tushirilgan balandlik mavjud emas ekan, A uchdan balandlik tushirib bo'lmas ekan degan xulosaga kelmaslik kerak. Yuqoridagi ta'rifning kamchiligi 2-rasm yordamida ko'rilgan misolda namoyon bo'ladi.

Endi to'g'ri ta'rifni keltiramiz.

Ta'rif: *Uchburchakning berilgan uchidan tushirilgan balandligi deb, shu uchdan qarshisidagi tomon yotgan to'g'ri chiziqqa tushirilgan perpendikulyarga aytiladi.*

4.1-ta'rif: Hamma tomonlari teng bo'lgan qavariq ko'pburchak muntazam ko'pburchak deyiladi.

Yuqoridagi ta'rifga o'zgartirish kiritamiz.


2-ta'rif: Hamma burchaklari teng bo'lgan qavariq ko'pburchak muntazam ko'pburchak deyiladi.

Endi 2-ta'rifning o'rinli bo'lishini isbotlashga harakat qilib ko'ramiz.

$A_1A_2A_3, \dots, A_n$  ko'pburchakning barcha burchaklari teng bo'lsin. Bu ko'pburchakning muntazam ko'pburchak ekanligini isbotlaymiz.

Faraz qilaylik,  $A_1A_2A_3, \dots, A_n$  ko'pburchak muntazam ko'pburchak bo'lmasin.

$A_1A_2 = a$ ,  $A_2A_3 = b$ ,  $A_3A_4 = a$  bo'lsin.  $a > b$  bo'lsin.



$A_1$  va  $A_2$  burchaklarning bissektoralari  $O$  nuqtada kesishsin. Qilgan farazimizga ko'ra  $A_3$  burchakning bissektoralari  $O$  nuqta orqali o'tishi mumkin emas. Agar  $A_3$  burchak bissektoralari  $O$  nuqta orqali o'tsa,  $\Delta A_1 A_2 O$  va  $\Delta A_2 A_3 O$  uchburchaklar teng bo'lib qolar edi. Bu tenglikdan  $A_1 A_2 = A_2 A_3$  kelib chiqar edi. Lekin biz  $a > b$  deb faraz qilganmiz. Xo'sh farazimizni davom ettiramiz. Mulohazalarimiz tushunarliroq bo'lishi uchun ko'pburchakning barcha burchaklari  $2\alpha$  ga teng bo'lsin.

$A_3$  burchak bissektoralari  $A_2 O$  tomonni kesib o'tadi (faraz qilaylik  $K$  nuqtada).  $A_n$  burchak bissektoralari  $O$  nuqta orqali o'tadi.  $\Delta A_1 A_2 O = \Delta A_3 A_4 O$  bo'lganligi uchun,  $\angle A_2 A_3 K = \alpha$  va  $\angle A_4 A_3 O = \alpha$  kelib chiqadi. Lekin bunday bo'lishi mumkin emas. Biz ziddiyatga duch keldik. Demak, qilgan farazimiz noto'g'ri,  $a = b$  va  $A_1 A_2 A_3, \dots, A_n$  ko'pburchak muntazam ko'pburchak.

Shunday qilib, matematik tushunchalarni bayon qilish uslubida barcha tushunchalarni o'quvchilar ongiga yetkazish, ular olishi zarur bo'lgan bilimlarning osonroq usulda o'zlashtirishlari uchun keng imkoniyatlar yaratib beradi. Bunday ish, o'z navbatida, o'qitish sifati va samaradorligini yuqori bosqichlarda ko'tarilishiga olib keladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alixonov S. *Maktabda matematika o'qitish: Ped. oliygohlarining matematika fak. talabalari va maktab o'qituvchilari uchun qo'llanma.* – T.: O'qituvchi, 1992. 200-b.
2. A'zamov A.A., va boshqalar. *Geometriya. 7-sinf uchun darslik,* – T.: Yangiyo'lpoligrafservis, 2013. 158-b.
3. Xo'jayev B, Bahromov F. va boshqalar. *Geometriya. 7-sinf uchun darslik.* – T.: Sharq, 2004. 144-b.
5. Ikromov J. *Maktab matematika tili* – T.: O'qituvchi, 1977. 196-b.

Saodat SHOMAQSUDOVA,

O'zbekiston Milliy universiteti jurnalistika fakulteti katta o'qituvchisi

## MATN TURLARI VA SO'Z TUZILISHI — ADABIY TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHNING USTUVOR OMILIDIR

### Annotatsiya

Maqolada matn va uning turlari, matn yaratish tamoyillari, matnli muloqotning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiluvchi lisoniy-uslubiy vositalar, nutqiy birliklarni o'rganish va ularni misollar bilan tahlil qilish haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, matn yaratish, matnda til vositalaridan, nutqiy birliklardan unumli foydalanish yo'llarini egallash kabi masalalari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar.** Matn, tamoyil, muloqot, tahlil, mikromatn, vosita, ko'nikma, mahorat, jurnalist.

Статья посвящена изучению текста и его видов, принципов создания текстов, места и роли мастерства журналиста в создании текстов, средств, обеспечивающих совершенство печатных текстов, лексическо-стилистических единиц, оказывающих экспрессивное воздействие на письменную речь. Отдельное внимание уделено изучению процесса создания текста, применению в нем языковых средств и речевых единиц.

**Ключевые слова.** Текст, принцип, общение, анализ, микротекст, средство, навык, мастерство, журналист.

Article is devoted to the study of the text and its types, principles of creation of texts, the place and role of the skill of the journalist in creating texts, means to ensure the perfection of the printed texts, lexical and stylistic units that have an expressive impact in writing. Also, special attention is paid to the study of the text generation process, the use therein of language means and speech units.

**Key words.** The text, principles, communication, analysis, micro, money, skill, skill, journalist.

**T**a'lim taraqqiyotida tilning o'rnini hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi. Til – ulkan xazina. Har bir ijodkor bu xazinadan o'z ruhiy ehtiyoji va ijodiy mahorati doirasida foydalanadi. “Aslida o'zbek tilining tasvir imkoniyatlari, ichki salohiyati juda yuqori. Buni faqat iste'dodli yozuvchilar o'z asarlarida ko'rsata oladi. O'lik tilni tiriltiradigan ham, tirik tilni o'ldiradigan ham yozuvchilardir”<sup>1</sup>. Darhaqiqat, shu nuqtayi nazardan juda katta mas'uliyat shoir va adiblarning zimmasiga tushadi. Zotan, muayyan fikrning moddiy ko'rinishi o'laroq yaratilgan matn yuzlab, hatto minglab nusxada tarqalishi va shu asosda o'quvchining ruhiy dunyosiga kirib borishi mumkin.

Matn ustida ishlash mahorati til rivoji va tafakkurni kengaytirish yo'lidagi harakatning amaliy ifodasi bo'lgani uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda, har qanday publitsistik asarning til taraqqiyoti jarayonda tutgan o'ziga xos o'zni bo'ladi. Albatta, barcha ijod namunalari ham estetik voqelik maqomiga ko'tarila olmaydi. Masalaning ayni jihati yozuvchining matn ustida ishlash mahoratiga, so'zni his qila bilish

<sup>1</sup> Karimov B. Badiiy nasr tili va davr. // O'zAS. 2008.

qobiliyatiga va uning barcha ijodiy o'ziga xosliklarini qamrab oluvchi uslubiga borib taqaladi.

Matn va uslub, til estetikasi xususida fikr yuritishdan avval matnning o'zi nima ekanligiga oydinlik kiritib olish lozim. Aytish joizki, "matn" atamasi bir qator adabiyotlarda turlicha izohlangan. O'zbek tilining izohli lug'atida<sup>2</sup> "matn" so'zining arabchadan o'zlashganligi, eskirgan kitobiy so'z ekanligi va aynan "tekst" so'zi anglatgan ma'noga teng ekanligi ta'kidlangan. Izohli lug'atning 156-betida "tekst" so'ziga quyidagicha ta'rif beriladi:

1. Yozilgan, ko'chirilgan yoki bosilgan ijodiy, ilmiy asar, nutq, hujjat va shu kabilar yoki ularning bir parchasi; matn. Maqolaning teksti.

2. Musiqa asariga, masalan, biror kuyga, opera, romans va shu kabilarga asos bo'lgan she'r, so'z.

3. Poligrafiyada yirik shriftlardan birining nomi.

Albatta, yuqoridagi bandlar matnning to'liq ta'rif va xususiyatini qamrab olgan, deyish qiyin. Chunki axborot-kommunikatsiya vositalarining rivoji bilan bevosita bog'liq ravishda "Word matn", "RTF matn", "oddiy matn", "formatlangan matn", "gipermatn" kabi yangi atamalar ham paydo bo'ldi. Demakki, matn atamasi anglatgan ma'noning ko'lami yanada kengaydi.

Ma'lumki, nutq og'zaki va yozma shaklda ifodalanadi. "Nutqning yozma shakli matn atamasi ifodalaydigan mazmunga muvofiq keladi"<sup>3</sup>. Demak, nutqning yozma shakl olishi – bu matn. Shu ma'noda har qanday nutq muayyan fikrning ifodasi bo'lgani kabi har qanday matn ayni bir munosabatning yozma ko'rinishida moddiylik kasb etishidir. U "faqat obyektiv informatsiyadan iborat bo'lmay, balki o'ziga pragmatik mazmuni ham qamrab olgan nutqning material ko'rinishidir"<sup>4</sup>.

"Umuman, matn deyilganda nutqiy jarayon mahsuli bo'lgan, tugallangan, yozma shaklda mavjud bo'lgan, adabiy shakllangan, superfrazali birliklardan tuzilgan, leksik, grammatik, logik, stilistik aloqalar bilan bog'langan, aniq maqsadli va pragmatik qurilmali nutqiy asarni tushunmoq kerak"<sup>5</sup>.

Matn uslubiy mohiyatiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- ilmiy matn (tezis, maqola, ma'ruza, annotatsiya, taqrizlar);
- badiiy matn (nasriy va nazmiy asarlar);
- rasmiy matn (ma'lumotnoma, qaror, buyruq, tavsifnoma, tavsiyanomalar);
- ommabop matn (maqola, suhbat, tabrik va xitob nutqi matnlari).

Tilshunos olim M.Yo'ldoshev matnni hajm va mazmun belgisiga ko'ra ikkiga ajratadi:

1. Hajm belgisiga ko'ra matn tiplari: a) minimal matn (mikromatn); b) maksimal matn (makromatn).

2. Ifoda maqsadi va mazmun belgisiga ko'ra matn tiplari:

a) hikoya mazmunli matn;	f) xabar mazmunli matn;
b) tasviriy matn;	g) buyruq mazmunli matn;
d) izoh mazmunli matn;	h) hissiy ifoda mazmunli matn. <sup>1</sup>
e) didaktik matn.	

<sup>2</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. – M.: Русский язык, 1981. 425-b.

<sup>3</sup> Yo'ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – T.: TDPU, 2007. 10-b.

<sup>4</sup> Матвеева Т.В. Функциональные стили в аспекте текстовых категории. – Свердловск, 1990. С.-5

<sup>5</sup> Yo'ldoshev M. O'sha asar. 11-b.

Mikromatn kichik hajmga (hatto bitta gapdan iborat bo'lgan) ega bo'lgan, tugal mazmun kasb etgan asardir. Mikromatn deyilganda biror mavzuni yoritishga bag'ishlangan qatralar, xalq donishmandligini ifodalaydigan maqol, matal va aforizmlar, mini-atyuralar, hajviy asarlar, nomalar, she'r va she'riy parchalar, umuman, kichik mavzuni qamrab oluvchi bir necha gaplardan iborat butunlik tushuniladi. Matnning ichki tomonini mazmun yaxlitligi, tashqi tomonini esa turli shakldagi bog'lamalar, sintaktik vositalar birlashtirib turadi. Bunga misol qilib O'tkir Hoshimovning “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” nomli kitobida berilgan matnlarni keltirishimiz mumkin. Masalan, “Bilimdon” sarlavhali matn: “Hamma narsani bilaman, deydigan odam hech narsani bilmaydi!” Yoki “Xudbin” nomli matn: “O'zidan boshqa hammani yomon ko'radigan odam oxir oqibat o'zidan boshqa hammaning nafratiga yo'liqadi.”<sup>6</sup> jumlasidan iborat.

Ushbu matn bitta gapdan tashkil topgan bo'lsa ham tugal fikr berilgan va o'zining mazmun-mohiyati bilan ajralib turadi. Hatto shu matnlarga sarlavha qo'yilishi matnga qo'yiladigan talabga to'liq amal qilinganligidan dalolat beradi. Yana ushbu misollarga e'tiborni qaratsak: “Sun'iy yo'ldosh yaratildi-yu sayyoramiz global teatrga aylandi-qo'y-di, bu teatrdam hamma aktyor, tomoshabin esa yo'q.”, “G'ildirak oyoq uchun qanday qulaylik yaratgan bo'lsa, til, nutq, so'z ham aql uchun ana shunday vazifalarni ado etadi.”<sup>7</sup>

Bu jumalalarda fikr tugalligi mavjud bo'lib, yaxlit matnni yuzaga keltiradi. Mikro (kichik) matn yaxlitligi, bir butunligi shakl va mazmun, mavzu va muloqot uyg'unligidan yuzaga keladi.

Makromatn – katta hajmga ega bo'lgan yozma matn. U qismlar, boblar, paragraflardan tashkil topgan bo'lishi mumkin. Badiiy uslubda hikoya, qissa, roman, epopeya kabi yirik hajmli asarlar makromatn hisoblanadi. Makromatn mikromatnlardan tashkil topadi. Eng kichik butunlik abzasga, eng katta butunlik esa bob (qism yoki fasl) larga to'g'ri keladi. Bunday matn tarkibida epigraf, so'zboshi (muqaddima), so'ngso'z (epilog) kabi yordamchi qismlar ham ishtirok etishi mumkin. Ular asar mazmuni va g'oyasiga, shuningdek, mavzuning tanlanishi va yoritilishiga oid ayrim masalalarga qo'shimcha izoh, sharh bo'lib keladi.

Matnning eng kichik birligi (va ko'rinishi) bo'lgan abzas ham o'ziga xos mazmuniy va tarkibiy qismlar qurilishidan iborat. Bunday mazmuniy-mantiqiy qismlar odatda kirish, asosiy qism va xulosa munosabatida tarkiblanadi hamda murakkab sintaktik butunlikni, aloqaviy tugallikni hosil qiladi. Uning mazmuniy markazini mavzu tashkil etadi.<sup>8</sup>

Maksimal matn tashqi jihatdan turlicha shakllangan bo'ladi. Masalan, Husayn Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomai sultoniya” asari muqaddima, yettita bobdan iborat. Har bir bob esa bir necha fasllardan iborat bo'lib, ularning har birida bobga oid muhim masalalar haqida alohida va chuqur fikr yuritilgan. Birinchi bob “Futuvvatning manbai, mohiyati, tariqat va odob hamda uning ruknlari haqida”, deb nomlanib, 1-fasli “Futuvvatning mazhari (mohiyati) va uning odobi haqida”, 2-fasli “Tariqatning ma'nosi va unga tegishli narsalar haqida”, 3-fasli “Tasavvufning ma'nosi, uning odobi va ruknlar haqida”, 4-fasli “Faqr va uning odobu arkoni haqida” sarlavhalari bilan berilgan. Ba'zi boblarda o'ndan ortiq fasllar mavjud bo'lib, ularning har birining o'z nomi va obyekt mavjud. Bunday holat asarning mukammalligi va izchilligini ta'minlagan. Har bitta aytilgan fikr asoslangan.

<sup>6</sup> Hoshimov O'. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. – T.: Sharq, 2013. 7-b.

<sup>7</sup> Do'smuhammad X. Axborot – mo'jiza, joziba, falsafa. –T.: Yangi asr avlodi, 2013. 302-303-b.

<sup>8</sup> Toshaliyev I. Matn uslubi. Universitet ta'limi uchun jurnalistika mutaxassisligi bo'yicha o'quv dasturlari. – T.: Universitet, 1997. 46-b.



---

Makromatn mazmuni va qurilishi muayyan qismlar, boblar, ruknlar, fasl yoki bandlar orqali ayon bo'ladi. Material mavzu matn qismlari o'rtasida munosabat bavoositadir – muloqotning umumiy maqsadi va asosiy mavzu talabi asosida bog'lanadi.

Matn sarlavhaga ega bo'lishi yoki ega bo'lmasligi mumkin. Sarlavha matnning ma'nosini qisqa shaklda aks ettiradi. Til birliklari yordamida sarlavhaning o'ziga xos uslubi belgilanadi. Buning yordamida o'quvchi matn mazmunini qisqa muddatda o'zlashtira oladi.

Gap matnning eng kichik birligi hisoblanadi. Gaplar o'zaro abzas, paragraf, boblar va boshqalarda birlashadi. Matndagi gaplar soni belgilanmagan bo'lib, gaplarning soni berilayotgan axborotni uzatish va uni yetarli bo'lishi bilan bog'liq. Ya'ni axborotning katta-kichikligi matndagi gaplar sonining hajmini belgilab beradi. Matnning hajmini yozuvchi yoki so'zlovchi belgilaydi.

Matn abzaslarga bo'linadi. Abzas – matnning kichik bo'lagidir. Abzas – yangi fikrning boshlanishi va oldingi fikrning tugaganligini ifodalovchi matnning mustaqil, grafik jihatdan ajratilgan unsuridir. Abzaslarga bo'linishi matnning kompozitsiyasini aniqlashtiradi va uning ta'sirchanligini oshiradi.

Abzas ma'lum tuzilishga ega: asosiy abzas (zachin – abzasning birinchi gapi), keyin bosh abzas fraza, so'ng bosh abzasni aniqlashtiruvchi, ochib beruvchi izohlovchi qism. Abzas xulosa bilan tugatiladi. Ba'zan asosiy abzas bosh fraza bo'lishi mumkin, agar izohlovchi qism ikki va undan ortiq abzas bo'lsa, xulosa alohida abzas qilib berilishi mumkin. Kalit so'zlar (fikrning ma'nosini ifodalovchi so'zlar) bosh abzas frazada joylashgan bo'ladi. Kalit so'z, so'z birikmasi yoki gapni topish uchun matnning tuzilmasini bilish kerak.

Abzasning asosiy xususiyati – matn qismlarini ajratish, xabarning qabul qilinishini va uni o'qishda nafasni "rostlash"ni yengillashtirishdir.

Ilmiy asarlar uchun fikrlarning tugallangan birligi kabi abzaslarning aniq tuzilishi xarakterlidir. Ilmiy asarlarda abzaslar alohida aniq mantiqiy butunlik va ketma-ketlikda bo'lishi kerak. Ko'pincha ilmiy asarlarda abzas mantiqiy reja asosida tuziladi: umumiydan xususiyga, tasdiqlashdan isbotlashga, sababdan oqibatga. Abzas yakuni – yakungacha olib keluvchi o'ziga xos mantiqiy nuqta.

Abzas asosiy mikromavzuni ajratishga, bir mikromavzudan boshqasiga o'tishga xizmat qiladi.

Mikromavzu (mikrotema) – umumiy mavzuning kichik tarkibiy qismidir. Agar matnda bir necha qism bo'lsa, har birining o'z mavzusi bor. Ko'pincha mikromavzu alohida abzas bilan ajratiladi. Abzaslar soni bilan mikromavzular sonini aniqlash mumkin.

Abzas va murakkab sintaktik butunlik – bu birlik bir-biridan yuzaga kelishi bilan va til birligi sifatida farqlanadi (abzas murakkab sintaktik butunlik kabi alohida sintaktik xoslikka ega emas), lekin bu birliklar birlashadi, vazifaviy bog'lanadi, har ikkisi ma'naviy-uslubiy rol o'ynaydi. Aynan shuning uchun ba'zan murakkab sintaktik butunlik mos kelishi, bir-birning o'rnini bosishi mumkin.

Matnni tashkil qiluvchi vositalardan biri sintaktik birliklardir. Bu – murakkab sintaktik butunlik (MSB) – tarkibiy-ma'noviy birlikni ifodalovchi sintaksisning birmuncha yirik birligidir. Demak, o'zaro bog'langan va tugallangan so'zlar guruhi (sodda, murakkab, turli oborotlar bilan murakkablashtirilgan), matn yoki og'zaki nutqning mikromavzu (kichik mavzu)sini ochib beruvchi, ohang va boshqa vositalar yordamida birlashtirilishi murakkab sintaktik butunlikni yuzaga keltiradi.

Murakkab sintaktik butunlik tarkibiga kiruvchi gaplar bir-biri bilan bemaolol birlasha oladi. Ma'no jihatidan birikadi, berilgan mikromavzuni ochib berguncha ikkinchi gapning mundarijasi birinchi gapning mazmunini o'stiradi va h.k.

Murakkab sintaktik butunlik – sintaktik-uslubiy birlikni yuzaga keltiruvchi o'zaro yaqin bog'liq tugallangan gaplar guruhidir. Murakkab sintaktik butunlikda birlashgan mustaqil gaplarning ma'no munosabatlari turli vositalar orqali mustahkamlanadi:

– leksik vositalar (keyingi gapda oldingi gapdagi alohida so'zlarni takrorlash, shaxsiy va ko'rsatuv olmoshlari, ravishlar, keyin, so'ng, shunda, u yerda, shunday va boshqalar);

– morfologik vositalar (gapda birlashgan ega-kesimning shaxs-son, zamonda mos kelgan shakli);

– sintaktik vositalar (so'z va gaplarning tartibi, lekin, ammo, shuning uchun, va h.k. bog'lovchilari, birlashtiruvchi vositalarning qo'llanilishi, qurilmaning paralleligi), ritmomusiqaviy vosita (qismlar va butunning intonatsiyasi, talaffuzi), uslubiy vositalar (anafora, epifora, leksik doira).

Og'zaki nutqda murakkab sintaktik butunlikning talaffuzi o'ziga xoslikka ega. Uning tarkibidagi mustaqil izohlovchi gap asosan, bir xil ohangda ifodalanadi. Gapning so'ngida ohangni pasaytirish va o'zaro bir xil pauza (to'xtam) bilan ajratish lozim. Bular sezilarli darajada amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Ohang pasayishi bilinib turishi, ikkita murakkab sintaktik butunlik o'rtasidagi pauza cho'ziqroq bo'lishi kerak. Bundan tashqari, keyingi murakkab sintaktik butunlikning boshlanishi ovoz tonining ko'tarilishi, ko'pincha ovoz tembrining o'zgarishi bilan xarakterlanadi.

Matn uslubiy jihatdan xoslangan bo'lishi kerak. Masalan, og'zaki, rasmiy-idoraviy, publitsistik, ilmiy, badiiy, diniy-ma'rifiy bo'lishi mumkin. Uslubiy xoslik – matnning eng muhim belgisidir.

Mukammal tarzda yozish, ijod qilish uchun har bir ijodkordan yuqorida ko'rib o'tilgan masalalarga alohida e'tibor qaratishi muhimdir. Muallif matn yaratishdan oldin faqat mavzuni aniqlab olishi emas, balki qaysi uslubda, janrda va kimlar uchun ijod qilayotganligini e'tiborga olishi kerak bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov B. *Badiiy nasr tili va davr.* // O'zAS. 2008.
2. *O'zbek tilining izohli lug'ati.* – M.: Рускый язык, 1981. 425-b.
3. Yo'ldoshev M. *Badiiy matnning lisoniy tahlili.* – T.: TDPU, 2007. 10-b.
4. *Matn tiplari haqida qarang:* Filizok R. *Metin tipleri.* <http://www.ege.edebiyat.org>.
5. Hoshimov O'. *Daftar hoshiyasidagi bitiklar.* –T.: Sharq, 2013. 7-b.
6. Do'smuhammad X. *Axborot – mo'jiza, joziba, falsafa.* –T.: Yangi asr avlodi, 2013. 302-303-b.
7. Toshaliyev I. *Matn uslubiyati. Universitet ta'limi uchun jurnalistika mutaxassisligi bo'yicha o'quv dasturlari.* – T.: Universitet, 1997. 46-b.
8. Матвеева Т.В. *Функциональные стили в аспекте текстовых категорий.* – Сперд, 1990. – С.5.

---

**Mutallib HAZRATQULOV,**

Samarqand Davlat universiteti pedagogika fakulteti o'qituvchisi

## ADABIY MAVZUDAGI INSHOLAR USTIDA ISHLASH METODIKASI

### Annotatsiya

Maqolada umumta'lim maktablari o'quvchilarining yozma nutqini nazariy-adabiy tushunchalar asosidagi insho orqali rivojlantirish metodlari ko'rsatib berilgan. Shuningdek, muallif nazariy-adabiy tushuncha asosidagi ijodiy insholarning vazifasi bu tushunchaning shakllanishini emas, balki ularni amalda qo'llash va ijodiy foydalanish haqida so'z yuritgan.

**Kalit so'zlar.** Syujet, peyzaj, insho, muhokama-insho, tasviriy insho, rivoya-insho, epigراف, hissiyot, individuallik, epizod, badiiy tasvir, obrazlilik, tasavvur, og'zaki matn.

В статье рассматриваются методы развития письменной речи учащихся общеобразовательных школ посредством написания теоретико-литературных сочинений. По утверждению автора главная цель обучения написанию сочинения заключается не в формировании теоретико-литературных понятий, а в их практическом применении и творческом использовании.

**Ключевые слова.** Сюжет, пейзаж, сочинение-рассуждение, сочинение-характеристика, сочинение-повествование, эпиграф, чувство, индивидуальность, эпизод, художественное изображение, образность, представление, устный текст.

Article deals with methods of development of written speech of students of secondary schools by writing theoretical-literary works. According to the author the main purpose of learning creative writing is not in the formation of literary-theoretical concepts but their practical application and creative use.

**Key words.** Plot, landscape, composition-reasoning, composition-characteristic, composition-narration, epigraph, feeling, individuality, episode, artistic image, imagery, representation, verbal text.

Ijod muammolariga murojaat nafaqat yangi narsani yaratish jarayonining o'zi qiziqarli ekanligi bilan, balki ijod – shaxsning har tomonlama rivojlanishida muhim komponent ekanligi bilan ham har doim olimlar diqqatini tortib kelgan. Bugungi kunda bu muammo avvalgi davrga qaraganda ancha dolzarb bo'lib, o'z vaqtida insondan o'zini o'rab turgan atrofidagi hayotni tasvirlashda ijodkorlikni, mexanik emas, balki ijodiy fikrlashni talab qiladi.

Adabiyot darolarida ijodiy faoliyatga murojaat qilish o'quvchilar nutqini o'stirish uchun ham zarur. Bu jarayonda adabiy mavzudagi ijodiy insholar muhim ahamiyat kasb etadi.

Nazariy-adabiy tushuncha asosidagi ijodiy insholarning vazifasi bu tushunchaning shakllanishini emas, balki ularni amalda qo'llash va ijodiy foydalanish bilan tanishtirishdir. O'quvchilar boshlang'ich sinfdaligidayoq "g'oya" tushunchasi bilan tanishadilar, matnning asosiy mavzusini, g'oyasini aniqlashni o'rganishadi. Ta'limning o'rta halqasida bu malakalar, shu jumladan, ijodiy insholar orqali mustahkamlanishi zarur. Bu ishning qanday amalga oshirilishini amaliy misollarda ko'rib chiqamiz.

5-sinf adabiyot darsida o'quvchilar jahonning mashhur ertakchisi Hans Kristian Andersenning “Bulbul” ertagi bilan tanishadi. Ushbu ertak asosida o'z ertaklarini yozish darsida o'qituvchi o'quvchilarga “asar g'oyasi” tushunchasini mustahkamlash maqsadida quyidagi ishlarni amalga oshirishni taklif qiladi:

Birinchidan, H.K. Andersenning “Bulbul” ertagidagi asosiy g'oya – tabiiylik, fidoyilik, oqibatlilik har qanday to'siqni yengib o'tishi, mo'jizalar yaratishga qodirligi va soxtalik, tilyog'lamalilik, sun'iylikning qoralanishidir. So'ng o'qituvchi yana qanday asarlarda shunga o'xshash g'oyalarga duch kelishi mumkinligi haqida fikr yuritishni taklif qiladi. O'quvchilar ushbu g'oya yetakchilik qilgan o'zlari avval eshitgan, mustaqil o'qigan yoki o'rgangan xalq ertaklari va adabiy ertaklarni esga olishadi. O'qituvchi g'oyaning ustiga badiiy asar quriladigan asosiy buyruq ekanligini alohida ta'kidlab ko'rsatadi. Shunday qilib, o'z ertagimizni yozish uchun “Bulbul” ertagining g'oyasidan foydalanamiz. Biroq, shu bilan birga, boshqa shartni ham qo'llash zarur: ertak, albatta, H.K.Andersenning ertagi motivlari asosida yozilishi kerak.

Darsning borishida o'quvchilar H.K.Andersenning ertagidan alohida unsurlarni olishlari zarurligini oydinlashtirib olishadi; chunki biz insho yozar ekanmiz, unsurlar ham ertakona bo'lishi zarur. Ishning navbatdagi bosqichi – inshoning janr mazmuniga tabiiy ravishda ko'chiriladigan unsurlarni izlash sanaladi. Muhokamadan so'ng oydinlashadiki, o'quvchilar o'z inshosida “Bulbul” ertagidagi quyidagi qahramonlar, narsa-buyumlar va hodisalarni qo'llash mumkin: *Bulbul, Chin imperatori, Yaponiya imperatori, oshpaz qiz, sun'iy bulbul, irkit va razil sharpalar, muloyim va chiroyli sharpalar, Bulbul sayrog'i, oltin qilich, qimmatbaho bayroq, hukmdorlik toji, Azroil.*

O'quvchilarga o'z inshosida u yoki bu qahramon, narsa yoki hodisaning vazifasini ijodiy yo'l bilan o'zgartirishi mumkinligi aytiladi. Demak, yozilajak inshoning g'oyasi aniqlandi, bosh qahramonlar tanlandi, endi asosiy fikrni mustahkamlash uchun bosh qahramonlar qanday hodisalarni boshidan kechirishlarini o'ylab topish zarur: *tabiiylik, fidoyilik va oqibatlilik har qanday yovuzlik va dahshatni, hatto o'limni ham yengishga qodir, tabiiylik va oqibatlilik – baxtli va tinch hayotning asosidir.*

Ertak ustida ishning 5-sinf o'quvchilari uchun bir muncha murakkab bo'lgan uchinchi bosqichi boshlanadi. Unda barcha qahramonlarni o'zaro bir-biri bilan bog'lash va o'z ertagini tuzilishiga ko'ra badiiy bezash amalga oshiriladi. Ushbu holatda o'qituvchi savollar tuzish orqali syujet chizig'ini rejalashtirish orqali ishni tashkillashtiradi. Bu ishning boshlanishidan oldin o'qituvchi o'quvchilarga ularning inshosidagi qahramonlar H.K.Andersen ertagidagi harakatlarni bajarishlari mumkinligini, biroq bunda muallifni aynan takrorlashdan qochish zarurligini eslatib o'tadi. O'quvchilarga o'z inshosi syujetini qurib olishga yordam beradigan savollar to'plami beriladi. Savollar to'plami turli variantlarda bo'lishi mumkin:


### **1-savollar to'plami**

1. *Imperator bulbul haqida qanday xabar topadi?*
2. *Sun'iy bulbulga qanday unvon beriladi?*
3. *Bulbulning qahramonligi nima bilan izohlanadi?*

### **2-savollar to'plami**

1. *Sun'iy bulbul kimning sovg'asi edi?*
2. *Chinakam bulbul nega imperator mukofotidan bosh tortdi?*
3. *Saroy amaldorlari qanday salbiy xatti-harakatlarga ega?*

### H.K.Andersenning “Bulbul” ertagining syujet chizig’i chizmasi



O’qituvchi ertak variantlaridan birini namuna sifatida keltiradi va o’quvchilardan mustaqil ravishda uning ikkinchi variantini yozishlarini so’raydi.

Ishning mohiyatiga ko’ra, o’ylab chiqarish istagi inson tasavvuri va xayoloti rivojlanishining yuqori darajasini namoyon qiladi va o’ylab chiqarishni o’rgatish zarurdir va o’quvchilar tasavvuri va xayolotining rivojlanishi ularning nazariy-tushunchaviy fikrlari bilan bir qatorda o’sib boradi va badiiy matnning butunligi, undagi barcha unsurlarning ajralmasligi va mustahkamligini ko’rish qobiliyati kuchayadi. O’quvchi badiiy asar yaratish jarayoniga aralashadi.

Bu ishning qanday amalga oshirilishini aniq misollar asosida ko’rib chiqish mumkin. Birinchi navbatda, “Uch og’a-ini botirlar” xalq ertagining syujet chizig’i chizmasini o’zgartirish bo’yicha o’rgatuvchi dars bilan tanishtiramiz. Ikkinchi o’rinda – o’z ertagini yozish uchun Muhammadsharif Gulxaniyning “Zarbulmasal” asaridagi “Toshbaqa bilan chayon” hikoyati syujetidan qanday foydalanishni ko’rsatamiz. Uchinchi o’rinda asarning tugallanishiga qarab o’ylab chiqarish darsining modelini taklif qilamiz.

Demak, “Uch og’a-ini botirlar” ertagi o’rganilganidan so’ng “Agar podsho uch og’a-ini botirlardan sir olmoqni bir vazirga topshirmaganida...” mavzusida nutq o’stirish darsi o’tkaziladi. Qayd etish lozimki, biz o’z tajribamizda syujet chizig’ining chizmasini tuzish topshirig’ining amalda qanday bajarilishiga diqqat qaratdik. Biroq o’quvchilarda bu malaka shakllantirilmagan bo’lsa, o’qituvchi bunday topshirqni berishdan oldin syujetning har bir unsurini berishi kerak:

*Ekspozitsiya* – asar voqealari boshlanguniga qadar qahramonlar, asar yuz beradigan o’rin-joy va tabiat tasvirining berilishi.

*Tugun* – asarda tasvirlangan voqealar rivojlanishining boshlang’ich nuqtasi.

*Voqea rivoji* – asarda voqealarning ketma-ket rivojlanishi.

*Kulminatsiya* – asar voqealarining eng yuqori, avj nuqtasi.


*Yechim* – badiiy asar voqealari rivojlanishining yakuniy nuqtasi.

Syujet unsurlari haqida tushuncha berilgach, o’quvchilar “Uch og’a-ini botirlar” ertagining syujet chizig’i chizmasini tuzadilar.

Bu ish tugallanganidan so’ng o’qituvchi o’quvchilarga syujet chizig’idagi halqalarning birida o’zgarish bo’lgan deb tasavvur qilishlarini so’raydi. Masalan, chol o’g’illarini sayohatga yo’llashdan oldin ularga teskari nasihat qilsin. Bu topshiriq o’quvchilar tasavvurini darhol qo’zg’atadi, o’qituvchi ushbu savol bilan masalani aniqlashtiradi. “Uch

og'a-ini botirlar qanday yo'l tutishardi?" 5-sinf o'quvchilari turli javob variantlarini beradi:

- a) botirlar qahramonlik ko'rsata olishmasdi;
- b) qilgan ishlari bilan maqtanib, mag'rurlikka yo'l qo'yishardi;
- d) podshoni o'z aqlari bilan lol qoldirolmasdilar.



Keyin o'qituvchi o'quvchilarga bu variantlardan birini tanlab olishlarini taklif qiladi va quyidagi savolga javob yozishlarini so'raydi: *“Endi syujetning qolgan qismlarida nima yuz beradi?”*

O'qituvchi 5-sinf o'quvchilarining ishini yengillashtirish maqsadida ularga quyidagi savollardan birini namuna sifatida beradi:

1. Botirlarga nom qozonishlarida kim(yoki nima) yordam berdi? (O'quvchilar o'zlari o'ylab topgan ertak qahramoni yoki sehrlil buyumni javob sifatida berishlari mumkin).
2. Ertakdagi qaysi voqea uning avj nuqtasi sanaladi? (Botirlarning ziyofatda aytgan gaplari, Kenjabotirning toshga aylanishi).
3. Hasadgo'y vazir botirlarga yana qanday zarar yetkazishi mumkin? (Yana biror hodisa yuz berishi mumkinmi?)


Tasavvur qilish bo'yicha ishlar tugaganidan so'ng, o'qituvchi o'quvchilar diqqatini o'zlari tomonidan mustaqil o'ylab topilgan ertak variantining asosiy g'oyasi xalq ertagining asosiy g'oyasiga mos kelishiga e'tiborini qaratadi: botirlar qiyofasidagi yaxshilik yirtqich sher, ajdaho, qirq qaroqchi va hasadgo'y vazir timsolidagi yovuzlikni yengadi. Biroq o'quvchilar yozadigan inshoning detallarini o'ylab topish zarur. Buning uchun ularga quyidagi jadvalni to'ldirish topshiriladi.

Voqea rivoji	Kulminatsiya	Yechim

O'quvchilar nimani o'ylab topganlariga qarab, inshoning rejasi tuziladi, u o'qituvchi tomonidan tahrir qilinadi va reja asosida ijodiy insho yoziladi.

Ijodiy insho yozishda Muhammadsharif Gulxaniyning “Zarbulmasal” asaridagi “Toshbaqa bilan chayon” hikoyasining janr imkoniyatlarini namoyon qiluvchi dars modelini tavsifiya qilamiz.


Demak, darsning birinchi bosqichida asarning syujet chizig‘i chizmasi tuzib olinadi:




Yuqorida biz ijodiy insho ta’limida ko‘chirishning zarurligi haqida gapirib o‘tdik. O‘qituvchi o‘quvchilarga hikoyat matnidan ertak timsollariga aylantirish oson bo‘lgan badiiy detallarni topishni so‘raydi. Keyin o‘z ertaklarining bosh qahramonlari ham aniqlanadi.

Bu ish amalga oshirilganidan keyin, chizmaning chap tomoniga ertak qahramonlari hamda detallari nomi joylashtiriladi. O‘ng tomonda esa o‘quvchilarga o‘z ertaklarining syujetini tuzishga yordam beradigan savollar yoziladi.

Bu holatda ish teskari tomondan olib boriladi: o‘quvchilar oldin savollarni o‘ylab topishadi. Shu bilan bir vaqtda ular o‘ylab topgan savol syujetning qaysi unsuriga mos kelishi ustida ham bosh qotirishadi.





Jadval ustida ishlashdan oldin o'qituvchi hikoyatning asosiy g'oyasi yangi ertakda ham aynan takrorlanishi kerakligini aytib o'tadi: do'st tanlashda adashmaslik, yaxshilikni ham bilganga qilish. Yaxshilikka yomonlik qilish, o'z manfaatini do'stidan ustun qo'yish yomon oqibatlarga olib keladi.

Darsning borishida o'quvchilar o'z ertaklarining detallarini aniqlashtirib olib, reja tuzadilar. Bu xildagi darslarning asosiy vazifasi – o'quvchilarni muayyan badiiy asar g'oyasini o'z ijodiy insholariga ko'chirishni o'rgatish hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, shaxsning ijodiy tafakkurini tarbiyalash uning bolaligidanoq boshlanadi va bu murakkab jarayonda maktab muhim bosqich sanaladi. Insonning tafakkurning nostandart tipi asosida shakllanishida adabiyot darslari alohida rol o'ynaydi, chunki badiiy asarlar o'quvchi shaxsining ruhiy doirasiga ta'sir ko'rsatish xususiyatiga ega bo'lib, rivojlanish insonning ijodiy tarbiyasiga mos keladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Husanboyeva Q. *Tahlil adabiyotni anglash yo'li*. – T.: Sharq, 2013. 346-b.
2. Qosimova K. *Ona tili o'qitish metodikasi*. – T.: Noshir, 2009. 232-b.
3. Turdiyev B. *Yozma nutqni rivojlantirish yuzasidan praktikum*. – T.: O'qituvchi, 1980. 124-b.
4. Madayev O. *Insho qanday yoziladi*. – T., 1991. 120-b.



---

**Mahfuza TO'YCHIYEVA,**

T.N. Qori Niyoziy nomli O'zPFITI mustaqil izlanuvchisi

## **ADABIYOT DARSLARIDA PEDAGOGIK VAZIFALAR: MAZMUN, MOHIYAT**

### **Annotatsiya**

Maqolada adabiyot darslarida o'quv materiali bilan ishlashda o'spirin psixologiyasining o'ziga xos jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, muallif adabiyot darslarida o'quvchilarning tafakkurini o'stirishda ko'mak beradigan bir qancha metodlarni tavsiya qilib bergan.

**Kalit so'zlar.** O'quvchi psixologiyasi, badiiy matn, o'quv materiali, o'quv jarayoni, badiiy asar tahlili, aqliy faoliyat, o'spirinlik davri.

В статье проанализированы психологические особенности учащихся-подростков при изучении учебного материала на уроках литературы. Автором предложены некоторые методы, направленные на развитие мышления учащихся на уроках литературы.

**Ключевые слова.** Психология ученика, художественный текст, учебный материал, учебный процесс, анализ художественного произведения, умственная деятельность, подростковый возраст.

Article highlights the methods of students' attitude to the literary material in accordance with the analysis, some peculiarities of individual psychology of adolescence and use in classes, based on the purpose of literary education, in working with educational material in literature lessons.

**Key words.** Student psychology, artistic text, educational material, educational process, analysis of a work of art, mental activity, adolescence.

**E**zgulik, oliyanoblik, bunyodkorlik va insonparvarlikka alohida urg'u berilayotgan ta'lim-tarbiyada milliy va ma'naviy qadriyatlarimizning o'quvchilar ongi, his-tuyg'ulariga, ma'naviyatiga kuchli ta'siri hayotiy ahamiyatga ega. Tarbiya jarayonida ajdodlarimizning boy ma'naviy merosidan unumli foydalanish o'quvchilarning nafaqat salohiyatlari ortishiga, balki mutafakkir olimlarning jahon ilmi va madaniyatiga qo'shgan hissalaridan faxrlanish, xalqining taqdiri uchun jon kuydirib mehnat qilish, ajdodlarga munosib voris bo'lishga intilish, hech kimdan kam emaslikga bo'lgan ishonch tuyg'ularining yuksalishiga yordam beradi. Bunda badiiy asarlarni qay tarzda tahlil qilib yetkazib berish ahamiyatlidir.

O'quv predmeti sifatida "Adabiyot" o'quvchida hissiy, intellektual, ijodiy, ruhiy-ma'naviy sifatlarni boyitib, dunyoqarashini shakllantiradi. Adabiyot darslaridagi o'quv materiallarini o'rganish o'quvchilarga faqat bilim beribgina qolmasdan ularning ma'naviy-estetik didini tarbiyalaydi.

Balog'at davri 15-16 yoshdan 21-25 yoshgacha bo'lgan vaqt oraliqini tashkil etib, o'spirinlik deb ataladigan bu yosh oraliq'i bolalikning tugallanib, kattalik safiga o'tish davridir. Bu davrning tavsifi, o'ziga xos jihatlari, muammolari jahon psixologiyasida keng o'rganilgan bo'lib, milliy psixologiya va pedagogikamizda esa o'ziga xos jihatga

egaligi tufayli o'zgacha yondashuvni taqozo etadi. Chunki uzluksiz ta'limning umumiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi endi shakllanayotgan ta'lim bosqichidir. Respublikamizda bolaning o'spirinlik davri maktab yoki akademik litsey, kasb-hunar kollejida o'tadi. Shu boisdan ham yurtimizda tarbiyalanuvchining aynan shu yosh bosqichida ta'lim-tarbiyaning turli yo'nalishlari bo'yicha ilmiy ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, To'ychiyeva S.M., Yusupova Sh.J., Aliyev I.T., Olimov Sh.Sh., Karimova M.O., Shirinova N.D., Yadgorov Q.M kabi tadqiqotchilar o'spirinlik paytida ta'lim oladigan o'quvchilarning yosh davrlariga oid psixologik jihatlarini tadqiq etishgan.

Yusupova Sh.J hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida o'quvchilarning tafakkurini o'stirishning ilmiy-metodik asoslarini akademik litseylar misolida o'rgangan. Olima akademik litseylarda faqat nazariy bilim bermasdan, turli amaliy vaziyatlarga munosabat bildirishni shakllantirish, ko'proq izlanish, ijodiy yondashuv, tafakkur rivojiga e'tibor qaratish lozim deb hisoblaydi<sup>1</sup>. Buning sababi sifatida o'spirin psixologiyasida ro'y beradigan eng muhim xususiyatlardan biri mustaqil fikr yuritishga bo'lgan ishtiyoqning paydo bo'lishini ko'rsatadi. Bu yoshdagi bolalar ruhiyatida o'zini katta bo'lib qolganday his etishi, o'zining mustaqil ovozi bor ekanligini isbot qilishi, hatto o'z tengqurlari orasida ham ustunlik tamoyili – liderlikka da'vo qilish holati paydo bo'lishi, fiziologik jihatdan ham yuz beradigan o'zgarishlar ham dars jarayonida o'ziga xos yondashuvning darkorligini ko'rsatib beradi. O'spirinlik davri bolaning shaxs sifatida shakllanishida asosiy bosqich bo'lib, boshqa yoshdagi bolalarga nisbatan uning pedagogik-psixologik imkoniyatlari kengroqdir. Bu imkoniyat: olamni bilishga bo'lgan ishtiyoqning baland bo'lishi, fantaziyaga moyilligining kuchlligida namoyon bo'ladi. O'z-o'zini anglash jarayoni tufayli shaxsiy fikrga ega bo'lishi, mushohada yuritish, tanqidiylik xususiyatiga ega bo'lishi kabi psixologik xususiyatlarni hisobga olish dars olib borishning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Yadgorov Q. M. akademik litseylarda adabiy asar tilini o'rgatishning lingvodidaktik asoslarini tadqiq etadi<sup>2</sup> va fanlar yo'nalishida ham o'spirinlarning psixologik o'ziga xosliklarini o'rganib, badiiy asar tilini tahlil qilishni o'quvchilar tomonidan qabul qilinishining psixologik xususiyatlarini o'rganish uchun akademik litsey talabalari eng qulay yosh hisoblanadi degan xulosaga keladi. Akademik litseylar uchun ajratilgan metodik adabiyotlar, dastur va darsliklarni tahlil qilish hamda ilg'or pedagogik tajribalar bilan tanishish va ularni umumlashtirish natijalari badiiy asar tilini akademik litseylarda o'rganish o'quvchilar aqliy-ma'naviy rivojining tarkibiy qismiga kiruvchi muhim komponent sifatida ajratish maqsadga muvofiqligi va zarurligini ko'rsatib beradi.

O'quvchi-yoshlar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyati ularning yoshi va psixologik xususiyatlarini bilish hamda hisobga olishga bog'liqdir. Bu holat burilish hisoblangan o'smirlik davrining alohida xususiyati bo'lib, u ko'proq shu davrga taalluqlidir. U psixik jarayonlarning, o'quvchi faoliyatlarining jiddiy ravishda qayta qurilishi bilan bog'liqdir. Shuning uchun o'smirlik yoshi o'zaro munosabat shakllarida, faoliyatni tashkil qilishda qat'iy o'zgarishlarni talab qiladi. O'smirlarga ta'lim-tarbiya berishda goho uchraydigan qiyinchiliklar bu yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishi qonuniyatlari va xususiyatlarini ba'zan yetarli darajada bilmaslik yoki inkor qilish natijasida paydo bo'ladi. Bu davr ijtimoiy faollikni tarbiyalash uchun ancha qo'l keladi.

<sup>1</sup> Yusupova Sh.J. Hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida o'quvchilarning tafakkurini o'stirishning ilmiy-metodik asoslari: Ped.fan.dok...diss. – T., 2005. 277-b.

<sup>2</sup> Yadgorov Q.M. Akademik litseylarda adabiy asar tilini o'rgatishning lingvodidaktik asoslari: Ped.fan.nom...diss. – T., 2007.150-b.

---

Chunki bolaning katta odamga aylanish jarayonining o'zi qiyin, bu jarayon psixikaning, odamlar bilan bo'lgan munosabat shakllarining jiddiy ravishda qayta o'zgarishi hamda hayot sharoiti va faoliyatining o'zgarishi bilan bog'liqdir.

Natijada undan kattalarning fikrlariga qarshi chiqish yoki rad etish kabi xislatlar paydo bo'la boshlaydi. Bular esa, bu davrning "qiyin", "murakkab" davr bo'lishiga sabab bo'ladi.

O'quvchilarning yosh xususiyatlarini bilish, eng avvalo, ularning ta'lim-tarbiyasini to'g'ri tashkil etish uchun muhimdir. Chunki, inson yoshi uning rivojlanishiga obyektiv mezon bo'lib, hatto undagi individual farqlarga ham bog'liq bo'lmay, me'yorda o'sadiganlar uchun bir xil bo'ladi. Umumiy o'rta, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining o'qituvchisi o'zining pedagoglik faoliyati davomida o'z kelajagini belgilagan yoki hali ham tanlagan yo'lining to'g'riligiga ikkilanayotgan o'spirin bilan ishlashiga to'g'ri keladi. O'qitishning sifati va darajasiga bog'liq holda hosil bo'ladigan qiziqish bilan munosabatda bo'ladigan o'smirdan farqli ravishda o'spirin o'quv fanlariga tanlab munosabatda bo'la oladi. O'zi tanlagan sohani egallash maqsadida oldiga qo'ygan vazifadan kelib chiqib munosabat bildiradi. Bu esa o'qituvchiga ma'lum bir mas'uliyat yuklaydi. Har bir mashg'ulotini o'quvchi psixologiyasini hisobga olgan holda tashkillashtirishga undaydi. O'spirinning o'zi uchun foydaliligini his qilishi dars jarayoniga bo'lgan munosabatga ta'sir etadi. Zero, o'quv faoliyatining o'ziga xos tarzda tashkil etilishining ta'siri ostida o'quvchining fikrlashida, aqliy ishlar xarakterida muhim o'zgarishlar sodir etish mumkin. Aqliy faoliyati barqarorlashgan o'spirinning so'z boyligi oshib, o'z fikrini to'g'ri ifodalay oladi.

Kuzatishlardan ma'lum bo'lmoqdaki, darsliklarda berilgan asarlarni o'rganish faqat an'anaviy tarzda tashkil etilsa, badiiy asar mutolaasiga ta'lim muassasasi bitiruvchisi oliy o'quv yurtiga kirish testida ball olish uchun kerak deb o'ylaydi. Bu esa darsdan kutilgan tarbiyaviy maqsad natijasini yo'qqa chiqaradi hamda o'quvchining dunyoqarashida, ma'naviyatida kemtiklik hosil qilishi mumkin.

O'qitishning sifati va darajasiga bog'liq holda hosil bo'ladigan qiziqish bilan munosabatda bo'ladigan o'smirdan farqli ravishda o'spirin o'quv fanlariga tanlab munosabatda bo'la oladi. O'zi tanlagan sohani egallash maqsadida oldiga qo'ygan vazifadan kelib chiqib munosabat bildiradi. Bu esa o'qituvchiga ma'lum bir mas'uliyatni yuklaydi hamda har bir mashg'ulotni o'quvchi psixologiyasini hisobga olgan holda tashkillashtirishga undaydi. O'quvchi o'zi uchun foydali fanni his qilishi uning dars jarayoniga bo'lgan munosabatiga ta'sir etadi. Zero, o'quv faoliyatining o'ziga xos tarzda tashkil etilishining ta'siri ostida o'quvchining fikrlashida, aqliy ishlar xarakterida muhim o'zgarishlar sodir etish mumkin. Aqliy faoliyati barqarorlashgan o'spirinning so'z boyligi oshib, o'z fikrini to'g'ri ifodalay oladigan bo'ladi.

Jiddiy tanlov – kelajak hayotini hal qilish, kim bo'lish masalasiga shubha bilan qarash o'quvchi psixikasida zo'riqish va siqilishni hosil qiladi. O'qishdan sovish, qiziqishning so'nishi, jizzakilikning kuchayishi kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladigan salbiy psixik o'zgarishlar ijtimoiy muhit bilan yengillashishi mumkin. Kattalar bilan tengma-teng muloqot qilishga, ota-onalar bilan kelajagiga oid masalalarni o'zi ishtirokida muhokama qilishga ishtiyiqi baland bo'ladi. O'smirlarga xos bo'lgan o'z ichki olamiga aloqador bo'lgan – qiziqishi va o'y-xayollari bilan o'rtoqlashish hissi bu davrda kuchli bo'ladi.

O'spirin o'smirlarga nisbatan bosiqroq, optimistiroq bo'la boradi. O'zining hissiyotlarini nazorat qila oladi. O'spirinlik davrida olamni bilish, falsafiy mushohada, psixologik

tahlil, mantiqiy fikrlash, tafakkur qirralarining rivojlanishida ishtiyoq va harakat yuqori bo'ladi. Shu bilan birga o'spirinlarda fantaziyaga bo'lgan moyillik kuchliligidan boshqa yoshdagi bolalarga nisbatan fiziologik-psixologik imkoniyatlari ko'proq ekani, olamni bilishga ishtiyoqi kuchliligini bildiradi. O'quvchilar bilan muloqot jonli, turli xil ko'rinishda olib borilishi mashg'ulotlarni qiziqarli o'tilishida katta ahamiyat kasb etadi. O'quvchi bilimining ko'lamini aniqlashtirishda “Ha va yo'q” usulidan foydalanish mumkin. Unga ko'ra o'quvchi o'qituvchi bilan savol-javob qiladi va o'quvchi bilimi baholanadi. “Ha va yo'q” usulida savolni to'g'ri qo'yish va bu orqali javobni topish mumkin bo'ladi. Savollarga o'qituvchi tomonidan izoh berib boriladi. Darslarda foydalanish bilan keyinchalik bu usulni o'qituvchi ishtirokisiz faqat o'quvchilar o'rtasida qo'llash mumkin bo'ladi va bu bir vaqtning o'zida bir necha o'quvchi bilimini nazorat qilish imkonini beradi. Metodik o'yin shartiga ko'ra ishtirokchi o'zi ishonch hosil qilmagunicha savolning javobini (asar nomi yoki asar muallifining ismini) aytmaligi lozim. Agar noto'g'ri javob berib qo'ysa, savolni bilmagan hisoblanadi va qoniqarsiz baholanadi. Shu sabab savol-javobni aniqlash uchun savol beruvchiga aniqlashtiruvchi savollar beradi. O'zi berayotgan savollar bilan bilim bazasini nechog'li ekanligini ko'rsatishi barobarida o'zlashtirganlarini takrorlaydi, mustahkamlaydi. Mushohada qobiliyati tarbiyalanadi. Jarayonda dastlabki savol bergan o'quvchi ham darsda olgan bilimlarini namoyish etadi. Badiiy asar matnini sinchkovlik bilan o'qishga, muallif qahramon tilidan berayotgan asar g'oyasiga, badiiy tasvir vositalariga sinchkovlik bilan qarashga odatlanadi.

Savol-javobda har ikki o'quvchining bilimi mustahkamlanishi lozim bo'lgan jihatlar ma'lum bo'ladi. Keyingi mashg'ulotlarda o'qituvchi aynan shunga e'tiborini qaratishi mumkin.

Ijodiy qobiliyat keng qamrovli tushuncha bo'lib, faqat san'atgina emas, balki turmushining barcha sohalarida qo'l keladi. Ijodiy qobiliyatga ega shaxs o'z oldidagi qandaydir muammoni hal qilish uchun birgina yechim bilan cheklanmasdan, unga turli tomondan baho bera oladi. Ijodiy qobiliyat ijodiy fikrlashdan rivojlanadi. O'quvchining ijodiy fikrlashini shakllantirish uchun uning hayratini, o'rgangan fikrlash qolipini buzish lozim. O'shanda unda fikrlar xilma-xilligi bunyod bo'ladi. Eng muhimi, bu xilma-xillikni o'zi kashf etadi va o'zida his qiladi.

O'quv materiali bilan ishlashning aynan ijodiy fikrlashga yo'natirilgan bir necha usullarini ko'rib chiqsak.

#### 1. “Mozaika” usuli:

Bunda asar matni bir necha qismlarga bo'lib chiqiladi va o'quvchilarga tarqatiladi. Agar hikoya kattaroq bo'lsa, bo'lingan qismlar soni ham shunga muvofiq ko'paytiriladi. Hikoyani qismlarga bo'lishda asar voqealarining yaxliligiga iloji boricha putur yetkazmaslik, voqealar tasviridagi keyingi ketma-ketlik boshlanadigan o'rinlarga e'tiborni qaratish lozim. Masalan, Said Ahmadning “Qorako'z majnun” hikoyasini o'n yetti qismga bo'lish mumkin. Bo'lingan qismlar o'quvchilarga tarqatiladi. Birinchi bo'lak o'qituvchi tomonidan o'qilishi mumkin, keyingi bo'lak kimda ekanligini faqat o'qituvchi va syujet tuzilishi, voqealar rivojiga qarab o'zining parchasi navbatdagi parcha ekanligini topgan o'quvchi biladi. Agar o'quvchi topishga qiynalsa, o'qituvchi yo'l-yo'riq ko'rsatishi mumkin. Lekin kim o'qishini aytib turishi mumkin emas. Bu o'quvchida mashg'ulotga qiziqishni so'ndirishga olib keladi. Adabiyot nazariyasi haqida ma'lumotga ega, kitobxonlik borasida ma'lum tajribaga ega o'quvchi asar voqealar oqimining yo'nalishini topishi qiyin bo'lmaydi.

---

O'quvchini izlanishga undash, munosabatlarini umumlashtirish orqali yozuvchi mahoratini kashf etish, kitobxonni estetik didini o'stirish, san'at asarini farqlashni, tanlab o'qish malakasini hosil qilishda badiiy asardan qahramon tabiatini ochadigan javoblarni ko'rsatish lozim. Inson xarakteri uning so'zlarida, xatti-harakatlarida namoyon bo'ladi. O'quvchi sezib-sezmagan o'rinlarni muammo sifatida qo'yib, muallif nima uchun bunday yo'l tutganligini izohlashni topshiriq sifatida qo'yish mashg'ulotni munozarlari tarzda o'tishiga sabab bo'ladi. Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani qahramoni Akbarali mingboshi o'quvchilarda salbiy taassurot qoldiradi. Lekin unda ham hamma insonlar kabi ijobiy xislatlar bor. Amaliy mashg'ulotlarda gap qaysi asar va qaysi qahramon haqida ketayotganligini ochiq bermay, uni topish o'quvchining o'ziga havola etiladi. Yozuvchi o'z asarida mohirlik bilan bergan o'rinlarni o'quvchiga bildirib, gap qaysi asar va qaysi qahramon haqida ekanligini, qahramonning yana qanday gap-so'zlari, xatti-harakatlari undagi insoniy fazilatlarini namoyon etishiga misollar topish so'raladi.

## 2. "Psixologik tashxis" usuli:

– Agar rahbar o'ziga ish beradigan munosib yordamchi tanlay bilsa, bu uning qanday fazilat egasi ekanligidan darak beradi.

"Taqdir to'ra, men hayronman: haligi qamoqqa olinaganlarda zarracha gunoh yo'q-ku. Bu qanday bo'ladi? Agar o'zingiz o'sha yerda bo'lsangiz ikkala boyni otardingiz...munday adolatlik podsho vaqtida ochiqdan-ochiq nohaqlik qilishga qanday yo'l qo'yiladi?" Odam tanlay biladigan, yuqori doirada oddiy kishilar manfaatini himoya qiladigan obrazni aniqlash topshirig'i o'quvchi tasavvuridagi Akbarali mingboshining yana bir jihatini o'ylab ko'rishga undaydi. Asarga yuzaki emas, yozuvchi mahorati, hayot falsafasidan kelib chiqib munosabat bildiriladi. Kitobxonlik darajasi oshadi. Estetik did shakllana boradi.

Lirik asarlarni o'rganishda shoir mahoratini o'quvchi tasavvurida yorqinroq aks ettirish uchun Abdulla Oripovning hayoti va ijodi o'rganilgan "Shoir ijodxonasida" deb shartli nomlangan didaktik materiallardan foydalanish mumkin.

*Kimdir?*

*Kimdir u?*

*Balki u menman?!*

*Balki u sizdirsiz?*

*Balki u boshqa...*

Topshiriq: Misralar qaysi she'rdan olingan? Qaysi she'rga qo'shasiz? Fikringizni asoslang.

*Bozorga o'xshaydi asli bu dunyo,*

*Bozorga o'xshaydi bunda ham*

*Ikkisi ichra ham ko'rmadim aslo*

*Molim yomon degan biror kimsani.*

Topshiriq: Misrani to'ldiring va to'rtlikni nomlang. Shoirniki bilan taqqoslang.

*Agar shu munojot rost bo'lsa agar,*

*Agar aldamasa shu sovuq simlar,*

*Gar shul eshitganim bo'lmasa ro'yo,*

---

Topshiriq: Berilgan misralardan qaysinisi she'ning davomi?: “Sen ona emassan, jallodsan, dunyo! Sen beshik emassan, dorsan, tabiat. Nahotki dunyoda shuncha g'am bordir”

*Kech kuz edi, men seni ko'rdim,*

*Derazamdan boqardi birov.*

*U sen eding, o, \_\_\_\_\_*

Topshiriq: Parcha qaysi she'rdan olingan? Misrani to'ldiring (temir odam, musofir, sevgilim, yurtim)

*Qayin og'a hisoblanar menga bu amir.*

*Zaifamiz \_\_\_\_\_ uning singlisi*

Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari akademik litseylarning ikkinchi bosqichida o'rganiladi. Asar xalq og'zaki ijodiga yaqinligi bilan o'quvchilarda qiziqish uyg'otadi. Lekin syujetining siqqligi, ba'zi so'zlarning bugungi kunda eskirganligi, asarni o'rganishga dars soatning chegaralanganligi sababli o'quvchi asarni o'zlashtirishida qiyinchilik kuzatiladi. Shu sababli bir darsda “Zarbulmasal” asaridagi badiiy-estetik ma'noni to'la anglatishning iloji yo'q. Gulxaniyning badiiy mahorati va asarning estetik qimmatini idrok etilishi uchun o'quvchilar bilimni mustaqil egallashlari va uni boshqa o'quvchilarga o'rgatishga qaratilgan faoliyatni ifodalaydigan “Bumerang” texnologiyasidan foydalanish mumkin bo'ladi. “Pedagogika” ensiklopediyasida “Bumerang” texnologiyasi o'quvchini muammoli vaziyatlarning mazmuni bilan tanishtirish, fikrini erkin bayon etish hamda muayyan tajribani bajarish davomida uni baholashga qaratilgan texnologiya sifatida ta'riflanadi<sup>3</sup>. Tahlilning individual va guruhli turlari xususiyatlarini o'zida aks ettirgan bu texnologiya adabiy asarni didaktik tahlil etish jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyati ko'proq uyushtiriladigan uch usuldan biri: badiiy obrazlar asosidagi didaktik tahlilni amalga oshirish uchun qulaydir. Obrazilarga tayanib tahlil qilishda katta hajmli epik asarlar timsollarining ruhiyati, o'y-kechinmalari, xatti-harakatlari, sajiyasi tasviri mantiqiylik, hayotiylik, badiiylik va tarbiyaviylik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi.<sup>4</sup>

Timsolli tahlil deb atash mumkin deyilgan bu tahlil turida o'quvchilar faolligi talab etiladi. Akademik litseyning ikkinchi bosqich o'quvchisi uchun Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari notanish bo'lmay, 6-sinfda bu asar haqida ma'lumotga ega va undan parchalar o'qigan. “Kabutar bilan zog”, “Maymun bilan najjor”, “Tuya bilan bo'taloq”, “Toshbaqa bilan chayon”, “Yodgor po'stindo'z” kabi masallar bilan tanishgan<sup>5</sup> o'quvchi endi obrazlar tahlili orqali masallar qay vaziyatlarda qushlar tilidan aytilganligini, bir-biriga ustalik bilan bog'langan maqollar asar syujetida yaxlit kompozitsiya hosil qilganligini his qiladi. Asar matni to'rt qismga bo'linadi: Yapaloqqush-Ko'rqush, Ko'rqush-Hudxud, Boyo'g'li-Ko'rqush, Turumtoy-Kardon. Asosiy voqealar markazida turgan qushlar suhbat matn va chizmalar ko'rinishida tayyorlanadi. O'qituvchi tomonidan tayyorlangan tayyor matn alohida tarzda o'quvchilarga berilgan va ular dars jarayonigacha uyda tanishib, tayyorlanib kelishgan bo'lishlari zarur bo'ladi. Masalan, birinchi guruh o'quvchilariga har bir qahramon tilidan aytilgan maqol va matal jadval ko'rinishida beriladi.

Shu tarzda Ko'rqush-Hudxud, Boyo'g'li-Ko'rqush, Turumtoy-Kardon o'rtasida kechgan suhbatda qo'llanilgan maqol, masallar berilgan matn o'quvchilar qo'liga

<sup>3</sup> Pedagogika: ensiklopediya. Tuzuvchilar: Jamoa. – T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2015, 173-b.

<sup>4</sup> Badiiy asar tahlili [Matn]. Q.Yo'ldosh, M.Yo'ldosh. – T.: Kamalak nashriyoti, 2016, 167-b.

<sup>5</sup> Adabiyot. 6-sinf uchun darslik. 2013-yil.49-b.

---

tayyor holda topshiriladi. Uyda o'z guruhiga belgilangan asar parchasini o'qib kelgan o'quvchi maqollar, masallardan keng foydalanib asarni boshqa guruhda bo'lgan o'quvchilarga yetkazib berishi lozim bo'ladi. Dastlab bir guruhdagi o'quvchilar mavzuni qanday o'zlashtirganliklarini aniqlash uchun o'zaro savol-javob o'tkazib oladilar. Shundan keyin "Bumerang" texnologiyasini o'tkazish tartibiga ko'ra 4 guruh o'quvchilari aralashtirilib, qaytadan yangi tarkibdagi 4 guruhga bo'linadi. Ularning har birida bir nechtdan ta'lim oluvchi ishtirok etadi. Yangi tarkibda 4 guruhga mansub ishtirokchilar navbati bilan asar matniga tahliliy yondashadilar. Asar qahramoni tabiatiga munosabat bildiradilar. Munosabatlarini o'qituvchi tomonidan dialog tarzida berilgan maqollar, ibora, masallar orqali izohlashlari lozim bo'ladi. Majmuada berilgan asar matnini o'rgangan o'quvchilar ma'lum bir qahramon bilan bog'liq parchani chuqur o'rgangan o'quvchilardan o'zlari ilg'amagan jihatlarga e'tibor qaratadilar. Uning kuzatishlari bilan o'z kuzatishlarini taqqoslaydilar, umumlashtiradilar. "Natijada o'quv materialini yaxlit tarzda hamkorlikda o'rganish imkoniyati vujudga keladi va ta'lim oluvchilarda o'quv materialini ustida hamkorlikda mustaqil ishlash, bilim va axborotlarni o'zaro almashish ko'nikmalari hosil bo'ladi".<sup>6</sup> Shundan keyin o'quvchilar o'zlarining dastlabki guruhlariga qaytadilar va savol-javob o'tkazadilar. O'qituvchi rahbarligida savollar barcha guruhlar tomonidan birinchi guruhdagilarga beriladi. Javob bergan o'quvchilarga ballar qo'yiladi. O'qituvchi mashg'ulot davomida o'quvchilarning bilim, ko'nikma, tajribasini qo'llashdagi ichki imkoniyatlarini guruhlar bilan ishlash jarayonida charxlab boradi va keyingi mashg'ulotlarni tashkillatirishda zarur jihatlarni inobatga olinadi.

Xulosa o'rnida aytish lozimki, adabiy matn bilan ishlashda o'quvchining yosh va psixologik xususiyati, materialning turi, mashg'ulotni tashkil etishga e'tibor berilishi belgilangan tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarning bajarilishini ta'minlaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yusupova Sh.J. *Hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida o'quvchilarning tafakkurini o'stirishning ilmiy-metodik asoslari: Ped.fan.dok...diss. – T., 2005. 277-b.*
2. Yadgorov Q.M. *Akademik litseylarda adabiy asar tilini o'rgatishning lingvodidaktik asoslari: Ped.fan.nom...diss. – T., 2007. 150-b.*
3. *Pedagogika: ensiklopediya. Tuzuvchilar: Jamoa. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2015, 173-174-b.*
4. *Badiiy asar tahlili. [Matn]. Q.Yo'ldosh, M.Yo'ldosh. – T.: Kamalak, 2016. 167-b.*
5. *Adabiyot. 6-sinf uchun darslik. 2013-yil. 49-b.*

---

<sup>6</sup> *Pedagogika: ensiklopediya. Tuzuvchilar: Jamoa. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2015. 174-b.*

**Nasiba KAYUMOVA,**  
Qarshi Davlat universiteti katta o'qituvchisi  
pedagogika fanlari nomzodi

## INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIDAN TO'GARAK TASHKIL ETISHNI LOYIHALASHTIRISH

### Annotatsiya

Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida informatikadan to'garak tashkil etishni loyihalashtirish, loyihalashtirish bosqichlari, har bir bosqichda informatika o'qituvchisining faoliyati va unga qo'yilgan talablar ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar.** To'garak, to'garakni tashkil etish, loyihalashtirish, loyihalashtirish bosqichlari, loyihalashtirish bosqichlarida informatika o'qituvchisi faoliyati, informatika o'qituvchisiga qo'yilgan talablar.

В статье представлено проектирование кружка по информатике в средней школе, освещены этапы проектирования, деятельность учителя информатики на каждом этапе проектирования и требования к ней.

**Ключевые слова.** Кружок, организации кружка информатики, проектирование, этапы проектирования, учебная деятельность учителя информатики на этапах проектирования, требования к учителю информатики.

Article presents the design of extracurricular lesson on informatics in a secondary school, also highlighted the stages of design, activity of teachers of computer science at each stage of design and requirements for them.

**Key words.** Extracurricular lesson, organization of extracurricular lesson of Informatics, design, design stages, learning activities of teacher of Informatics at the design stage, requirements for teachers of Informatics.

**O**quvchilarning darsdan tashqari bo'sh vaqtlarini unumli tashkil etish, iqtidorli bolalar bilan individual shug'ullanish hamda tarbiyasi og'ir bolalarga ijobiy ta'sir etish orqali ularning tarbiyasi va fanlarni yaxshi o'zlashtirishlariga erishish yo'llaridan biri – bu darsdan tashqari to'garak mashg'ulotlarini tashkil etishdir.

Yoshlarning kompyuterga qiziqishlari ortganligi sababli ularni informatika va axborot texnologiyalari faniga oid to'garaklarga jalb etish boshqa fanlarga nisbatan biroz oson kechadi. Kompyuter va uning imkoniyatlaridan barcha sohalarda unumli foydalanishning oshib borayotganligi turli sohalarga qiziquvchi bolalarni kompyuter to'garaklariga jalb etishga imkoniyat yaratadi.

Ta'lim muassasalarida informatika va axborot texnologiyalari fanidan to'garaklarni tashkil etish uchun kompyuter xonasi yetarlicha texnik va dasturiy vositalar bilan ta'minlangan bo'lishi lozim. Bu kompyuter texnikasidan unumli foydalanishga olib kelsa, dasturiy vositalar bilan ta'minlanganlik esa, o'quvchilar qiziqishiga mos dasturlarni tanlab o'rgatilishiga olib keladi. Xususan, musiqaga qiziquvchi o'quvchilar uchun “Soud Forge”, rassomchilikka qiziquvchi o'quvchilar uchun “Corel Draw” va “Photoshop”, arxitekturaga



---

qobiliyati bor bolalar uchun “AutoCad” va boshqa dasturlarni o‘rgatish shular jumlasiga kiradi.

Informatika va axborot texnologiyalari fani o‘qituvchisi tomonidan tashkil etiladigan to‘garaklar, avvalo, bolalarning yoshiga, qiziqishlariga mos bo‘lishi lozim. Ta’lim muassasalari (maktab, litsey va kasb-hunar kolleji)da informatika va axborot texnologiyalari fanidan dasturlash tillarini o‘rganishga, veb-sahifalar tayyorlashga, taqdimot slaydlari yaratishga, umuman olganda, kompyuter sirlarini o‘rganish va kompyuter savodxonligini oshirishga yo‘naltirilgan bir nechta to‘garaklarni tashkil etish mumkin.

O‘qituvchi to‘garakni tashkil etish yo‘nalishi, tanlangan mavzularini hisobga olib, “Basic, Pascal”, “Visual Basic”, “Delphi” dasturlash tillarini yoki ulardan faqat bittasini o‘rganuvchi o‘quvchilar uchun “Yosh dasturchi”, kompyuter savodxonligini o‘rganuvchi o‘quvchilar uchun “Yosh informatik”, “Kompyuter savodxonligi”, “Qiziqarli informatika” multimedia va animatsiyalar ustida ishlashni istaydigan o‘quvchilar uchun “Yosh multiplikatorlar”, sayt yaratuvchilarni esa “Web-dizayn” kabi nomlar bilan to‘garaklarni tashkil etishi mumkin.

O‘qituvchi informatikadan to‘garakni tashkil etishi uchun uni ilgaridan loyihalashtirishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bizga ma’lumki, *o‘quv loyiha* aniq reja, maqsad asosida ishlab chiqilgan pedagogik faoliyat mazmuni bo‘lib, natijasi kafolatlangan harakat mahsulidir. *Loyihalashtirish esa*, boshlang‘ich ma’lumotlarga asoslanib, kutiladigan natijani taxmin qilish, oldindan aytilish, rejalashtirish orqali faoliyat yoki jarayon mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan amaliy harakatlar ifodasidir<sup>1</sup>.

I.A.Kolesnikova o‘z tadqiqotlarida o‘quv jarayonini loyihalashtirishni:

- loyiha oldi bosqichi;
- loyihani amalga oshirish bosqichi;
- refleksiv bosqich;
- loyihadan keyingi bosqichlarga ajratib ko‘rsatib beradi<sup>2</sup>.

Shu sohadagi olib borgan izlanishlarimiz natijasida o‘quv jarayonini loyihalashtirish bosqichlarini shartli ravishda quyidagi bosqichlarda ifodalash mumkin deb hisobladik.

1. Tayyorgarlik (izlanish) bosqichi.
2. Loyihani tayyorlash (konstruktorlik) bosqichi.
3. Loyihani bajarish, amalga oshirish bosqichi.
4. Yakunlovchi bosqich.
5. Xulosa va tavsiyalar berish bosqichi.

To‘garak ishini loyihalashtirish uchun informatika va axborot texnologiyalari fani o‘qituvchisi:

- to‘garak maqsadini va mazmunini belgilab oladi va ishchi dastur tuzadi;
- o‘quvchilarning bilishi lozim bo‘lgan bilimlarni tizimlashtiradi;
- o‘quvchilarning informatika va axborot texnologiyalari fanidan bajara olishi mumkin bo‘lgan ko‘nikmalarni aniqlaydi;
- to‘garak a‘zolarini qiziqishlariga ko‘ra o‘quv guruhlaridan tanlaydi;
- to‘garak o‘tkaziladigan kunni belgilaydi;
- to‘garak a‘zolari uchun jurnal tutib, o‘quvchilarni va o‘rganiladigan mavzularni qayd etib boradi;
- yil yakunida to‘garak faoliyati haqida hisobot topshiradi.

---

<sup>1</sup> Vikipediya elektron lug‘at endisiklopediyasi. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>- Elektron manba. 2017-yil 9-noyabrda murojaat etilgan. Tarjima muallif tomonidan bajarilgan.

<sup>2</sup> Колесникова И. А. Педагогическое проектирование: Учеб. пособие для высш. учеб. заведений / И.А.Колесникова, М.П.Горчакова-Сибирская; Под ред. И.А. Колесниковой. – М: Издательский центр Академия, 2005. – С. 288.

Namuna sifatida informatika o'qituvchisi tomonidan umumiy o'rta maktabning 6-7-sinflarida “Yosh informatiklar” to'garagini tashkil etish loyihasini keltiramiz.

1. *Tayyorgarlik (izlanish) bosqichi.* Informatika o'qituvchisi to'garak a'zolarining bilishi va bajara olishi kerak bo'lgan tushunchalarni va to'garak maqsadini belgilaydi. Shunga ko'ra “Yosh informatiklar” to'garagi a'zolari to'garak mashg'ulotlari davomida quyidagilarni *bilishi* kerak<sup>3</sup>:

- kompyuter o'zi nima, u qanday ishlaydi, qanday asosiy va qo'shimcha qurilmalari bor?
- kompyuter dasturlari va ularning bir-biridan farqi nimada?
- matn muharriri nima, unda qanday ishlar amalga oshiriladi?
- taqdimotlar yaratish, slayd-shou, slaydlarga animatsiya, musiqa va boshqa effektlar berishning amalga oshirilishi;
- rasm chizish, uni tahrirlash ishlari;
- Microsoft MS operatsion tizimida ishlay olish, fayl, papkalar hosil qilish, ularni tahrirlash: o'chirish, ko'chirish, saqlash, o'zgartirish, jo'natish va h.k.

“Yosh informatiklar” to'garagi a'zolari to'garak mashg'ulotlari davomida *bajara olishi* kerak bo'lgan ko'nikmalar:

- kompyuterning asosiy va qo'shimcha qurilmalari bilan ishlay olish;
- office dasturlari imkoniyatlaridan foydalanib rasmlar chizish, tahrirlash;
- Power-Point dasturi imkoniyatlaridan foydalanib prezentatsiya yaratish, unda slayd-shou, slaydlarga animatsiya, musiqa va boshqa effektlar berish;
- MS Word matn muharririda matnlar kiritish, ularni tahrirlash: saqlash, o'chirish, ko'chirish, bosmalash, jo'natish va h.k. amallarni bajara olishi;
- Microsoft MS operatsion tizimda fayl, papkalar hosil qilish, ularni tahrirlash ishlari bajara olishi va h.k.

Informatika o'qituvchisi tashkil etayotgan “Yosh informatiklar” to'garagining *maqsadiga* quyidagilarni kiritish mumkin:

a) *ta'limiy maqsad:*

- o'quvchilarni informatika va axborot texnologiyalari fanidan bilim olishga qiziqtirish;
- axborot tushunchasi va axborotlar ustida ishlash: qabul qilish, qayta ishlash, uzatish usul va vositalarini o'rgatish;
- o'quvchilarda kompyuterning “MS Office” dasturlarida ishlash orqali bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish;
- o'quvchilarda informatika va axborot texnologiyalari fanidan umumiy o'rta ta'limga mos bilim malaka va ko'nikmalalarini shakllantirishga yordam berish;
- o'quvchilarni to'garak jarayonida olgan bilimlarini amaliyotda qo'llashga o'rgatish.

b) *tarbiyaviy maqsad:*

o'quvchilarda tashkilotchilik, ozodalik, intizomni, kichik guruhlarda ishlash, o'zaro aloqada bo'lish, muloqot qilish, so'zlashuv madaniyatini, ta'lim muassasasi mulkidan ehtiyot bo'lib foydalanishni, sog'lom turmush tarzi, axborot madaniyatiga doir bilim, ko'nikmalarni shakllantirish.

d) *rivojlantiruvchi maqsad:*

o'quvchilarda qo'yilgan masalani yechishda ijodiy va oqilona yondashuvni, xotira, diqqat, kuzatuvchanlik, asbtrakt va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.

2. *Loyihani tayyorlash (konstruktorlik) bosqichi.* Bu bosqichda informatika o'qituvchisi to'garak mazmunini belgilaydi, qatnashchilarni guruhlardan tanlaydi, to'garak o'tkaziladigan kunni belgilaydi va e'lonlar doskasini shakllantiradi.

- to'garak mazmunini belgilab olish uchun to'garakning o'qitilishi lozim bo'lgan mav-

<sup>3</sup> Кузнецов А. Т. Практическая задания по информатике. 7-10 классы: пособие для учителей и учащихся. – Минск. Юнипресс, 2006. – С.96.

zularini tematik rejalashtiriladi. To‘garak mashg‘uloti haftasiga bir soatdan yil davomida 36 soatni tashkil etadi.

“Yosh informatiklar” to‘garagi mavzusi va mazmuni taxminan shunday bo‘lishi mumkin (jami 36 soat):

1. **Kirish.** To‘garak haqida ma’lumot, texnika xavfsizligi qoidalari, kompyuterning asosiy va qo‘shimcha qurilmalari va ulardan foydalanib ishlash (2 soat).

2. **“Paint” grafik muharririda ishlash:** dasturning oyna tuzilishi, asboblar paneli, ranglar palitrasi, geometrik figuralarni chizish, tahrirlash, geometrik shakllar yordamida murakkab shakllarni yaratish, grafik muharririda matnlar bilan ishlash, grafik muharririda o‘quvchining ixtiyoriy ijodiy ishi va bajarilgan ishlarni namoyish etish (9 soat).

3. **“Word” matn muharririda ishlash:** “Word” matn muharriri, uning menyusi bilan tanishish, matn terish, matnni tahrirlash, “WordArt”da ishlash, “Word” matn muharririda rasm, figura va diagrammalar bilan ishlash, matn muharririda sahifalash, o‘chirish va ko‘chirish, formulalar, simvollar bilan ishlash, gipermurojaatlar hosil qilish, matnni qidirish, almashtirish, faylni ko‘chirish va o‘chirish, nomini o‘zgartirish, doc kengaytmali faylini .rtf, .pdf kengaytmaga o‘tkazish va yakunlovchi dars (13 soat).

4. **“Power Point”da taqdimotlar yaratish.** “Power Point” dasturi bilan tanishish, slaydlar yaratish, slayd fonida turli shablonlardan foydalanish, rasm va boshqa bezash usullaridan foydalanish, obyektlarga animatsiya effektlarini qo‘llash, musiqa gipermurojaatlarni joylashtirish, slaydda jadvaldan formula va simvollaridan, figura, diagrammalardan foydalanish, taqdimotlarni ochish, yopish, bosmalash, saqlash va jo‘natish, bajarilgan ishlar bo‘yicha taqdimotni o‘tkazish. “Power Point” bo‘yicha yakuniy dars (13 soat)<sup>4</sup>.

• o‘qituvchi to‘garak qatnashchilari guruhini shakllantiradi. Buning uchun to‘garak ish boshlagani haqida e‘lon chiqaradi va har bir guruhga shaxsan o‘zi kirib, o‘quvchilarni to‘garak faoliyati bilan tanishtiradi, guruh a‘zolarini qiziqishlariga ko‘ra tanlaydi. Masalan,

1. Yoqubova Sarvinoz, 6-B sinf.
2. Ochilova Dilorom, 6-A sinf.
3. Hamrayeva Gulira‘no, 6-A sinf va h.k.

• to‘garak o‘tkaziladigan *kunni belgilaydi*; Masalan, ta‘lim muassasasi e‘lonlar doskasiga “Yosh informatiklar” to‘garagi har haftaning payshanba kuni soat 17.30da 201-kompyuter xonasida boshlanadi” mazmunidagi e‘lonni chiqarib qo‘yadi.

3. *Loyihani bajarish, amalga oshirish bosqichida* o‘qituvchi to‘garak ishini har haftaning belgilangan kunida, ishlab chiqilgan mazmunga asosan olib boradi. Bu bosqich informatika o‘qituvchisining asosiy faoliyat bosqichi bo‘lib, bevosita o‘quvchilar bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

To‘garakni tashkil etuvchi informatika o‘qituvchisiga quyidagi talablar qo‘yiladi<sup>5</sup>:

- to‘garakni o‘quvchilar yoshiga mos loyihalashtirish, kompyuterdan foydalanishning ijobiy va salbiy tomonlarini ochib bera olishi;
- mashg‘ulot olib boriladigan xonaning tayyorligi, yorug‘likning yetariligi, haroratning mosligiga erishishi;
- o‘quvchilarni mustahkam bilim olishga undash, hayotga tayyor bo‘lish uchun bilim ko‘nikma va malakalarni shakllantira olishi;
- o‘quvchilarning tarbiyaviy, rivojlanuvchi xususiyatini, shaxsiy sifatlarni rivojlantira olishi;

<sup>4</sup> Aripov M. va boshq. Informatika. Kasb-hunar kollejlari uchun darslik. – T., 2002. 404-b.

<sup>5</sup> Kayumova N.A. O‘qitishning axborot-ta‘lim tizimi sharoiti va unda axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasi o‘qituvchilarini tayyorlash. Monografiya. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti. 2015. 192-b.

- o'quvchilarda sodir bo'ladigan muammolarni yechishga, mustaqil qaror qabul qilishga o'rgata bilish;
- o'quvchilarni berilgan topshiriqlarni bajarishda kreativ (ijodkor) yondashishga o'rgatish, o'qishga qiziqish, motivatsiyani uyg'ota olish;
- mustaqil o'rganish qobiliyatlarini, ma'naviyatni, estetik didni kamol toptirish, o'xshashlik va bir xillikdan qochish;
- to'garakni tashkil etishda elektron ta'lim resurslari va pedagogik texnologiyalar, interfaol usullardan unumli foydalanishga erishish;
- to'garak tashkil etishda foydalaniladigan elektron ta'lim resurslarini, taqdimotlar, ta'lim vositalarini yarata olish;
- o'quvchilar bilan sodir bo'lgan nostandart vaziyat (pedagogik nizo)larda to'g'ri qarorlar qabul qila olishga erishish;
- har bir o'quvchining shaxsiy qobiliyatlari, imkoniyatlari va fazilatlarini ochishga yordam berishi, ularni vatanimiz taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shish uchun yo'naltirishga erishish lozim.

Informatika o'qituvchisi tashkil etilgan to'garak faoliyatini qayd etish uchun *jurnal* yuritadi. Bu jurnalda to'garak qatnashchilari, to'garak mashg'uloti olib boriladigan sana va o'quvchilar tomonidan o'rganiladigan mavzular qayd etib boriladi.

4. *Yakunlovchi bosqichda* to'garak faoliyati haqida hisobot tayyorlaydi. Bunda o'qituvchi o'quv yili yakunida to'garak faoliyati haqida *hisobot beradi*. Ushbu hisobotda to'garak qachondan ish boshlagani, to'garakning maqsadi, mazmuni, qatnashchilari, ularning o'zlashtirishi natijalari, to'garak ish faoliyatidagi yutuqlar va kamchiliklar, tashkil etilgan to'garak haqidagi umumiy xulosalar o'z aksini topishi lozim.

5. *Xulosa va tavsiyalar berish bosqichi*. Informatika o'qituvchisi bu bosqichda tashkil etilgan to'garak ishining yutuqlari, kamchiliklariga baho beradi, kelajakda to'garak ishini tashkil etishda yana qanaqa yangi qo'shimchalar qilinishi lozimligini belgilab oladi va kerak bo'lganda o'z tajribalari natijalarini boshqa hamkasblari, to'garak rahbarlariga tavsiya sifatida taqdim etadi.

Ba'zi hollarda to'garakning a'zolari va rahbari hamkorligida turli bayram tadbirlari, “Quvnoqlar va zukkolar”, “Zakovat”, “Kim iqtidorli”, “Bilimdonlar klubi” kabi kechalar ham tashkil etiladi.

Ta'lim muassasalarida o'qitiladigan fanlardan ana shunday to'garaklarni tashkil etish va o'tkazish o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi, ularda vatanga muhabbat, fan o'qituvchisiga hurmat, o'z-o'ziga ishonch hissini shakllantiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aripov M. va boshq. *Informatika. Kasb-hunar kollejlar uchun darslik*. – T., 2002. 404-b.
2. Kayumova N.A. *O'qitishning axborot-ta'lim tizimi sharoiti va unda axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasi o'qituvchilarini tayyorlash. Monografiya*. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti. 2015. 192-b.
3. Кузнецов А. Т. *Практическая задания по информатике. 7-10 классы: пособие для учителей и учащихся*. – Минск. Юнипресс, 2006. – С.96.
4. Колесникова И. А. *Педагогическое проектирование: Учеб. пособие для высш. учеб. заведений / И.А.Колесникова, М.П.Горчакова-Сибирская; Под ред. И.А. Колесниковой*. – М.: Издательский центр “Академия”, 2005. – С.288.
5. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>

**Jamshid KAZIMOV,**  
O'zbekiston Respublikasi  
Maktabgacha ta'lim vazirligi bosh mutaxassisi

## **KORPORATIV YONDASHUV – TA'LIM-TARBIYA SAMARADORLIGINI TA'MINLASHNING ASOSI**

### **Annotatsiya**

Maqola umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya sifat va samaradorligini ta'minlash yo'nalishidagi muammolarga bag'ishlangan bo'lib, unda ta'lim-tarbiya sifat va samaradorligini ta'minlashda zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etishning mazmun-mohiyati hamda mazkur yondashuvlarning ta'lim-tarbiya jarayonlaridagi ahamiyati ilmiy asoslangan.

**Kalit so'zlar.** Umumiy o'rta ta'lim tizimi, ta'lim muassasasi, ta'lim sifati, samaradorlik, tizimli yondashuv, vaziyatli yondashuv, muvofiqlashtirilgan yondashuv, refleksiv yondashuv, etnik yondashuv, milliy-hududiy yondashuv, innovatsion texnologiyalar, kasbiy kompetentlilik.

Статья посвящена вопросам качества и эффективности процессов обучения в общеобразовательных школах, важности внедрения современных подходов к качеству и эффективности процессов обучения, а также раскрытию значения этих подходов в учебном процессе.

**Ключевые слова.** Система общего среднего образования, образовательное учреждение, качество образования, эффективность, системный подход, ситуативный подход, скоординированный подход, рефлексивный подход, этнический подход, национально-региональный подход, инновационные технологии, профессиональная компетентность.

Article is devoted to the quality and effectiveness of teaching and learning processes in general education schools, the importance of introducing modern approaches to the quality and effectiveness of teaching and learning processes, and the importance of these approaches in the learning process.

**Key words.** General secondary education system, educational institution, quality of education, efficiency, system approach, modern approach, coordinated approach, reflexive approach, institutional approach, ethnic approach, national-regional approach, innovative technologies, professional competence.

**B**ugungi kunda umumiy o'rta ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan yangilashlar, ijobiy o'zgartirishlar ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayonlari bilan hamohang tarzda taraqqiy etib bormoqda. Qonun ustuvorligini ta'minlash, ta'lim mazmunini modernizatsiyalashtirish, yangi kompetensiyaviy yondashuv asosida ishlab chiqilgan davlat ta'lim standartlarini amaliyotga tatbiq etish kabi amalga oshirilayotgan ishlarning barchasi ta'lim-tarbiya jarayonlari sifat va samaradorligini ta'minlashga qaratilgan.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya sifat va samaradorligini ta'minlashda ta'lim mazmunini kompetensiyaviy yondashuvlar asosida yangilash hamda ta'lim-tarbiya tashkil etish va boshqarishning innovatsion texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish samaradorligiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya sifat va samaradorligini ta'minlashda nafaqat ta'lim-tarbiya jarayoni natijalarini, balki mazkur natijalarni shakllantiruvchi omillar tizimini ham inobatga olish muhim hisoblanadi. Bunday omillar tizimning komponentlari sifatida ta'lim maqsadi, o'qituvchilar tarkibi va ularning kasbiy kompetentligi, ta'limiy dasturlar va ta'lim texnologiyalari, resurslar va ulardan foydalanish shart-sharoitlari, ta'limning tashkiliy-huquqiy ta'minoti, o'quv jarayonining moddiy-texnik ta'minoti, axborot va uslubiy ta'minot, ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos xususiyatlarini ham keltirish mumkin.

Shunday ekan, umumiy o'rta ta'lim maktablarini malakali pedagoglar bilan ta'minlash, o'qituvchilar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning samarali tizimini yaratish bilan bir qatorda, ta'lim-tarbiya jarayonlari sifat va samaradorligini ta'minlashni tashkil etishga alohida ahamiyat qaratish va unda mazkur jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish zarur.

O'qitish jarayonida talabalarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarning qo'llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondoshish, mas'uliyatni sezish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi, o'qishga, fanga, pedagogga o'zi tanlangan kasbiga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi.

Demak, umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya sifat va samaradorligini ta'minlashni tashkil etish va boshqarishga tizimli yondashuv texnologiyasini tatbiq etish muhim bo'lib, tizimli yondashuvning joriy etilishi mazkur jarayonlarda tasodifiy va kutilmagan holatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Tizimli yondashuv asosida umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya sifat va samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etuvchi jarayonlar (ta'lim maqsadini yangilash va modernizatsiyalash, o'qituvchilarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash, yangi ta'limiy dasturlar va ta'lim texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish, o'quv jarayonining moddiy-texnik ta'minotini rivojlantirish, zamonaviy o'quv-laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, darsliklar va o'quv-metodik materiallar bilan ta'minlash, o'qituvchilarning ijodiy va tadqiqotchilik faoliyatini yo'lga qo'yish, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish, ta'limiy va tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etish va boshqarish jarayonlarining majmui) yaxlit tizim sifatida, ya'ni tashqi muhitda xizmat qilayotgan murakkab pedagogik tizim sifatida ko'rib chiqilishi zarur.

Tizimli yondashuv asosida ta'lim-tarbiyaning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligining mazmun va mohiyati, ya'ni tizimli xususiyatga ega ekanligiga ko'ra ta'lim-tarbiya sifat va samaradorligini ta'minlashni bir butun, ya'ni yaxlit holda tasavvur qilish talab etiladi. Ta'lim-tarbiya sifat va samaradorligini ta'minlashda ta'lim jarayonlari alohida xususiyatlarga ega bo'lgan bir necha qismlarga ajratilib, ular o'rtasidagi aloqalar hamda o'zaro bog'liqlik xususiyatlari aniqlanadi, chunki har bir qism ta'lim-tarbiya sifat va samaradorligini ta'minlashda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya sifat va samaradorligini ta'minlashda o'ziga xos yaxlitlik, umumiylik, universallik, differensiallik kabi tushunchalar asosida mujassamlashtirilgan texnologiyalar, ya'ni tadqiqotning integratsion texnologiyalarini o'z ichiga oladi. Tizimli yondashuv asosida ta'lim-tarbiya sifat va samaradorligini

---

ta'minlash jarayonlarini muvofiqlashtirishda innovatsion faoliyatga qo'yilayotgan talablar hamda zamonaviy texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish yo'nalishlarida qo'yilayotgan talablar majmui ta'lim-tarbiya sifat va samaradorligini ta'minlashda eng zarur omillar hisoblanadi.

Ta'lim-tarbiya sifat va samaradorligini ta'minlash jarayonlarini o'zaro bog'liq holda yaxlit tizim sifatida tashkil etish va boshqarish tizimli xususiyatga ega ekanligini hamda tizimli yondashuvning mazmun va mohiyatini quyidagi tamoyillar asosida ko'rsatish mumkin:

- umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya sifat va samaradorligini ta'minlash jarayonlarida subyekt-subyekt munosabatlarini shakllantirishning zaruriyati;
- ta'lim-tarbiya sifat va samaradorligini ta'minlash jarayonlari subyektlari faoliyatining maqsadga yo'naltirilganligi, izchilligi va o'zaro bog'liqligi;
- umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya sifat va samaradorligini ta'minlash jarayonlari o'zaro bog'liq va aloqador bo'lgan komponentlar majmui ekanligi;
- ta'lim-tarbiya sifat va samaradorligini ta'minlash jarayonlari alohida bir tizim sifatida va yuqori tartibli yaxlit tizimning tashkil etuvchi komponenti sifatida mavjudligi;
- umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya sifat va samaradorligini ta'minlash jarayonlari tashqi muhit va boshqa tizimlar bilan o'zaro ta'sir etish xususiyatlariga ega ekanligi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya sifat va samaradorligini ta'minlash jarayonlarida o'qituvchilarning faoliyatini muvofiqlashtirishda ta'lim jarayoni subyektlari (o'qituvchi va o'quvchilar)ning o'z faoliyatini tahlil qilishi va obyektiv baholashi, mavjud ta'limiy vaziyatlarni tahlil qilishi, o'z tushunchalari hamda xatti-harakatlarini faol o'ylab ko'rishi uchun shart-sharoitlar yaratilishi muhim.

Shuningdek, ta'lim-tarbiya sifat va samaradorligini ta'minlashda shaxs-faoliyat yondashuvi ham zarur hisoblanib, bu yondashuv asosida tashkil etiladigan jarayonlarda ta'lim oluvchilar subyekt sifatida faoliyat ko'rsatadi va o'z navbatida, ta'lim oluvchi shaxsining subyekt sifatida rivojlanishi uning faolligi, mustaqil, erkin, tanqidiy, tahliliy va samarali fikrlashining rivojlanishi orqali aniqlanadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida aniq sharoitdagi ichki va tashqi vaziyatiga qarab subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirish mazkur jarayon samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya jarayonlari sifat va samaradorligini ta'minlashda vaziyatli yondashuv ham o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, mazkur yondashuv texnologiyalaridan foydalanish jarayonida quyidagilarni inobatga olishni tavsiya etamiz:

- ta'lim-tarbiya sifat va samaradorligini ta'minlash jarayonlarining holatini vaziyatlarga bog'liq holda tahlil qilish;
- ta'lim-tarbiya sifat va samaradorligini ta'minlash jarayonlarida erishilgan natijalarning samaradorligini vaziyatlarga ko'ra aniqlash;
- ta'lim-tarbiya sifat va samaradorligini ta'minlash jarayonlarini loyihalashtirishda mavjud vaziyatlar asosida ta'lim jarayonining rivojlanishini oldindan belgilash.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya sifat va samaradorligini ta'minlashda muvofiqlashtirilgan yondashuvni tatbiq etilishi natijasida subyektlarning faolligini hamda ta'lim jarayoni samaradorligini ta'minlash uchun sarf etiladigan mehnat va vaqt tejiladi. Ta'lim-tarbiya sifat va samaradorligini ta'minlash jarayonlarining ahamiyati uning natijaviyligida o'z ifodasini topadi.

Shunday ekan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya sifat va samaradorligini ta'minlashda natijalar bo'yicha boshqaruv texnologiyasini ham tatbiq etish

zarur bo'lib, mazkur jarayonda subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirish va ularning faolligini ta'minlash asosida belgilangan natijalarga erishish mumkin. Natijalar bo'yicha boshqaruv texnologiyasini tatbiq etilishi natijasida ta'lim-tarbiya sifat va samaradorligini ta'minlash yo'nalishlarida belgilangan vazifalarning mazmun va mohiyatini har bir ishtirokchiga tushuntirish orqali subyektlarning o'zini-o'zi rivojlantirishiga shart-sharoitlar yaratiladi.

Bunda ta'lim-tarbiya sifat va samaradorligini ta'minlash jarayonlarini tashkil etish va boshqarishga korporativ yondashuv tatbiq etiladi. Ya'ni korporativ yondashuv texnologiyasidan foydalanish ta'lim-tarbiya sifat va samaradorligini ta'minlash jarayonlarida barcha subyektlar, rahbarlar, o'qituvchi va o'quvchilar, tarbiyachilar, ota-onalar, mahalla faollari, jamoaviy boshqaruv organlari va jamoatchilik tashkilotlarining hamkorligini nazarda tutadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya sifat va samaradorligini ta'minlashda korporativ yondashuvning yana bir o'ziga xos ahamiyatli tomoni shundaki, korporativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim-tarbiya sifat va samaradorligini ta'minlash jarayonlariga etnik va milliy-hududiy yondashuvlar tatbiq etiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Djurayev R.X., Turg'unov S.T. Ta'lim menejmenti. – T.: Voris, 2006.*
2. *Turg'unov S.T., Maqsudova L.A. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish. – T.: Fan, 2008.*
3. *Ахлидинов Р.Ш. Социально-педагогические основы управления качеством общего-среднего образования (на матер. националь. Программы по подготов. кадров): Автореф. дисс. ...докт. пед. наук. – Т., 2002. – С. 44.*
4. *Гутник Г.В. Информационное обеспечение системы качеством образования в регионе. // Информатика и образование. 1999. № 1.– С. 7-12.*
5. *Системы качества в образовании. // Под общ. ред. Ю.П.Адлера. – М.: МИСИС, 2000. – С. 142.*



**O'tkir TOLIPOV,**  
Nizomiy nomidani TDPU professori,  
pedagogika fanlari doktori

## UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI O'QITUVCHILARI KASBIY PEDAGOGIK FAOLIYATI NATIJALARINI BAHOLASH ASOSLARI VA PARAMETRLARI

### Annotatsiya

Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilarining kasbiy faoliyati natijalari turli parametrlar asosida baholanishi yoritilgan. Muallif bu orqali o'qituvchining mehnatini munosib baholash, bu esa ularni kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishi mumkinligiga e'tibor qaratgan.

**Kalit so'zlar.** Kasbiy faoliyat, baholash, ko'rsatkichlar, indikatorlar, o'quvchining yutug'i, metod, innovatsion faoliyat, sinf rahbarligi.

Статья посвящена оценке профессиональной деятельности учителей общеобразовательных школ на основе разных параметров. Автор указывает, что достойная оценка деятельности учителя оказывает содействие повышению эффективности его профессиональной деятельности.

**Ключевые слова.** Профессиональная деятельность, оценивание, показатели, индикаторы, достижения ученика, метод, инновационная деятельность, классный руководитель.

Article is devoted to the evaluation of professional activity of teachers of secondary schools on the basis of different parameters. The author points that the correct evaluation of the teacher's activity assists in increasing the effectiveness of his professional activity.

**Key words.** Professional activity, evaluation, indicators, indexes, student achievements, method, innovative activity, classroom teacher.

**O**qitish sifatini baholash har qanday ta'lim tizimining tarkibiy qismi bo'lib, ta'limning yakuniy maqsadi ratsional yo'llarga erishishni ta'minlovchi muhim vosita hisoblanadi.

Maktab faoliyatini baholash – ta'limni takomillashtirishning muhim shartidir. Lekin ayni vaqtda baholash tushunchasining o'zi ta'lim amaliyotida hozircha juda ko'p ma'noli hamda birmuncha mavhum hisoblanib, shu tufayli konstruktiv holatga ega emas. "Baholash" ikkita mazmunli blokdan tashkil topadi. Bular: nimani va qanday baholash. Ushbu jarayonda obyekt hamda baholash jarayonini belgilab olish kabilardan iborat. Bunda so'nggisi bevosita obyektga nisbatan (uning mazmuni va xarakteriga ko'ra) aniqlanadi.

Ta'lim sifatini baholashda o'ziga bog'liq bo'lmagan turli shart-sharoitlar va zaxiralarga ega bo'lgan ta'lim muassasalaridan bir xilda natijalarni talab qilish mumkin emas.

Demak, har bir maktab o'z baholash tizimini ishlab chiqishi lozim. Quyida maktab faoliyatini baholashning birgina aspektiga – o'qituvchi faoliyatini baholashga to'xtalamiz.

O'qituvchining ishini baholashda, avvalo, uning bevosita ta'lim dasturlariga muvofiq ishlagani, nazarda tutilgan mavzularni o'qitgani, amaliy laboratoriya, nazorat ishlari va o'quv sayohatlari kabilarni o'tkazganligi e'tiborga olinishi lozim. Aks holda uni baholashga hojat qolmaydi.

O'qituvchi faoliyati natijasini baholash muhim pedagogik ahamiyatga ega. Chunki o'qituvchi faoliyati natijalarini baholash, birinchi navbatda, umumta'lim dasturlarining qay darajada bajarilganligini aniqlash imkonini beradi. O'qituvchi faoliyati natijasini baholashdan ko'zda tutiladigan maqsad ularning mehnatiga munosib haq to'lashni tashkil etishdan iborat. Buning uchun o'qituvchi faoliyatining natijasi, uning sifatini haqqoniy tarzda baholanishi, demokratiya va obyektivlik tamoyiliga asoslanishi nihoyatda zarurdir. Xuddi shunday yondashuv orqali o'qituvchi mehnatini munosib rag'batlantirish imkoniyati vujudga keladi. Bu esa, o'z navbatida, ularni yangi muvaffaqiyatlarini qo'lga kiritishga undaydi.

O'qituvchi kasbiy faoliyatini baholash o'ziga xos asoslarga ega:

a) o'qituvchi pedagogik faoliyatining natijasini baholashning muhim asosi, uning kasbiy faoliyati natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlardir. Mazkur ko'rsatkichlar uning kasbiy faoliyati natijalarini maktab ma'muriyati, pedagogik jamoa tomonidan tahlil qilish asosida aniqlanadi. Bunda u dars beradigan sinflardagi o'quvchilarning o'zlashtirish darajalari asosiy o'rin egallaydi;

b) o'qituvchi kasbiy faoliyati natijalarining ko'rsatkichlari uning yutuqlarini qayd etish, to'plash va baholash orqali aniqlanadi. Bugungi kunda o'qituvchi kasbiy faoliyati natijalarini baholashning muhim instrumentariysi uning kasbiy rivojlanish darajasini bosqichma-bosqich hisobga olishdan iborat. O'qituvchining to'plagan kasbiy tajribasini kuzatish va hisobga olish uning kasbiy rivojlanish darajasini aniqlash imkonini beradi. Shu bilan bir qatorda, o'qituvchi pedagogik faoliyatining tarkibiy qismlarini obyektiv tarzda baholashga asos bo'ldi, uning reytingini oson asoslashga ko'maklashadi. Buning uchun maktab ma'muriyati har bir o'qituvchining pedagogik faoliyati natijalarini qayd etish va to'plash maqsadida individual jild (papka) tashkil etishi kerak. Mazkur jildda o'qituvchi faoliyatining ifodalanishi, o'qitish natijalari, o'quvchilarning tarbiyalanganlik va rivojlanganlik darajalari, muayyan davr ichida mazkur pedagogning ta'lim rivojiga qo'shgan hissasi aks etishi lozim;

d) shaxsiy jildlar o'qituvchilar tomonidan mustaqil to'ldirib boriladi. Eng muhimi, unda o'qituvchining pedagogik faoliyati natijalari, uning o'quv-tarbiya jarayoni taraqqiyotiga qo'shgan hissasi to'liq ifodalangan bo'lishi lozim;

e) o'qituvchi kasbiy faoliyatini obyektiv baholash tartibi maktab pedagogik jamoasi tomonidan tuzilgan ekspertlar guruhi ishtirokida amalga oshiriladi.

O'qituvchilar o'z kasbiy faoliyatlari natijalaridan norozi bo'lgan taqdirda uni qayta ko'rib chiqish uchun apellyatsiyaga berishlari mumkin. Agar o'qituvchi faoliyati natijalarining bahosi haqida turli-tuman fikrlar tug'ilsa, apellyatsiya haqidagi talabnoma yozma tarzda ekspert guruh raisi nomiga beriladi. Talabnoma 3 kun mobaynida ekspert guruh yig'ilishida ko'rib chiqilishi kerak. Mazkur yig'ilishda ekspert guruhi a'zolari bilan bir qatorda, talabnoma yozgan o'qituvchining o'zi ham ishtirok etishi lozim. O'qituvchi ishtirokida ekspert guruhi a'zolari o'qituvchi faoliyati natijasiga berilgan bahoning haqqoniyligini tekshirib ko'radilar. Agar berilgan baho haqqoniy bo'lmasa, o'qituvchining faoliyati qayta baholanadi. Mazkur baho yakuniy hisoblanib, u ekspert kengash tomonidan tasdiqlanadi.

O'qituvchining kasbiy faoliyati natijalari quyidagi parametrlar asosida baholanishi maqsadga muvofiqdir:

№	Ko'rsatkichlar	Indikatorlar	Ballar yordamida ifodalangan baholar (100 balli shkala asosida)
<b>I. O'quvchilar erishgan yutuqlar asosida o'qituvchi pedagogik faoliyati natijalarining bahosi</b>			
1.	O'quvchilar bilimining sifati (oralik attestatsiya natijalariga ko'ra)	<p>O'quv predmetlari bo'yicha o'quvchining ta'lim jarayonida erishgan yutuqlarining ijobiy dinamikasi (hisobot davrida "4" va "5" baholar bilan attestatsiyadan o'tgan o'quvchilar sonining foiz hisobida ko'payib borishi):</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- 0 %</li> <li>- 8 % gacha</li> <li>- 8 % dan 16 % gacha</li> <li>- 16% dan 24 % gacha</li> <li>- 24 % dan 32 % gacha</li> <li>- 32 % dan 40 % gacha</li> <li>- 40 % dan yuqori</li> <li>- 60 % dan yuqori</li> </ul> <p>O'quvchilar o'zlashtirishining ijobiy dinamikasi (hisobot davrida "2" bahosiz attestatsiyadan o'tgan o'quvchilar sonining foiz hisobida ko'payib borishi):</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- 0 %</li> <li>- 4% dan 8 % gacha</li> <li>- 8% dan 12 % gacha</li> <li>- 12 % dan yuqori</li> <li>- o'zlashtirmovchi o'quvchilar</li> </ul>	<p style="text-align: right;">2 4 8 12 16 20 25 40</p> <p style="text-align: right;">4 8 12 15 -5</p>
2.	Bitiruvchi 9-sinf o'quvchilarining Davlat attestatsiyasi natijalari	<p>Yakuniy Davlat attestatsiyasi natijalariga ko'ra bitiruvchi 9-sinf o'quvchilari tayyorgarligining tumanlar bo'yicha o'rtachadan yuqori ko'rsatkichlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- 20% gacha;</li> <li>- 20 % dan 35 % gacha;</li> <li>- 35% dan 50% gacha;</li> <li>- 50% dan yuqori</li> <li>- qoniqarsiz baho olgan o'quvchilarning mavjud emasligi</li> </ul>	<p style="text-align: right;">5 10 15 20</p> <p style="text-align: right;">5</p>
3.	O'zlashtirish	<p>Ijobiy sifat dinamikasi bo'yicha:</p> <p>O'zlashtirishning ijobiy dinamikasi bo'yicha:</p>	<p style="text-align: right;">5</p> <p style="text-align: right;">5</p>
4.	O'quv predmetlari bo'yicha o'quvchilar erishgan yutuqlar	<p>Muayyan davr ichida o'quv predmeti bo'yicha qoniqarli o'zlashtirish ko'rsatkichiga ega bo'lgan o'quvchilarning hissalari ___ (%)</p> <p>Mazkur davr mobaynida yaxshi hamda a'lo baholarga o'zlashtirgan o'quvchilarning hissalari ___%</p>	<p>0 – 1 b</p> <p>10% dan 50% gacha – 10 b.</p> <p>50% dan 68% gacha – 25 b.</p> <p>68% dan 75% gacha – 30 b.</p> <p>75% dan yuqori – 35 b.</p>

II. O'quvchilarning darsdan tashqari vaqtlarda erishgan yutuqlari asosida o'qituvchi faoliyati bahosi			
5.	O'quvchilarning olimpiada va turli tanlovlarda erishgan yutuqlari	<p>Ishtirokchi o'quvchilarning hissasi (%)</p> <p>maktab miqyosida ____%</p> <p>tuman miqyosida ____ kishi.</p> <p>viloyat miqyosida ____ kishi.</p> <p>Respublika miqyosida ____ kishi.</p> <p>xalqaro doirada ____ kishi.</p>	<p>10 % – 5 b.</p> <p>10% dan 20% gacha – 10 b.</p> <p>20% dan 30% gacha – 25 b.</p> <p>30% dan 40% gacha – 30 b.</p> <p>40% dan yuqori – 35 b.</p> <p>Har bir ishtirokchiga – 5 b.</p>
6.	O'quvchilarning turli tanlovlar va olimpiadalarda ishtiroklari natijasi	<p>G'olib o'quvchilarning soni</p> <p>Fan olimpiadalari va turli tanlovlarda egallangan I, II, III o'rinlar</p> <p>maktab miqyosida ____ kishi</p> <p>tuman miqyosida ____ kishi.</p> <p>viloyat miqyosida ____ kishi.</p> <p>respublika miqyosida ____ kishi</p> <p>xalqaro doirada ____ kishi.</p>	<p>Har bir ishtirokchiga – 2 b. Har bir ishtirokchiga – 4 b</p> <p>Har bir ishtirokchiga – 4 b</p> <p>Har bir ishtirokchiga – 5 b</p> <p>Har bir ishtirokchiga – 6 b.</p>
7.	O'quvchilarning o'quv fan seksiyalari, to'garak va fakultativlarga qatnashishi	<p>Maktab bo'yicha turli xil sinfdan tashqari ish shakllariga o'rtadan yuqori ko'rsatkich bo'yicha o'quvchilarning jalb etilganligi:</p> <p>Darsdan tashqari faoliyatga o'quvchilar jalb etilishining ijobiy dinamikasi (o'tgan davrlar bilan qiyoslangan holda)^</p>	<p>5</p> <p>5</p>
8.	Darsdan tashqari vaqtlarda o'quvchining o'qishiga individual yondashuvning ta'minlanganligi	<p>o'quv predmetlari bo'yicha olimpiada va tanlovlarda qatnashuvchi o'quvchilar (foiz hisobida) sonining ortishi: ta'lim muassasasida o'quv dasturlari asosida predmetlar bo'yicha o'quvchilarning ilmiy loyiha va boshqa ishlardagi ishtiroki:</p> <p>kasbiy ta'lim muassasalarida tanlangan yo'nalishga muvofiq ta'limni davom ettirayotgan o'quvchilar:</p>	<p>5</p> <p>5</p> <p>5</p>
9.	O'qituvchi rahbarligida o'quvchilarning loyihalashtirish faoliyatlarida erishgan yutuqlari	<p>O'quvchilarning hissalar va bajarilgan ishning sifati, ularning anjumanlar, tanlovlar, madaniy-ma'naviy tadbirlar, ko'riklar, musobaqalar va ko'rgazmalardagi ishtiroklari.</p> <p>maktab miqyosida ____%</p> <p>tuman miqyosida ____ kishi.</p> <p>viloyat miqyosida ____ kishi.</p> <p>respublika miqyosida ____ kishi.</p> <p>xalqaro doirada ____ kishi.</p>	<p>10% – 5 b.</p> <p>10% dan 20% gacha – 10 b.</p> <p>20% dan 30% gacha – 25 b.</p> <p>30% dan 40% gacha – 30 b.</p> <p>40% dan yuqori – 35 b.</p> <p>Har bir ishtirokchiga – 2 b.</p> <p>Har bir ishtirokchiga – 3 b.</p> <p>Har bir ishtirokchiga – 4 b.</p> <p>Har bir ishtirokchiga – 5 b.</p> <p>Har bir ishtirokchiga – 6 b.</p>
11.	Mustaqil bilim olish faoliyatining yo'lga qo'yilganligi	<p>Mazkur o'qituvchi ta'lim berayotgan o'quvchilarning turli dasturlarni o'zlashtirganlik darajalari va ularga o'qituvchi tomonidan doimiy tarzda maslahatlar berilganligi ____ kishi.</p>	<p>Har bir ishtirokchiga – 2 b.</p> <p>Har bir ishtirokchiga – 3 b.</p> <p>Har bir ishtirokchiga – 4 b.</p> <p>Har bir ishtirokchiga – 5 b.</p> <p>Har bir ishtirokchiga – 6 b.</p>
12.	Ta'lim jarayonida pedagogik-psixo-logik muhitning shakllantirilganligi	<p>O'qituvchining kasbiy faoliyati haqida ota-onalar va o'quvchilar tomonidan shikoyat va e'tirozlarning mavjud yoki mavjud emasligi</p> <p>____ ha / yo'q ____</p>	<p>5 b</p>

<b>III. O'qituvchilarning metodik hamda innovatsion faoliyatlarini natijalari</b>			
13.	Shaxsiy, innovatsion faoliyatini natijalarining taqdim etilishi	O'qituvchining o'z kasbiga oid turli tanlovlarda ishtiroki (tanlovning nomi va o'tkazilgan vaqti) maktabda tumanda viloyatda Respublikada	Har bir ishtirokchiga – 2 b. Har bir ishtirokchiga – 3 b. Har bir ishtirokchiga – 4 b. Har bir ishtirokchiga – 5 b.
14.	Ekspertlik va tahlilchilik faoliyati	Ekspert va attestatsiya komissiyalari tarkibidagi faoliyati (guruhlar va kengashlarda): maktabda tumanda viloyatda	Har bir ishtirokchiga – 4 b.
15.	Ta'lim jarayoniga innovatsion usullar hamda kompyuter texnologiyalarini qo'llash faoliyati	Kamida 25-30% mashg'ulotlarni innovatsion hamda kommunikativ texnologiyalarni qo'llagan holda tashkil etganligi: Informatika fani asoslaridan dars beradigan o'qituvchilarning informatsion texnologiyalarni qo'llagan holda tashkil etgan darslari miqdori:	Har bir ishtirokchiga – 5 b. Har bir ishtirokchiga – 6 b.
16.	Innovatsion texnologiyalarning qo'llanilishi	o'quv jarayonida axborot texnologiyalari metodikasi yoki ularning elementlarining qo'llanilishi (tahliliy materiallarning mavjudligi): mualliflik dasturlari metodikalarining ishlab chiqilganligi va tatbiq etilganligi (joylarda yoki respublika darajasida):	Har bir ishtirokchiga – 5 b.
17.	Ta'lim jarayonida o'quvchilar tomonidan axborot-kommunikativ texnologiyalarining qo'llanilishi	O'quvchilarning o'quv va darsdan tashqari vaqtda axborot-kommunikativ texnologiyalardan foydalanishlari (mashg'ulotlar 25% dan kam bo'lmagan): 25 va undan ortiq 15-25% 10% gacha o'quvchilar tomonidan multimedia mahsulotlari, loyihalar, taqdimotlarning ishlab chiqilganligi: 5 ta loyihagacha; 6 dan 10 ta loyihagacha; 10 ta loyihadan ortiq	Har bir ishtirokchiga – 6 b.
18.	O'quvchilar tomonidan loyiha metodi, ommaviy chiqishlar va jamoa tarkibida ishlash malakalarining o'zlashtirilganligi.	O'quvchilar tomonidan maktab informatsion saytida chop etilgan, himoya qilingan referat, ilmiy va ijodiy ishlar amalga oshirilganligi.	10
<b>IV. Sinf rahbarligi faoliyati orqali erishgan natijalari</b>			
19.	Hujjat yuritishi	O'z oldiga vazifa qo'ya olishi, talablarni hisobga olgan holda, tarbiyaviy ishlarni tahlil eta olishi: sinf jamoasi va o'quvchilarni o'rganishda tashxisdan foydalana bilishi:	5 5

20.	Sinf jamoasining yetukligi	jamoaviy ijodiy ishlarining o'quvchilarga ijobiy ta'siri: tarbiyaviy ahamiyatga molik sayr-sayohatlar uyushtirishi:	5 5
21.	Huquqiy xulq-atvorning shakllanganligi	IIB tomonidan ro'yxatga olingan jinoyat hodisalarining mavjud emasligi: maktab ichki intizomining ijobiy holati: o'quvchilar tashqi ko'rinishining maktab Nizomiga muvofiqligi:	10 5 5
22.	O'quv faoliyatiga nisbatan javobgarlikni his etish	besabab dars qoldirmaslik:	10
23.	Sinf rahbarining faol nuqtayi nazarga ega bo'lishi	kasbiy tanlovlarda ishtirok etishi (har bir tanlov uchun): ochiq tadbirlarning talab darajasida o'tkazgani: maktab darajasida tuman darajasida respublika darajasida	5 10 15
24.	Ota-onalar bilan ishlash	bolalarni o'quv ishlariga jalb eta olishi: o'quvchilarning oilalarini o'rganish va pedagogik qo'llab-quvvatlashga muhtoj oilalar bilan individual ishlar uyushtirish:	5 5
25.	O'quvchilarni ijtimoiy ahamiyatli loyihalarda va maktab o'z-o'zini boshqarishda, shuningdek, sinf hayotida faol ishtirok etishlari va ular-da ijtimoiy tajribalarning shakllanganligi	rasmiy xat, tashakkurnoma, ijobiy taqrizlarning mavjudligi: sahovat ko'rsatishga qaratilgan tadbirlarda ishtirok etilganligi haqida ma'lumotning mavjudligi: o'quvchilarning jamoat tashkilotlari, maktab, tuman o'z-o'zini boshqarish tashkilotlarida ishtirok etishlari:	5 5 5
26.	O'quvchilarning ta'til davridagi dam olishlarini tashkil etish.	Sog'lomlashtirish va dam olish turlarini uyushtirishga o'quvchilarni jalb etilishi (umumiy miqdordan 50% yuqori ko'rsatkich qayd etilgan holat)	5 dan 15 gacha
27.	O'quvchilarni ijodiy faoliyat turlariga qamrab olinishi.	Maktabda o'rtadan yuqori ko'rsatkich bilan ijodiy faoliyat turlari (raqs, musiqa, rassomlik va boshqalar) bilan shug'ullanuvchi o'quvchilarning mavjudligi	5
28.	O'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasi	o'tgan davrga qiyosan sinf o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasining ijobiy tomonga o'sishi: sinf jamoasida ziddiyatli vaziyatlar yuz bermaganligi:	5 5
<b>V. O'qituvchining kasbiy muvaffaqiyatlari</b>			
29.	Kasbiy tanlovlarda faol va natijali ishtiroki	maktab darajasida tuman darajasida shahar darajasida respublika darajasida G'olib yoki taqdirlangan: maktab darajasida tuman darajasida shahar darajasida respublika darajasida	10 15 20 30 20 40 50 60

30.	Shaxsiy pedagogik tajribasini ommalashtirishi	Pedagogning ilmiy-pedagogik konferensiya, darslik, o'quv qo'llanma, metodik tavsiya va boshqalarni yaratishdagi ishtiroki: Darslik, o'quv qo'llanma, metodik tavsiyalarining mavjudligi: pedagogik tajribasi (master klass, ochiq darslar, ma'ruzalar va h.k.) ning umumlashtirilganligi va ommalashtirilganligi: maktab darajasida tuman darajasida shahar darajasida respublika darajasida	10 40 5 10 25 50
31.	Metodik ishlar tashkilotchisi sifatidagi faoliyati	yosh o'qituvchilar maktabi ijodiy guruhidagi ishtiroki	10
32.	Kasbiy tayyorgarlik va malaka oshirish	O'z vaqtida malaka oshirish kurslaridan o'tganligi: aspirantura va doktoranturada o'qishi:	1 3
33.	Ota-onalar hamda o'quvchilar tomonidan baholanishi	ota-onalar tomonidan o'qituvchi faoliyatiga ijobiy taqriz berilganligi: farzandini ushbu o'qituvchi o'qitayotgan sinfga berish haqida talab qilinganligi: mazkur o'qituvchi o'qitgan sinfdan boshqa sinfga o'quvchi o'tkazilmaganligi:	5
34.	O'qituvchining malaka oshirish natijalari	Navbatdan tashqari muammoli seminar dasturini o'zlashtirgan (guvohnoma): axborot-kommunikativ texnologiyalari bo'yicha dasturni o'zlashtirganligi	5 5
35.	Mukofotlanganligi	maktab maqtovi yorlig'i tuman xalq ta'limi bo'limi maqtovi yorlig'i tuman hokimiyati maqtovi yorlig'i shahar hokimiyati maqtovi yorlig'i RTM maqtovi yorlig'i shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi maqtovi yorlig'i Xalq ta'limi vazirligi maqtovi yorlig'i  O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti	1 2 3 4 5 6 7 8
<b>VI. Mehnat va ijro intizomi</b>			
36.	Ishga o'z vaqtida kelishi, vaqtida ish boshlashi va mashg'ulotlarni vaqtida tugatishi	Mehnat tartibining buzilmaganligi	3
37.	Barcha hujjatlar, hisobotlar, reja va tahlillarining sifatli va o'z vaqtida bajarilganligi	Tartibning buzilmaganligi va tanbeh olinmaganligi	3

38.	Hujjat, buyruq, ko'rsatma, jamoa mehnat shartnomasi va dalolatnomalarning sifatli va o'z vaqtida bajarilganligi	Tartibning buzilmaganligi va tanbeh olinmaganligi	4
39.	O'qituvchi va sinf navbatchiligi sifati	Jadval bo'yicha navbatchilik majburiyatlarini tanbehsiz o'z vaqtida va sifatli bajarilganligi	2
40.	O'ziga qarashli xonani jihozlaganligi	Xona holatining tekshirilishi natijalari (maktab bo'yicha buyruq, dalolatnoma): sanitar holati metodik holati	3 5

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o'qituvchi mehnatini munosib baholash orqali quyidagilarga erishiladi:

- o'qituvchi o'zining kasbiy faoliyatini izchil tarzda baholashga odatlanishi yo'lga qo'yiladi;
- pedagog mehnatini tashqi tomondan ekspert baholash tizimi va mexanizmlari vujudga keladi;
- o'qituvchilarning moddiy manfaatdorligi ortadi va buning natijasida pedagogik faoliyatining sifati yaxshilanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1998.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1998.
3. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. Xalq ta'limi xodimlari uchun qo'llanma. – T.: O'qituvchi, 2004.
4. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – T.: Fan, 2005.

---

**Tahririyat:** Ochig'ini aytish kerakki, bugungi kunda o'qituvchining kasbiy faoliyatini baholash ishlari barcha umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ham olib borilmaydi. Muallifning bu borada bergan tavsiyalari har bir o'qituvchi-pedagogga, ta'lim muassasasi rahbarlariga juda zarur deb o'ylaymiz. Ular buni amaliyotda qo'llasa, ta'lim-tarbiya jarayonida yuqori natijalarga erishishi mumkin. Bu tavsiyalar monitoring ishlarida ham asqotadi.



Nasiba XOLYIGITOVA,

Toshkent moliya instituti kasbiy ta’lim kafedrası katta o’qituvchisi

## O‘QUVCHI-YOSHLARNING KASBIY MOTIVATSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS JIHLTLARI

### Annotatsiya

Maqolada o’quvchilar kasb tanlashda kasbiy faoliyatlari va kasbiy rag’batlantirishning psixologik jihatlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif ilmiy yutuqlarni yaxshilashga yordam beruvchi turli uslublar hamda talabalarning tanlagan kasblarga bo’lgan munosabatlarini o’zgartiruvchi omillarni aytib o’tgan.

**Kalit so’zlar.** Talabalar motivatsiyasi, bo’lajak kasbdan qoniqish, zamonaviy yoshlar psixologiyasi, yo’naltiruvchi mavqe.

В статье изложены психологические аспекты и мотивы выбора учащимися профессии. Автор отмечает, что научные достижения в профориентации и использование различных приёмов помогают учащимся-студентам изменить отношение к избранной профессии.

**Ключевые слова.** Мотивация студентов, удовлетворение будущей профессией, психология современной молодежи, направляющее положение.

Article describes the psychological aspects and motives of students' occupational choice. The author notes that scientific advances in vocational orientation and the use of various techniques help student students change attitudes toward their chosen profession.

**Key words.** Motivation of the students', effectiveness of the future profession, the psychology of today's youth, the guide position.

**R**еспублиkamizda yoshlarni kasbga yo’llash umumdavlat ahamiyatiga ega vazifa hisoblanib, uni bosqichma-bosqich amalga oshirish Kadrlar tayyorlash milliy dasturida alohida o’rin egallaydi.

Jamiyatda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, shakllanayotgan madaniy-iqtisodiy bozor munosabatlari, ishlab chiqarishning keskin rivojlanishi, fan va texnikaning taraqqiyoti qizg’in kechayotgan davrda jamiyat va shaxs ehtiyojlarining uzviy mutanosibligiga erishish yoki uni ta’minlash oson ish emas. Shu bois yoshlarda kasb tanlashning ijobiy (pozitiv) motivlarini shakllantirishda jamiyat va jamoatchilik ta’sirini kuchaytirish kerak. Shuningdek, oila va maktab, mahalla va jamoatchilik, ommaviy axborot vositalari hamda boshqa tuzilmalar yaxlit tizim sifatida bir maqsad atrofida uyushishlari lozim.

Uzluksiz ta’lim tizimida kasb-hunarga yo’naltirish har bir o’quvchiga o’zligini anglash va o’ziga xosligi asosida ham hayotiy, ham kasbiy istiqbolini belgilashda yordam beradi. Kasbga yo’naltirish jarayoniga amaliy-psixologik texnologiyalarni tatbiq etish bilan shaxsning kasbiy o’zligini anglashi va kasbiy istiqbol rejasini belgilashi uchun bevosita ijtimoiy psixologik sharoit yaratiladi. Bu faoliyat samaradorligini oshirishning zarur omillaridan biri hisoblanadi.

Tashkiliy ishlardan tashqari, bitiruvchilarning samarali faoliyat ko'rsatib ketishlari uchun ularning kasbga motivatsiyasini bilish yuqorida ko'zda tutilgan vazifalarning ancha oson bajarishga imkon beradi.

Kasb tanlash jarayoni ijtimoiy ahamiyat kasb etsa-da, lekin uning ortida alohida insonning bir qarashda sof individual tanlovi yotadi. Shunday ekan, birinchi navbatda shaxsning kasbiy ehtiyoji, motivi, layoqati, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish lozim. Aks holda umumiy xususiyatli yo'llanma, ko'rsatma ijobiy natijaga olib kelmaydi, chunki individuallik o'ziga xos talablarni taqozo etadi. Bu borada hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-11-sinflari o'quvchilariga kasbiy ta'lim berishga ixtisoslashgan o'quv-ishlab chiqarish majmualarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 868-sonli qaroriga mufoviq umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-11-sinflari o'quvchilari uchun kasbiy ta'lim berishni tashkil etish to'g'risidagi Nizomning joriy etilishi ham ta'limga qo'yilayotgan talablardan biridir.

O'quvchilarga kasbiy ta'lim berish uzluksiz ta'lim tizimining tarkibiy qismi bo'lib, ularni kasb-hunar o'rganishga bo'lgan ehtiyojini qondirish, kasbiy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, respublika iqtisodiyoti tarmoqlari uchun zarur mutaxassislarni tayyorlashni ta'minlaydi. Shu bois o'quvchilarga maxsus va chuqurlashtirilgan tayyorgarlikni talab etmaydigan kasb bo'yicha ijodiy fikraydigan, tashkilotchilik hamda tadbirkorlik ko'nikmalariga ega bo'lgan shaxsni tarbiyalashda hamda o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda kasb-hunar tanlashda ularga ko'maklashish zarur.

Hozirgi zamon psixologiya fani bilimlarni egallashga nisbatan ichki ehtiyojga katta ahamiyat beradi va bu bilan shaxs xulq-atvorini bir muncha boshqarish imkoniyati mavjud ekanligini ta'kidlaydi. Shuning bilan birga o'quvchi (talaba)da barqaror bilishga qiziqishni shakllantirish muammosiga alohida e'tibor qilinadi. Darhaqiqat, barqaror bilishga qiziqishlar qo'zg'atuvchi turtki (kuch) sifatida o'quv motivlarini vujudga keltirib, muvaffaqiyatni ta'minlashga xizmat qiladi. O'quvchi yoki talabada bilimlarning muayyan sohasiga, u yoki bu faoliyat turiga qiziqishning tug'ilishi ko'p jihatdan shaxsni qay tariqa shakllanish imkoniyatini belgilaydi.

Ma'lumki, har qanday faoliyat muayyan motivlar ta'sirida vujudga keladi va yetarli shart-sharoitlar yaratilgandagina amalga oshadi. Shuning uchun ham ta'lim jarayonida o'zlashtirish, egallash va o'rganishni amalga oshirishni ta'minlash uchun o'quvchilarda o'quv motivlari mavjud bo'lishi shart. Bulardan kelib chiqib, rus olimi Y.A. Klimov yoshlar iqtidorining yo'nalishini aniqlash maqsadida faoliyat va kasb-hunar sohaslarini asos qilib olib, metodika yaratdi va uni “Professional-diaagnostik so'rovnoma” deb atadi. U barcha kasblarni ularning yo'naltirilgan sohasiga ko'ra 5 toifaga bo'ldi:

P(T) – tabiat (o'simlik, hayvonlar, mikroorganizmlar);

T – texnika (mashina, materiallar, energiyaning turlari);

CH(O) – odam (odamlar guruhi, jamoalar);

Z (B) – belgilar (turli ma'lumotlar, belgili simvollar);

X (I) – badiiy, ijodiy obrazlar (tasviriy san'at, musiqa).

Ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan amaliyotchi psixologlar ishida o'quvchilarda qanday kasblarga moyilliklari mavjudligini aniqlash, ularni kasb-hunarga to'g'ri yo'llash, ular bilan kasb-hunarga oid masalalarda maslahat ishlari olib borish kabi masalalar muhimdir. Inson shaxsi rivojlanishining shu bosqichida to'g'ri yo'lni tanlay olishi uning kelgusi hayoti uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Y.A.Klimov tomonidan taklif etilgan so'rovnoma aynan psixologik amaliyotda keng qo'llanilib, o'zining samaradorligini, foydalanish uchun qulayligi bilan xarakterlanib kelayotgan metodikalardir.

Bu metodika yordamida sinaluvchining faoliyatni u yoki bu turidan qaysi birini ko'proq ma'qul ko'rishi va shunga mos ravishda qaysi kasbga moyilligi aniqlanadi. Undan mehnat ta'limining boshlanish bosqichlarida, ya'ni hali kasbni o'zlashtirish mumkin bo'lgan vaqtda

---

foydalanish va uning natijalariga asoslangan holda o'quvchiga to'g'ri maslahatlar berib, uni o'zining individual-psixologik xususiyatlariga ko'proq mos keladigan kasb-hunarga yo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Kasbning inson oldiga qo'yadigan talablari majmuasi psixologik, ijtimoiy, iqtisodiy, texnikaviy va pedagogik jabhalarni qamrab oladi. Kasb va ixtisoslik asoslarini egallovchi yoshlar shu fanlarning barcha talabalariga moslashishi orqali mutaxassislik layoqatini rivojlantira boradi. Bu o'z navbatida kasbiy orientatsiya bilan bog'liq bo'lib, kasb tanlashga yo'naltirish davlatning kompleks tadbir-choralari tizimidan kelib chiqadi. Har bir shaxs o'z istagi va layoqati asosida kasbni tanlaydi. Bu jarayon quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- 1) maktabda kasbiy ma'lumotlar berish;
- 2) kasb-hunar maorifi bilan shug'ullanish;
- 3) radio, televideniye, kino, matbuotda tashviqot qilish;
- 4) kasb yuzasidan maslahatlar;
- 5) kasbga saralash (qobiliyatiga binoan);
- 6) kasbga moslashish (adaptatsiyalash).

Mazkur sohada psixologik izlanishlar olib borgan K.K.Platonov "Kasb tanlashga yo'naltirish uchburchagi" deb nomlangan sxema ishlab chiqqan. Kasb tanlashga yo'naltirish uchburchagining muhim tomonlari:

1) har xil kasb-hunar egasiga nisbatan qo'yiladigan talablar yuzasidan muayyan bilimning mavjudligi;

2) u yoki bu mutaxassislikka nisbatan jamiyat (viloyat, shahar, tuman)ning mehnat resurslariga ehtiyoji bo'yicha ma'lumotlar;

3) kasbga yo'naltiruvchining layoqati, qobiliyati, shaxsiy xususiyatlariga oid bilimlar.

Amaliy psixologiyaning bugungi kundagi eng muhim va dolzarb vazifalaridan biri layoqat kurtaklarini ilk yoshlikdan aniqlash, intellekt darajasiga ko'ra shaxs qobiliyatlari yo'nalishini ochib berishdir. Shuning uchun ham hozirda ko'plab intellekt testlari va qobiliyatlarni diagnostika qilish usullari ishlab chiqilgan va ular muvaffaqiyatli tarzda amaliyotda qo'llanmoqda.

Psixologlar kasbga nisbatan psixologik tayyorlikni, kasbiy ko'rsatmalarning barqarorligini, bu boradagi motivlarning anglanganligini muhim omil, deb hisoblaydilar. Chunki kasbga, biror ish-hunarni bajarishga, inson, avvalo, ruhan tayyor bo'lishi, keyin mutaxassislik sir-asrorlarini egallashi kerak.

**Kasbiy tayyorgarlik** – shaxsning tanlagan kasbiga yoki muayyan hunarga ichki ruhiy tayyorligi bo'lib, u bu kasbni nafaqat biladi, balki uni yoqtiradi, hayotda shu yo'ldan borishga, uning qiyinchiliklarini qabul qilib, amalda bajarishga hozir bo'ladi. Lekin amalda har doim ham kasbiy ko'rsatma o'zgarmas va doimiy bo'lmasligi mumkin. Buning ham obyektiv hamda subyektiv sabablari bor. Masalan, bir kasb-hunar o'rniga yangi zamonaviy hunar turlari paydo bo'lishi mumkin. Yoki biror kasbni tanlagan shaxs ma'lum vaqt o'tgach undan boshqa bir kasbni yoqtirib qolishi yoki o'zini shu jabhada ko'rsata olmasligi mumkin. Shunday sharoitlarda shaxsning kasbiy motivatsiyasida o'zgarishlar ro'y beradi. U muayyan vaqt ishsiz ham qolishi mumkin. Demak, u yangi kasb turini egallashga qaror qiladi. Shaxsni qayta kasbga yo'llash psixologiyada reorientatsiya deb ataladi. Proorientatsiya, ya'ni kasbga yo'naltirish deganda, o'quvchilarga (shaxsga) o'z qobiliyati, qiziqishlari, imkoniyatlari va ijtimoiy ehtiyojlarni hisobga olgan holda ongli ravishda kasb tanlashga yordam berishdan iborat faoliyat tushunilsa, reorientatsiya boshqa kasbga qayta yo'naltirishni nazarda tutadi.

Reorientatsiya (qayta kasbga yo'llash) gumanistik psixologiya tamoyillarini turmushga tatbiq etishga zarur shart-sharoit yaratib, inson omilini qadrlashga, butun imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga, ezgu niyat, orzu havas, istak-xohish ushaliishiga undaydi.

Ko'p profilli kasb-hunar egalari safini kengaytirishga xizmat qilib, komillikka intilish tuyg'usini jonlantiradi, zarur bilimlar, malakalar bilan qurollantirishga turtki beradi.

Shuni ta'kidlash joizki, kasb tanlash jarayonida o'quvchi-yoshlar o'z hayotlarining juda murakkab va nozik davrini boshidan kechiradilar: ular oldida turgan eng dolzarb muammo “kim bo'lsam ekan, qayerga borsam ekan?” degan muhim hayotiy savollarga javob berishdir. Bu muammolarning qanday yechilishi esa, ko'p jihatdan shaxsning kasbiy kelajagini belgilab beradi.

Bu jarayonda ba'zi o'quvchilar o'zlarining kuchli va zaif tomonlarini anglashga intilib, atrofdagilarning kasbiy faoliyatlarini diqqat bilan kuzatib, u yoki bu kasb sohasining xususiyatlari bilan tanishadilar. Lekin ko'pgina o'smirlar, o'tkazilgan tadqiqotlarda guvohlik berishicha, bo'lajak kasbni tanlashda katta qiyinchilik sezishadi. Mutaxassislarning aksariyati bu yoshda rivojlanishning notekis ketishini qayd etadilar: ba'zi o'quvchilar hali beozor bolalik xislatlaridan voz kecholmay, deysinib qolsalar, boshqalari olg'a qarab intilishadi va o'z kelajaklariga jiddiroq qarashadi va h.k.

Demak, shaxsning kasbiy shakllanishida kasbiy yo'nalganlik layoqatlarning mazmuniy tomonini aks ettirsa, kasbiy o'zligini anglash, kasb tanlashga tayyorlik xislatlari uning dinamik jihatini belgilaydi. Kasbiy yo'nalganlik (layoqat yo'nalishi, qobiliyatlar) shaxsning tabiiy va ijtimoiy yo'nalganlik xislatlari sifatida ba'zan yashirin, o'zi bilmagan holda bo'lsa-da, albatta mavjud bo'ladi. Lekin uning ro'yobga chiqishi, rivojlanishi faqatgina kasbiy o'zlikni anglashga intilish xislatlariga, kasbiy ko'rsatmalarning to'g'ri shakllanganligiga, ya'ni layoqatlarning dinamik jihatlariga bog'liq bo'ladi. Layoqatlarning dinamik jihatlari esa o'zgaruvchan, rivojlanuvchi sifatlar bo'lib, turli shaxslarda, har xil yosh davrlarida ustuvor individual-psixologik xususiyatlarga qarab turli darajada shakllangan bo'lishi mumkin. Hayotda har bir inson o'zidagi mavjud ichki imkoniyatlarni, layoqatlarni, kasbiy yo'nalganligini har xil yoshda anglab yetishining sababi ham aynan ana shunda bo'lsa kerak. Shaxs kasbiy qobiliyati va layoqatlarining rivojlanishi bir tomondan biologik (irsiy, psixofiziologik) omillar bilan belgilansa, ikkinchi tomondan, hayot jarayonida shakllanadigan ehtiyojlar, motivlar, qadriyatlar, qiziqish va layoqat yo'nalishlari kabi psixik tuzilmalar, u yoki bu faoliyat sohasiga nisbatan ijobiy va intiluvchan munosabatlarining shakllanishiga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchi yoshlarni kasbga yo'naltirishda ustuvor kasbiy qiziqishlarni o'rganish ularning layoqat yo'nalishlarini, moyilliklarini aniqlashdagi muhim qadam bo'lib hisoblanadi. Bunday faoliyat bilan shug'ullanishdan qoniqish hosil qilishadi va bu jarayonda o'quvchilarning dunyoqarashlari muayyan qobiliyatlari, kasbiy yo'nalganliklari shakllanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-11-sinflari o'quvchilariga kasbiy ta'lim berishga ixtisoslashgan o'quv-ishlab chiqarish majmualarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 868-sonli qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi ([www.lex.uz](http://www.lex.uz)), 2017-yil 24-oktabr.

2. Спицына У.И. Влияние профессиональной мотивации студентов на формирование социальных ориентаций к получаемой профессии. – М.: Академия, 2005. – С.147.

3. Батаршев А.В. Учебное профессиональная мотивация молодежи. – М.: Академия, 2009. – С.192.

4. Ковалев В.И. Мотивы поведения и деятельности. – М.: Ин-т психологии, 2005. – С.232.

**Nafisa ABDULLAYEVA,**  
Nizomiy nomidagi TDPU mustaqil tadqiqotchisi

## MAKTABGACHA TA'LIMNING VARIATIV TIZIMI SOG'LOM VA BARKAMOL BOLA SHAXSINI TARBIYALASHNING MUHIM SHARTIDIR

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta'lim tizimining bugungi kundagi holati, ushbu tizimni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilayotganligi, maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari chuqur tahlil qilib o'tilgan. Shuningdek, muallif maktabgacha ta'limning variativ tizimini amaliyotga kiritish zarurati va maqsadi hamda uni amalga oshirishda hududiy maktabgacha ta'limni boshqaruv organlarining asosiy yo'nalishlari, boshqarish komponentlarini keng yoritgan.

**Kalit so'zlar.** Maktabgacha ta'lim tizimi, maktabgacha ta'limning variativ tizimi, maktabgacha ta'lim variativ tizimini boshqarish, mezon, nazorat, sifat, tatbiq etish yo'llari, maktabgacha ta'lim sifati, boshqaruv.

В статье подробно рассматриваются основные проблемы совершенствования системы дошкольного образования, глубоко проанализированы пути совершенствования дошкольного образования. Также, автор предлагает внедрения вариативной системы дошкольного образования и обосновывает основные технологии предоставления качественного дошкольного образования.

**Ключевые слова.** Система дошкольного образования, вариативная система дошкольного образования, управления вариативной системой дошкольного образования, критерии, контроль, качество, пути внедрения, качество дошкольного образования, управление.

Article examines in detail the main problems of improving the system of preschool education, analyzed the ways of improving preschool education, the author also suggests the introduction of a variational system of preschool education and substantiates the main technologies for providing quality preschool education. The main tasks and ways of introduction, management of the variational system of preschool education, criteria for quality control of the variable system of preschool education are proposed.

**Key words.** Preschool educational system, variable system of preschool education, variable system of preschool education management, criteria, control, quality, types of implementation, quality of preschool education, management.

**M**aktabgacha ta'lim tizimi har tomonlama sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalashning muhim bosqichidir. Bugungi kunda ushbu tizimni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimizning 2016-yil 29-dekabrda "2017–2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida maktabgacha ta'lim tizimida chuqur o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Ma'lumki, maktabgacha yoshdagi bolaga singdirilgan bilim va qadriyatlar uning kelgusidagi hayotini belgilab berishi sababli maktabgacha ta'lim uyg'un rivojlangan shaxsni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shuni hisobga olgan holda, o'tgan davrda mamlakatimizda maktabgacha ta'limni yanada rivojlantirish va samarali faoliyat ko'rsatishiga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi hamda kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, mavjud tizimli kamchiliklar maktabgacha ta'lim sohasida davlat siyosatini to'liq amalga oshirishga to'sqinlik qilmoqda. Shu munosabat bilan, Davlat rahbari tomonidan 2017-yil 9-sentabrda qabul qilingan “Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorda maktabgacha ta'limni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, tarbiya va o'quv jarayonini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim muassasalarining infratuzilmasi va moddiy-texnik jihozlanishini yaxshilash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan hamda quyidagi kamchiliklar ko'rsatib o'tilgan:

birinchidan, maktabgacha ta'limni boshqarishning amaldagi holati tizimli muammolarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish, mazkur sohada, shu jumladan, nodavlat sektorda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish imkonini bermayapti;

ikkinchidan, maktabgacha ta'lim sohasiga investitsiyalarni jalb qilishga, shu jumladan, ijtimoiy-hammabop maktabgacha ta'lim muassasalarini tashkil etish, ularni moddiy-texnik jihatdan qayta jihozlash va ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llashga qaratilgan davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari joriy qilinmagan;

uchinchidan, maktabgacha ta'lim muassasalari infratuzilmasi va moddiy-texnik bazasining amaldagi holati bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalari bilan to'liq qamrab olishni ta'minlashga imkon bermayapti, mamlakatda aholi sonining o'sishi ayrim maktabgacha ta'lim muassasalarining haddan tashqari bandligiga olib kelmoqda;

to'rtinchidan, milliy madaniy-tarixiy qadriyatlarni aks ettiruvchi va bolalikdan kitob o'qishga qiziqishni uyg'otuvchi o'quv-metodik, didaktik (shu jumladan, o'yinlar va o'yinchoqlar) materiallar va badiiy adabiyotlarni tayyorlash hamda maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatiga joriy etish ishlari zamonaviy talablarga javob bermaydi;

beshinchidan, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning amaldagi tizimi maktabgacha ta'lim sohasini bolalarni tarbiyalash va har tomonlama rivojlantirish masalalarini professional darajada hal etishga qodir yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlay olmaydi;

oltinchidan, maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlarini moddiy rag'batlantirish tizimining past darajada ekanligi malakali kadrlarni jalb qilish imkonini bermayapti;

yettinchidan, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha hududiy sog'liqni saqlash organlari ishini tashkil etishdagi kamchiliklar bolalarning hayoti va sog'lig'ini himoya qilish, shu jumladan, sog'lom ovqatlanishini ta'minlash bo'yicha profilaktik chora-tadbirlar samaradorligining pasayishiga olib kelmoqda.

Demak, maktabgacha ta'limni boshqarishning amaldagi tizimi mavjud muammolarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish, shuningdek, mazkur sohani yanada rivojlantirish uchun innovatsion qarorlarni ishlab chiqish va joriy etish imkonini bermayapti.

Qarorda shuningdek, sohadagi dolzarb muammolarni hal qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha “Yo'l xaritasi” ham tasdiqlandi. Shu bilan bir qatorda, sifatli maktabgacha ta'limni tashkil etishga davlat talablari, shu jumladan, maktabgacha yoshdagi bolalarni uyg'un rivojlantirish sohasidagi ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda qayta ko'rib chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorining amalga oshirilishi mamlakatda maktabgacha ta'lim tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, maktabgacha ta'lim muassasalarining infratuzilmasi va moddiy-texnik jihozlanishini tubdan yaxshilash imkonini beradi.

Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanib, u

---

har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik yillarida respublikada ta'lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlari darajasiga ko'tarildi. Biroq o'tkazilgan tahlillar maktabgacha ta'lim sohasida olib borilayotgan ishlarning samarasi va natijasi yetarli darajada emasligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, maktabgacha ta'lim tizimida variativ dasturlar joriy etilmagan, bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha muqobil, moslashuvchan modellar yetarli darajada rivojlanmagan hamda taraqqiy etgan mamlakatlar singari ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, matematik, jismoniy va ijodiy rivojlantirish, atrof-muhit bilan tanishuvga yo'naltirilgan maxsus davlat ta'lim dasturlari tatbiq qilinmagan.

Davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning aksariyati o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lib, bolalarni maktab ta'limiga talab darajasida tayyorlash imkonini bermaydi.

Bundan tashqari, maktabgacha ta'lim sifati monitoringini yuritish tuzilmaviy va tashkiliy jihatdan nazarda tutilmaganligi sababli, maktabgacha ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayonining sifati va samaradorligini baholash zamon talablariga javob bermaydi.

Xorijiy davlatlar ilg'or tajribasining tahlili zamonaviy maktabgacha ta'lim muassasalarida maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratishga yo'naltirilganligi bilan tavsiflanib, bolaning ijobiy ijtimoiylashuvi imkoniyatlarini namoyon qilish, uning har tomonlama shaxsga oid ma'naviy-axloqiy va ongli rivojlanishi, maktabgacha yoshga oid tegishli faoliyat turlari asosida tashabbuskorligi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, muloqot doirasida katta yoshdagilar va tengdoshlari bilan hamkorlik qilish imkoniyatlarini ochishga qaratilgan.

Uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, samarali davlat boshqaruvi tizimini yaratish, maktabgacha ta'lim muassasalarida davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lim muassasalariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash zarur.

Bizning fikrimizcha, yuqorida ko'rsatib o'tilgan vazifalarni amalga oshirish uchun maktabgacha ta'limning variativ tizimini amaliyotga kiritish zarur.

Maktabgacha ta'lim variativ tizimining maqsadi – har bir bolaning sifatli va ommabop (ochiq) ta'lim olish huquqini ta'minlash. Bu tizimda ta'lim oluvchilar uchun har xil rejim, ya'ni ota-onalar talabidan kelib chiqqan holda, vaqtni belgilash, bola rivojlanishini inobatga olish, iqtidor va yo'nalishlarni hisobga olish, imkoniyati cheklangan bolalar, maxsus ta'lim talablarini inobatga olish va h.k. asosiy mezon bo'ladi.

Albatta, maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish, avvalambor, ta'lim jarayonini sifat jihatidan o'zgarishlarga olib keluvchi innovatsiyalarni rivojlantirishga bog'liq. Biz taklif etayotgan tizimda birinchi navbatda bu jamiyat, ota-onalarning maktabgacha ta'limning yangi shakllari bo'yicha talablari qondiriladi.

Yana shuni inobatga olish kerakki, zamonaviy ota-onalar o'z farzandlarini ertaroq rivojlantirish, ular qobiliyat va iste'dodini yoshligidan aniqlab, unga mos ta'lim yo'nalishlarini tanlashga harakat qilishmoqda.

Ma'lumki, bugun maktabgacha ta'lim muassasalaridagi qamrovning past darajada ekanligi (buning obyektiv va subyektiv sabablari bor)ni inobatga olib, ta'lim muassasalarida o'rtasida raqobat bo'lishi shart deb hisoblaymiz. Zamonaviy maktabgacha ta'lim muassasasi rahbarlari jamoa saviyasiga jiddiy e'tibor qaratib, ular faoliyatini monitoring qilish kabi masalalarga mas'uliyat bilan yondashmog'i lozim.

Bugun an'anaviy maktabgacha ta'lim tizimi, ya'ni to'liq kun maktabgacha ta'lim muassasasi o'rniga alternativ ko'rinishdagi ta'lim shakllarini kiritish ko'pgina tashkiliy muamrolarni hal etishga o'rmas beradi.

O'rganishlar natijasida shu aniq bo'ldiki, yuqorida ko'rsatib o'tilgan vazifalarni amalga oshirishda “ta'lim beruvchi – ta'lim oluvchi – ota-ona” tizimi asosidagi hamkorlikni yo'lga qo'ymasdan maqsadga erishish mumkin emas.

Maktabgacha ta'lim tizimining barcha xodimlari shuni anglashi kerakki, maktabgacha ta'limning variativ tizimi har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalashning muhim shartidir.

Fikrimizcha, maktabgacha ta'limning variativligi bu – maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishni belgilab beruvchi asosiy prinsiplaridan va yo'nalishlaridan biridir.

Maktabgacha ta'lim jarayonining variativligi bu – maktabgacha ta'lim maqsadlarini amalga oshirishda ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini muvofiqlashgan faoliyati. Bu jarayon ta'lim mazmunini tanlashda (ta'lim standartlari va talablari doirasida), ta'lim vositalari, usullari va muloqot yo'llarini, umuman olganda, maktabgacha ta'lim mazmuni va jarayonini tanlashda namoyon bo'ladi.

Qolaversa, ta'lim tizimida olib borilayotgan demokratlashtirish, liberallashtirish jarayonlari, ta'limning variativligi, innovatsion jarayonlar maktabgacha ta'lim muassasasi va barcha ijtimoiy institutlar (eng avvalo, oila) o'rtasida hamkorlikdagi, muvofiqlashgan faoliyatga xizmat qiladi.

Variativlik deganda, nafaqat mazmun jihatdan farqlanuvchi variativ dasturlardan (umumta'lim, chuqurlashtirilgan, kengaytirilgan darajadagi) foydalanish, balki ta'lim usullari, shakllari va ta'lim texnologiyalari bilan farqlanuvchi dasturlarni ham nazarda tutish lozim. Shundan kelib chiqqan holda, variativlik ta'lim oluvchi shaxsining talablari, ehtiyojlari, imkoniyatlariga yo'naltirilgan bo'lishi zarur.

Maktabgacha ta'limning variativ tizimini ilmiy tadqiq qilinishi va amaliyotga kiritilishi quyidagi natijalarga olib keladi:

1. Maktabgacha ta'limning sifati va ochiqligi barcha ijtimoiy toifadagi guruhlar, aholi hamda yashash joyi, daromadidan qat'i nazar hamma uchun ta'minlanadi.

2. Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchisining kelgusi hayotidagi o'rni aniq belgilanadi va uning jamiyat hayotiga moslashishi va qo'shilishi imkoniyati kengayadi.

3. Maktabgacha ta'lim xizmatlarining kengayishi asosida, maktabgacha ta'lim tizimida institutsional o'zgarishlar sodir bo'ladi.

4. Davlat va jamiyatning barcha institutlari hamkorligi asosida maktabgacha ta'lim tizimining ko'pfunksionalligi va moslashuvchanligi ta'minlanadi.

5. Maktabgacha ta'lim mazmuni, ta'lim modellari va texnologiyalarning takomillashuvi, innovatsiyalarning kiritilishi asosida bola shaxsining to'liq rivojlanishiga hamda maktabgacha ta'limning, ta'limning navbatdagi bosqichlari bilan uzluksizligi muvofiqlashtiriladi.

6. Maktabgacha ta'limning iqtisodiy ta'minotiga yangicha qarashlar shakllanadi hamda innovatsion maktabgacha ta'lim tizimi rivojlanadi.

7. Maktabgacha ta'lim tizimidagi innovatsion o'zgarishlarni muvofiqlashtiruvchi huquqiy-me'yoriy ta'minot takomillashtiriladi.

8. Maktabgacha ta'lim tizimi pedagoglarining innovatsion faoliyatlari sifatini kompetentlik yondashuvi asosida baholash mezonlari va monitoring tizimi shakllantiriladi hamda ularni maqsadli tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimining moslashuvchanligi, variativligi ta'minlanadi.

9. Maktabgacha ta'limni boshqarishning zamonaviy, jamiyat – davlat tizimi shakllanadi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimini boshqarish va uning iqtisodiyoti muamrolari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar nafaqat dolzarb, balki ijtimoiy-iqtisodiy sohaning eng asosiy, ustuvor yo'nalishidir.

Milliy va xorijiy mutaxassislar ilmiy tadqiqotlarining asosiy qismi ta'lim iqtisodiyoti ja-



---

miyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi o'rnini aniqlashga, ta'lim xarajatlarining iqtisodiy xususiyatlarini o'rganishga, ta'limni rivojlantirish, ta'limga investitsiyalar kiritish, innovatsiyalar va ta'lim sifatiga qaratilgan. Shunga qaramasdan haligacha ta'limda, xususan, maktabgacha ta'lim tizimining ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-pedagogik, psixologik jihatlarini ilmiy tadqiq qilish, o'rganish bo'yicha ehtiyoj susaymayapti. Buning sababi jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarda ta'lim tizimining, ta'lim muassasalarining o'zni beqiyosligidir.

Demak, ta'lim tizimining faoliyat yuritishida bozor iqtisodiyotining ta'siri yetarli darajada o'rganilmagani, ta'lim tizimi faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirishning bozor iqtisodiyotidagi texnologiyalari va metodlarini, ta'lim muassasalarining bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy samaradorligini oshirish muammolarining chuqur tadqiq etilmaganligidir. Ushbu oldimizda turgan muammolar ilmiy tadqiqot ishimizning mavzusini, maqsadini va vazifalarini belgilashga asos bo'ldi.

Shunday qilib, tadqiqotimiz obyekti etib, maktabgacha ta'lim tizimi, tadqiqotimiz predmeti esa – maktabgacha ta'limning variativligi etib belgilandi.

Maktabgacha ta'limning variativ tizimini amaliyotga joriy etish uchun quyidagi asosiy talablar bajarilishi shart:

Variativlik – ota-onalar va bolalarning turli ehtiyojga asoslangan ta'lim talablarini qondirish;

Tizimlilik – barcha maktabgacha ta'lim tizimi ta'lim oluvchilari uchun yagona ta'lim sifatini ta'minlash.

Ushbu talablarga asosan, variativlik – bu maktabgacha ta'lim tizimida ko'rsatilayotgan ta'lim xizmatlarining turli-tuman bo'lishiga hamda maktabgacha yoshdagi bolalarni to'liq qamrab olishga, maktabgacha ta'lim xizmatlari tizimini kengaytirishga erishishdir.

Maktabgacha ta'limning variativ tizimining zaruriyati quyidagi faktorlarga asoslanadi:

– ota-onalar va bolalarning rivojlanish darajasiga qarab ta'lim xizmatlariga talablarining turli-tumanligi;

– respublikamizda zamonaviy ta'lim talablarning ortishi va rivojlanishi;

– maktabgacha ta'lim tizimida ta'limning zamonaviy shakli va texnologiyalariga bo'lgan talabning ortishi.

Maktabgacha ta'limning variativ tizimini amalga oshirishda hududiy maktabgacha ta'limni boshqaruv organlari quyidagi yo'nalishlarga asosiy e'tiborlarini qaratishlari lozim:

– maktabgacha ta'lim muassasalari pedagog xodimlarining kasbiy darajasi va kompetentligini oshirishga (qisqa muddatli, maqsadli malaka oshirish kurslarini tashkil etish);

– maktabgacha ta'lim muassasalari rahbarlarining yangi, zamonaviy (rahbarning ijtimoiy-pedagogik modelini ishlab chiqish talab etiladi) tipini shakllantirish;

– maktabgacha ta'lim muassasalari pedagog xodimlarini ma'naviy va moddiy rag'batlantirish choralarini ko'rish.

Maktabgacha ta'limning variativ tizimini amaliyotga joriy etish uchun, albatta, maktabgacha ta'lim sifatini boshqarishning samarador tizimini yaratish lozim. Ta'lim sifati boshqa ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar kabi, stixiyali boshqarishdan yiroq bo'lishi hamda aniq tizimli boshqaruvga ega bo'lishi kerak.

Maktabgacha ta'limning variativ tizimi sifatini faqat ma'muriy yo'l bilan amalga oshirib bo'lmaydi, bu jarayonda yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek jamiyatning barcha institutlari, ta'lim jarayonining barcha subyektlari ishtirok etishi zarur.

Maktabgacha ta'limning variativ tizimi sifatini boshqarishning quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi:

– ta'lim sifatini nazorat qilish;

– motivatsiya;

– tashkiliy chora-tadbirlar;

– rejalashtirish, loyihalashtirish;

- tahlil;
- sifatni tadqiq qilish.

Maktabgacha ta'limning variativ tizimi sifatini boshqarish uchun quyidagilar zarur:

- boshqarish va sifatni nazorat qilish vositalari;
- boshqaruv tizimi, maxsus bo'linmalarni o'z ichiga olgan holda;
- boshqaruv motivlari;
- boshqaruv mexanizmlari;
- ta'lim sifati natijalaridan foydalanish maqsadlari va shart-sharoitlari.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'limning variativ shakli – bu maktabgacha ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat maktabgacha ta'lim muassasalari tizimining bir bo'lagidir. Variativ ta'lim jarayoni – barcha ta'lim jarayoni qatnashchilarining ta'lim maqsadlarini amalga oshirishda, davlat tablari va ta'lim standartlari asosida ta'lim mazmuni, ta'lim texnologiyalarini, faoliyat va muloqot vositalari va usullarini tanlashda hamkorlikdagi faolyatini yo'lga qo'yishda muhim ahamiyatga ega.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. *“Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz”*. 1-jild. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2017. 592-b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi *“O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida”*gi PQ-3305-son qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi ([www.lex.uz](http://www.lex.uz)), 2017-y.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi *“Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”*gi PF-5198-son farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 37-son, 984-modda.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-iyuldagi *“Maktabgacha ta'lim muassasalarining faoliyatini takomillashtirish to'g'risida”*gi 528-son qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 30-son, 732-modda.
5. Арнаутова Е.П. *Педагог и семья*. – М., 2001.
6. Афанасьева Т.П., Немова Н.В. *Профильное обучение: педагогическая система и управление. Книга 1. Система профильного обучения старшеклассников: Методическое пособие / Под редакцией Н.В. Немовой*. – М.: АПК и ПРО, 2004. – С.73.
7. Белая К.Ю. *О нетрадиционных формах работы // Дошкольное воспитание*. 1990, №12 – С.27. *Вариативность дошкольного образования и развитие сети дошкольных образовательных учреждений*. – М., 2008.
8. Данилина Т.А. и др. *Интеграция работы ДООУ с семьей // Управление ДООУ*. 2002. №4. – С.110-114.
9. Денякина Л.М. *Предшкольное образование: идеи, поиски, решения // Методист*. 2008. № 1. – С. 61-65.

---

**Shaxnoza XUDAYQULOVA,**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti o'zbek va rus tillari kafedrası o'qituvchisi

## MAKTABGACHA TA'LIMDA BOLALAR SO'Z BOYLIGINI OSHIRISH SHAKLLARI

**Annotatsiya**

Maqolada 3-4 yoshli bolalarning so'z boyligini oshirish va ularning qay darajada ekanligini aniqlash borasida psixolingvistikadagi assotsiativ metod asosida o'tkazilgan tajribasi va uning natijalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar.** Assotsiativ metod, tovush almashinish hodisasi, gipo-giperonimik munosabat, sifatdoshli qurilmalar, tur-jins, antonimik, sinonimik munosabatlar.

В статье детально описан эксперимент, основанный на ассоциативном методе. Представлен процесс развития словарного запаса детей 3-4 летнего возраста. Результат эксперимента представляет важную информацию для лингвистики.

**Ключевые слова.** Ассоциативный метод, звуковые явления, гиперонимические (родовидовые) отношения, причастные обороты, вид, гендер (пол), антонимические, синонимические отношения.

Article describes in detail the experiment based on the associative method. Also presented process of development of the vocabulary of children of 3-4 years of age. The result of the experiment represents important information for linguistics.

**Key words.** The associative method, sound effects, Hyper- hyponymic relations, participatory turnovers, type, gender (sex), antonymic relations, synonymous relations.

**V**atanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori avvalambor farzandlarimizning unib-o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir. Biz bunday o'tkir haqiqatni hech qachon unutmashimiz kerak.<sup>1</sup> Ma'naviyatni shakllantirishga bevosita ta'sir qiladigan muhim hayotiy omil – bu ta'lim-tarbiya tizimi bilan chambarchas bog'liqdir. Ma'lumki, ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilmu ma'rifat, ta'lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan. Albatta ta'lim-tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya'ni xalq ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o'zgartirmasdan turib, ma'naviyatni rivojlantirib bo'lmaydi. Shu bois, bu sohada yuzaki, rasmiy yondashuvlarga, puxta o'ylanmagan ishlarga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Shuni unutmashimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi,

---

<sup>1</sup> Karimov. I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.

boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq. Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rish zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta'lim va tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi. Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa, ta'limdan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasidir.

Uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta'lim standartlari asosida, turli darajadagi ta'lim dasturlarining izchilligi asosida ta'minlanadi. Uzluksiz ta'lim tizimi – yoshlarni ma'naviy yetuk, barkamol shaxs, biror kasb egasi sifatida shakllantiruvchi yaxlit ijtimoiy-pedagogik jarayon bo'lib, uning tarkibi pedagogik jarayonning obyektlari va subyektlari, ta'lim-tarbiyaning maqsadi, vazifalari, mazmuni, vositalari, shakl-usullari, ular o'rtasidagi munosabatning to'g'ri tashkil etilishi va boshqarilishiga bevosita bog'liq.

Bugungi kunda respublikamizda yosh avlodga uzluksiz ta'lim berish va uni tarbiyalash jarayonini qamrab oladigan yagona ta'lim majmuyi mavjud. Bunda ta'lim tizimining har bir bo'g'ini alohida o'rin va mas'uliyatga ega.

Mamlakatimiz milliy ta'lim tizimida maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'limni qamrab oluvchi yangi uzluksiz va izchil tizim samarali faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Bugungi kunda uzluksiz ta'limning dastlabki bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimida ham samarali ishlar amalga oshirilmoqda, bu esa, ta'lim sifatining tubdan o'zgarishiga yordam beradi.

“2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda qarori maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan soha xodimlariga ham qaratilgan bo'lib, bu o'rinda albatta, ota-ona va tarbiyachilarning o'rni muhim ekanligini ta'kidlab o'tish joiz.

Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim bolalariga chet tillarini, xoreografiya, tasviriy va musiqa san'ati, kompyuter savodxonligi asoslarini o'rgatish tizimi yaxshi yo'lga qo'yilgan. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, maktabgacha ta'lim maskanlaridagi tarbiyalanuvchilarning muloqot jarayonidagi faolligi, lug'at boyligi qay darajada ekanligini aniqlashda bevosita psixolingvistik tajriba o'tkazish asosiy masala sifatida qo'yildi.

Bilamizki, psixolingvistika bevosita inson va til munosabatini o'rganar ekan, bu doirada bolalar nutqini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bola nutqining rivojlanishini o'rganish lingvistikaga juda yaxshi ma'lumotlarni berishi mumkin.

Bolalarning nutqi, asosan, 1,5-2-yoshlarida shakllanib, ular o'z nutqini qisqa so'zlar orqali ifoda etadi. Ba'zi bolalarning 3 yoshgacha ham nutqi shakllanmagan bo'ladi. Bu kabi holatlarning sabablari turlicha, ya'ni bola bilan ko'p muloqotga kirishmaslik, boladagi tortinchoqlik, irsiyat ta'siri, shuningdek, kasallik ham bo'lishi mumkin. Maktab yoshigacha bo'lgan bolalarning nutqi rivojlanishi oilaviy muhit ta'sirida yuzaga keladi. Bu jarayonda oilaning beparvoligi kelajakda nutq nuqsonlarini yuzaga

---

keltirishi mumkin. Ko'p oilalarda bolaga nisbatan erkalash ma'nosidagi bola tilida gapirish ham nutqiy nuqsonlar paydo bo'lishini asosiy sabablaridan sanaladi. Bola nutqining bu jihatlarini o'rganish psixologlarning zimmasida bo'lgani holda, lingvistlar aynan shu nutq buzilishiga sababchi bo'ladigan lingvistik omillarni tadqiq qilishlari kerak.

Chunki bolalarda nutq faoliyatining rivoji o'zgaralar nutqini oqilona idrok qilish va tushunish imkonini yaratadi, shaxslararo muomala ko'lamini yanada kengaytiradi.

Uzluksiz ta'limining dastlabki bo'g'ini bola ongiga dastlabki bilimlarni beruvchi "fundament" vazifasini bajaradi. Bu borada Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov shunday deydi: "Ko'p yillik ilmiy kuzatish va tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson umri davomida oladigan barcha informatsiyaning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda olar ekan". Shu jihatdan ushbu ta'lim bosqichidagi muammolarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf yetish pedagoglarga muhim vazifa yuklaydi.

Bolalar nutqi o'ziga xos bo'lib, ontolingvistika fani bevosita mana shu masala bilan shug'ullanadi.

Bolalar nutqi asosan uch yo'nalishda o'rganiladi:

1. Muayyan bir bolaning ona tilini u yoki bu darajada o'zlashtirishini o'rganish.
2. Turli bolalarning bir tilni o'zlashtirishining umumiy qonuniyatlarini tadqiq qilish.
3. Turli bolalarning turli tillarni o'zlashtirishidagi umumiy qonuniyatlarni o'rganish.

Bolalar nutqini o'rganishga oid ishlar jahon tilshunosligida ancha rivojlangan bo'lib, birinchilardan bo'lib Klara va Vilgelm Shtern 1907-yilda "Bolalar nutqi" nomli asarini yozishgan. Keyinroq, 1926-yilda M.Smit 2-5 yoshli 124 ta bola bilan tilning turli aspektlarini tekshiradi. Smit va Makkarti asosan egizaklar nutqini tahlil qiladilar.

Shuningdek, ko'p tadqiqotlar bolalar nutqini o'rganishda asosiy e'tiborni so'zga qaratganlar. Ammo Vinarskiy bolalardagi tovushlar bilan bog'liq hodisalarni tadqiq qilishga harakat qilgan.

Bugungi kunda ontolingvistika keng taraqqiy etayotgan fanlardan biri bo'lib, bunda bolalar nutqi turli tomondan tadqiq qilinmoqda. Xususan, bolalar nutqining tovush tizimini; leksik, grammatik va morfologik jihatlarini, bolalar bilingvizmini o'rganishgan.

O'zbek tilshunosligida esa, hali bu yo'nalishda tadqiq qilinayotgan ishlar unchalik ko'p emas. Ammo M.Qurbonova "Bola nutqining sotsiopsixologik xususiyatlari"ni o'rganagan. Unda maktabgacha yoshdagi bolalarning ikki tilliligi, bola lug'atining shakllanishi kabi hodisalar va bolalar nutqi psixolingvistik jihatdan o'rganilgan. Biz ana shu ishlardagi nazariyalardan foydalangan holda quyidagi tajribani amalga oshirdik.

Toshkent shahridagi maktabgacha ta'lim muassasida tarbiyalanuvchi 3-4 yoshli 15 ta bola tanlab olindi va uning bu yoshda lug'at boyligi qay darajada ekanligini aniqlash maqsadida psixolingvistkadagi assotsiativ metod asosida quyidagicha tajriba o'tkazildi.

1. 3-4-yoshli 15 ta bola tanlab olindi.
2. Tajriba har bir bola bilan alohida o'tkazildi.
3. Bolalarga 4 ta kategoriya bo'yicha rasmlar ko'rsatildi va ulardan rasmdagi narsaning nomi so'raldi.

Tajriba uchun tanlangan kategoriyalar esa quyidagilar:

- meva va sabzavotlar;
- hayvonlar;

- kiyim-kechaklar;
  - oshxona buyumlari;
- Tajriba natijalari esa tahlil qilinadi.

Bog'cha yoshidagi bolalar, eng avvalo, ko'rgazmali ifodalangan yoki ularning faoliyatlariga jalb etilgan predmetlar, hodisalar, sifatlar, xususiyatlar, munosabatlarning nomlanishini o'zlashtiradi. Buni bola tafakkurining ko'rgazmali-harakat va ko'rgazmali-obrazli xarakterda ekanligi bilan tushuntirish mumkin. Shu tufayli ham, bog'cha yoshidagi bolalar lug'atida abstrakt (mavhum) tushunchalar deyarli uchramaydi. Bolalar nutqidagi bu xususiyatni ham mashg'ulotlar jarayonida hisobga olish zarur.

Ana shu jihatdan kelib chiqib 3-4 yoshli bolalar lug'at boyligida qanday so'zlar mavjud va qay tariqa shakllanadi, ana shu masalalarni o'rganish maqsadida tajriba o'tkazdik.

1-jadval

Meva- sabzavotlar	Hayvonlar	Oshxona buyumlari	Kiyim-kechaklar
Tarvuz	Tovuq	Kosa	Kepka
Olma	Buzoq	Qoshiq	Yupka
Pomidor	G'oz	Piyola	Sharf
Kartoshka	Echki	Choynak	Ko'ylak
Bodring	Mushuk	Tova	Paypoq
Nok	Qo'y	Chovli	Palto
Mandarin	It	Chovgum	Tuflil
Jo'xori	Ot	Vilka	Kurtka
Apelsin	Sigir	Qozon	Krossovka
Karam	O'rdak	Likop	Shortik

Tajriba quyidagi tartibda o'tkazildi:

Har bir bolaga yuqoridagi jadvalda mavjud narsalarning rasmi alohida-alohida ko'rsatildi va uning nomini aytish so'raladi.

Meva va sabzavot kategoriyasi bo'yicha olingan ushbu natija juda qiziqarli. 3-4 yoshli bola butun olamni hali 4 ta sezgi a'zosi bo'yicha qabul qiladi. Ularga tarvuz so'zi ko'rsatilganda hamma bir xil "tarvuz" deya javob bergan. Demak, bola leksikonida bu tushuncha allaqachon mustahkamlanib ulgurgan. Olma rasmi ko'rsatilganda esa atigi 6 ta bola to'g'ri javob bergan. 5 ta bola uni "qizil" deb atagan. Bunga asosiy sabab bolaning lug'at boyligi shakllanishida, umuman u narsalarni eslab qolishda ko'pincha rang bilan bog'liq holda xotirasiga mustahkamlaydi. Olmaning aksariyat hollarda qizil ranglisi ko'p ko'ziga tushganligi uchun ham bola narsaning aynan o'zining nomini emas, balki uning sifatlovchisini eslab qolgan. Pomidorning nomlanishida ham xuddi shunday holat kuzatilgan. Bolalar uning qizillik belgisiga ko'ra olmaga o'xshatishgan va ularning leksikasida pomidorga nisbatan "qizil" va "olma" so'zlari shakllangan. Bodring rasmi ko'rsatilganda ham bolalarda birinchi o'rinda uning shakli va rangiga ko'ra asotsiatsiya vujudga kelganini ko'rishimiz mumkin. Mandarin mevasiga nisbatan esa 4 ta bola "achchiq narsa" deya javob bergan. Umuman, sitrus mevalarni nomlashda bolalar boshqasining nomini boshqasiga nis-

---

batan aytishgan. Bunga asosiy sabab esa ularning shaklida va ta'mida o'xshashlik borligi bo'lib, bola ilk nomlarni ana shu tasavvurlari asosida shakllantirgan. Shuningdek, hali bolaning lug'at boyligida yetarlicha so'z mavjud bo'lmagani uchun o'zida mavjud so'zlar bilan ularni nomlagan. Karam so'zini esa bolalar fonetik farqlar bilan aytishgan. Ko'pincha bolalarda "K" tovushining "T" ga almashishi kuzatiladi. Bunga asosiy sabab bu tovushlarning hosil bo'lish o'rnidadir. "T" tovushi til oldi tovushi bo'lgani uchun "K" ni aytishdan ko'ra osonroq, shuningdek, so'zda boshqa til tovushlari kelganda ham oson moslashadi. Shuning uchun karam so'zi bolalar tomonidan "ta-ram" tarzida aytilgan.

Hayvonlar va parrandalar bo'yicha tajribada bolalarga asosan uy hayvonlaridan iborat rasmlar ko'rsatilgan hamda yuqoridagi kabi bolalar fikri solishtirilgan. Shu o'rin-da aytib o'tish kerakki, bola lug'atining shakllanishida bevosita uning dunyoqarashi rivojlanayotgan muhitni ham e'tiborga olish lozim. Chunki ma'lum bir hududda yashovchi bolalar o'z atrofidagi narsa-buyum, hayvonlarning nomini yaxshi bilgani holda boshqalari haqida ularda umumiyroq tasavvur mavjud bo'ladi. Xususan, hayvon nomlarining bola lug'at boyligidan o'rin olishida ham aynan shu jihat yetakchilik qiladi. Bola kitobda, televizorda ko'rgan ma'lumotlarini real hayotdagisi bilan taqqoslab ko'rmas ekan, uning lisonida mavjud so'zlar bilan nomlashga majbur bo'ladi.

Oshxona buyumlari bo'yicha o'tkazilgan so'rovga ham turli reaksiyalar berilgan. Bunda biz e'tiborimizni qaratadigan asosiy jihat shuki, bola lug'at boyligining shakllanishida birinchi so'zlar emas, balki so'z birikmalari shakllanar ekan. Ovqat pishiradigan, choy ichadigan kabi sifatdoshli qurilmalarni bola aynan biror narsani nomi sifatida baholaydi va o'z nutqida undan foydalanadi. Chunki bola rasmdagi narsaning aynan nomini hali bilmaydi, lekin uning bajaradigan vazifasidan xabari bor va o'sha jarayonni ifodalash uchun uning lug'at zaxirasida so'zlar mavjud. Aynan shu holatdan kelib chiqib, bola o'zi bilmagan oshxona buyumlarining nomini sifatdoshli qurilmalar yoki so'z birikmalari sifatida aytadi va bu ular uchun qulay hisoblanadi. Shuningdek, o'zi bilmagan narsaning nomini bilgan predmetining nomiga nisbatan sifatlab aytadi. Bunda bola yana shakliy o'xshashlikka asoslanadi. Chovlining shakli aynan qoshiqqa o'xshagani uchun aksariyat bolalar uni shu predmetga qiyoslagan.

Kiyim-kechaklar bo'yicha o'tkazilgan tajriba natijalaridan shu narsa ma'lum bo'ldiki, bolalarda kiyim tushunchasi umumiy bo'lib, kiyim turlarining o'z nomi hali 3-4 yoshli bola lug'at boyligidan o'rin olmagan bo'ladi. Ular kiyimlarning shakliy o'xshashlik asosida o'zlari bilgan narsalarning nomini aytishgani buning isbotidir. Bu holatda bolalarga stimulyat rasmga nisbatan yuzaga kelgan reaksiyalarning xilma-xilligidan bilish mumkin.

3-4 yoshli bolalarda lug'at boyligining shakllanishini tajriba asosida o'rganib, quyidagi xulosalarga kelindi:

- 3-4 yoshli bolalar lug'at boyligi ularning sezgi a'zolar orqali his qilish mumkin bo'lgan so'zlardan tashkil topgan bo'ladi;

- ular narsalarning nomini tur-jins, antonimik, sinonimik munosabatlar asosida eslab qoladi;

- 3-4 yoshli bolalarda ko'pincha narsalarning umumiy nomi shakllanib ulgurgan bo'ladi;

– ular o'zlari bilmagan predmetlarni nomlashda sifatdoshli qurilmalardan, so'z birikmalaridan, sifatlardan keng foydalanadilar.

Xulosa qilib aytganda, 3-4 yoshli bolalarning so'z boyligini aniqlashda psixolingvistikadagi assotsiativ metoddan foydalanish ularda uchraydigan nuqsonlarni aniqlash va uni bartaraf etishda samarali natija beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov.I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Винарская Е. Н. Раннее речевое развитие ребенка и проблемы дефектологии: Периодика раннего развития. Эмоциональные предпосылки освоения языка. – М., 1987.
3. Поспелова С. Н. Направления и методы изучения детской речи в отечественной и зарубежной лингвистике // С. Н. Поспелова // Молодой ученый. 2015. №10. – С. 432-434.
4. Парамонова Л. Г. Становление звукопроизношения в онтогенезе: норма и патология. Материалы международной научной конференции “Проблемы онтолингвистики”. 2013.
5. Пиаже Ж. Речь и мышление ребенка. – М., 1994.
6. Цейтлин С. Н. Индивидуальная языковая система ребенка: некоторые штрихи к портрету. Материалы международной научной конференции “Проблемы онтолингвистики”. 2013.

---

**Tahririyat:** Bugungi kunda ontolingvistika keng taraqqiy etayotgan fanlardan biri bo'lib, bunda bolalar nutqi har jihatdan tadqiq qilinadi. Xususan, bolalar nutqining tovush tizimi, leksik, grammatik va morfologik jihatlari o'rganiladi.

Biroq o'zbek tilshunosligida hali bu yo'nalishda tadqiq qilinayotgan ishlar yetarlicha bo'lmaganligi sababli muallif masalaga jiddiy yondashib, tajriba-sinov ishlarini o'tkazgan. Maqolada esa, uning analistik natijasi bilan tanishib, ushbu yo'nalishga bo'lgan qiziqishingiz ortsam, muallif maqsadiga qisman erishgan bo'ladi.

Bizningcha, ta'limda joriy qilinishi mumkin bo'lgan har qanday innovatsiya salbiy natijaga olib kelishiga qaramay, ijobiy maqsad sari yuzlanishga, natijalarni tahlil qilishga asos bo'ladi.



Otabek MIRZAG'ANIYEV,  
Toshkent moliya va iqtisodiyot kolleji direktori

## TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSION MODELLASHTIRISHNING ASOSIY TASNIFLARI

Annotatsiya

Maqolada ta'lim tizimida innovatsion modellashtirishning asosiy tasniflari yoritilgan. Muallif pedagogika tadqiqotlari uchun tasniflovchi ta'rif muhim hisoblanishini ta'kidlab, "taqlidiy model" tushunchasining ahamiyatini ochib bergan va uning real tizimdagi modelni yasash va shu model ustida maqsadli tajribalar o'tkazish imkonini berishini qayd etgan.

**Kalit so'zlar.** Model, modellashtirish, taqlidiy model, modellar tasnifi, tizim, ijtimoiy fanlar, pedagogika.

В статье освещены основные классификации инновационного моделирования в системе образования. Автор, указывая на значимость классификационного определения для педагогических исследований, "объясняет значение понятия подражательной модели", указывает на возможность её создания в реальной системе и проведение целенаправленных экспериментов над данной моделью.

**Ключевые слова.** Модель, моделирование, подражательная модель, классификация моделей, система, гуманитарные науки, педагогика.

Article deals with the basic classification of innovation modeling in the education system.

The author is pointing that the importance of classification definitions for pedagogical research, "explains the value and the concept of mimetic models" and points to the possibility of creating a real system and conducting targeted experiments on this model.

**Key words.** Model, modeling, imitative model, classification of models, system, Humanities, pedagogy.

**D**unyoni bilish va amaliy jihatdan o'zlashtirish jarayonida modellashtirishga juda katta ahamiyat beriladi. Kibernetika, axborotlashtirish nazariyasi, genetika, tizimlash texnikasi, semiotika, tashkiliy nazariya, sotsiologiya, psixologiya va pedagogika kabi fanlarda bu uslubning turli fizikaviy va ijtimoiy tizimlarning umumiy qonunlari va tuzilmaviy xususiyatlarini ochib berishdagi yangi imkoniyatlari va kelajagi aniqlandi.

Bularning hammasi pedagogika fanidagi modellashtirish uslubining turlicha qo'llanilishini ko'rib chiqish va maxsus o'rganilishiga bo'lgan qiziqishni oldindan aniqlab berdi.

Bilish obyektlarining tipologiyasi – bu har qanday ilmiy izlanishdagi majburiy shartdir. Bu ham aniq fanlarga bo'lganidek, ijtimoiy fanlarga ham taalluqlidir. Modellashtirishning bilish uslubi sifatidagi ahamiyatining o'sib borishi sababli har bir fanda ushbu bilim sohasida qo'llaniladigan modellar tasnifi keltiriladi. Tasniflashning eng batafsil ko'rinish-

lari fizika, matematika, matematik mantiq sohalarida keltirilgan. Biroq aniq fanlardagi modellarning bo'linish turlari doim ham nazariy bilim tahlili ehtiyojlarini qoniqtiravermaydi.

Falsafa adabiyotlarida modellar turlicha tasniflanadi. Afsuski, ularning hech birini, garchi ularning har biri ma'lum maqsad va vazifalarga xizmat qilsa-da, universal deb bo'lmaydi.

Modellarni eng ratsional tarzda ularning shakliga ko'ra (qurish usuli bo'yicha) ham, mazmuniga ko'ra (modellashiriladigan voqelikning sifatli xususiyati bo'yicha) ham tasniflash mumkin.

Modellar qurilishi usulini, o'rganilayotgan obyektlarga qurilayotgan model vositalariga ko'ra, barcha modellarni dastlab ikkita yirik sinfga bo'lish mumkin:

- 1) material yoki ashyoviy, real, amal qiluvchi;
- 2) ideal yoki tasavvurdagi, aql tasavvurdagi, xayoliy modellar (V.A.Shtoff).<sup>1</sup>

Birinchi sinf modellariga inson yaratgan va qurgan modellarni kiritish mumkin. Shu sinfga sun'iy ravishda yaratilmagan, balki inson tomonidan unga mansub bo'lgan, murakkab jarayonni soddalashtirilgan shaklda taqlid qilish orqali ma'lum xossalari natijasida tanlab olingan yashovchan modellar ham kiradi (I.B. Novik)<sup>2</sup>.

Barcha bu modellar obyektiv jihatdan mavjuddir. Ulardan maqsad – o'rganilayotgan obyekt yoki jarayonning tuzilishi, borish xususiyati, mohiyatini ko'rsatishdir.

Amaldagi yoki material modellar, avvalombor, insonning qandaydir elementlardan modelni tuzishdan oldin uni xayolan tasavvur qilishi, nazariy tomondan asoslashi, hisoblab chiqishi tufayli xayoliy yoki ideal modellar bilan chambarchas bog'liqdir. Ideal modellar haqiqatda paydo bo'lishidan va amaliy faoliyati sababli material modelga aylanishidan avval izlanuvchining ongida shu voqelikning obrazi, qandaydir nazariy tizimlar ko'rinishida yashaydi.

Biz shuni ta'kidlashimiz lozimki, har qanday model, garchi u biror bir material, shakl kashf etgan bo'lsa-da, fikrlash modeli bo'lib qolaveradi, zero, undagi barcha qayta tuzilishlar, boshqa barcha holatlarga o'tishlar, elementlarning barcha o'zgarishlari dastavval tasavvurda, ya'ni inson ongida sodir bo'ladi.

Biroq ideal modellarning xususiyatiga ularning har doim ham voqelikda paydo bo'lavermasligi kiradi. Demak, ideal modellar, eng avvalo, nazariy xususiyatga ega bo'lib, material (real) xususiyatlarini esa tizim ichki aniq munosabatlar va qonunlar o'rganadi.

Modellarni tasniflashda ular orasidagi boshqa farqlar ham inobatga olinadi:

- yalpi va bo'lak modellar;
- ochiq va yopiq modellar;
- dinamik va statik modellar;
- uzluksiz va uziluvchan modellar;
- determinant tizimlari yaratgan modellar va ehtimoliy modellar.

Shuningdek, modellash turlarini ham tasniflash taklif qilinadi, bularga: to'liq va to'liqsiz modellash, determinant va stoxastik modellash, asl va o'zgargan ko'rinishdagi modellash kabi tushunchalar hamda tabiatdagi ishlab chiqarish eksperimenti, tabiiy ma'lumotlarni umumlashtirish, tajribani umumlashtirish kabi ruknlar kiritiladi.

Modellarni barpo etishning odatdagi usullarga bo'linishi bilan bir qatorda ularni originalning yaratilayotgan jihatlariga ko'ra ham tasniflash mumkin va shu xususiyat-

<sup>1</sup> Штофф В.А. Моделирование и философия. – М.: Наука, 1986. – С. 300. Штофф В.А. Роль моделей в познании. – Л., 1983. – С. 128.

<sup>2</sup> Новик И.Б. О моделировании сложных систем. – М.: Мысль, 1985. – С. 334.

---

ni asos deb olib, quyidagi modellar turini ajratish mumkin: substansional; tuzilmaviy; funksional; aralash.

Modellash sohasidagi mutaxassislarining fikricha, tasniflashda bunday farqlanishlar inobatga olinishi ma'qul, lekin bu qo'pol jadval qurish bilan bog'liqdir. Qolaversa, bunday farqlar tadqiqotlarning turli xil jihatlari bilan, biror fan xususiyati bilan yoki qator ontologik muammolar tahlili bilan bog'liqdir. Shu boisdan har bir aniq holda tasniflashning u yoki bu turini qo'llash ma'qul bo'ladi.

Pedagogika tadqiqotlari uchun tasniflovchi ta'rif muhim hisoblanadi, bu ma'lum bo'lib qolgan modellar tipologiyasiga "taqlidiy model" tushunchasini kiritadi, bu tushuncha real tizimdagi modelni yasash va shu model ustida maqsadli tajribalar o'tkazishni yoki tizim ta'sirchanligini tushunish yoki ushbu tizim ishlashini ta'minlab beradigan turli strategiyalarni baholash imkonini beradi.

Shunday qilib, taqlidiy modellash jarayoni deb, biz ichiga ham modelni yaratish, ham modelning biror muammoni o'rganish maqsadida tahliliy qo'llanilishini o'z ichiga oluvchi jarayonni tushunamiz.

Real tizim modeli deb, obyektlar yoki g'oyalar guruhini ularning asl ko'rinishidan boshqacha shakldagi tasavvurini tushunamiz; aynan shu sababli "real" tushunchasi "mavjud yoki mavjudlikning biror shakliga kirishi mumkin" degan ma'noda qo'llaniladi. Demak, agar tizim qog'ozdagi rejalash bosqichida bo'lganda ham u modellashtirilishi mumkin. Shu boisdan taqlidiy modellash eksperimental va amaliy uslubiyat bo'lib, pedagogika fanida ham muvaffaqiyatli qo'llaniladi.

Turli pedagogika yo'nalishlarida taqlidiy modellash quyidagicha maqsadlarda qo'llanilishi mumkin:

- ta'lim tizimlarini ta'riflash;
- ta'lim subyektlarining va umuman tizimda kuzatiladigan xulq-atvorni tushuntirib beradigan nazariya va gipotezalarni qurish;
- shu nazariyalardan tizimning bo'lg'usi xulq-atvorini oldindan aytish, ya'ni tizimdagi o'zgarishlar yoki uning faoliyat ko'rsatishidagi usullar o'zgarishi tufayli yuzaga keladigan ta'sirni oldindan taxmin qilish.

Taqlidiy modellash tahliliga to'xtalib o'tsak. O'ylaymizki, modellashning aynan shu turi ta'lim tizimlarini modellash muammosiga mos keladi.

Taqlidiy modellash uslubining yutuqlari va kamchiliklarini tahlil qilganda, taqlidiy modellarning tajriba olib boruvchi tomonidan belgilab beriladigan sharoitlarda tizim ishlashini tahlil qilish vositasi sifatida xizmat qilishi to'g'risidagi xulosaga imkon beradi. Demak, taqlidiy modellashtirish – bu nazariya emas, balki muammolar yechimining metodologiyasidir.

Yuqorida biz taqlidiy modellashni real tizim modeli bilan tajriba qilish deb ta'riflagan edik. Tizim to'g'risidagi axborotni ma'lum bo'lgan manbalardan olish mumkin bo'lmagan maxsus axborotni olishga kelganda, qo'yilgan vazifani tajribalar o'tkazish orqali hal qilish zarurati yaqqol ko'rinadi. Shuningdek, taqlidiy model ishlab chiqilishi va qo'llanilishida yangiliklar kiritishni izlash jarayoni ham ishga solinadi.

Modelga o'zimizning yangi taxminlarimiz va aqliy xulosalarimizni baholash vositasi sifatida murojaat etiladi. O'ylashimizcha, modellarni yaratish jarayoni hech qachon to'xtamaydi – tadqiqotchi ko'tariladigan muammolarning har qanday yangi bosqichiga mutanosib holda bu jarayon ham rivojlanib boraveradi.

Biz taqlidni real tizim modelini yaratish jarayoni va shu model ustida tizim ishlashini tushunib yetish yoki tizimni boshqarishda qo'llash mumkin bo'lgan turli strategiyalarni baholash deb ta'rifladik. Bunday ta'riflash yaxshi taqlidiy modelga mansub

bo'lishi lozim bo'lgan bir qator muhim xususiyatlarni talab qiladi va undan foydalanish chegarasini belgilab beradi.

Shu tushunchaga ko'ra, bu model:

- tizim faoliyati bilan bog'langan bo'lishi;
- real dunyo muammolari yechimiga yo'naltirilgan bo'lishi;
- tadqiqotchilarga tayanch sifatida xizmat qilish maqsadida qurilgan bo'lishi kerak.

Buni taqlidiy modelni baholash mezonlariga qo'llaganda nimani anglatishini ko'rib chiqaylik.

Taqlidlash – tizim faoliyati tushunchasi bilan yaqindan bog'liqdir. Tizim faoliyati esa muvofiqlangan harakatlarning muayyan vazifalarni bajarishga zarur bo'lgan yig'indisidir. Shu nuqtayi nazardan bizni qiziqtirayotgan tizimlarga, aynan ta'lim tizimlariga maqsadlilik mansubdir. Bunday hol bizdan tizimni modellash chog'ida ushbu tizim hal qilishi kerak bo'lgan maqsad va vazifalarga bo'lgan diqqat-e'tiborni chuqur qaratishni talab qiladi. Biz ular o'rtasidagi zarur muvofiqlikka erishish uchun tizim va model vazifalarini doim yodda tutishimiz kerak.

Shuningdek, model “bordi-yu..., nima bo'ladi?” kabi savollarga ham javob berishi kerak, chunki bunday savollar muammoni yanada chuqur tushunish va o'z harakatlarimiz imkonini baholashning yaxshiroq usullarini izlashga ko'mak beruvchi va bizga aynan qo'l keladigan va foydali savollardir.

Taqlidiy model yordamida olinadigan axborotda iste'molchini ham doim yodda tutish kerak, shu sababdan natijada foydalanib bo'lmaydigan yoki undan foydalanadigan shaxslarga foyda keltirmaydigan modelni oqlab bo'lmaydi.

Biz, yuqoridagilarni inobatga olgan holda, yaxshi taqlidiy modelga qo'yiladigan aniq talablarni ifodalashimiz mumkin. Bunday model quyidagicha bo'lishi kerak:

- sodda va foydalanuvchiga tushunarli;
- aniq maqsadga yo'naltirilgan;
- ishonchli;
- foydalanish va boshqarishda qulay;
- bosh vazifalar yechimi imkoniyatlar nuqtayi nazaridan to'liq;
- qayishqoq, boshqa modifikatsiyalarga oson o'tish imkoniga ega;
- doimiy o'zgarishlarga moyil, ya'ni boshida sodda bo'la turib, tadqiqotchilar va foydalanuvchilar bilan bo'lgan munosabatlar natijasida tobora murakkablashib borishi mumkin.

O'ylaymizki, modeldan foydalanish mumkin bo'lishi uchun uni ishlab chiqish vaqti muhit ehtiyojlari ham, undan foydalanuvchilarning psixologiyasi ham, uni ishlab chiqargan tadqiqotchilarning ko'rsatmalari ham puxta o'ylangan bo'lishi kerak. Taqlidiy modellash, fikrimizcha, ham model yaratuvchilari uchun, ham undan foydalanuvchilar uchun o'rganish jarayoniga aylanishi kerak.

Ta'lim modelining tasniflanishini aniqlab olish maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida aytganimizdek, aynan taqlidiy modellash o'zining metodologik ahamiyati va oldindan aytishligi sababli ta'lim tizimlarini modellash jarayoniga eng qulaydir.

O'z xususiyatiga ko'ra, ta'lim tizimlarini modellash jarayoni real, ashyoviydir, chunki tadqiqot modellashtirilayotgan original obyektning biror funksional xususiyatlarini aks ettiruvchi modelda olib boriladi.

Ushbu belgilanishni “tabiiy” tushunchasi bilan to'ldirish mumkin, chunki bunda o'rganilayotgan obyektning sun'iy modeli yaratilmay, model uchun tabiatdagi “tirik analog” izlab topiladi. Ilmiy modellash masalalari bilan shug'ullanuvchi olimlarning fikricha, tabiiy modellash uchun o'xshash nazariya yoki analogiyalar yordamida tajriba natijala-

---

riga ishlov berish majburiy shart hisoblanadi. Ya'ni ta'lim modelining o'zi analog model hamdir, chunki aynan unda haqiqiy obyekt xossalari shu obyektga o'xshash ish beradigan obyekt xossalari sifatida olinadi. Gohida bunda masala bir xossani ikkinchisi bilan almashtirish usulida yechiladi, bundan so'ng, olingan natijalar obyektning dastlabki xossalari qo'llanib, talqin qilinadi.

Uslubchilar xususiyatiga ko'ra tuzilmaviy va funksional modellashtirishni ham ajratadilar. Biz yalpi, sintetik variantni tanlashga qaror qildik, chunki bizni ham uning tuzilishi, ham u bajaradigan vazifalar nuqtayi nazardan ish berishi teng ravishda qiziqtiradi.

Ilmiy pedagogik adabiyotlarda "konstruktiv modellashtirish" tushunchasi ko'p uchraydi. Zamonaviy fanga nafaqat tushuncha va uni ta'riflash, balki madaniyatni faoliyat va munosabatlar usuli sifatidagi isloh qilishning konstruktivligi, evristikligi, yo'nalganligini kuchaytirish ham xosdir. Shunday konstruktivlik ifodasidan biri bo'lib, modellashtirish usulining tarqalishi hisoblanadi. Bu uslub ta'lim texnologiyalari, dasturlar, faoliyat usullarini loyihalash muammolariga bag'ishlangan pedagogika tadqiqotlarida keng qo'llaniladi. Shuning uchun biz taqlidiy modellashtirishni ta'lim tizimini nafaqat o'rganish, bilish usuli, balki kelajakdagi uning ish berishini oldindan aytadigan konstruktiv uslub sifatida ko'ramiz.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, modellarning barcha bu qo'llanishlari dioxotomiyani hosil qiladi degan xulosaga kelishimiz mumkin. Boshqacha qilib aytganda, ta'lim modeli ikkita asosiy maqsaddan biriga erishishga xizmat qilishi mumkin: yo izohlovchi, agar model obyektning ta'riflash va yaxshiroq tushunish uchun xizmat qilsa, yo biror yo'l tutishga undovchi, agar model obyektning ish berishini aniqlab beruvchi xususiyatlarini oldindan aytish va yaratish imkonini bersa. Bunda yo'l izlashga undovchi turdagi model odatda izohlovchi va buning aksi ham bo'ladi. Bu degani, yo'l izlashga undovchi model modellashtirilayotgan obyektga nisbatan deyarli doim izohlovchi hisoblanadi, biroq izohlovchi model rejalashtirish va loyihalash maqsadlari uchun har doim ham foydali emas.

Agarda ijtimoiy fanlarda qo'llaniladigan model turlarini tahlil qilib chiqadigan bo'lsak, quyidagi xulosaga kelish mumkin.

Ijtimoiy fanlarda qo'llaniladigan modellar foydaliligining turli darajasi ko'p jihatdan model qurishda qo'llanilgan uslub va vositalar hamda bunda qo'yilgan yakuniy maqsadlardagi farqlarga bog'liq. Ma'lum bo'lishicha, texnikada modellar ko'proq yangi yoki yanada zamonaviy tizimlarni ishlab chiqishdagi yordamchi vositalar sifatida qo'llaniladi, ammo ijtimoiy fanlarda modellar bundan tashqari mavjud bo'lgan tizimlarga izoh berishi ham zarur.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muslimov N.A. *Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Avtoref. dis. ... ped. fan. dokt. – T., 2007. 45-b.*
2. Olimov Q.T. *Maxsus fanlardan o'quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishning nazariy metodik asoslari: Avtoref. dis. ... ped. fan. dokt. – T., 2005. 44-b.*
3. Штофф В.А. *Моделирование и философия. – М.: Наука, 1986. – С. 300.*
4. Штофф В.А. *Роль моделей в познании. – Л., 1983. – С. 128.*
4. Новик И.Б. *О моделировании сложных систем. – М.: Мысль, 1985. – С. 334.*

**Muqaddas ABDULLAYEVA,**  
Andijon viloyati XTXQTMOI rektori

## O'QUV JARAYONIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

### Annotatsiya

Maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga qo'llash hamda innovatsion jarayonning rivojlanish bosqichlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif innovatsion pedagogik texnologiyalarning asosiy prinsiplarini ko'rsatib o'tgan.

**Kalit so'zlar.** Innovatsion jarayon, sifat va samaradorlik, muammolar, texnologiya, pedagogik faoliyat, imkoniyat, sharoit yaratish.

В статье речь идёт о проблемах внедрения в учебный процесс современных инновационных педагогических технологий, об этапах развития инновационного процесса. Показаны основные принципы инновационных педагогических технологий.

**Ключевые слова.** Инновационный процесс, качество и эффективность, проблемы, технология, педагогическая деятельность, возможность, создание условий.

Article deals with the problems of introducing modern innovative pedagogical technologies into the educational process, and the stages of development of the innovation process. The basic principles of innovative pedagogical technologies are shown.

**Key words.** Innovation process, quality and efficiency, problems, technology, pedagogical activity, opportunity, create conditions.

**B**ola tarbiyasi inson hayotida hamisha muhim vazifa bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. O'z farzandini kelajakka munosib qilib tarbiyalay olmaydigan inson, kamolotga yetkaza olmaydigan jamiyat hech qachon rivojlanmaydi. Ma'lumki, taraqqiyotni harakatga keltirishda va turmushda ro'y bera-yotgan jarayonlarga o'z ta'sirini o'tkazishda jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, mada-niy-ma'naviy yangilanishning muhim subyeksi bo'lgan yoshlarni barkamol shaxs qilib tarbiyalash muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda yangi innovatsion pedagogik texnologiyalarni ilmiy-nazariy asos-larini o'rganish va ularni ta'lim-tarbiya jarayonlariga tatbiq etish zaruriyati dolzarb masalalardan biriga aylanmoqdaki, amaldagi an'anaviy o'qitish tizimi o'z faoliyatini ancha yo'qotdi, ya'ni quruq og'zaki so'zlar yordamida o'qitish yaxshi samara ber-moqda. Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldi-dagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtiradigan bilimlarini o'zi baholashga qodir bo'lgan, zarur qarorlar qabul qiladigan, mustaqil va erkin fikrlaydi-gan shaxslar kerak.

Ta'limning bugungi vazifasi o'quvchilarni kun sayin takomillashib borayotgan

---

axborot-ta'lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga uzluksiz mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur. Shuning uchun ham, ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiya jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari, innovatsion texnologiyaning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta'limda qo'llanishiga oid bilimlari, tajribalari o'quvchilarni bilimli va yetuk malakaga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Odatda, samarali texnologiyalarni qo'llash yangi sifat va miqdor o'zgarishiga olib keladi. Texnologiyalarning bu xususiyati pedagogik-texnologik jarayonga ham bevosita aloqadordir. Pedagogik jarayonda takrorlanuvchi, qaytariluvchi siklni yaratish murakkabroq kechadi. Chunki o'qitishning maqsadi, ta'lim vazifasining mazmuni, o'quv materallarining xilma-xilligi, bilish faoliyati, o'zlashtirish darajasi o'quvchining individual xususiyatlariga ko'p jihatdan bog'liqligi kabi holatlar ma'lum qiyinchiliklarni tug'diradi. Lekin ta'lim-tarbiya jarayonida muvaffaqiyatga erishish uchun bu qiyinchiliklarni inobatga olgan holda pedagogik texnologiyaning qaytaruvchi – takrorlanuvchi aloqasini yaratish zarur bo'ladi.

G'oyalarni joriy etilgan yangiliklarga aylanishini ta'minlovchi mazkur jarayonning boshqarish tizimini shakllantiruvchi faoliyat innovatsion faoliyatdir.

Innovatsion jarayonning rivojlanishida quyidagi bosqichlar ajratib ko'rsatiladi.<sup>1</sup>

- o'zgarishlarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash;
- ma'lumotlarni yig'ish va holatni tahlil qilish;
- mavjud yangilikni tanlash yoki mustaqil tarzda yangilikni ishlab chiqish;
- joriy etish (o'zlashtirish) to'g'risida qaror qabul qilish;
- joriy etish, shu jumladan, yangilikni tajriba sifatida ishlatish;
- yangilikni o'zlashtirib olish yoki uzoq muddat davomida qo'llash natijasida uni kundalik amaliyotning ajralmas tarkibiy qismiga aylantirish.

Yuqoridagi barcha bosqichlarning tartiblangan ketma-ketligi yaxlit innovatsion siklni tashkil etadi.

Texnologik yondashuv tarafdorlarining fikricha, innovatsion ta'lim texnologiyasining o'ziga xos tomonlaridan biri – pedagogik jarayonda ta'lim oluvchilar faolligining keskin ortishi va aksincha, ta'lim beruvchi faolligining susayishi bilan xarakterlanadi. Boshqacharoq qilib aytganda, o'qitishning yakuniy natijasi dars beruvchining pedagogik mahorati bilan birga ilmiy jihatdan asoslangan, mukammal loyihalangan ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga bog'liq. Shunda har bir o'qituvchi "a'lo" bo'lmasa-da "yaxshi" dars bera oladi, ijobiy natijaga erishadi.

Hozirgi kunda o'quv jarayoni samaradorligini oshirishda, o'qituvchi va o'quvchilarni belgilangan maqsad sari aniq natijaga erishishlaridagi faoliyatlarini tizimlashtirishda, o'quvchilar tomonidan o'quv materiallarining mazmunini to'liq o'zlashtirishlarida, o'quv jarayonining har bir bosqichida amalga oshiriladigan ishlar ketma-ketligini belgilashda texnologik xarita yaxlit o'quv jarayonini aks ettiruvchi me'yoriy hujjat hisoblanadi. Tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, oldindan puxta loyihalashtirilgan dars, albatta, o'qituvchi va o'quvchiga darsni qiziqarli bo'lishiga, ijobiy natijaga erishishiga imkoniyat yaratadi hamda darsning samaradorligini oshiradi.

---

<sup>1</sup> Лазарев В.С. Понятие педагогической и инновационной системы школы. – Сельская школа, 2003.№1.


O'quv jarayonida o'quvchilarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar, zamonaviy uslublarning qo'llanilishi, o'quvchilarni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, mas'uliyatni his qilish, tahlil qilish, adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi, o'qishga, fanga va o'zi tanlagan kasbga bo'lgan qiziqishlarini, shuningdek, pedagogga nisbatan hurmatni kuchaytiradi. Ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilar o'z faoliyatlarida turli yangi innovatsion texnologiyalarni o'z o'rnida qo'llashni bilishlari o'ta zarur.

Yuqoridagi fikrni e'tiborga olgan holda, butun pedagogik jarayonning boshqaruvchisi, o'quvchi bilish faoliyatining tashkilotchisi, beminnat maslahatchisi, yakuniy o'quv natijasiga erishishning yo'llovchisi – o'qituvchi – ustozning pedagogik faoliyatini innovatsion ta'lim texnologiyalari tizimida oddiy kuzatuvchi sifatida qarash to'g'ri bo'lar-mikan? O'qituvchining ijodiy pedagogik faoliyati inson ongi, xulqini shakllantirishga, provard natija – barkamol insonlar avlodini yaratishga bo'ysindirilgan vazifalarni ijobiy hal qilish jarayonidir. Shu nuqtayi nazardan, har qanday pedagogik tizimda, xususan, innovatsion ta'lim texnologiyalari tizimida o'qituvchi-ustoz pedagogik faoliyatiga e'tiborsizlik samaraga olib kelmaydi. Aksincha, o'qituvchi faoliyati qanchalik faollashsa, ta'lim oluvchilarning xatti-harakatlari qanchalik ijodiy, qiziqarli, istiqbolli tashkil etilsa, albatta, qo'llanilayotgan ta'lim texnologiyalarining samaradorligi ortadi. Shuningdek, loyihalashtirilgan o'quv maqsadi yengil amalga oshadi hamda kutilayotgan natijaga tezroq erishiladi. Bu fikrdan kelib chiqib:


- Innovatsion ta'lim texnologiyasi tizimida o'qituvchining o'rni va vazifalari aniq belgilanishi zarur;
- o'qituvchi yangi kasbiy lavozim – “o'qituvchi-texnolog”, “pedagog texnolog” darajasiga ko'tarilishi kerak;
- “o'qituvchi-texnolog” maxsus bilim, ko'nikma, malakaga ega bo'lishi kerak;
- “o'qituvchi-texnolog”ning pedagogik jamoa o'rtasida nufuzi, salohiyatining ortishi, ma'naviy, moddiy manfaatdorligining ta'minlanishi bo'yicha aniq tadbirlar amalga oshirilgan bo'lishi zarur.

Shuningdek, innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish ma'lum qonuniyatlarga, prinsiplarga asoslanadi. Buni quyidagi jadvallarda ko'rish mumkin:

### Innovatsion pedagogik texnologiyalarning asosiy prinsiplari



### To'ldiruvchi prinsiplar





---

Ta'lim sifatini rivojlantirishda amalga oshirilayotgan islohotlar barcha ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda tashkil etib, fan-texnika yutuqlariga asoslangan o'quv jarayonining innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishda esa, pedagog-o'qituvchilardan bilim, ko'nikma va malakalarni talab qilinadi. Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda o'qituvchilar dars jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishlari samarali natijalarni beradi, albatta.

Xulosa qilib aytish mumkinki, yuqori darajadagi umumiy-kasbiy madaniyatga, ijtimoiy faollikka, mustaqil fikrlashga, o'z vazifalarini qiyinchiliksiz hal qila olish qobiliyatiga ega bo'lgan yetuk mutaxassislarni tarbiyalash uchun bugungi kunda pedagog-o'qituvchilarimiz zamonaviy yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishlari ta'lim-tarbiyaning sifat va samaradorligini oshirishning asosiy omili ekanligini, buni esa davr talab etayotganligini tushunib yetishlari lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. *O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.* – T.: O'zbekiston, 2017.
2. *Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari.* – T.: TDPU, 2004.
3. *Yo'ldashev J. G'. Yangi pedagogik texnologiya yo'nalishlari, muammolari, yechimlari, "Xalq ta'limi" jurnali,* – T.: №4, 1999.
4. *Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar,* – T., 2003.
5. *Madumarov T. Kamoldinov M. Innovatsion pedagogik texnologiya asoslari va uni ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llash: uslubiy qo'llanma.* – T.: Talqin, 2012. 144-b.
6. *Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiya innovatsion pedagogik texnologiyalar (ta'lim tizimi xodimlari, o'qituvchilar, tarbiyachi va murabbiylar uchun o'quv qo'llanma).* – T., 2013. 272-b.
7. *Назарова Г.С. Педагогические технологии – этап эволюции., журнал "Педагогика", №3, 1997.*

**Sharibboy ERGASHEV,**

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI loyiha rahbari,  
texnika fanlari nomzodi

**Aron KOLANTAROV,**

T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI katta ilmiy xodimi

## AXBOROT-KOMMUNIKATSION MUHITI DASTURIY TIZIMIDAN FOYDALANISH VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

### Annotatsiya

Maqolada axborot-kommunikatsion muhiti dasturiy tizimidan foydalanish va uni rivojlantirish istiqbollari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, mualliflar axborot-kommunikatsiya muhitini kelgusida joriy etish va uni rivojlantirish hamda takomillashtirish bo'yicha vazifalarni amalga oshirish yuzasidan xulosalarini berib o'tgan.

**Kalit so'zlar.** Axborot-kommunikatsiya, muhit, dasturiy, elektron jadval, fond, rivojlantirish, konsepsiya, texnologiya.

В статье рассматриваются возможности использования программой системы информационно-коммуникационной среды и перспективы её развития. Также автор даёт своё заключение относительно важности внедрения информационно-коммуникационной среды в будущем, её развитию и усовершенствованию.

**Ключевые слова.** Информационная-коммуникация, среда, программированный, электронная таблица, фонд, развитие, концепция, технология.

Article discusses the issue of use of program systems of information and communication space and prospects of its development. The author also gives opinions to the implementation of information and communication space in the future development and improvement.

**Key words.** Information and communication, environment, programming, spreadsheet, Fund, development, concept, technology.

**Q**zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalari va tashkilotlarini jahon ta'lim xizmatlari bozoriga kirib borishi uchun mavjud shart-sharoitlar asosida mahalliy ta'lim xizmatlari bozorini shakllantirish imkoniyatlari yaratiladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida axborot-kommunikatsion muhit (AKM) dasturiy tizimi imkoniyatlari elektron dastur tarkibida AKM foydalanuvchilarining ehtiyojlarini ta'minlash uchun mo'ljallangan keng qamrovli qidiruv tizimi yaratildi. Uning tuzilmasi bir qator maxsus qidiruv menyulardan tarkib topgan: "Hududlar menyusi", "Tuman/shaharlar va maktablar menyusi", "O'quvchilar menyusi", "O'qituvchilar menyusi", "Elektron darsliklar menyusi", "Sinflar menyusi", "Sinf xonalar menyusi", "Maktab haqida" ma'lumotlar bazasi, e'lonlar, ruknlar va boshqalar.

---

Mazkur qidiruv va avtomatlashtirilgan tizimlar, ma'lumotlarni to'plash va umumlash-tirish uchun mo'ljallangan bazalar, kompyuter dasturining boshqa vositalari orqali AKM-ning foydalanuvchilari uchun bir qator qulaylik va imkoniyatlar yaratildi. Jumladan:

- alohida olingan umumiy o'rta ta'lim maktabida va butun xalq ta'limi tizimida axbo-rot-kommunikatsion muhitini shakllantirish va uni rivojlantirishni amalga oshirish;

- o'quvchilar, o'qituvchilar, ota-onalar, ta'lim muassasalari, manfaatdor boshqaru-vidora (tashkilotlar) va jamoatchilik tashkilotlari o'rtasida tezkor axborotlar almashinuvini amalga oshirish;

- respublikadagi mavjud hududlar va barcha tuman (shahar)lar nomlarini tizim das-turi ro'yxatidan topish, tanlash, yaratilayotgan elektron hujjat matniga avtomatlashgan holda kiritish (qayd etish) hamda mazkur elektron ro'yxat orqali kerak bo'lgan maktab-ning AKM tizimiga murojaat etish;

- tizim administratorlari, viloyat xalq ta'limi boshqarmasi va tuman xalq ta'limi bo'li-mi tomonidan rasmiy tayinlangan xodimlar, maktab direktori, uning o'quv-ilmiy ishlar bo'yicha o'rinbosari, o'qituvchi va boshqalarning vakolatlarini dasturiy tizimda alohida (shaxsiy) parol va loginlar orqali belgilash;

- ta'lim muassasasidagi o'qituvchi va o'quvchilar haqida asosiy ma'lumotlar baza-larini shakllantirish, ularning elektron hisobini yuritish;

- umumiy o'rta ta'lim maktab boshqaruviga axborot-kommunikatsion hamda inter-faol pedagogik texnologiyalarni va avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etish;

- elektron axborot-ta'lim resurslarini va o'qituvchilar tomonidan ishlab chiqilgan dars ishlanmalarini "shaxsiy kabineti"ga hamda maktabning elektron kutubxona jamg'ar-masiga joylashtirish;

- o'quvchilar, ularning ota-onalari hamda boshqa pedagog xodimlar tomonidan mazkur elektron resurs va dars ishlanmalarini kompyuter tizimidan topish va ta'lim jara-yonida foydalanish;

- "Umumta'lim muassasasining o'quv yili boshiga hisoboti"ni shakllantirishga mo'l-jallangan 15 nomdagi elektron jadvallarni avtomatlashtirilgan ravishda to'ldirib borish, ulardan onlayn rejimida foydalanish, ularni chop etish imkoniyati, Internet tarmog'i orqali davlat statistika hisobotlarini elektron ko'rinishda yig'ishning avtomatlashtirilgan tizimi eStat 2.0 orqali elektron raqamli imzodan foydalangan holda taqdim etish;

- tizimning fotogaleriya bo'limiga maktab hayoti haqida foto lavhalarini va boshqa ma'lumotlarni kiritish, mavjud materiallar bilan kompyuter vositalari yordamida tanishish, e'lonlar rukni orqali unda joylashtirilgan ma'lumotlar bilan tanishish va boshqa bir qator imkoniyatlar yaratildi.

**"O'quvchilar menyusi"** yordamida har bir o'quvchining familiyasi, ismi, otasining ismi, yoshi, jinsi, o'qiyotgan maktabi va sinfi, qoldirgan darslari hamda o'zlashtirishi bo'yicha axborotlarni topish, tahrir etish yoki ular bilan tanishish mumkin. Bunda, har bir o'quv fani bo'yicha o'quvchi haqidagi kundalik ma'lumotlar tizimning elektron jurnalida qayd etib boriladi va mazkur ma'lumotlar bilan uning ota-onasi internet tarmog'i orqali tanishishlari mumkin.

**"O'qituvchilar menyusi"** orqali pedagog xodimlarining familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan sanasi, ta'limi, diplom bo'yicha mutaxassisligi, lavozimi, dars beradigan o'quv fani va sinflari, pedagogik staji, malaka toifasi va boshqa shu kabi ma'lumotlarni topish va ulardan foydalanish mumkin.

Maktab ma'muriyati ish hajmini kamaytirish va maktab darslari elektron jadvalini ya-ratish maqsadida, taqdim etilayotgan kompyuter dasturi tarkibiga mazkur jadvalni tuzish va tahrir etish uchun mo'ljallangan avtomatlashtirilgan tizim o'rnatilgan.

Har bir o'qituvchi “shaxsiy kabineti”ni ochish uchun dasturda joy ajratilgan. Mazkur kabinetning interfaol vositalari orqali o'qituvchi maktabning AKM tizimiga kiradi. Bunda kompyuter dasturida haftaning tegishli kuni avtomatik tarzda qayd qilinadi va shu kunga tegishli bo'lgan o'qituvchining shaxsiy darslar jadvali – haftaning bir kuni, dars o'tish vaqti, o'quv fani, nechanchi sinfdaligi va sinf xonasi ko'rsatiladi.

Kerakli sinf satriga tegishli bo'lgan “tahrir etish” tugmasini bosib, mazkur sinfn ing elektron jurnaliga o'qituvchini qiziqtirayotgan o'quv fani sahifasiga o'tish, o'quvchilar davomatini belgilash yoki bilimlariga baho qo'yib chiqish, uning pastki qismida joylashgan “uy vazifasi oynasi”ga kerakli ma'lumotlarni kiritish mumkin. Mazkur oynaga kiritilgan uy vazifasi tegishli sinfn ing dars jadvalida aks ettiriladi.

**“E'lonlar ruknida”** maktab faoliyati bo'yicha direktorning buyruqlari, pedagogik kengash qarorlari, turli chora-tadbir rejalari va boshqa o'qituvchilar, o'quvchilar va ota-onalar uchun mo'ljallangan maktab faoliyatiga tegishli e'lonlarni chop etish, qidiruv tizimi yordamida ularni topish va tanishish mumkin.

Bundan tashqari tizimning axborot xavfsizligini ta'minlash masalalariga ham alohida e'tibor qaratilgan.

Xalq ta'limi tizimida AKMni bosqichma-bosqich amalga joriy etilishi va rivojlanishi quyidagilarni ta'minlab beradi:

- ta'lim jarayonida yangi axborot va pedagogik texnologiyalarni shu jumladan masofaviy ta'limni keng va samarali joriy etilishi uchun sharoitlar yaratilishi;

- videotasvir, animatsiyalar, ovoz va axborot resurslariga masofadan turib foydalanilgan holda o'quv jarayoni axborotlarini ko'rgazmali, dinamik ko'rinishlarda taqdim etish uchun sharoitlar yaratilishi;

- ta'lim oluvchining ijodiy shaxsiy qobiliyatlarini aniqlash va namoyon etish uchun zarur bo'lgan metodika, uslub va vositalarni tanlash erkinligi;

- axborot resurs markaz(ARM)lariga kirish imkoniyatlariga ega bo'lgan ixtiyoriy ta'lim oluvchilar uchun ilg'or metodikalar va texnologiyalarni oson ko'paytirish va ulardan foydalana olish imkoniyatlari;

- o'quvchilarning ta'limiy tayyorgarlik sifatini zamonaviy talablarga mos ravishda, shuningdek, o'zi uchun o'zlashtirish qulay bo'lgan metodlarni tanlash imkoniyatining berilishi;

- ta'limning barcha bosqichlarida maktabgacha ta'limdan boshlab to oliy ta'limdan keyingi ta'limgacha o'quv jarayonining barcha predmetlari va mashg'ulotlarini kompyuter yordamida qo'llab-quvvatlash orqali elektron ta'limning uzluksizligi va uzviyligini ta'minlash;

- barcha bolalar uchun – shaharda yashovchilar uchun ham, xuddi shuningdek, uzoq aholi punktlarida yashovchilar uchun ham, imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun ham ta'lim olishlarida bir xil sharoitlar yaratiladi.

Axborot-kommunikatsiya muhitini qo'llash quyidagilardan iborat:

- ta'lim muassasalarini to'laqonli faoliyat yuritishlarini ta'minlovchi o'quv xonalari, qo'llanmalar yaratish, o'qituvchilarning vaqtlarini, vositalarni tejash;

- alohida bosqichlarda o'qitishning intensivligini oshirish yoki kamaytirish hamda o'z-o'zini tekshirish vositalaridan foydalanish;

- bilimlarni rivojlantirish, ularni egallash va ommalashtirish xarakterlarini takomillashtirish;

- ta'lim mazmuni va o'qitish metodlarini yangilash uchun imkoniyatlar yaratish;

- pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojni kamaytirmagan holda o'quv jarayonida o'qituvchi mavqeyini ko'tarish;

- yangi axborot texnologiyalarini qo'llagan holda ilmiy va metodik jihatdan asoslangan tayanch ta'lim tizimini yaratish;

---

– AKM imkoniyatlaridan foydalanishda ta'lim oluvchining shaxsiy xususiyatlariga mos bilimlarni o'zlashtirish darajasida axborot resurslari va foydalanuvchining o'zaro aloqasini tashkil etish imkoniyatlari yaratiladi.

Axborot resurslarini integratsiyalash va unifikatsiyalash orqali axborot resurslarining son va sifat jihatidan ta'lim oluvchilarning ta'limiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan shaxsga yo'naltirilgan, o'zgaruvchan va moslashuvchanligini ta'minlash imkoniyati paydo bo'ladi.

Xalq ta'limi tizimida AKMni yaratish jarayonida quyidagi asosiy vazifalar hal etilishi lozim:

- elektron ta'limda erishilgan tajribalarini tahlil qilish va ulardan xalq ta'limi tizimida AKMni yaratish jarayonida foydalanish;

- respublika mega-portali, texnologiyasi va uni to'ldirib borish mexanizmining funksional-mazmuniy tuzilmasini ishlab chiqish;

- namunaviy hududiy va tuman, shahar portali va uni to'ldirib borish mexanizmining funksional-mazmuniy tuzilmasini ishlab chiqish;

- xalq ta'limi tizimidagi tuman, shahar va yuqori darajadagi AKMni shakllantirish va qo'llab-quvvatlashning tarkibiy qismi bo'lgan namunaviy mini-portal (umumiy o'rta ta'lim maktabining mahalliy-integratsiyalashgan axborot-kommunikatsiya muhiti) arxitekturasini ishlab chiqish;

- har bir ta'lim muassasasi virtual vakolatxonasidagi va xalq ta'limi tizimidagi AKM portallaridagi axborotlarning xavfsizligini ta'minlash;

- joylashgan joyi va ish joyidan qat'i nazar pedagog kadrlarning o'zaro muloqot va tajriba almashishlari uchun imkoniyatlar yaratish;

- muhit tarkibiga kiruvchi ta'lim muassasalari taqdim etayotgan elektron axborot-ta'lim resurslari (EATR) va boshqa resurslarni turli darajadagi foydalanuvchilar uchun o'quv-metodik adabiyotlarning mavjudligi va xizmatlar to'g'risidagi axborotlardan foydalana olishlarini ta'minlash uchun tartiblashtirish jarayonini avtomatlashtirish;

- xalq ta'limi tizimidagi, shuningdek, hududiy, tuman, shahar va mahalliy (maktab) segmentlaridagi statistik va asosiy ko'rsatkichlarni yig'ish va ularni tizimlashtirishni avtomatlashtirish;

- turli ma'lumotlar bazalariga, EATR va umumta'lim muassasasining AKM portali-dagi boshqa resurslarga uning ma'muriyati a'zolari, pedagogik xodimlar, o'quvchilar va ularning ota-onalarining kirishini tartibga soluvchi huquqiy-me'yoriy hujjatlar, yo'riqnomalar va tavsiyalar ishlab chiqish;

- umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'zaro hamkorligini tartibga soluvchi, ularning vakolatlari, funksiyalari va o'z tasarrufidagi ta'lim muassasalarining AKM portallaridagi ma'lumotlar bazalariga hamda boshqa axborot resurslariga kirishdan manfaatdor bo'lgan xalq ta'limi boshqaruvi organlarining majburiyatlarini belgilab beruvchi huquqiy-me'yoriy hujjatlar, qoidalar va tavsiyalar ishlab chiqish;

- huquqiy-me'yoriy hujjatlar, tizimli kelishuvlar va tavsiyalar, shuningdek, ta'lim muassasalari va xalq ta'limi boshqaruv organlarini XTV portali va resurlaridan foydalanishdan manfaatdor bo'lgan O'zbekiston Respublikasining boshqa vakolatli tashkilotlari bilan hamkorligini tartibga soluvchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni ishlab chiqish;

- XTV tizimidagi AKMning qo'llab-quvvatlashga mas'ul bo'lgan boshqaruv va texnik xodimlari ehtiyojlarini, ishlatish va axborot xavfsizligini ta'minlovchi tizimli boshqaruv yadrosini yaratish;

- XTV tizimidagi AKMida joylashtirilgan portal, EATR va boshqa axborot resurslari holati monitoringini ta'minlash, uni rivojlantirish va o'z-o'zini moliyalashtirish mexanizmini shakllantirish.

Sanab o'tilgan vazifalar asosiy hisoblanadi. Lekin ular XTV tizimidagi keng qamrovli AKMni yaratish loyihagini amalga oshirish jarayonidagi yechimini kutayotgan barcha xilma-xil vazifalarni qamrab ola olmaydi.

**Ta'lim muassasalarining AKMni yaratishning asosiy maqsad va vazifalariga erishishga yo'naltirilgan tadbirlar:**

– O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi qoshidagi Multimedia umumta'lim dasturlarini rivojlantirish Markazi (MUDRM) moddiy-texnik bazasini, kadrlar salohiyatini mustahkamlash, AKMni yaratish, rivojlantirish va doimiy ishlashini qo'llab-quvvatlash vazifalaridan kelib chiqib uning funktsiya va vakolatlarini kengaytirish;

– MUDRMning hududiy filiallarini va pedagog xodimlarini ta'lim jarayoniga AKTni, interfaol pedagogik texnologiyalarni, elektron o'qitish materiallari va boshqalarni keng joriy etish, ularni ishlab chiqish, tajriba-sinovdan o'tkazish va joriy etish uchun ularga birlashtirilgan ixtisoslashtirilgan maktab-laboratoriyalar tarmog'ini tashkil qilish;

– XTV tasarrufidagi muassasalarni xalq ta'limi tizimining yagona korporativ axborot tarmog'iga ulash;

– maktab kutubxonalarini imkoniyatlarini Respublika bolalar kutubxonasi resurslari bilan birlashtirib, ularning bazasida axborot resurs markazlarini tashkil qilish;

– ta'lim jarayonida multimedia vositalari va interfaol pedagogik texnologiyalaridan keng foydalanish uchun fan o'qituvchilarini shaxsiy kompyuterlar va boshqa texnik vositalari bilan ta'minlash;

– alohida maktablarning tizimlarini o'z ichiga olgan yagona ta'lim boshqaruvining axborot tizimi (TBAT)ni yaratish istiqbollarini hisobga olgan holda maktab boshqaruvining axborotlashtirilgan tizimi (MBAT)ni takomillashtirish bo'yicha ishlarni nihoyasiga yetkazish;

– ta'lim jarayonining asosiy ishtirokchilarining barcha ehtiyojlarini ta'minlaydigan, MBATga ulanishi majburiy bo'lgan maktab saytlarini yaratish ishlarini faollashtirish;

– umumiy o'rta ta'lim maktablarini elektron ta'limni keng joriy etishga mo'ljallangan metodika va materiallarni ishlab chiqish va mavjudlarini takomillashtirish;

– umumiy o'rta ta'lim maktablarining barcha sinflari uchun informatika (axborot texnologiya asoslari) kursini o'qitishning Konsepsiyasini ishlab chiqish va Davlat ta'lim standartlarini takomillashtirish;

– elektron ta'lim vositalarini qo'llagan holda interfaol pedagogik texnologiyalarni keng joriy etishni ta'minlaydigan o'qituvchilarni qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirishning samarali modellarini ishlab chiqish va joriy etish;

– ijodkor o'qituvchilarning o'quv dasturidagi ayrim mavzular bo'yicha mustaqil ravishda EATR ishlab chiqish va yaratish malakalariga o'qitishni tashkil qilish;

– EATR yaratishda faol ishtirok etgan va ta'lim jarayonida ulardan samarali foydalanayotgan o'qituvchilarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish metodlarini joriy etish.

**AKM tashkiliy tuzilmasining umumiy prinsiplari**

O'zbekiston Respublikasi XTV tizimida AKMni yaratish yagona universal ish texnologiyalari va ma'lumotlar shaklida, umumiy o'rta ta'lim Davlat ta'lim standartlari, me'yoriy va iqtisodiy mexanizmlar talablari asosida olib borilishi lozim. Bunda ta'lim muassasalari, tuman, shahar hamda hududiy xalq ta'limi boshqaruv organlariga imkon darajasida mustaqil ta'lim xizmatlarini ko'rsatishni, shuningdek, metodik, iqtisodiy va kadrlar siyosatini amalga oshirishni ta'minlab berish muhim hisoblanadi.

Turli darajadagi portallar majmuasidan iborat bo'lgan O'zbekiston Respublikasi XTV AKM dasturiy ta'minotini amalga oshirish jarayonida amalda mavjud bo'lgan o'quv jarayonining metodik va boshqa ta'minotini uning tarkibiga integratsiya qilish vositalari nazarda tutilgan bo'lishi kerak. Bunday vositalar sifatida O'zbekiston Respublikasi XTV-

---

ning AKMdan resurslarni import va eksport qilish imkonini beruvchi turli xil konventorlardan foydalanish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi XTV AKM o'ziga milliy ta'lim tizimida to'plangan ilmiy-metodik, kadrlar salohiyati, axborot resurslari va texnologiyalari, amaldagi telekommunikatsiya infratuzilmasini hamda ta'lim tizimining tashkiliy tuzilmasini integratsiya qilishi kerak. Integratsiyalash jarayoni davlat ta'lim standartlari, umumiy pedagogik, metodik va o'quv-metodik hamda axborot resurslariga texnik talablar asosida butun ta'lim tizimining istiqboldagi rivojlanishida byudjet va byudjetdan tashqari moliyalashtirish manbalarini jalb etgan holda amalga oshirilishi lozim. Xalq ta'limi vazirligining mazkur tizimni faoliyat yuritishi va rivojlanishi uchun muvofiqlashtiruvchi ta'siri zarur bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi XTV AKMning respublika bosh portalini to'rt bosqichli tuzilma ko'rinishida keltirish mumkin:

birinchi – ta'lim muassasasining virtual portali (VP);

ikkinchi – tuman(shahar) ta'limni boshqaruv organlaridagi virtual portallari;

uchinchi – hududiy ta'limning boshqaruv organlari portali;

to'rtinchi – O'zbekiston Respublikasi XTV darajasidagi bosh virtual portali bosqichlari.

Har bir bosqichda unga tegishli bo'lgan tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish talab etiladi. Shu jumladan:

- virtual portallarning axborot xavfsizligini, dasturiy vositalar va ma'lumotlar bazalarini shakllantirish va saqlanishini ta'minlash;

- umumta'lim muassasalari, tuman (shahar), hududiy va respublika xalq ta'limi elektron kutubxonalar fondlarini shakllantirish, elektron axborot-ta'lim resurslarini ularga joylashtirish, ma'lumotlar bazasini yaratish, ta'lim jarayoni ishtirokchilari va boshqa manfaatdor foydalanuvchilarga zamonaviy texnologiyalar orqali yetkazish usullarini joriy etish;

- o'quvdan tashqari faoliyatni axborotlashtirish, shu jumladan, maktab veb-saytlarini shakllantirish va rivojlantirish, undagi resurslarni boshqarish tizimini yo'lga qo'yish;

- izlash imkoniyatlari yaratilgan turli ma'lumotlar bazalari va kataloglarni shakllantirish, ularning asosida muassasa portali va umuman olganda ta'lim muassasalari faoliyatidagi keng qamrovli ko'rsatkichlardan turli statistik va analitik ma'lumotlarni shakllantirishni tizimlashtirish;

- alohida olingan ta'lim muassasalari, tuman (shahar) ta'limni boshqaruv organlari ma'lumotlar bazalari va kataloglarini birlashtiruvchi, resurslarni turli parametrlar bo'yicha qidirib topish, saralash va tizimlashtirish imkoniyatini beruvchi mahalliy va hududiy elektron ma'lumotlar bazalari va kataloglari fondini shakllantirish;

- ta'lim muassasalari, tuman (shahar) ta'limni boshqaruv organlari hamda umuman hududiy ta'limning boshqaruv organlari hamda vazirlik tasarrufidagi tashkilotlarning faoliyatidagi keng qamrovli ko'rsatkichlardan turli shakldagi statistik va analitik ma'lumotlarni shakllantirishni tizimlashtirish.

Barcha ta'lim muassasalari, tashkilotlar va boshqaruv organlari XTV buyurtmasi asosida ishlab chiqilgan, lisenziyalangan dasturiy ta'minot bilan markazlashgan holda ta'minlanishi moliyaviy sarf-xarajalar rejalari kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi buyurtmalarga mos ravishda lisenziyalar paketini xarid qiladi (yoki mustaqil ravishda AKMning dasturiy ta'minotini ishlab chiqadi) va hududiy boshqaruv organlariga, tashkilotlar hamda ta'lim muassasalariga – virtual portal ma'muriyatlariga taqsimlaydi.

#### **EATR klassifikatsiyasi va elektron kutubxonalar fondini shakllantirish manbalari**

AKMning axborot-ta'lim resurslari shakli, mazmuni va amalga oshirish metodlariga ko'ra turli manbalardan tarkib topadi. Ularning tarkibida ma'ruza va axborot materiallari,

amaliy virtual (laboratoriya) ishlari, ta'limiy matematik modellar, ko'rgazmali materiallar, metodik ishlanmalar, axborot ma'lumotlari va boshqalar bo'lishi mumkin.

Amalga oshirish shakliga ko'ra ular quyidagicha bo'lishi mumkin: matnli, audio va videomateriallar, interfaol trenajerlar va mashg'ulotlar, animatsion grafikali illyustratsiyalar, o'quv kompyuter dasturlari, modellashtiruvchi, ekspert tizimlari, avtomatlashtirilgan laboratoriya ishlari, turli xil test topshiriqlari va boshqalar.

Elektron kutubxonaning ma'lumotlar bazasiga barcha resurslar ta'lim muassasasi-ning virtual portali (VP)ning vakolatli administratori tomonidagina joylashtiriladi.

AKMning elektron axborot-ta'lim resurslarini quyidagicha tasniflash mumkin:

**Birinchi toifadagi resurslar** – bu yagona Respublika elektron kutubxonasining bir qismi bo'lib, Xalq ta'limi vazirligining buyurtmasi asosida yaratilgan va ta'lim jarayonida foydalanish uchun o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan turli tipdagi EATRidan tashkil topadi. Bunday EATRLarining asosiy fondi XTVining AKMi mega-portali serverlarida saqlanadi va tasarrufidagi ta'limning boshqaruv organlari hamda ta'lim muassasalariga o'zlarining mustaqil elektron kutubxonalarini shakllantirish uchun taqdim qilinadi.

**Ikkinchi toifadagi resurslar** – bu hududiy elektron kutubxonaning bir qismi bo'lib, olimlar va XTXQTMollari va metod markazlar metodistlari tomonidan yaratilib, shu hududdagi ta'lim muassasalari uchun ta'lim jarayonida foydalanish uchun saralab olingan va o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan EATRLaridir. Bunday EATRLarining asosiy fondi hududiy ta'limning boshqaruv organlari portali serverlarida saqlanadi va tasarrufidagi tuman (shahar) ta'limni boshqaruv organlari hamda ta'lim muassasalariga o'zlarining mustaqil elektron kutubxonalarini shakllantirish uchun taqdim qilinadi.

**Uchinchi toifadagi resurslar** – bu tuman (shahar) elektron kutubxonasining bir qismi bo'lib, tuman (shahar) ta'limni boshqaruv organlari metodistlari va tasarrufidagi ta'lim muassasalari o'qituvchilari tomonidan yaratilib, shu tuman (shahar) ta'lim muassasalariga ta'lim jarayonida foydalanish uchun saralab olingan va o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan EATRLaridir. Mazkur toifadagi EATRLarining asosiy fondi tuman (shahar) ta'limni boshqaruv organlari AKM portali serverlarida saqlanadi va tasarrufidagi ta'lim muassasalariga o'zlarining mustaqil elektron kutubxonalarini shakllantirish uchun taqdim qilinadi.

**To'rtinchi toifadagi resurslar** – bu maktab elektron kutubxonasining bir qismi bo'lib, maktab rahbariyati va o'qituvchilari tomonidan yaratilib, shu maktab uchun ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish uchun saralab olingan va o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan EATRLaridir. EATRLarining asosiy fondi maktab AKMi portali serverlarida saqlanadi va mazkur ta'lim muassasining o'qituvchilari va o'quvchilari uchun ta'lim jarayonida foydalanish uchun taqdim qilinadi.

AKMning maktab portallari serverlarida joylashtirilgan eng yaxshi EATRLari ekspertiza va aprobatsiyadan o'tkazilgandan keyin, o'rnatilgan tartibda tasdiqlanib, tuman (shahar) tasarrufidagi barcha ta'lim muassasalari uchun foydalanishga tavsiya etilishi mumkin. Bu usulda tanlab olingan EATRLi tuman (shahar) AKMi portali serverlariga joylashtiriladi.

Elektron kutubxonalar fondini shakllantirish tizimini tartiblashtirish uchun yuqorida keltirilgan toifalardagi EATR yaratish tartibi, tasdiqlash va ta'lim jarayoniga joriy etishni belgilab beradigan me'yoriy hujjatni ishlab chiqish va qabul qilish zarur. Mazkur hujjatda shuningdek, EATRLari yaratuvchilarining mualliflik huquqlarining himoyasi, ularning ijodiy mehnatlarini ma'naviy va moddiy rag'batlantirish masalalari o'z aksini topishi kerak.

#### **AKMini keng joriy etish, ishlatish va rivojlantirish**

Ixtiyoriy keng miqyosdagi va taqsimlangan axborot tizimini yaratish, dasturiy ta'minotni ishlab chiqish, uni joriy qilish va ishlatish jarayonida qo'llab-quvvatlashning aniq



---

tashkillashtirilgan mexanizmsiz amalga oshirish mumkin emas. Bu funksiyalar odatda ta'lim muassasalari uchun tegishli emas, ularning vakolatlari va imkoniyatlari doirasiga kirmaydi.

MUDRM tuzilmasida XTV AKMini hamda uning alohida foydalanuvchilarini texnologik, texnik va metodologik qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydigan maxsus xizmat yaratish kerak. Bunday xizmatning tuzilmasi istiqbolda XTV AKMini hududiy segmentlari (MUDRM filiallari) bo'ylab taqsimlangan bo'lishi lozim. Biroq taqsimlangan ta'lim portalini yaratishning boshlang'ich bosqichida markazlashgan xizmatning mavjudligi yanada samaraliroq va maqsadga muvofiq bo'ladi. Taqsimlangan tizimga o'tish tajriba-sinov ishlari o'tkazilgandan keyin, hududlarda tayyorlangan malakali kadrlar (4 ta bosqich portallari uchun administratorlar) tarkibi shakllangandan keyin amalga oshirilishi mumkin.

Ta'lim muassasalari, xalq ta'limi boshqaruv organlari yangi virtual portallarini yaratishning tashkiliy ishlari mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi.

Bunda maktab, tuman (shahar) va hududiy portal administratorlari DTni o'rnatish va uni ishlatish bo'yicha hujjatlar bilan bir qatorda qo'llab-quvvatlash xizmati va DT ishlab chiqaruvchilarining o'zidan tezkor maslahatlar, boshqa texnik va axborot yordamlarini olishadi.

### **Xalq ta'limi tizimida AKMni shakllantirish, amalga joriy etish va rivojlantirish harakatlar rejası**

Xalq ta'limi tizimida AKMni yaratish va joriy etishning 1-bosqichida quyidagi tashkiliy tadbirlar va vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Xalq ta'limi tizimida axborot-kommunikatsiya muhitini bosqichma-bosqich yaratishning dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash.

2. XTVning AKMini amalga oshirish loyihasini ish hajmlari va moliyalashtirish tartibini aniqlashtirish va manbalarini tasdiqlash.

3. Namunaviy "Elektron maktab" DTni (ta'lim muassasasi VPini) yaratish, uni ishlatish va rivojlantirish texnologiyalarini ishlab chiqish vazifasi yuklatiladigan tashkilot va ishchi jamoani aniqlash, faoliyatini tashkil etish, VPni tajriba-sinovdan o'tkazish ishlarni amalga oshirish uchun maktab-laboratoriyalar tashkil etish.

4. Ta'lim muassasasi ma'muriyati a'zolari, pedagog xodimlari, o'quvchilar va ularning ota-onalari uchun AKM portalidagi turli ma'lumotlar bazasiga, EATRlariga va boshqa axborot resurslariga kira olish huquqlarini tartibga soluvchi me'yoriy huquqiy yo'riq-nomalar, tavsiyalar ishlab chiqish.

5. Respublika mega-portali, namunaviy hududiy va tuman (shahar) portallarini, ularni to'ldirish texnologiyalari va mexanizmlarining funksional-mazmunli tuzilmasini ishlab chiqish.

6. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'zaro hamkorligini tartibga soluvchi, tasarrufidagi ta'lim muassasalarining AKMi ma'lumotlar bazalari va boshqa axborot resurslaridan foydalanishdan manfaatdor bo'lgan ta'limning yuqori boshqaruv organlarining vakolatlarini, funksiyalari va majburiyatlarini belgilab beruvchi me'yoriy-huquqiy qoidalar va tavsiyalar ishlab chiqish.

7. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida elektron ta'limni keng joriy qilish uchun EATR va boshqa resurslarni ishlab chiqish.

AKMni yaratish va joriy etishning 2-bosqichida quyidagi tadbirlar va vazifalarni amalga oshirish quyidagicha:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktabi AKMi namunaviy mini-portali – uning asosiy komponenti bo'lgan maktab boshqaruvining axborotlashtirilgan tizimi (MBAT)ning dasturiy ta'minotini takomillashtirish.

2. Maktab AKMning tarkibiy qismi sifatida maktab veb-sayti namunaviy loyihasi asosida dasturiy ta'minotini ishlab chiqish.

3. Ta'limning boshqaruv organlari barcha bo'g'inlari AKMi virtual portallari uchun namunaviy dasturiy ta'minotning asosiy qismini ishlab chiqish.

4. Ta'lim muassasalari va ta'lim boshqaruv organlari guruhlari bazasida XTV AKMi tajriba segmentini yaratish, DT va bazaviy texnologiyalardan foydalanish bo'yicha eksperimental ishlarni o'tkazish.

5. AKM portallarining barcha turlari uchun DTning konstruktorlik va yakuniy ishlatish hujjatlarini ishlab chiqish.

6. Turli xil EATRI majmualarini yaratish, ishlab chiqish va ulardan ta'lim jarayonida foydalanish bo'yicha metodikalarni takomillashtirish ishlarini davom ettirish.

7. Xalq ta'limi tizimida AKMini shakllantirishning maqsad va vazifalariga mos keladigan, umumiy o'rta ta'lim maktablarining barcha sinflari uchun mo'ljallangan “Informatika va axborot texnologiyalari” kursining yangi eksperimental variantini ishlab chiqish.

8. Ta'lim jarayonida AKTlaridan foydalanishning ilmiy asoslangan metodologiyasini yaratish, tajriba-sinovdan o'tkazish va takomillashtirish.

9. Samarali kompyuter vositalari orqali, shu jumladan, masofaviy ta'lim vosita va metodlarini yaratish va tajriba-sinovdan o'tkazish.

Barcha turdagi va bosqichdagi AKMi virtual portallarini qo'llab-quvvatlash, ishlatish va axborot xavfsizligini ta'minlashga mas'ul bo'lgan, administrator va texnik xodimlar ehtiyojlarini ta'minlovchi, tizim adminstratsiyalash xizmatini tashkil qilishdir.

“2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi”da iqtisodiyot, ijtimoiy soha, boshqaruv tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish; uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish; umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganishni ta'minlash va bir qator boshqa vazifalar nazarda tutilgan.

Shuning uchun xalq ta'limi tizimida AKMni yaratilishi va amalga joriy etilishi Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirilishiga o'zining munosib hissasini qo'shadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-sonli farmoni. 2017-yil 7-fevral. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.*

2. *Ergashev Sh., Kolantarov A. Maktab veb-saytlarining tuzilishi, mazmuni va ishlatishini tashkil etilishiga qo'yiladigan asosiy talablar. “Xalq ta'limi” jurnali, 5-son, – T., 2016.*

3. *Ergashev Sh., Kolantarov A. Maktab boshqaruvi axborot tizimining funksional vazifalari va joriy etilishidan kutilayotgan asosiy natijalar. “Xalq ta'limi” jurnali, 1-son, – T., 2017.*

---

**Sayfulla DOTTOYEV,**

Nizomiy nomidagi TDPU Axborot texnologiyalari markazi boshlig'i

## **TA'LIM JARAYONLARINING ZAMONAVIY AXBOROT-METODIK TA'MINOTI MAZMUNI VA TARKIBI**

### **Annotatsiya**

Maqolada ta'lim jarayonlarining zamonaviy axborot-metodik ta'minoti tarkibi, mazmuni hamda uning imkoniyatlari xususida so'z yuritilgan. Shuningdek, muallif axborot-metodik ta'minot yordamida ta'lim sifatini oshirish va uzluksiz ta'lim olish imkoniyatlarini ochib bergan.

**Kalit so'zlar.** Axborot-metodik ta'minot, portal texnologiyalari, elektron hujjat almashuv tizimi, moliya-kadr tizimi, to'lov kontrakt hisobini yuritish tizimi, o'quv-ilmiy resurslar, elektron dekanat tizimi.

В статье представлено описание структуры и содержания современного информационно-методического обеспечения образовательного процесса, отмечено, что с помощью данного обеспечения появляются возможности повысить качество непрерывного образования.

**Ключевые слова.** Информационно-методическое обеспечение, порталные технологии, электронная система обмена документами, кадровая система, система платежей по контрактам, образовательные и научные ресурсы, система электронный деканат.

Article describes the structure and content of modern information and methodological support of the educational process, it is noted that with the help of this provision, there are opportunities to improve the quality of continuing education.

**Key words.** Information and methodological support, portal technology, electronic system of document exchange, the personnel system, the payment system for contract, educational and scientific resources, e-Dean's office.

**T**a'lim jarayonining rivojlanishiga sabab bo'layotgan asosiy jihatlardan biri – bu ta'lim jarayonlarini axborotlashtirish hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilariga yangi imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Bu albatta ta'lim muassasasining imkoniyat darajasidan kelib chiqqan holda ta'lim jarayonlarining axborot va metodik ta'minotini amalga oshirish bilan bog'liq.


Ta'lim jarayonlarining axborot-metodik ta'minoti deganda, o'z navbatida me'yoriy-huquqiy, axborot-statistik, o'quv-tashkiliy kabi materiallarni qamrab olgan axborot ta'minoti, shuningdek, ilmiy-pedagogik, o'quv-metodik kabi ma'lumotlarni qamrab oluvchi o'quv-metodik ta'minoti tushuniladi.

Ta'lim jarayonlarining axborot ta'minoti oliy ta'lim muassasasini yagona axborot muhitini bosqichma-bosqich shakllantirishga yo'naltirilib, ta'lim va tarbiyaviy, ilmiy, boshqaruv va boshqa jarayonlarda axborot almashish intensivligini oshirish, avtomatlashtirish imkonini beradi. Ta'lim jarayonining barcha subyektlari – talabalar, professor-o'qituvchilar, ishchi-xodim va rahbar kadrlari uchun yagona axborot muhitini yaratish ta'lim jarayonlarining axborot-metodik ta'minotini yaratish hisoblanadi.

- Ta'lim jarayonlarining axborot-metodik ta'minoti quyidagi imkoniyatlarni beradi:
- axborotni tezkor almashish va masofadan turib boshqarish;
  - elektron hujjat almashinuvi va hujjatlarni saqlash;
  - tashqi foydalanuvchilar va hamkor tashkilotlar uchun OTM axborot resurslarini taqdim etish;
  - OTMning barcha o'qituvchilari, xodimlari va talabalar uchun Internet resurslaridan foydalanish imkoniyatini yaratish;
  - masofadan turib o'quv-metodik resurslarni yagona muhitda kiritish, saqlash, qayta ishlash va uzatish imkoniyatining mavjudligi;
  - turli elektron ta'lim resurslari (elektron materiallar, taqdimotlar, audio va videodarslar)dan masofadan foydalanish;
  - masofaviy ta'lim tizimini yo'lga qo'yish;
  - talabalarning tayyorgarlik va o'zlashtirish darajasini nazorat qilish;
  - turli statistik so'rovlarga aniq, tez va sifatli javob olish.

Barcha yo'nalishlar bo'yicha o'quv dasturlarni samarali joriy etish, o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish, o'quvchilarning barqaror bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish maqsadida o'quv dasturiy mahsulotlar, videofilmlar, audio vositalar faol tarzda ishlatilishi hamda ulardan foydalanish imkoniyatlari yaratilishi zarur.

Ta'lim jarayonlarining zamonaviy axborot-metodik ta'minoti o'zida ham axborot ta'minoti elementlarini, ham metodik ta'minot elementlarini qamrab olib, portal texnologiyalarga asoslangan yagona muhitni tashkil etadi va uning tarkibi quyidagi ko'rinishdan iborat (1-rasm).



1-rasm. Zamonaviy axborot-metodik ta'minot tarkibi

Ta'lim jarayonlarining axborot ta'minoti oliy ta'lim muassasasida yuritilayotgan hujjatlarning aylanishini nazorat qiluvchi hujjat almashish tizimi, moliya va kadr ma'lu-

---

motlarini nazorat qiluvchi moliya-kadr tizimi, talabalarning kontrakt to'lovlari hisobini yurituvchi tizim, shuningdek, pedagog xodimlar faoliyatini baholash tizimini o'z ichiga oladi.

### **Hujjat almashish tizimi**

Elektron hujjat aylanishining zamonaviy tizimlarini qo'llash, axborot sohasidagi o'zaro hamkorlik darajasi va sifatini, katta hajmdagi axborotni topish, qayta ishlash, foydalanish samaradorligini oshirish, boshqaruv qarorlarining tezkorligi hamda yuqori sifatini ta'minlash, hamkorlikdagi harakat jarayonini soddalashtirish va ularni amalga oshirish vaqtini qisqartirish orqali ta'lim muassasasida ish unumdorligi va samaradorligini oshirish mumkin.

O'zbekiston Respublikasida 2004-yil 29-aprelda 611-II-sonli "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi Qonun qabul qilingan. Ushbu qonunning asosiy vazifasi elektron hujjatning huquqiy kuchini belgilashdir. Mazkur qonunga ko'ra elektron hujjat qog'oz hujjatga tenglashtiriladi va u bilan teng huquqiy kuchga ega bo'ladi.<sup>1</sup>

Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Respublikada qog'ozni tejash va undan oqilona foydalanishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 155-sonli qarori ijrosini ta'minlash, vazirlik va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati va xo'jalik boshqaruvi organlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishini, qog'oz ko'rinishidagi hujjatlardan bosqichma-bosqich elektron hujjat aylanish tizimlariga o'tishlarini o'rganish yuzasidan keng qamrovli amaliy ishlar olib borish talab etilmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonlarini tashkil etishda elektron hujjat aylanish tizimlaridan foydalanish hujjatlar bilan ishlash samaradorligi va ishonchligini, hujjatlar ijrosini boshqarish hamda amaliy nazorat qilish sifatini oshiradi. Boshqaruv faoliyatida qog'oz ta'minoti bilan bog'liq xarajatlar kamayadi hamda ijro nazoratini olib borish yangillashadi.

Ta'lim jarayonlarining axborot ta'minotini ta'minlash maqsadida elektron hujjat aylanish tizimining joriy etilishi quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- ta'lim muassasasining hujjat oqimini samarali boshqarish;
- hujjatlarni markazlashgan holda saqlash;
- hujjatlar bilan ishlashda nazoratni ta'minlash;
- xodimlar ish unumdorligini oshirish;
- boshqaruv qarorlarini qabul qilishda zarur ma'lumotlarni olish tezkorligi;
- ta'lim muassasasining axborot xavfsizligini ta'minlash, ya'ni elektron hujjat aylanish tizimi bilan ishlaganda, qayd qilinmagan foydalanuvchiga hech qanday tizimdan foydalanishga imkon berilmasligi;
- hujjatlar ustida hamkorlikda ishlash imkoniyatining yaratilishi;
- hujjatlarni tanlash va izlashda juda katta tezlikka ega bo'lish;
- hujjatlarni saqlash xuddi elektron hujjatni serverda saqlaganday qulay ekanligi;
- hujjatlar almashinuvini boshqarishning yaxshilanishi;
- yuklatilayotgan topshiriqlar ijrosini o'z vaqtida ta'minlash.

Hujjat aylanish tizimini avtomatlashtirishning asosiy natijasini hujjatlar bilan ishlashdagi chalkashliklar bo'lmasligi, ta'lim jarayonini avtomatlashtirish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish vaqtini qisqarishi va muassasaning butun ish faoliyati samaradorligini o'sishida ko'rish mumkin.

---

<sup>1</sup> "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi Qonun. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2004 y., 20-son, 230-modda.

### **Moliya-kadr tizimi**

Ta'lim muassasasida faoliyat yurituvchi ishchi-xodimlar, professor-o'qituvchilar hisobini yurituvchi moliya-kadr tizimi o'zida ishchi-xodim yoki professor-o'qituvchi haqidagi to'liq ma'lumotlarni saqlaydi va bu boshqaruvda tezkor axborot olishni ta'minlaydi.

Ta'lim jarayonlarining axborot ta'minotini ta'minlash maqsadida moliya-kadr ma'lumotlar tizimining joriy etilishi quyidagilarga imkon beradi:

- ta'lim muassasasida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilar, rahbar va ishchi xodimlar haqidagi ma'lumotlarni yagona tizimda markazlashgan holda saqlash;
- hujjatlar bilan ishlashda nazoratni ta'minlash;
- boshqaruv qarorlarini qabul qilishda zarur ma'lumotlarni olish tezkorligi;
- turli statistik ma'lumotlar olishda samarali izlash usullarini qo'llash mumkinligi;
- yuklatilayotgan topshiriqlar ijrosini o'z vaqtida ta'minlash.

### **To'lov-kontrakt hisobini yuritish tizimi**

Ushbu tizim to'lov kontrakt asosida tahsil olayotgan talabalarining shartnoma to'lovlari holati haqida operativ ma'lumot olish imkonini beradi. Shuningdek, ushbu tizimda guruh, yo'nalish, fakultet va universitet miqyosidagi shartnoma to'lovlariga oid hisobotlarni olish mumkin. Tizim har bir foydalanuvchiga o'ziga taalluqli ma'lumotlarni taqdim etadi. Fakultet dekani o'zi rahbarlik qilayotgan fakultet miqyosida qarzdorlik holatlari haqida, talaba esa o'ziga taalluqli to'lovlar haqida ma'lumotlarni onlayn shaklda olishi mumkin.

### **O'qituvchilarni baholash tizimi**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O'zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish bilan bog'liq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi 2015-yil 25-avgustdagi 246-sonli qarori asosida oliy ta'lim muassasalarining pedagog xodimlari faoliyati natijalarini baholash tizimini takomillashtirish, o'qituvchilarning o'z ustida muntazam ishlashlarini rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish ishlari olib borilmoqda.

Pedagog xodimlar lavozimlarini egallashning besh yillik muddati davrida rektorning buyrug'i bilan tasdiqlanadigan oliy ta'lim muassasasining komissiyasi tomonidan har bir o'quv yili yakunlari bo'yicha ushbu Nizom ilovasiga muvofiq pedagog xodimlar faoliyati har tomonlama o'rganib chiqiladi.

Oliy ta'lim muassasalarining pedagog xodimlari faoliyatini o'rganish mezonlari quyidagilardan iborat:

- o'quv-metodik faoliyati (40 ball);
- tarbiyaviy faoliyati (20 ball);
- ilmiy faoliyati (30 ball);
- oliy ta'lim muassasasini rivojlantirishga qo'shgan ulushi (10 ball);
- shaxsiy fazilatlar (10 ball).

Jami 110 ballik tizim asosida baholanadi.

Ta'lim jarayonlarining o'quv-metodik ta'minoti deganda, Davlat ta'lim standarti va fan dasturida belgilangan talablar asosida talabalar tomonidan egallanishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni kompetentlik darajasida rivojlantirishni, o'quv jarayonini kompleks loyihalash asosida kafolatlangan natijalarni olishni, mustaqil bilim olish va o'rganishni hamda nazoratini amalga oshirishni ta'minlaydigan, talabaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv-metodik manbalar, elektron darsliklar, didaktik vositalar va materiallar, baholash mezonlarini o'z ichiga oladi<sup>2</sup>.

<sup>2</sup> Zakirova F., Muxamedxanov U., Sharipov Sh., Isyanov R.G., Esonboboev F., Dattoyev S. Elektron o'quv-metodik majmualar va ta'lim resurslarini yaratish metodikasi. Metodik qo'llanma. – T.: O'OMTV, 2010. 57-b.

---

Ta'lim jarayonlarining o'quv-metodik ta'minoti Davlat ta'lim standarti asosida tuziladigan fan dasturiga muvofiq hamda shaxsga yo'naltirilgan, rivojlantiruvchi va zamonaviy axborot-kommunikatsiya muhitidagi mustaqil ta'lim olish texnologiyalari, tamoyillari va talablari asosida ishlab chiqilgan o'quv-ilmiy resurslar, elektron darsliklar, elektron dekanat (shaxsiy ish reja, jurnal, pedagogik amaliyot, dars jadvali) va elektron kutubxona komponentlaridan iborat.

Ta'lim jarayonlarining o'quv-ilmiy resurslari quyidagilardan iborat.

1. *Me'yoriy hujjatlar komponenti – titul varag'i*; Davlat ta'lim standartiga mos ravishda yaratilgan *fan dasturi*; fanning maqsadi, vazifalari, ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarining mazmuni, nazorat hamda kurs ishlarining mavzulari, masalalar, topshiriqlar, yakuniy nazorat savollarini va fanning o'quv-metodik ta'minoti, mustaqil ta'limni tashkil etishga doir yo'riqnomani o'zida mujassamlashtirgan *ishchi dastur*.

2. *Asosiy mazmuni belgilovchi komponenti* – darsliklar, o'quv qo'llanmalari va xorijiy o'quv materiallari bilan boyitilgan o'quv materiallari; laboratoriya va amaliy (seminar) mashg'ulotlari mazmuni va metodik ta'minoti; mustaqil ishlarning mazmuni.

3. *Didaktik komponenti* – har bir mavzu bo'yicha taqdimotlar, malaka va ko'nikmalarni shakllantiruvchi didaktik materiallar, mavzuni o'zlashtirish uchun qo'shimcha audio va video materiallar, keys topshiriqlari, glossariy (o'zbek, rus va ingliz tilida) va boshqalar.

4. *Metodik komponenti* – o'quv-uslubiy xarita va kalendar tematik rejalar asosida tayyorlangan o'qituvchiga mo'ljallangan metodik komponent; mashg'ulotlarda pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash bo'yicha metodik ko'rsatmalar; o'quv-malakaviy amaliyot dasturi, uni tashkillashtirish bo'yicha metodik qo'llanma.

5. *Baholash komponenti* – fan bo'yicha joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar bo'yicha ballar taqsimoti, topshiriqlar turi, baholash mezonlari; joriy, oraliq va yakuniy nazorat bo'yicha savollar; nazariy va amaliy o'quv materiallarini o'zlashtirilganlik darajasini aniqlashga qaratilgan nazorat topshiriqlari va testlar, kurs ishi mavzulari.

6. *Qo'shimcha komponenti* – fan bo'yicha xorijiy adabiyotlar, Internet manbalari, qo'shimcha o'quv va ilmiy materiallar (maqola va b.) va h.k.

**Elektron dekanat tizimi** o'z tarkibiga o'qituvchilarni shaxsiy ish rejasida belgilangan vazifalar va ularning bajarilish holatini yurituvchi shaxsiy ish reja qismi, har bir fan bo'yicha bajarilayotgan soatlar, talabalar davomati va o'zlashtirishni nazorat qiluvchi elektron jurnal qismi hamda dars jadvalini qamrab olgan.

**Elektron kutubxona** tizimi universitet axborot resurs markazida mavjud bo'lgan kitoblarning elektron nusxasini izlash, yuklab olish hamda o'qish imkoniyatini beradi. Universitet professor-o'qituvchilari va talabalari uchun ijtimoiy tarmoqlar orqali dars jadvali va kitoblarni elektron variantlarini yuklab olish imkoniyati ham yaratilgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zakirova F., Muxamedxanov U., Sharipov Sh., Isyanov R.G., Esonboboev F., Dottoev S. *Elektron o'quv-metodik majmualar va ta'lim resurslarini yaratish metodikasi. Metodik qo'llanma.* – T.: OO'MTV, 2010. 57 b.

2. "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi Qonun. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2004 y., 20-son, 230-modda.

**Iroda REJAMETOVA,**

Nizomiy nomidagi TDPU boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

**Berdimurot PARDAYEV,**

Nizomiy nomidagi TDPU boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası katta o'qituvchisi

## **GIPERFAOL BOLALAR BILAN ISHLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI**

### **Annotatsiya**

Maqola giperfaollikning dastlabki alomatlari va uning vujudga kelish sabablari xususida. Shuningdek, muallif pedagog va tarbiyachilarga bolada giperfaollik hamda xavotirlanuvchanlikni namoyon bo'lishining birlamchi baholash mezonini berib o'tgan.

**Kalit so'zlar.** Giperfaol bola, pedagog, baholash mezon, sabab, aqliy rivojlanish, mezon, tashqi alomat, fiziologik alomatlar.

В статье освещены первые признаки гиперактивности детей и причины её появления. Автором даны некоторые рекомендации для педагогов и воспитателей по первой оценке проявления гиперактивности и беспокойности детей.

**Ключевые слова.** Гиперактивные дети, педагог, критерии оценки, причина, умственное развитие, критерии, внешние симптомы, физиологические симптомы.

Article gives a broad concept of the phenomenon of hyperactivity, as well as pedagogical-psychological methods and recommendations for working with hyperactive children.

**Key words.** Hyperactive children, evaluation criteria, cause, mental development, criteria, external symptoms and physiological symptoms.

**P**sixologik lug'at mualliflari e'tiborsizlik, diqqatning tez bo'linuvchanligi, harakatlarning beixtiyoriyligi, serharakat faollikni giperfaollikning tashqi alomatlari sifatida tushuntiradilar. Ko'pincha bolalarda giperfaollik bilan bir qatorda atrofdagi insonlar bilan munosabatga kirishishdagi qiyinchilik, ta'lim olishdagi muammolar, o'ziga past baho berish kabi holatlar kuzatiladi. Ammo shu bilan bir qatorda, bolalardagi aqliy rivojlanish darajasi giperfaollik darajasi bilan bog'liq bo'lmaydi, gohida esa u yosh me'yorlaridan ham yuqori bo'lishi mumkin. Giperfaollikning dastlabki alomatlari 7 yoshgacha bo'lgan davrda kuzatiladi va u qiz bolalarga nisbatan o'g'il bolalarda ko'proq uchraydi.

“Giper...” – (grekchadan “hyper” – ustidan, yuza) me'yordan ortib ketganligiga urg'u beruvchi so'zlarning asosiy bo'g'ini. Faollik esa kishining harakatlari va faoliyati ko'lamini o'zida ifodalaydi. Psixologiya hamda psixonevrologiya fani sohasida uzoq yillardan beri tadqiq etib kelinayotgan bu tushuncha rus tilida “гиперактивность” shaklida yuritib kelinadi. Rus tilidagi “активный” so'zi aslida lotincha “activus” so'zidan olingan bo'lib, “serharakat, serg'ayrat” ma'nosini bildiradi.



---

Giperfaollikning vujudga kelish sabablari to'g'risida turli xil fikrlar mavjud: irsiy omillar, bosh miyaning tuzilishi va ishlashi xususiyatlari, embrion rivojlanishining dastlabki 3-4 oylarida onada kechgan yuqumli kasalliklar, tug'uruq davrida orttirilgan jaro-hatlar, hayotining birinchi oylarida bola kechirgan yuqumli kasalliklar bolada namoyon bo'layotgan giperfaollikning asosiy sabablari bo'lishi mumkin.

Odatda, giperfaollik sindromining asosida miyadagi minimal disfunktsiya yotadi, bunday toifadagi buzilishlarni nevroptolog shifokor olib borgan maxsus tashxis ishi-dan so'ng belgilaydi. Zarur bo'lganda tibbiy muolaja tavsiya etiladi.

Biroq giperfaol bolani davolashga hamda uning jamoaga moslashishiga ko'mak-lashishdagi yondashuv kompleks tarzda amalga oshirilishi lozim. Tibbiyot fanlari doktori, professor Y.S.Shevchenko ta'kidlaganidek, "biron bir dori insonni o'zini qan-day tutishi kerakligiga o'rgata olmaydi. Bolalikda vujudga kelgan noo'rin yoki nojo'ya xulq-atvor odatga aylanishi va keyinchalik esa beixtiyor amalga oshirilishi mumkin..."<sup>1</sup>. Shunday vaqtda tarbiyachi psixolog, ota-ona yoki ular o'rni bosuvchi insonlar bilan uzviy aloqada ishlab, bolalarni tengdoshlari va katta yoshdagilar bilan muloqotga kiris-hishning samarali vositalariga o'rgatishlari mumkin.

Giperfaol bola bilan ishlayotgan har bir pedagog yoki tarbiyachi bunday bolaning atrofdagilarga qanday noxushliklar keltirishi mumkinligini juda ham yaxshi biladi. Biroq bu muammoning bir tomoni. Birinchi navbatda, bolaning aziyat chekayotganini unut-masligimiz lozim. Axir u o'zini boshqacha, ya'ni kattalar talab qilayotganidek tutolmay-di. Shunday tutish kerakligini istamayotganligi uchun emas, balki bolaning fiziologik imkoniyatlari bunga yo'l qo'ymaydi. Bunday bolaga uzoq vaqt davomida qimirlamay, gapirmay o'tirish juda ham qiyin. Doimiy ogohlantirishlar, do'q-po'pisalar bilan qo'rqitish bolaning xulq-atvorini sira ham o'zgartirmay, aksincha, yangi mojaro, kelishmov-chiliklar kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, bolaga bunday tarzda ta'sir o'tkazish unda "salbiy" ko'rinishdagi fe'l-atvorning shakllanishiga olib kelishi mumkin. Natijada esa bola ham, kattalar ham, hatto giperfaol bola bilan muomala qiladigan boshqa bolalar ham aziyat chekadilar.

Giperfaol bolani itoatkor, gapga kiradigan bo'lishiga erishish hali hech kimning qo'li-dan kelmagan, biroq bunday bolani hayotda yashash va undagi insonlar bilan hamkorlikka kirishishga o'rgatish ancha qiyinchilik bilan bo'lsa-da, ijobiy natijalarga olib kelgan.

Ehtimol, bola ta'lim muassasasining har bir guruhida – xoh bog'cha yoshida, xoh umumiy o'rta ta'lim maktabining barcha sinflarida bo'lsin uzoq vaqt bir joyda qimirla-may, gapirmay va yo'l-yo'riqlarga rioya qilib o'tiradigan bolalar ham uchrashi mumkin. Giperfaol bolalar ko'pincha turli xil narsalarga tegib ketib, ularni sindirib qo'yishlari, tengdoshlarini urib, itarib, janjalli vaziyatlarni yuzaga keltirishlari mumkin. Hatto xafa bo'lib, o'z xafagarchiliklarini tezda unutadilar. Psixolog V. Oklender bunday bolalarga quyidagicha ta'rif beradi: "Giperfaol bolalarga jim o'tirish ancha qiyin bo'lib, ular doimo o'zlarini bexalovat tutadilar, turgan yoki o'tirgan joyida g'imirlayveradilar, tinch tura ol-maydilar. Bunday bola ba'zan ko'p gapiradi va o'zining xulq-atvori bilan ko'pchilikning g'azabini keltiradi. Ko'pincha harakatlarning nomuvofiqligini yoki muskullar nazorati-ni yetarlicha darajada emasligini kuzatishimiz mumkin. Diqqatni jamlash giperfaol bola uchun juda ham qiyin bo'lib, oson chalg'iydi, ko'p savol beradi, lekin kamdan kam javoblarni sabr bilan tinglay oladi".<sup>2</sup> Ehtimol, har bir pedagog yoki tarbiyachiga bunday bola xarakteri tanish bo'lsa kerak.

---

<sup>1</sup> Шевченко Ю.С. Коррекция поведения детей с гиперактивностью и психоподобным синдромом. – М., 1997.

<sup>2</sup> Изард К.Е. Психология эмоций. – СПб., 1999.

Giperfaol bolaning xulq-atvori tashqi alomatlari bilan yuqori darajadagi xavotirlanuvchan bolaning xulqiga o'xshash bo'lishi mumkin, shuning uchun ham bolaning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan tarbiyachi (pedagog) bir toifadagi bolaning xulqi bilan boshqa toifadagi bola xulqidan farq qiluvchi asosiy alomatlarini ajrata olishni bilishi kerak. Quyida keltirilgan 1-jadval bunga yordam berishi mumkin. Bundan tashqari, xavotirlanuvchan bolaning xulqi ijtimoiy munosabatlarning buzilishiga olib kelmasa, giperfaol bolaning xulqi esa turli xil mojaro, janjal va hatto tushunmovchiliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Bolada giperfaollik va xavotirlanuvchanlikni namoyon bo'lishining birlamchi mezonlari (1-jadval).

<b>Baholash mezonlari</b>	<b>Giperfaol bola</b>	<b>Xavotirlanuvchan bola</b>
Xulq – atvor nazorati	Har doim serharakat	Xulqini nazorat qilish qobiliyatiga ega
Harakatli faollik	Doimiy faollik	Ma'lum bir belgilangan vaziyatlarda faol
Harakatlar tavsifi	Sabrsizlik	Xavotirli, zo'riqish bilan kechadigan harakatlar

Maktabgacha ta'lim muassasasi yoki maktabdagi giperfaol bolani aniqlash uchun uzoq vaqt uni kuzatish, ota-ona yoki ular o'rnini bosuvchi kishilar hamda ta'lim va tarbiyasiga mas'ul bo'lgan tarbiyachi, o'qituvchilar bilan suhbatlashish lozim.

Bolada giperfaollikning namoyon bo'lishining asosiy ko'rsatkichlarini 3 ga bo'lish mumkin, bular:

- faol diqqat tanqisligi;
- ser qo'zg'aluvchan harakatlar;
- beixtiyor harakatlar.

Har bir bola – bu kun sayin insoniyat jamiyatiga kirib kelayotgan va takrorlanmas individuallikka ega bo'lgan shaxsdir. Bolaning ijodkorlik qobiliyati, aqliy imkoniyatlarini, undagi qiziquvchanlik va intiluvchanligini rivojlantirish bugungi kunning shioriga aylandi desak hech adashmagan bo'lamiz.

Individuallik – o'zi nima? Uni qanday qilib rivojlantirish zarur? Agar maktabgacha ta'lim muassasalari guruhida 20 nafar, maktab sinflarida esa 30-40 nafar bola o'qib tarbiyalanadigan bo'lsa, unda qanday qilib har bir bolaga alohida yondashish mumkin?

Zamonaviy fan yutuqlari biz kattalarga o'zimizni bolaning o'rniga qo'yib ko'rishimizni, tevarak-atrofni ham bolaning nigohi bilan kuzatishga urinib ko'rishimizni maslahat beradi. Bolaning bizga ma'lum bo'lgan va ma'lum bo'lmagan sifatlarini baholab, o'zimiz uchun uning ichki olamini kashf eta olsak, shundagina biz bolaga yangicha munosabatda bo'lish, bir qaraganda tushunarsiz bo'lgan xatti-harakatlarini tushunish imkoniga ega bo'lamiz.

Ha, aynan, tushunish! Hatto Begzod yoki Akrom qo'shnining mushugini stulga bog'lab qo'ygani yoki sutni to'kib, maktab derazasi oynasini sindirganligi, uning xatti-harakatlarini sira ham bizning, ya'ni kattalarning mantiqiy fikrlash tarzimiz bilan tushuntirib berish imkoni yo'qligiga qaramay faqatgina bolaning fikri nuqtayi nazarini o'rganib chiqqachgina, nima uchun bola o'zini shunday tutganligini tushuna olishimiz mumkin. Ularni tushunib olgach esa ehtimol uning xulqini “shumlik” va “gapga quloq solmaslik” tariqasida emas, balki uning dunyoni bilishiga, bizning e'tiborimizni qaratishtiga, bizni xursand qilishga nisbatan urinishi sifatida idrok qilish mumkin.

---

Barcha bolalar xarakter xususiyatiga qarab har xil bo'lishadi. Ammo ularning barchasi bizning e'tiborimiz, mehr-muhabbatimizga muhtoj hamda iliq mehrli munosabatga loyiqdirlar.

So'nggi vaqtda bolaning ta'lim va tarbiyasiga differensial, individual yondashilayotganiga ko'p duch kelmoqdamiz. Shunday bolalar bo'ladiki, ular bilan gaplashish insonga faqatgina zavq bag'ishlaydi. Bunday bola barcha narsaga qiziqadi, ko'p narsa qo'lidan keladi, xushmuomala va qobiliyatlidir. Ammo bolalarning hammasini ham bu kabi bolalar toifasiga kiritib bo'lmaydi. Bunday ko'rinishda o'qituvchi har bir qiz va o'g'il bola ko'ngliga yo'l topa olishi uchun o'zida mavjud barcha tajribani, ijodkorlik qobiliyatini ishga solishiga to'g'ri keladi. Shuni ham ta'kidlash joizki, Laylo, Zebo bilan ishlashda qo'l kelgan usul Azizbek va Kamronbek yoki Azamat va Farhod bilan ishlashda umuman samara bermasligi mumkin.

Bolalarga ta'lim-tarbiya berishning samarali usullarini qidirib topish bilan bog'liq urunishlarni osonlashtirish uchun kelishib murosa qilish qiyin bo'lgan ba'zi toifadagi bolalar– giperfaol, tajovuzkor, xavotirlanuvchan va autik bolalardir.

Garchi janjalkash, arazlovchi, hadeb yig'layveradigan bolani yoqtirish qiyin bo'lsa ham ularni yaxshi ko'rib, to'g'ri yo'l-yo'rig' ko'rsatib boramiz. Buni faqatgina yosh bolani tushuna oladigan, sho'xligidan uni chetlashtirmaydigan, unga yordam qo'lini berishga doim tayyor insonlarga uddasidan chiqa olishadi.

Bugungi kun o'qituvchisi nafaqat oddiy dars beruvchi, tarbiyachigina emas, balki ijodkor, innovator, tadqiqotchi hamdir. Professional inson sifatida u har jihatdan yuksak darajada bo'lishi kerak. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari bugungi kunda innovatsion tartibda rivojlanayotganligi bois o'qituvchi o'z professional saviyasini doimo talablar darajasida rivojlantirib borishi zarur. Buning asosiy yo'li – tinimsiz o'z ustida ishlash, mustaqil bilim olishdir. Ayniqsa, pedagoglarning bolalar ruhiyatiga tushinib yondashishlari ularning bola tarbiyasidagi barcha sa'y-harakatlarining ijobiy samarasini beradi.

Xulosa o'rnida aytilish mumkinki, giperfaol bola bilan o'rnatishda pedagog va kattalarning ular bilan qanday munosabat o'rnata olish usuli va strategiyasi muhim rol o'ynaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Goziyev E.G. *Psixologiya*. –T., 1992.
2. Шевченко Ю.С. *Коррекция поведения детей с гиперактивностью и психоподобным синдромом*. – М., 1997.
3. Изард К.Е. *Психология эмоции*. – СПб., 1999.
4. Корнилова Т.В., Смирнов С.Д. *Методологические основы психологии*. — СПб: Питер, 2007.
5. Рубинштейн С. Л. *Основы общей психологии*. – М., 1940. – С. 37.

---

**Tahririyat:** Bugungi kunda ona va bola salomatligi mamlakatimiz siyosati darajasiga ko'tarilgan. Albatta, jismonan va ma'nan sog'lom bolalar ertangi kunimizning egalari. Ushbu maqola mualliflari sog'lom bola psixologiyasidan farqli o'laroq "Giperfaol" sindromi rivojlangan bolalarga ta'lim-tarbiya berishning samarali yo'llarini tavsiya etganlar. Shunday ekan jamiyatimizda ulg'ayayotgan har bir bola bizning e'tiborimiz, mehr-muhabbatimizga muhtoj hamda iliq munosabatimizga loyiqdir.

**Nargiza MAMATXANOVA,**

Namangan Davlat universiteti pedagogika va psixologiya  
kafedrası o'qituvchisi

## O'ZBEK XALQ MAQOLLARI ORQALI O'G'IL BOLALARDA MARDLIK, VATANPARVARLIK FAZILATLARINI SINGDIRISH

### Annotatsiya

Maqolada o'zbek xalq og'zaki ijodi, xalq maqollarida mardlik, vatanparvarlik, qahramonlik tushunchasi, uning mazmun-mohiyatini o'quvchi-yoshlarga tushuntirish va o'g'il bolalarni mard, jasur bo'lib voyaga yetishishida maqollarning o'rni hamda ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar.** Mardlik, qahramonlik, jasurlik, "Alpomish", fazilat, xalq maqollari, botirlik, sadoqat, nomardlik.

В статье раскрывается сущность понятий мужество, патриотизм, героизм, часто используемых в устном народном творчестве, в частности в пословицах, изложены мысли о значении таких пословиц и необходимости донести их в содержание до учащихся-мальчиков, с целью воспитания у них качеств смелости, доблести, отваги.

**Ключевые слова.** Смелость, героизм, отвага, "Алпомыш", достоинство, народные пословицы, мужественный человек, преданность, трусость.

Article reveals the essence of the concepts of courage, patriotism, heroism, often used in oral folk art, in particular in proverbs, outlines thoughts about the significance of such proverbs and the need to bring them to the content of pupils, boys, in order to educate them for the qualities of courage, valor, courage.

**Key words.** The courage, heroism, adventurousness, "Alpomish", dignity, proverbs, a man of courage, bravery, loyalty, and meanness.

**O**'zbek xalqi qadim-qadimdan mardlik, botirlik, qahramonlik, jasurlikni eng oliy insoniy fazilatlar sifatida ulug'laydi va qadrlaydi. Xalq og'zaki ijodining mardlik haqidagi o'nlab maqolu matallari, "Alpomish", "Rustamxon", "Go'ro'g'li" kabi turkum dostonlaridagi mard, o'z Vatani va yoriga vafodor, sadoqatli Alpomish va Barchinoy, Shiroq va To'maris kabi badiiy timsollar fikrimizning yorqin dalilidir.

Mardlik – bu ezgu tuyg'u, muqaddas fazilat, tabarruk meros. Mardlik – bu inson qalbidagi quyosh, u mardlarga nur sochadi.

Mardlik – bu insonning oliy fazilati bo'lib, unda botirlik, qahramonlik, sadoqat, vafo mujassamlashgandir. Ona vatan uchun, jonajon xalqi uchun mardlik va jasorat ko'rsatib, sidqidildan mehnat qilgan, zarur bo'lib qolganda jonini fido etgan avlod-ajdodlarimizning hayot yo'li yoshlar uchun ibrat maktabidir.

Abu Rayhon Beruniyning ta'kidlashicha, "Mardlik hamma narsadan ustun turib, o'zidan tashqariga ham o'tadi. Odamgarchiligi bor mard kishi o'zidan va o'ziniki ekanligiga, hech kim tortishib o'tirmaydigan narsadan boshqasiga egalik qilmaydi". Shunday ekan, mardlik zaminida shod-xurramlik, xayr-sahovat, iffatlilik, aziyatdan tiyilish xislatlari o'rin

olgan. Mardi-maydon odam ertayu kech dushmanga zarar, do'stga foyda keltiradi. Mard inson hamisha va'dasiga vafodor bo'ladi. Va'daning ustidan chiqmaslik – nomardlik va subutsizlikdir.

Xalqimiz ma'naviyati xazinasida qahramonlik, mardlik tuyg'usi ifodalangan qo'plab rivoyatlar va dostonlar bor. Ularda mehnatkash xalqning qahramonligi, el-yurt farovonligi yo'lidagi mardliklari ko'rsatilgan. Ana shundaylardan biri "Alpomish" dostonidir.

Dostonda yoshlar uchun o'rnak bo'ladigan qahramonlik, mardlik, vatanparvarlik, xalqlarning birodarligi, sevgi va sadoqat, oila mustaqilligi, oila birligi g'oyalari o'z ifodasini topgan.

Doston qahramonlari qayerda bo'lmasinlar Qo'ng'iro't eli, Boysun-Qo'ng'iro't diyori-ning sog'inchi, g'am-tashvishi bilan yashaydilar. Dostondagi Qo'ng'iro't urug'ining umidi va ishonchi bo'lgan Alpomish, uning yori Barchin, singlisi Qaldirg'och, do'sti Qorajonlar-ning mardligi, sadoqati, oliyanoblighi bugungi kunda har bir yigit va qiz uchun axloq-odob-ning bitmas-tuganmas chashmasidir.

Suqrot Hakim: "Go'zal tadbir ishlatib dushmanni do'st etish, nodon va johil odamga ta'lim va tarbiya berib, donolar davrasiga qo'shish, badaxloq fosiqlarni pand, nasihat bilan isloh etib, yaxshilar qatoriga kiritish ham mardlikdir", deb aytadi.

Arastu esa mardlik borasida quyidagi fikrlarni aytib o'tadi: "Qahru g'azab vaqtida o'zini tuta bilish, boshga kulfat tushganda betoqat bo'lmay sabr qilish va savobli, xayrli ishlarga shoshilish – mard kishining ishidir".

Bir donishmanddan: "Mardlik qanday qilib qo'lga kiritiladi? deb so'rabdilar." "Sharmu hayo va bahodirlik bilan", deb javob beribdi donishmand. Yana so'radilar: "Har bir ishning muvaffaqiyati nimada?" "Har bir ishning muvaffaqiyati ikki narsada: biri shijoat, ikkinchisi matonatda," deb javob qilibdi.

Shijoat – botirlik, mardlik bilan ishga kirishish, matonat esa sabr-bardoshlilik, mustahkam va qat'iy irodalilik, degan so'zdir.

Mard so'zi asli forscha bo'lib, "odam, erkak; botir, jasur" degan lug'aviy ma'noga ega. O'zbek tilida "mard" so'zi quyidagi ma'nolarda qo'llanadi:

- 1) qo'rqishni bilmaydigan; qo'rqmas, botir, jasur;
- 2) er kishiga xos ijobiy fazilatlarga ega, aytganini ustidan chiqadigan, tanti, hotam;
- 3) umuman, biror ishni qila oladigan, har qanday ish qo'lidan keladigan kishi.<sup>1</sup>

Mardlik, botirlik, qahramonlik, jasurlik kabi xislatlar sohibi bo'lgan insonlar azal-azaldan mard, alp, botir, pahlavon, bahodir, qahramon, jasur, dovyurak, sheryurak, qo'rqmas deb ataladi. Bu so'zlar o'zaro ma'nodosh bo'lsa-da, yuqorida keltirilganidek, *mard*, *mardlik* so'zlarining ma'no doirasi kengroq. Bizningcha, mardlik so'zida botirlik, qahramonlik, jasurlik, hotamlik, tantilik kabi xislatlarning barchasi mujassam. Shu sababli xalq maqollarida bu so'zlar bir-birining o'rnida qo'llanadi va bu xislatlar birday ulug'lanadi.

O'zbek xalq og'zaki ijodida mard va mardlik haqida maqollar ham juda ko'p va ularning mazmun doirasi ham keng: "Mardga taqlid et", "Mardni xor etma", "Maslahatni marddan so'ra", "Mergan ovda kerak, mardlik – yovda", "Mard bo'lib o'lgan yaxshi", "Mard kuchiga suyanar", "Mardning bevasi bo'l", "Tog' orqin bilan egilmas, mard nomardga teng bo'lmas", "Urishsang mard bilan urish", "Yuz nomarddan yuz qaytar, bir mardni har kim maqtar", "O'ldirsa ham mard o'ldirsin", "Botirga yaroq hojat emas", "Botirning mushti ham yaroq", "Jasur bo'lsang, yov qaytar", "Jasur bo'lsang, yovga chop", "Saxiy molidan kechar, Mard jonidan kechar", "Mardning so'ngagi chirisa ham, nomi chirimas", "Mardning har yerda manzili bor", "Mardlik – yiqitmoq emas, turg'izmoq", "Mard bir so'zida turadi", "Mardning qirq ishidan bir ishi nosoz bo'lsa ham, o'zi xijolat", "Botir yovda bilinar, Chechan – dovda", "Botirga tayoq ham – yarog'" kabi.

<sup>1</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. – T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006. 2-j. 542-b.

Xalq maqollarida bir soʻzlik, yaʼni aytgan soʻzini, vaʼdasini ustidan chiqish mardga xos bir xislat sifatida ulugʻlanishi hamda koʻrk bagʻishlashi uqtililadi: *“Yigit soʻzi bitta”, “Yigit – soʻzidan, qoʻy – boʻgʻzidan”, “Kim mard boʻlsa soʻziga, Oydir elning koʻziga”* kabi. Hatto *“Arslon izidan qaytmas, yigit soʻzidan”, “Mard aytmas, aytsa qaytmas”* maqollarida arslon izidan qaytmagani kabi, mard soʻzidan, yaʼni vaʼdasidan qaytmasligi, albatta, uning ustidan, uddasidan chiqishi, *“Jasur jangdan qoʻrqmaydi, Yovdan sira hurkmaydi”* maqolida mard jangdan, kurashdan qoʻrqmasligi aytiladi.

Mardda oru nomus bor, hatto u soʻzlasa ham ori bilan soʻzlaydi: *“Mard ori bilan soʻzlar”, “Yigitni bir soʻzlik bezar”*.

Xalqimizning dono oʻgʻitlarida mard nomardga zid qoʻyilar ekan, *“Mard yigit qoʻlida ajdar oʻlar, Nomard yigit ipni ajdar biladi”, “Mard erga el muhtoj, Nomardga el na muhtoj”* kabi maqollarda mardlik ulugʻlanib, nomardlik salbiy illat sifatida qoralanadi. Navoiy taʼbi-richa, *“mard – ‘laʼl toj ila”* bong uradigan xoʻroz. Gʻarazgoʻy, vaysaqi, nomard – mokiyon. Xurus maʼlum vaqtda “nido” tortganidek, mard ham oʻz paytida gapini aytadi, zaruriyatga qarab munosabatni bildiradi. Mard – maydon odami, u kurashib yashaydi.”<sup>2</sup>

*“Mard ishi – mard, nomard ishi – dard”, “Mard bilan gurunglashgan mard boʻlar, Nomard bilan xiringlashgan past boʻlar”, “Mard nomardga tiz choʻkmas”* kabi maqollarda esa mard inson yurtga, Vataniga, eliga, oʻz yaqinlariga ezguliklar, nomard esa boshqalarga tashvish keltirishi, hatto, mard bilan suhbatlashgan mard boʻlgani holda, nomard bilan muomala qilgan odam past boʻlishi, yaʼni afsuslanib qolishi, mard nomardga egilib, quluq qilmasligi, oʻz ahdida turishi xalqona qiyoslar bilan uqtililadi.

Qarangki, *“Mardning oʻligi – nomardning tirigi”* maqolida hatto mardning oʻligi nomardning tirigidan-da afzalroq ekanligi aytiladi. Shuningdek, xalqimiz nazdida nomard doʻst-u birodardan mard boʻlsa, dushman afzalroq: *“Nomard doʻstdan mard dushman yaxshi”*.

*“Mardlik sotib olinmas, Nomard tilga olinmas”* maqolida aytilganidek, mardlikni, mard degan ulugʻ nomni bozordan sotib olib boʻlmaydi, kishi mardlik koʻrsatsagina, uning nomi mard deb tilga olinadi va aksincha, nomardni hech kim eslamaydi, tilga olmaydi.

Xalq maqollarida anglashilicha, mardlik mehnatsevarlik, el koriga yarash, yurtdoshlarning ogʻirini yengil qilish kabi ezgu amallar bilan esh, yoʻldosh. *“Mardning ishi mehnatda”, “Mardni mehnat yenga olmas”, “Maʼraka – mardniki, ziyofat – xalqniki”, “Mard yetmaganga yeng boʻlar, boʻlmaganga boʻy boʻlar”*.

*“Mard omadli boʻladi”, “Mard tugʻilgan – mard oʻlar”, “Mard boshini qilich kesmas”, “Mard – mardni deydi”, “Botir boshga balo kelmas”, “Botirdan oʻlim ham qoʻrqadi”, “Ajal botirga botinolmas”, “Ajal botirdan bezadi, qoʻrqoqni ezadi”, “Ajal botirdan qochar, qoʻrqoqning qonin sochar”, “Qoʻrqmasning qoni toʻkilmay”, “Qoʻrqmas qirq yil qirgʻinda yursa ham qilich oʻtmas”* kabi maqollarda mard, dovyurak, jasur inson uncha-munchaga, behudaga oʻlib ketavermasligi, uning omadli boʻlishi, oʻq ham, qilich ham undan chetlab oʻtishi, hatto ajalni, oʻlimni undan qoʻrqishi aytiladi.

Mardlikning yana bir belgisi mashaqqatu zahmatlarni yengish, bunyodkorlik va yaratish: bogʻu rogʻ barpo etish, arigʻu kanal qazib, suv keltirish, choʻlu sahroni obod qilish *“Mard qiyinni yengar, nomard boʻyinni egar”, “Mard tuzar, nomard buzar”, “Mard oʻzar, nomard toʻzar”, “Mard muhtoj beshigi, elga ochiq eshigi”, “Suv keltirar mard kishi, ekin ekar har kishi”, “Botir qiyinni yengar”, “Olgan mard emas, bergan mard”, “Botir ishning boshida, yaxshi kelar qoshiga”* kabi maqollarda oʻz aksini topgan.

Mardning mardligi shundaki, u ishning ogʻirini, mushkilini tanlaydi, nomard esa aksincha. *“Piyozni mard artsin, sabzini – nomard”* maqolida ana shu hol majoziy tashbehlar bilan taʼkidlanadi.

<sup>2</sup> Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Maʼnolar maxzani. – T.: Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2001. 448-b.

Mardning yana bir ibratli xislati shundaki, u yengilsa, biror ishi yurishmasa, omadi kelmasa, buning sababini boshqalardan qidirmaydi, boshqalarni ayblamaydi, balki o'zidan qidiradi: *"Mard o'zidan ko'rar"*, *"O'z aybini bilgan mard"*.

Mard kishi hech xoru zor bo'lmaydi, och, yupun qolmaydi, el hamisha uni e'zozlaydi: *"Mard yigitning labi yog'liq"*, *"Mardning noni butun"*, *"Mardni el sevar"*,

Maqollarda mardlar haqiqiy er yigitlar bo'lib, ular yurtning suyanchi, tayanchi sifatida ulug'lanadi: *"Er yigitning quvvati – el quvvati"*, *"Erluk ko'rsatganni el unutmaz"*, *"Er ko'ragin qalqon qilur, tog'ni ursa talqon qilur"*, *"Er yigit o'zi uchun tug'ilar, eli uchun o'lar"*, *"Boyluk – yurtning ozig'i, Botir – yurtning qozig'i"* (Bu o'rinda "qozig'i" deganda, "tayanchi, suyangan tog'i" ma'nosida).<sup>3</sup>

Bir qator maqollarda mard, mardlik o'lmasligi, tarixga muhrlanishi, hatto mard insonning nomi butun avlodlaridan-avlodlariga o'tib, abadiy yashashi uqtiriladi: *"Yigit borki, yetti pushtigacha nomi qolar"*, *"Botir boshi sabildir"*, *"Mard o'lar, nomi qolar"*, *"Mardning o'zi o'lsa ham, nomi o'lmaydi"* // *"Botir o'lsa ham, botirligi o'lmas"*, *"Botirning jismi o'lsa ham, ismi o'lmas"*, *"Erluk ko'rsatganni el unutmaz"* kabi.

Mard inson kuchliligi bilangina mard emas, balki u axloqi, tantiligi bilan ham boshqalardan ajralib turadi. Hatto, u yomonlikka ezgulik bilan javob beradi: *"Yaxshilikka yaxshilik – har kimning ishidir, Yomonlikka yaxshilik – mard kishining ishidir"*.

Xalq maqollarida hikmatli fikrlar bir voqeani ikkinchisiga qiyoslash asosida ifodalana-di. Yaxshi chopqir otning kuchi, zo'rligi uluqda, karvonda ko'ringani kabi, mardning zo'rli-gi maydonda ko'rinadi: *"Ot kuchini karvonda ko'r, mard kuchini maydonda"*, *"Ot kuchini uluqda sina, mard kuchini maydonda"*, *"Yigitning botirini maydonda sina"*, *"Mard maydon-da bilinar"*, *"Mard maydonda sinaladi"*, *"Oltin o'tda bilinadi, botir – maydonda"* kabi.

Mardning nomi, qilgan ezgu amallari umrbod og'izdan-og'izga, avlod-dan-avlodga o'tib bardavom yashaydi: *"Marddan ot qolar"*, *"Mardlik – mangulik"*, *"Mardning o'zi o'lsa ham nomi qolar"*. Bu maqollar bejiz aytilmagan. Jaloliddin Manguberdi, Mahmud Torobiy kabi xalq qahramonlari nomining hozirga qadar hurmat-ehtiromda, e'zozda ekanligi bu-ning hayotiy isbotidir.

Tahlillardan ko'rinadiki, mardlik so'zining ma'no-mazmunini juda keng. Jasurlik, yurt-parvarlik, va'daga sobitlik, bir so'zlilik, qo'rqmaslik, mehnatsevarlik, fidoiyluk kabi sara ijobiy xislatlarning bari unda mujassamdir. Mardlik ta'rifu tavsif etilgan xalq maqollarida ularning bari ulug'lanishi bilan birgalikda yigitlarni mardlikka chorlov bor. Xulosa shuki, ota-bobolarimiz pandu o'g'itlariga amal qilib, yigitlarimiz mard bo'lishsin. Zero, mardlik kishiga, ayniqsa, yigitlarga husn, ko'rk: *"Mardlik – kishining husni"*, *"Yigitga mardlik ya-rashar"*.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. – T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006. 2-j. 542-bet.
2. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov SH. Ma'nolar maxzani. – T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2001. 448-bet.
3. Mahkamov U. Axloq-odob saboqlari. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademi-yasi. Fan nashriyoti, 1994. 92-bet.
4. To'rayeva O. Odobnoma. – T.: O'qituvchi, 1995. 77-bet.
5. Zunnunov A., To'xliyev B., Ma'sudov X. Pedagogika tarixi. – T.: Sharq, 2002. 6-bet.
6. Zunnunov Sh. Oz-oz o'rganib dono bo'lur. – T.: G'. G'ulom, 1998. 73-bet.

<sup>3</sup> Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma'nolar maxzani. – T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2001. 209-b.

**Salohiddin BABADJANOV,**  
Nizomiy nomidagi TDPU katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

## **PEDAGOGIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING MEDIAKOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOSINI YECHISH YO'LLARI**

### **Annotatsiya**

Maqolada pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining mediakompetentligini rivojlantirish muammosini yechish yo'llari, ta'lim tizimida, ta'limning sifat va samaradorligini oshirish, talabalarining sifatli ta'lim olishi uchun o'quv-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, talabalar axborot-kommunikatsion texnologiyalarini o'zlashtirish, rivojlantirish va takomillashtirish orqali mediakompetentlik layoqatiga asoslangan model hamda media tushunchalar bo'yi-cha klaster vazifalari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar.** Axborotlashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, zamonaviy ta'lim, media manipulyatsiya, internet, mediakompetentlik, mediata'lim, mediatahdid, mediasiyosat, ta'limda axborot texnologiyalari.

В статье рассматриваются пути развития медиакompetентности студентов педагогических высших учебных заведений, освещаются вопросы повышения качества и эффективности учебно-воспитательного процесса, усвоения студентами информационно-коммуникационных технологий, развития и совершенствования их медиакompetентных способностей, обозначены кластерные задачи по медиапонятием.

**Ключевые слова.** Информатизация, информационно-коммуникационные технологии, современное образование, медиаманипуляции, интернет, медиакompetентность, медиаобучение, медиаанализ, медиаполитика, информационные технологии в образовании.

Article examines the ways of development of media competence of students of pedagogical higher educational institutions, highlights the issues of improving the quality and effectiveness of the teaching and upbringing process, the adoption of information and communication technologies by students, development and improvement of their media competence, and cluster tasks on media understanding.

**Key words.** Informatization, information and communication technologies, modern education, media manipulation, Internet, media competence, media education, media analysis, information technology in education.

**B**ugungi texnologiyalar va axborotlashtirish jarayonlarining rivojlanishi davrida yuqori malakali kadrlarni egallash va yollash uchun kompaniyalar o'rtasida raqobat kurashi birmuncha oshdi. Bu nafaqat tijorat tashkilotlariga, balki ilmiy-tadqiqot markazlari, o'quv yurtlariga ham tegishlidir. Shunday ekan, zamonaviy ta'lim sifati to'g'risidagi masala birinchi navbatda hal qilinishi kerak bo'lgan mu-



---

ammo hisoblanadi. Aynan, oliy ta'lim muassasalari bo'lajak mutaxassislarning aniq kasbiy sohasida bilimlarini shakllantiradi.

Ijodiy faoliyatga qodir, rivojlanuvchan ta'limiy-tarbiyaviy jarayonni va shu bilan birga o'zining kasbiy kompetentligi hamda mediakompetentligini boshqara oladigan pedagoglarga jamiyatning barkamol shaxsga bo'lgan talabini qondira oladi. Hozirgi kunda shu qadar katta ahamiyatga ega bo'lgan mediakompetentlikning ma'nosi, uning shakllanganlik darajasi, mezonlari va komponentlari to'g'risida yagona bir ta'rif yo'q. Turli pedagog-olimlar turlicha ta'rif keltiradilar, uning tarkibiy tuzilishiga ham turlicha yondashdilar.

Ta'lim-tarbiya sohasi o'quvchi-yoshlarning ta'limi va ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga ta'sir ko'rsatuvchi informatsiyaviy tahdidlarga, g'oyaviy targ'ibotlarga hamda madaniy ekspansiyalarga juda ham sezgir sohadir. Buning samarali himoyasini tashkil etish esa o'quvchi-yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida eng asosiy omil ekanligini unutmashimiz lozim.<sup>1</sup>

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari muhitiga asoslangan axborotlashtirilgan jamiyatning tarkibiy qismlari – bu media, til hamda madaniyatdir. Aynan, biz yashayotgan dunyoning tili va madaniyatini insondagi mediakompetentlik tashkil etadi. Shuning uchun ham, pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining mediakompetentligini rivojlantirish ta'lim oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni inobatga olgan holda shuni ta'kidlash mumkinki, bizning fikrimizcha, pedagogik oliy ta'lim muassasalari talabalarining mediakompetentligini rivojlantirishning eng qulay usuli bu – “Informatika va axborot texnologiyalari” kursini o'qitish jarayonida axborot texnologiyalari, multimedia-texnologiyalar vositasida rivojlantirishdir. Davlat ta'lim standartlari talabalarning informatika fani bo'yicha kompetentlik darajalarini belgilab beradi, o'quv reja va dasturlar, darsliklar, metodik qo'llanmalarni ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kunda o'quv rejalar ham qayta takomillashtirilib, “Informatika va axborot texnologiyalari” fani “Ta'limda axborot texnologiyalari” deb o'zgartirildi.

Bu kurslar multimedia-texnologiyalardan foydalanish sohasida ta'limni davom ettirish uchun ish metodlari, bilish mustaqilligi, tadqiqotchilik faoliyatiga qiziqish, guruhda ishlash malakalarini rivojlantirish, o'zini o'zi nazorat qilish va mas'uliyatni oshirishga ko'maklashadigan ta'lim muhitini tashkil qilish imkoniyatini beradigan prinsiplar asosiga qurilishi lozim.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun biz o'z tadqiqotlarimizdan kelib chiqib quyidagi “Pedagogik oliy ta'lim muassasalari talabalarning mediakompetentligini rivojlantirishning” modelini taklif etamiz (1-rasm.). Bunda talabalar axborot-kommunikatsion texnologiyalarini o'zlashtirish, rivojlantirish va takomillashtirish orqali mediakompetentlik layoqatiga ega bo'ladi.


Bu modelning maqsadi shundan iboratki, bunda talabalarning “Ta'limda axborot texnologiyalari” kurslari asosida mediakompetentligini rivojlantirishga erishiladi. Model bir qancha vazifalarni o'z ichiga oladi.

---

<sup>1</sup> Rashidov H.F., Maxmudov S.Y. Globallashuv sharoitida yoshlarni mediasavodxonligini oshirish. Respublika ilmiy-amaliy seminari materiallari. – Namangan, 2015. 35-38-b.

Birinchisi, kompetentli yondashuv – bu ta’lim natijasiga urg’u beradigan yondashuvdir. Bunda ta’lim natijasi o’zlashtirgan axborotlar yig’indisi emas, balki kishining turli muammoli vaziyatlarda harakat qilish qobiliyatidan iborat bo’ladi:

Ikkinchisi, tamoyillari: innovatsion, ko’rgazmalilik, tizimlilik, yaxlitlilik, ketma-ketlik tamoyilari.



**1-rasm. “Pedagogik oliy ta’lim muassasalari talabalarning mediakompetentligini rivojlantirish” modeli**

Innovatsion va axborot texnologiyalarini ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq qilishni zamonaviy axborot dunyosining jadal rivojlanishidagi mantiqiy va zaruriy qadam deb xarakterlash mumkin. Media texnologiyalarni (kompyuter IMAC, proyektor, planshet, IP televideniye, 3D printer va h.k.) ta’lim-tarbiya jarayoniga faol kirib kelishi peda-

---

goglar kasbiy faoliyatida o'qitishning innovatsion metodlarini, vositalarini, turlarini, shakllarini, umuman, pedagogik texnologiyalarini zudlik bilan joriy etish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Innovatsion texnologiyalardan foydalanish ta'lim oluvchining o'quv jarayonida mustaqil ishlash, o'z-o'zini tarbiyalash, o'qitish, o'z faolligini oshirish, mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Bundan ko'rinib turibdiki, o'qitishning yangi pedagogik texnologiyalari qatoriga mediatexnologiyalarini kiritish zarurati kundan-kunga oshib bormoqda.<sup>2</sup>

*Ko'rgazmalilik tamoyili:* pedagogik texnologiyalarda keltirilgan materiallarning hodisa va jarayonlar rivojining ichki va tashqi mantiqiyligiga asoslangan bo'lishi, talabalarda to'g'ri tasavvur va tushunchalarni shakllantirishga yordam beruvchi zarur suratlar, sxemalar, chizmalar kabi ko'rgazmali illyustratsiyalarning bo'lishi, bezaklar o'quvchi diqqatini o'ziga tortadigan bo'lishi va o'quvchining o'zlashtirishiga yordam berishi, ranglarning o'z joyida va zaruriy minimal me'yorda ishlatilishi. Media taqdimoti axborotlarni qiziqqan auditoriyaga yetkazishning bir usuli hisoblanadi. Agar tomoshabin (talaba) hech qanday axborotni olishga qiziqmasa, multimedia vositalari (audio, video, grafikalar, animatsiya va interaktiv elementlar) uning e'tiborini jalb qilishigizga yordam beradi.

*Tizimlilik, yaxlitlilik tamoyili:* ilmiy dalillar, farazlar, nazariyalar, ta'riflar, ma'lum mantiqiy tizimda izchil bayon qilinishi. Ushbu funktsiya o'quv predmeti mantiqidan kelib chiqqan holda o'quv materiallarining tizimli, izchil tarzda ifodalanishini ta'minlaydi.

*Ketma-ketlik tamoyili:* o'qitish ba'zan faktlarni kuzatishdan boshlanishi, keyin esa, oddiylikdan murakkablikka, aniqlikdan noaniqlikga o'tishi, yoki noaniq tushunchalardan muayyan faktlarga o'tishi tarzida amalga oshirilishini, aniq fikrni erkin ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'langan tarmoqlarini o'rgatadi.

Uchinchi "Informatika va AT" kurslari asosida va "Multimedia texnologiyalari" maxsus kursi asosida shakllantiruvchi vazifalar hisoblanadi:


"Ta'limda axborot texnologiyalari" kurslari asosida talabalar axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) qo'llash tamoyillarini ta'lim oluvchilarning bilim darajasini belgilaydigan o'quv dasturlari va baholashga qaratilgan tizimlarga joriy etish orqali o'quv dasturining alohida mavzulari doirasida talab etiladigan va ta'lim natijalari (ta'lim maqsadlari)ga erishish uchun qanday AKT vositalari va ulardan foydalanish ko'nikmalari zarurligini aniqlay olishi va ularni tegishli dasturlarga kiritish; keng tarqalgan AKT texnik vositalari, matnlarni kiritish, ularni tahrirlash, formatlash va chop etish uchun mo'ljallangan matn muharririning bazaviy imkoniyatlarini bilishi va ulardan foydalanishni amalda ko'rsatib bera olishi; faoliyat doirasiga taalluqli va dars berayotgan fani bo'yicha ta'limiy dasturlar va trening-texnik vositalarni bilishi hamda ulardan samarali foydalana olishi; ta'lim jarayoni boshqaruvida qo'llaniladigan dasturlardan foydalanishi, jumladan, ta'lim oluvchilarning davomati, joriy, oraliq va yakuniy baholash natijalarni kiritish, saqlash va qayta ishlash hamda tegishli hisobotlarni tayyorlash; mustaqil ta'lim jarayonini tashkil etishda AKTni qo'llash mumkin bo'lgan holat va sharoitlarni aniqlash hamda uni baholashda AKT vositalarini qo'llash bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi; kasbiy faoliyat va meh-

---

<sup>2</sup> Inoyatov U.I. Boshlang'ich ta'limga yangicha yondashuv – globallashuv jarayonlarining jadallashishi davrida eng asosiy talabdir // Boshlang'ich ta'lim va jismoniy madaniyat yo'nalishida sifat va samaradorlikni oshirish: muammo va yechimlar (xalqaro ilmiy konferensiya). – T., 2017. 4-b.

nat unumdorligini oshirish, innovatsiyalarni pedagog amaliyotga joriy etishda AKT vositalaridan foydalanish; axborot va axborotlar ustida bajariladigan amallarni bilishi va bajara olish, axborot o'lchov birliklarini, hajmini va uzatish tezligini bilish. Sanoq sistemalarini bilish, sanoq sistemasida amallar bajara olish, sonlarni bir sanoq sistemasidan boshqasiga o'tkaza olish. Axborotlarning kompyuterda tasvirlanishi, axborotlarni tahlil qila olish. Axborot texnologiyalari, ta'minoti, axborot uzatish usullari va vositalarini bilish, mavjud media manbalaridan (internet, televizor, radio, audio-video yozuvlar, telefon, kompyuter, bosma nashrlar, elektron pochta va boshq.) kerakli ma'lumotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, uzatish, saqlash, xavfsizligini ta'minlay olish. Axborot tizimlari, ularning turlari, vazifalari haqida bilimga ega bo'lish va ulardan foydalana olish. Axborot tizimlaridagi resurslar, ma'lumotlar va tizim orqali taqdim etiladigan interaktiv xizmatlardan foydalana olish. Avtomatlashtirilgan ish joylari, ularning turi, tashkiliy va funksional tuzilishi, xususiyatlari haqida tushunchaga ega bo'lish; AKT vositalaridan foydalanishda axborot xavfsizligiga rioya qilish kabi bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.

Belgilangan vazifalarni to'liq amalda bajarish orqali quyidagi modelda o'z oldimizga qo'yilgan natijaga erishamiz.



2-rasm. Media tushunchalar bo'yicha klaster

“Multimedia texnologiyalari” maxsus kursi asosida – zamonaviy multimedia dasturlarini o'rnatish va standart dasturlar bilan ishlay olish, zamonaviy multimedia dasturlari yoki standart dasturlar asosida grafik animatsiyalar hosil qila olish. Microsoft Office, PowerPoint dasturi yordamida animatsiya va rasm matnlar o'rnatish. MS Office, PowerPoint dasturi yordamida uch o'lchovli (3D) rasmlar yaratishga doir ko'nik-

---

malarga ega bo'lishi, shuningdek, ta'lim jarayonida ham axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasi bo'lmish media (bosma nashr, matbuot, televideniye, kinematograf, radio, ovoz yozish va internet tizimi) dan foydalanish talaba-yoshlarni bilimli, tanqidiy tafakkuri rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan va faoliyat yuritadigan, jamiyat hayotida faol ishtirok etadigan shaxs bo'lib yetishishi uchun mediaaxborotlardan faol va to'g'ri foydalanish malakalarga ega bo'lishlari ko'zda tutilgan.

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining bunday tez sur'atlarda taraqqiy etishi insoniyat hayotini to'xtovsiz axborotlar oqimi bilan qamrab olinishiga, dunyoda global axborot tizimini vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Bu esa, o'z navbatida media tushunchasi negizida mediata'limni shakllanishiga asos bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirilgan vazifalarni amalga oshirish bo'lg'usi o'qituvchining xohishiga, xarakteriga va uning kasbiy tayyorgarligiga ham bog'liqdir. Agar inson o'zgarishlardan cho'chimasa, yangi sharoitlarda dadil qadam bilan olg'a intilsa, u qo'yilgan maqsadga qisqa muddatlarda erishadi.

Navqiron avlod har bir mamlakatning ertangi kuni, jamiyatda o'zgarishlarga sabab bo'ladigan, bunyodkorlik g'oyalari hayotga tatbiq etuvchi, bir so'z bilan aytganda, kelajak bunyodkorlardir. Shu bois yoshlar masalasi barcha davrlarda eng dolzarb bo'lib kelgan. Albatta, yoshlarni ijtimoiy, ma'naviy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, huquq hamda majburiyatlarini to'la-to'kis ro'yobga chiqarishga ko'maklashish, jamiyatda munosib o'rin egallashlariga qulay sharoit yaratish orqali ularni yurt taqdiri va kelajagini hal qiluvchi katta kuchga aylantirish mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. *Inoyatov U.I. Boshlang'ich ta'limga yangicha yondashuv – globallashuv jarayonlarining jadallashishi davrida eng asosiy talabdir // Boshlang'ich ta'lim va jismoniy madaniyat yo'nalishida sifat va samaradorlikni oshirish: muammo va yechimlar (xalqaro ilmiy konferensiya) – T., 2017. 4-b.*

2. *Rashidov X.F., Maxmudov S.Y. Globallashuv sharoitida yoshlarni mediasavodxonligini oshirish. Respublika ilmiy-amaliy seminari materiallari. – Namangan, 2015. 35-38-b.*

**Дилором ШАРИПОВА,**

преподаватель Ташкентского Государственного педагогического университета им. Низами. доктор педагогических наук, профессор.

**Дилобар ХОЛИКОВА,**

преподаватель Ферганского Государственного университета

## ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАБОТЫ ПО ТЕХНОЛОГИИ ЗДОРОВЬЕСБЕРЕЖЕНИЯ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

### Аннотация

Maqolada bugungi kun bolalarining sog'ligini muhofaza qilish, ularda hayotiy kompetensiyalar va o'z atrofidagilar sog'lig'iga e'tiborli munosabatda bo'lishini shakllantirish masalalarining dolzarbligi ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar.** Sog'liqni tejash, kompetensiya, ta'lim, sog'liqni muhofaza qilish, texnologiya, pedagog, shakllantirmoq, boshlang'ich ta'lim, barkamol avlod.

В статье анализируется состояние здоровья современных детей, актуализируется проблема формирования их жизненных компетенций и ценностного отношения к собственному здоровью и здоровью окружающих людей.

**Ключевые слова.** Здоровьесбережение, компетенция, обучение, охрана здоровья, технология, педагог, формирование, начальное обучение, гармоничное поколение.

Article considered the issues of state of health of modern children, actualized the problem of formation of their vital competences and the value attitude to own health and health of surrounding people.

**Key words.** Health saving, competence, technology, teacher, formation, primary school, harmonious generation.

**З**доровье детей – это понятие, в которое заложено наше будущее. Хорошее здоровье – основное условие для выполнения человеком его биологических и социальных функций, фундамент самореализации личности.

С раннего детства необходимо воспитывать у детей уважительное отношение к своему здоровью. Установлено, что в течение последних лет отмечается тенденция к нарушению состояния здоровья детей. Дети, поступающие в первый класс, уже в ряде случаев имеют отклонения в физическом здоровье, не выполняют всех требований здорового образа жизни, отмечающихся случаем проявлений так называемых “школьных болезней” – нарушений зрения, осанки, проявления неврозов и т.д.

В Узбекистане с первых дней приобретения независимости охрана здоровья подрастающего поколения возведена в ранг государственной социальной поли-

---

тики, о чём убедительно свидетельствуют такие официальные документы, как “Закон об образовании”, “Национальная модель по подготовке кадров”, “Государственные образовательные стандарты” и другие, нацеливающие органы здравоохранения и образования на осуществление определённых мер по укреплению здоровья подрастающего поколения.

Вопросы сохранения здоровья подрастающего поколения были предметом пристального внимания восточных мыслителей и народной педагогики.

Здоровье, физическое совершенство детей, способных к творческому труду и обладающих сильной волей, терпением, выносливостью, стойкостью, в узбекской народной педагогике рассматривается как важный составной компонент воспитания, что, несомненно, нацелено на детские игры, способствующие физическому развитию, укреплению и сохранению здоровья, повышающие умственную и физическую работоспособность ребёнка.

Анализ педагогического опыта, позволяет выделить следующие критерии здоровьесбережения: соблюдение санитарно-гигиенических норм, проведение физкультурных минуток, динамических пауз, своевременная смена видов учебной деятельности, правильная посадка учащихся за столом, благоприятный психологический климат.

В настоящее время в каждой школе необходимо разработать и реализовать воспитательные программы, включающие вопросы здоровьесбережения, охватывающие все ступени обучения, в том числе и начальные классы.

При приёме детей в первый класс перед учителем встаёт проблема: как обучать детей, не нанося вреда их здоровью? Считается, что одним из секретов хорошего самочувствия обучающихся и их высокой активности в учебном процессе является применение игровых оздоровительных технологий обучения.

Современная педагогика располагает такими технологиями как, технологии развивающего обучения (ТРО), строящиеся на плодотворных идеях Л.С.Выготского, в частности – его гипотезе о том, что знания являются не конечной целью обучения, а лишь средством развития учащихся. Классификационные характеристики этой технологии, в определённой части отвечают принципам здоровьесберегающей педагогики. Ориентация на “зону ближайшего развития” ученика при построении его индивидуальной образовательной программы позволяет в максимальной степени учесть его способности, возможности, темпы развития, влияние окружающей среды и условий на состояние здоровья, физическое, психическое, духовное здоровье подрастающего поколения.

Учителя должны строить свои уроки с учётом индивидуальных возможностей и способностей учащегося, используя трехуровневые задания, в том числе и контрольные работы. И у преподавателя появится возможность дифференцированно помогать слабому ученику и уделять внимание сильному, более эффективно работать с трудными детьми. Сильные учащиеся активно реализуют своё стремление быстрее продвигаться вперёд и вглубь, слабые – меньше ощущают своё отставание от сильных, что позволяет сохранить их физическое и психическое здоровье.

К числу здоровьесберегающих технологий следует отнести и “технология раскрепощённого развития детей”.

Отличительные особенности этой технологии, которую начали активно применять в педпрактике, заключается в следующем:

1) для разминок и упражнений на мышечно-телесную и зрительную координацию, а также на развитие внимания и быстроту реакции на уроке используются схемы зрительных траекторий, расположенные на потолке, и специальные, “бегущие огоньки”. Упражнения сочетают в себе движения глазами, головой и туловищем, выполняются в позе свободного стояния и базируются на зрительно-поисковых стимулах, которые несут в себе мотивационно активизирующий заряд для всего организма. Результатами таких упражнений являются: развития чувства общей и зрительной координации и их синхронизация; развитие зрительно-моторной реакции, в частности скорости ориентации в пространстве. Эти упражнения благоприятно влияют на деятельность зрительного анализатора и предупреждают развитие зрительного утомления.

2) отличительная особенность уроков состоит в том, что они проводятся в режиме движения наглядного учебного материала, постоянного поиска и выполнения заданий, активизирующих детей. Для этого используют подвижные “сенсорные кресты”, карточки с заданиями и возможными вариантами ответов, которые могут по воле учителя оказаться в любой точке класса и которые дети должны найти и использовать в своей работе, а также специальные “держалки”, позволяющие переключать зрение детей с ближних целей на дальние, что имеет свой здоровьесберегающий эффект.

3) в процессе овладения детьми письмом применяются специальные художественно-образные каллиграфические прописи перьевой ручкой, формирующие утончённое художественное чувство и развивающие психомоторную систему “глаз – рука”.<sup>1</sup>

Обязательным условием в здоровьесберегающей технологии является детское хоровое пение, основанное на народных песнях и классической музыке, способствующие эмоциональному подъёму и улучшению психического здоровья.

Одно из требований технологии – условие, отличающее все здоровьесберегающие технологии, – регулярное проведение экспресс диагностики состояния здоровья детей и отчёт перед родителями о полученных результатах.

На первом родительском собрании следует провести анкетирование о состоянии здоровья детей с целью индивидуального подхода к ученикам в процессе обучения. При этом родителям объясняется, что их неоправданное ожидание больших успехов ребёнка приводят к нервным потрясениям, стрессам. А это приводит к тому, что у ребёнка пропадает желание учиться.

Большую часть своего пребывания в школе ученик проводит на уроке. Начало школьного обучения связано не только с изменениями уклада жизни детей, но и с резким увеличением нагрузок на деятельность отдельных органов ребёнка. Из всех нагрузок, с которыми ребёнок встречается в школе, наиболее утомительной является нагрузка, связанная с необходимостью поддержания рабочей позы, в связи с чем не следует требовать от учащихся сохранения неподвижного положения тела в течение урока. Лучшими методами сохранения работоспособности на уроках является смена форм учебной деятельности обучающихся, направление их на активные формы обучения.

На уроках в начальной школе широко используют весёлые физкультминутки в стихотворной форме, когда двигательные упражнения сопровождаются хорovým произношением четверостиший. Физкультурные минутки применяются на

<sup>1</sup> Рудакова О.Н., Как сохранить здоровье школьников. – Волгоград: Учитель. 2008.



---

разных этапах урока для тренировки и разминки определённых частей тела и органов.

Большую значимость в плане здоровьесбережения отводится созданию благоприятного психологического климата на уроке, что позволяет решить сразу несколько проблем. С одной стороны, снимает напряжение, утомление учащихся, а с другой, появляется стимул для развития творческих возможностей ребёнка. Создание доброжелательной обстановки на уроке, внимание к каждому высказанному ребёнком мнению, тактичное исправление ошибок, поощрение активности на уроке, уместная шутка, юмор, позволяют “зажечь” огонёк в глазах каждого ученика, а если урок проходит без стресса, то он обеспечивает хорошее усвоение учебного материала, что в свою очередь способствует повышению качества образования.

Использование на уроках здоровьесберегающих информационно-коммуникационных технологий вносит в урок элемент оживления, побуждает к обсуждению, к активной мыслительной деятельности. Применение различных технологий способствует обеспечению наиболее комфортных условий каждому ученику, позволяет учесть индивидуальные особенности каждого ребёнка.

Если мы научим детей с самого раннего возраста ценить, беречь и укреплять своё здоровье, если мы будем личным примером демонстрировать здоровый образ жизни, то только в этом случае можно надеяться, что будущее поколение будет более здоровым и развитым не только личностно, интеллектуально, духовно, но и физически.

Изложенное выше свидетельствует о том, что внедрение в обучение здоровьесберегающей технологии ведет к снижению показателей заболеваемости детей, улучшению психологического климата в детских и педагогических коллективах, активно приобщает родителей школьников к работе по укреплению их здоровья. Учителям, освоившим эти технологии, становится и легче и интереснее работать, поскольку исчезает проблема жёсткой учебной дисциплины и происходит раскрепощение учителя, открывается простор для его педагогического творчества.

### **Использованная литература:**

1. Каримов И.А. *Гармонично развитое поколение – основа прогресса Узбекистана.* – Т.: Шарк, 1997.
2. Закон Республики Узбекистан “Об образовании”. “Гармонично развитое поколение – основа прогресса Узбекистана”. – Т.: Шарк. 1997.
3. Рудакова О.Н. *Как сохранить здоровье школьников.* – Волгоград: Учитель. 2008.
4. Шарипова Д.Д., Мусурманова А. *Пути оптимизации здоровья и физического развития обучающихся в контексте формирования здорового образа жизни в общеобразовательных учреждениях.* – Т.: Фан ва технология, 2014, – С. 4-5.

**Улугбек ЖАББОРОВ,**  
Докторант Ташкентского Государственного  
педагогического университета им. Низами

## НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИНОЯЗЫЧНОЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

### Аннотация

Maqolada ilg'or jahon tajribasini va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish asosida pedagogik kadrlar tayyorlashni takomillashtirish zarurati asoslanadi. Maqolada Angliya ta'lim tizimining tajribasi zamonaviy ingliz tili o'qituvchisining kasbiy chet til kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida o'rganishning ba'zi jihatlari aniqlandi.

**Kalit so'zlar.** Chet til kompetensiyasi, kasbiy kompetensiya tarkibiy qismlari, kasbiy kompetensiya, mentorlik, tyutorlik, pedagogik deontologiya.

В статье обосновывается необходимость совершенствования подготовки педагогических кадров на основе внедрения передового мирового опыта и современных педагогических технологий. Раскрываются некоторые аспекты изучения опыта системы образования Англии как важной составляющей профессиональной иноязычной компетенции современного учителя английского языка.

**Ключевые слова.** Иноязычная компетенция, профессиональная компетентность, компоненты профессиональной компетенции, менторство, тьюторство, педагогическая деонтология.

Article substantiates the need to improve the training of teachers based on the introduction of advanced world experience and modern pedagogical technologies. Also revealed some aspects of studying the experience of the English educational system as an important component of the professional foreign-language competence of the modern English teacher.

**Key words.** Foreign language competence, components of professional competence, professional competence, mentoring, tutoring, pedagogical deontology.

**И**нтеграция Узбекистана в мировое образовательное пространство, происходящие изменения в области идеологии, политики, экономики, культуры, изменение отношений между нашей страной и зарубежными государствами, появление новых целей общения способствовали огромной востребованности владения иностранными языками. Рассматривая иностранные языки как средство реального общения с людьми из других стран, можно утверждать, что овладение ими является сегодня одним из важнейших орудий производства в самых разных сферах человеческой деятельности.

---

В постановлении Первого Президента Узбекистана И. А.Каримова “О мерах по дальнейшему совершенствованию системы изучения иностранных языков” обучение иностранным языкам причисляется к ведущим факторам, в значительной мере определяющим успех межкультурных контактов в деловой, научной, профессиональной, культурной и других сферах [1]. Данный документ указывает на возрастающее значение предметов-языков в становлении самосознания и самоидентичности молодого поколения, а, значит, и эффективности методик и технологий, применяемых в учебном процессе школы и вуза.

Как следствие данного факта, в теории и практике преподавания иностранных языков возникают новые проблемы, решение которых связано с пересмотром как общей методологии, так и конкретных методов и приемов обучения иностранным языкам. В новых условиях, при новой постановке проблемы преподавания иностранных языков возникают сложности различия между языками и культурами, поэтому радикальное повышение уровня обучения общению между людьми разных национальностей может быть достигнуто только при понимании и реальном учете культурного фактора [2,3].

Реальность сегодняшнего дня показывает, что общие указания на необходимость развития лингвострановедческой, страноведческой или социокультурной компетенции остаются в большинстве случаев лишь декларативными требованиями на ступени высшего образования, они не отражены в программах курсов по иностранному языку. Мощный потенциал иноязычной социокультурной компетенции в воспитании будущего учителя, развитии его гуманистической направленности, в общем процессе подготовки педагога, отвечающего требованиям демократического общества, остается фактически невостребованным.

В настоящее время специалисты различных отраслей имеют возможность установления деловых контактов с коллегами из других стран, что касается и профессиональной деятельности педагогов. Это позволяет выйти на новый профессиональный уровень, развить свои идеи на основе мирового опыта, а также представить свои идеи на зарубежном рынке. В условиях развития международных отношений, возрастающей потребности в межнациональных контактах и партнерстве в науке и на производстве повышается значимость иноязычной коммуникативной компетенции специалиста.

Современная экономическая и политическая, социокультурная ситуация требует от него знания минимум одного иностранного языка. Следовательно, неотъемлемой частью высшего профессионального образования является развитие и совершенствование вторичной языковой личности студента, важнейшей составной частью которой является формирование его иноязычной компетентности по основному профилю деятельности.

В связи с этим в настоящее время повышается роль изучения английского языка для специальных целей, т.е. обучение языку становится все более профессионально-ориентированным. Профессионально-ориентированное обучение разграничивают по таким параметрам, как ситуации и темы общения, коммуникативные задачи по видам речевой деятельности, актуальные виды дискурса и др.

Формирование иноязычной профессионально коммуникативной компетентности направлено на освоение обучающимися следующих аспектов взаимодействия: коммуникативными жанрами, которые являются профессионально опре-

деляющими для данной специальности. Это умение считается основополагающим, так как каждый жанр имеет свою специфику и композиционное строение согласно цели коммуникации (в педагогике – лексикон обучения, объяснения, рассказа, воспитания, обмена опытом, анализа, оценивания, вопросительные речевые формулы, методическая и научная терминология, знание педагогического этикета и др.); вариативностью компонентного состава профессиональной иноязычной компетенции, что связано с особенностью специализации и сложностью, многоплановостью процесса общения; умением употреблять термины в деловом контексте; этикетными речевыми формулами в рамках деловых контактов, которые являются неотъемлемой частью профессионального речевого общения; основами риторических знаний и умений; правилами учета экстралингвистических (ментальных) факторов, которые служат основой и важным условием профессиональной коммуникативной ситуации, успешного планирования и совершения коммуникативных действий; закономерностями определения статусно-ролевых характеристик партнера (лингво - психологическая компетентность).

Таким образом, иноязычная компетентность в составе профессиональной компетенции представляет собой личностную способность специалиста решать определенный класс профессиональных задач, используя знания иностранного языка в своей профессиональной деятельности.

В сферу профессиональной иноязычной компетенции современного учителя английского языка входят знания о научно - педагогическом наследии и опыте Англии, об особенностях современной системы образования и педагогической деонтологии в этой стране, педагогической терминологии.

Особое значение имеет изучение системы непрерывного педагогического образования Англии. Данная система складывалась под воздействием разнообразных факторов, сформировавшихся под влиянием исторических традиций, философских концепций, потребностей экономики, уровнем производительных сил страны, состоянием образования.

Отличительной особенностью системы подготовки учителей в Великобритании является наличие большого количества образовательных маршрутов для получения профессии педагога. В настоящее время существует семь основных программ университетских квалификаций для получения высшего педагогического образования.

Первый уровень непрерывного педагогического образования нацелен на получение степени Бакалавра педагогики (*Bachelor of Education*) или Бакалавра гуманитарных наук (*Bachelor of Arts*) или Бакалавра естественных наук (*Bachelor of Science*) со статусом квалифицированного учителя (*Qualified Teacher Status*).

С 1990-х гг., в целях расширения доступа к педагогическому образованию и преодоления и в связи со значительным дефицитом учителей на рынке труда были разработаны и внедрены альтернативные образовательные программы, нацеленные на подготовку квалифицированных учителей.

Второй уровень непрерывного педагогического образования в Великобритании включает *теоретическую и практическую подготовку стажера в процессе «пробного года»*, период адаптации выпускника университета или колледжа к условиям школы.

---

Одновременно именно в 1990-е годы были сделаны эффективные попытки разрешения данных проблем в педагогической практике.

Этот период характеризовался коренными изменениями в системе педагогической практики будущих учителей – ей стала посвящаться значительная часть курса обучения (около 52 % учебного времени). Стажировка в британских педагогических исследованиях представляет собой процесс, в результате которого выпускники педагогических учебных заведений получают развивающую поддержку для того, чтобы продемонстрировать свои умения и способности в период первого года преподавания. Выпускник вуза в этот период называется стажером.

Третий уровень непрерывного педагогического образования включает прохождение краткосрочных и долгосрочных курсов при институтах педагогики высших учебных заведений (например, при Институте педагогики Лондонского университета), при независимых консультативных группах, при Департаменте образования и науки, при учительских центрах, при местных органах образования, при школах.

Наряду с теоретической подготовкой, студенты в колледжах проходят также и педагогическую практику.

Во время прохождения студентами педагогической практики большое значение имеет деятельность менторов и тьюторов. Особенность менторства состоит в том, что им может быть не только преподаватель вуза, обучивший студентов-будущих педагогов, не только учитель школы или методист, но и представитель администрации, член педагогического коллектива, родитель и др.

Данная форма поддержки молодых учителей используется в качестве зарубежного опыта в нашей системе образования, но находится в начальной стадии, применяется не особенно широко.

Ментор (mentor) – это человек, исполняющий роль консультанта, помощника. Его задача - помогать проекту своими знаниями и опытом. В педагогике ментор – это педагог-наставник, воспитатель, назидатель. Ментор передает накопленный опыт, знания, модели поведения, корректируя их с помощью обратной связи, воспитывает эмоционально-волевую регуляцию, ответственность за свое становление, самостоятельность. Особенно важным для ментора является раскрытие потенциала своего подопечного.

В Англии ментором является учитель, специально выбранный из среды педагогов школы, на базе которой проводится педагогическая практика. В задачи ментора входит методическая помощь студенту-практиканту при подготовке и проведении уроков, их планировании, а также содействие при решении проблем, возникших у студента в ходе педагогической практики. Одновременно ментор оценивает степень эффективности работы практиканта в роли учителя.

Выполнение названных задач и является основным содержанием деятельности ментора. Его действия всегда согласованы с руководством университета или колледжа, где студент проходит теоретический курс педагогической науки.

На ментора возложены следующие обязанности: консультирование студента-практиканта по вопросам методики и технологиям преподавания конкретного предмета, оказание помощи студенту по освоению особенностей психологии учащихся и соотнесении с этим разработок планов уроков и проведения их. Он дает студенту рекомендации по управлению классом, составлению расписания,

оцениванию знаний учащихся, наблюдает за профессиональным ростом студента-практиканта, за его продвижением в знании предмета, компетентности в преподавании, в применении знаний, в работе по оценке деятельности учеников и отчётности.

Ментор является помощником в разрешении трудных для студентов проблем, посредник между школой и колледжем, в котором обучается студент.

Ментор также является исследователем. Его исследовательская работа направлена на саморазвитие, самообразование, самосовершенствование, являющиеся ценностными характеристиками личности ментора, и побуждающие студента к исследованию своей деятельности и деятельности учителей.

Несмотря на то, что менторство является формой общения педагога и обучающегося, свойственного западноевропейской, в том числе английской системе образования, до сих пор отмечаются и существуют некоторые ее недостатки, а именно: отсутствие чёткой государственной программы по организации педагогической практики в школах; слабость теоретической подготовки самих менторов, недостаточность учебно-методической литературы для учителей, студентов, менторской деятельности.

Работой студента также руководит тьютор, который составляет задания для студента, обеспечивает его необходимой информацией, осуществляет контроль над его деятельностью и оценивает её результаты.

Тьюторская система обучения, основанная на строго регламентированных занятиях с документальным отражением, имеет сложную, но четкую структуру, включающую три элемента: руководство самоопределением учащихся в образовательном пространстве, моральное наставничество и сопровождение, собственно тьюторство [4, с.6].

Тьютор (в переводе с англ.) – педагог-наставник, опекун, попечитель. Это своего рода посредник между учеником и учителем, анализирующий и направляющий образовательный путь своего подопечного. Принципы тьюторской деятельности - свобода, индивидуализация, активность, самостоятельность, сознательность.

Ведущий принцип тьюторской деятельности – принцип индивидуализации образования, а тьюторское сопровождение – это педагогическая деятельность по индивидуализации образования, когда за учащимися остается право на выстраивание собственного содержания образования, собственной образовательной программы. Индивидуализация образования под руководством тьютора направлена на выявление и развитие образовательных мотивов и интересов учащегося, поиск образовательных ресурсов для создания индивидуальной образовательной программы, формирование учебного и образовательного самоанализа, самооценки (рефлексии) учащегося.

Принцип индивидуализации реализуется тьютором путем: оказания помощи в построении и реализации индивидуальной образовательной программы тьюторанта; контроля за степенью осмысления учебных заданий, выполняемых тьюторантом; предоставления тьюторантам возможности апробирования, конструирования и реконструирования учебных форм и способов освоения необходимой информации и видов деятельности; создания жизненных и учебных ситуаций, способствующих проявлению образовательных целей и мотивов обучающихся в практической деятельности, через реальные действия.

---

В целостном виде деятельность тьютора заключается в том, что он: проектирует события, направленные на выявление, поддержку и развитие образовательных интересов учащихся; вовлекает учащихся в проектную, игровую, творческую деятельность в контексте задач образования; помогает в реализации образовательной инициативы; оказывает помощь в оформлении, презентации и оценивании учащимися своих учебных достижений; проводит мониторинг образовательной деятельности тьюторантов и вооружает их умениями объективной самооценки своих успехов и недостатков; создает условия для органичного сочетания индивидуальной и групповой самоподготовки учащихся; обеспечивает условия для осуществления обратной связи с другими субъектами образовательного процесса; проводит разные формы консультирования, направляет процесс самоопределения обучающегося в вопросе получения дальнейшего образования.

Как показали исследования последних лет, направленные на выявление специфического воздействия тьюторства на процесс и результаты образования, данный вид педагогической поддержки успешно коррелирует с основными запросами современной образовательной системы. Тьюторство формирует у учащихся и студентов универсальные способы деятельности, способы решения проблем в различных сферах, развивает межпредметное, системное мышление, способствует наиболее полному осознанию и осуществлению связи между содержанием учебного процесса и профессиональной деятельностью, что в совокупности положительно влияет на качество подготовки будущих специалистов.

#### **Использованная литература:**

1. *Постановление Президента Республики Узбекистан И. А.Каримова “О мерах по дальнейшему совершенствованию системы изучения иностранных языков” ПП-1875 от 10 декабря 2012.*
2. *Саттарова З.Б. Иностраный язык как средство развития профессионализма у студентов. //В сб. материалов научно-практ. конф. “Образование и воспитание молодежи – фундамент благополучия и процветания жизни”. Ч.Х. – Т., 2013. – С. 32-41.*
3. *Сафонова В.В. Коммуникативная компетенция: современные подходы к многоуровневому описанию в методических целях. – М.: НИЦ “Еврошкола”, 2004.*
4. *Белицкая Е. В. Тьюторская система обучения в современном образовании Англии. Автореф. дисс. канд. пед. наук. — Волгоград, 2012. – С.13.*
5. *The Bologna Process 2020 - The European Higher Education Area in the new decade- Communiqué of the Conference of European Ministers Responsible for Higher Education, Leuven and Louvain-la-Neuve, 28-29 April 2009.*
6. *Nixon J., Martin J., Mc Keown P., Ranson S. Towards a learning profession: changing codes of occupational practice within the new management of education. // British Journal of Sociology of Education, 18, 2005. – P. 5-28.*

**Bosh muharrir:**

Mahmudov Sarvar Yuldashevich

**Bosh muharrir o'rinbosari v.v.b:**

Umaraliyeva Muhayyo Abdugaparovna

**Mas'ul kotib:**

Tashxanov Nurbek Aybekovich

**Badiiy muharrir:**

Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

**Tahrir hay'ati:**

Ulug'bek INOYATOV, Sobitxon TURG'UNOV, Dilshod KENJAYEV, Risboy JO'RAYEV,  
Hikmatilla RASHIDOV, G'ayrat SHOUMAROV, Ma'rufjon VAXOBOV, Sharifjon ERGASHEV,  
Fayzulla AHMEDOV, Shavkat SHARIPOV, Maqsudjon YULDASHEV, Islom ZOKIROV,  
Alisher ZOKIROV, Hikmatilla DAMINOV

**Jamoatchilik kengashi:**

Nargiz RAXMANKULOVA, Qudratjon INOQOV, Bahodir SHAMSIYEV,  
Norbek TAYLAQOV, Muhammadjon QURONOV

Tahririyat manzili: 100159. Toshkent shahri, Mustaqillik maydoni, 5-uy.

E-mail: xalq\_talimi@xtv.uz Tel: (0 371) 239-27-14, Faks: 239-27-11

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e'lon qilingan maqolalardan olingan matnlar "Xalq ta'limi" ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko'rsatilishi shart.

Jurnal OAKning 2015-yil 20-martdagi 214/2-sonli qarori bilan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"MAKTUB PRINT" MCHJ va "ECO TEXTILE PRODUCT" MCHJ  
bosmaxonalari hamkorligida chop etildi.

Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko'chasi, 30-uy

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, TAKD, 11/10

Bosishga ruxsat etildi: 12.12.2017-y. Qog'oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.

Shartli b.t. 12.0. Adadi 18 954 nusxa. - buyurtma.

Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas'ul – Egamqulov Elmurod Qosimovich

© "Xalq ta'limi" jurnali, 2017.